

FAYZULLA BOYNAZAROV

JAHON ADABIYOTI



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA
MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

3. q

FAYZULLA BOYNAZAROV

JAHON ADABIYOTI

*O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi
tomonidan oliy o'quv yurtlari uchun o'quv qo'llanma sifatida tavsiya
etilgan*

NAMANGAN DAVLAT
UNIVERSITETI
Axborot-resurs markazi

«MUSIQA» NASHRIYOTI
TOSHKENT
2006

10569

83.3(0)

B 81

Boynazarov, Fayzulla.

Jahon adabiyoti: Oliy o'quv yurtlari uchun o'quv qo'llanma. O'zR
Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi. - T.: «Musiq», 2006. — 160 b.

Иккинчи нашр

T a q r i z c h i l a r:

N.M. Mirqurbanov,
filologiya fanlari nomzodi, dotsent.
Rossiya Pedagogika va ijtimoiy fanlar
akademiyasining muxbir a'zosi.

U. Jumanazarov,
filologiya fanlari doktori, professor.

Jahon adabiyotiga mansub yozuvchilar hayoti va ijodi oliy o'quv yurtlarida o'qitiladi. Bu mualliflarining ba'zilar haqida ma'lumot kam. Ushbu qo'llanma shu kemtiklikning o'rnini bir qadar to'ldirishga xizmat etadi. Kitobda yuzdan ortiq mashhur yozuvchilar hayoti va ijodi, ularning asarlari haqida hikoya qilinadi.

Alisher Navoiy nomidagi
O'zbekiston Milliy kutubxonasi

Qat'iy buyurtma.

ISBN 978-9943-307-04-09

© O'zbekiston davlat konservatoriyasining
«Musiq» nashriyoti, 2006-y.

MUQADDIMA

Ushbu o'quv qo'llanmadan joy olgan dunyo xalqlari adabiyotining taniqli vakillari hayoti va ijodi mamlakatimiz universitet va institutlarining filologiya hamda gumanitar fakultetlarida o'rganiladi. Lekin bu shoir-yozuvchilar haqidagi ma'lumotlar bir jildga yig'ilib, qo'llanma holatiga keltirilgan emas. Borlari esa davrlashtirilgan yoki alohida xalqlar adabiyoti tarixiga bog'lab tahlil qilingan. Shu kamchilikni bartaraf etish maqsadida ushbu kitob yuzaga keldi va unda insoniyat tarixining antik davrlaridan boshlab to XXI asrning boshigacha bo'lgan davrda dunyoning turli burchaklarida yashab ijod etgan eng yirik mutafakkirlar, adib va shoirlar haqidagi qisqacha ma'lumotlar o'z aksini topdi.

O'quv qo'llanmada oliy o'quv yurtlarida o'qitiladigan «Chet el adabiyoti», «Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi adabiyoti» fanlaridan o'rin olgan mashhur so'z ustalari ijodiga, ular yaratgan asarlarning yuzaga kelish tarixi va tahliliga kengroq o'rin ajratilgan.

Har bir xalqni uning adabiyoti olamga tanitadi. Har bir millatning esa jahon taniydigan, sevadigan, ardoqlaydigan iste'dodli adib yoki shoiri bo'ladi. O'zbeklarda Alisher Navoiy, qirg'izlarda Chingiz Aytmatov, tojiklarda Abdurahmon Jomiy, ozarboyjonlarda Nizomiy Ganjaviy, forslarda Firdavsiy, gruzinlarda Shota Rustaveli kabilar jahon taniydigan ana shunday buyuk siymolardan sanaladi. Bu buyuklarning asarlari dunyoning ko'pgina tillarida tarjima qilingan va nashr etilgan. Ularning asarlari jahon adabiyoti xazinasini boyitgan, uni bezatib turgan duru javohirlardir.

Adabiyot chegara bilmaydi. Bir millat kuychisi boshqa bir millatning ham sevimli ijodkori hisoblanishi shubhasiz. Shuning uchun ham adabiyotni faqat adabiyotchilar, ixlosmandlargina emas, millat o'qiydi, xalq o'qiydi, dunyo o'qiydi. Adabiyotda millat qiyofasi o'z aksini topadi va u millatni jahonga tanitadi, ko'z-ko'z qiladi.

Ushbu qo'llanma ilgari ikki marta nashr qilingan, endilikda u keng o'quvchilar ommasining taklif-istaklari, ehtiyojlari inobatga olinib,

qo'shimcha ma'lumotlar bilan to'ldirildi va qayta nashr etilmoqda. Ayniqsa, Sharq xalqlaridan yetishib chiqqan mashhur adiblar ijodi kengroq tahlil etildi.

Ehtimol, qo'llanmaga kiritilgan ayrim adiblar olamga mashhur emasdir, lekin maqsadimiz xolis, ularni ham mashhurlar qatorida ko'rishni orzu qilamiz. Hali ham kitobda tugallanmay qolgan mavzular bisyor va bu mavzularni kelgusida Siz, aziz o'quvchilarning qimmatli maslahatlari bilan yanada to'ldirish va boyitish niyatidamiz.

Hozirgi kunda jahonni anglash, dunyo xalqlari tarixi, madaniyati, adabiyoti va san'atidan bahramand bo'lish zaruriy bir ehtiyojga aylanib qolayotganini inobatga olib, ushbu o'quv qo'llanmani hukmingizga havola etamiz va Sizning fikr-mulohazalaringizni kutib qolamiz.

HOMER

(Mil. avvalgi IX asr)



Miloddan avvalgi IX asrda Yunonistonda yashab o'tgan. Ayrim qadimshunoslar miloddan avvalgi VII asrda yashagan deyishadi. Homerning barcha asarlari Yunon-Troya urushi voqealari bilan bog'langan. Rivo-yatlarda Homerdan ilgari Muze, Evmolp, Tamir, Olen kabi shoirlar yashab o'tganligi qayd qilinadi. Biroq ularning hayoti va ijodi haqida bizgacha ma'lumotlar yetib kelmagan.

Homer yunon adabiyotining boshlovchisidir. Bu ulug' shoirni jahon adabiyotining eng birinchi shoiri deb ta'riflash mumkin. Homerdan bizgacha ikkita yirik doston – «Iliada» va «Odissey» yetib kelgan. Bundan tashqari, Homer nomi bilan bog'liq 15-20 she'rdan iborat gimnlar ham mavjud. Garchi bu asarlarning barchasi mifologik xarakterda, ma'bud-ma'budalar, afsonaviy qahramonlar bilan bog'liq bo'lsa-da, ular tarixiy-estetik ahamiyatga egadir.

Yunonlar qadimgi Troyani Ilion shahri deb atashgan. «Iliada» Ilion haqidagi dostonidir. «Odissey» – doston bosh qahramoni, Itaka podshohi Odissey nomi bilan ataladi. Dostonda Troya urushidan g'olib, muzaffar qaytayotgan yunon pahlavoni Odisseyning ajoyib va g'aroyib dengiz safari haqida hikoya qilinadi.

Yana, Yunon-Troya urushining kelib chiqish sabablarini ifodalovchi «Kipriya» dostonini ham Homer nomi bilan bog'lashadi. Bu dostonan ayrim parchalargina bizgacha yetib kelgan.

Homer asarlari mifologik xarakterda bo'lsa ham, nihoyatda ishonarli. Uning asarlarini qo'ldan qo'ymay o'qigingiz, voqealarning nihoyasini bilgingiz keladi.

Qadimda odamlar juda ishonuvchan, e'tiqodli, sadoqatli bo'lganmi-kan, deb o'ylanib qolasiz. Qo'shin Troyaga jo'nash uchun qirg'oqqa to'plangan. Kemaga o'tirib, safarga o'tlanish kerak. Biroq shamol yo'q. Dengiz ma'budi Poseydon ham bu ishga aralashgan bo'lishi mumkindir. Kohinlarning xabar berishiga qaraganda, qurbonlik berish kerak ekan. Yana qanday deng, o'z qizini qurbonlik qilishi darkor. Nihoyat shamol

turib, to'liqlar kemalarni Troya tomon olib ketadi. Yunonlar Troyani 10 yildan ziyodroq qamal qiladi. Biroq Troyaning mustahkam devorlaridan, xarsangtoshdan bino bo'lgan darvozalaridan ichkariga kirish oson emas. Umuman, birgina Yelena uchun qirg'inbarot urushning, behuda qon to'kishning kimga keragi bor.

Homerning ulug'ligi – yer yuzida birinchi bo'lib, sevgi degan tuyg'uning ulug'vorligini namoyon etdi. Bu tuyg'uni qirg'inbarot urush bilan ham, zo'ravonlik bilan ham yo'q qilib bo'lmaydi.

Har qancha urinmasinlar Troyani ishg'ol etolmaydilar. Hatto yunon pahlavoni Axill bor kuchini ishga solib har qancha chiranmasin, bari bir Troyaga kirolmaydi. Nihoyat hiyla ishlatib, yog'och ot yordamida bir amallab Troyaga kirib, darvozani Menelay qo'shinlariga ochib berishadi. Troyaning kulini ko'kka sovurib, Yelenani olib, Spartaqa qaytadilar. Voqea juda qiziqarli. «Iliada» dostonining qisqacha mazmuni shu bilan yakun topadi. Sparta podshohi Menelay og'ir jangga o'tlanish oldidan Yunon pahlavonlari, yurt podshohlarini, do'stlarini to'plab, mashvarat o'tkazgan, ularni yarashishga chaqirgan edi. Ular ichida Itaka podshohi Odissey ham bor edi.

«Odissey» dostonida Troyadan o'z yurtiga qaytayotgan Odisseyning dengiz safari kuylanadi. «Odissey» dostoni «Iliada» dostonidagi voqealardan ham qiziqarli sarguzashtlarga boy.

Dengizning asov to'liqlari goh u orolga, goh boshqa qirg'oqlarga olib ketadi. Odissey sheriklari bilan Quyosh ma'budasi Geliosning muqaddas vodiysiga borib qoladi. Shundan keyin ulkan qo'ylarini boqib, g'orda yashab yurgan bir ko'zli devga yo'liqadi. Ayniqsa, parizod Kirka qasriga borishda Odissey ancha tashvishga tushadi. Parizod o'zining oltin qadahlarga quyilgan mayi bilan Odissey sheriklarini to'ng'izga aylantirib, og'ilga qamab qo'ygandi.

Odissey xabarchi Termis yordami bilan Kirkaning makriga uchmasdan, sheriklarini o'z holiga keltiradi. Parizod Kirka Odisseyga yalinib-yolvoradi va pahlavon bilan umrguzaronlik o'tkazish niyati borligini ma'lum qiladi. Uzoq safarda bo'lib toliqqan, boz ustiga uyidan chiqib ketganiga o'n yildan oshgani uchunmi, Parizodning bu taklifiga Odissey rozi bo'lib, u bilan kayfu-safo qilib yashay boshlaydi. Kunlardan bir kuni Parizod o'z sevgilisi Odisseyning narigi dunyoga sayru safarga olib ketadi. Odissey narigi dunyoda xotini va farzanlarini tushida ko'rib o'z yurtiga qaytish tashvishiga tushib qoladi.

Tadqiqotchilar «Odissey» dostonining yakuniy qismini «Alpomish» dostoni voqealariga qiyoslab, ikki doston bir-biriga yaqinligini aytish-

moqda. Shubhasiz, ko'pgina xalq ijodi namunalarida o'xshash syujetlar juda ko'p. Negaki, dunyo xalqlarining orzu-niyatlari, ezgu o'ylari bir-biriga hamohangdir. Jahondagi hamma xalqlar ham tenglik bo'lishini, mardlik, jasorat, yaxshilikni kuylaydi. Homer asarlari xalq og'zaki ijodiga asoslangan. Xalq dilidan kuylangan she'r barhayotdir.

HESIOD

(Mil. avvalgi VIII asr)



Mil. avv. VIII–VII asrlarda yashab o'tgan. Kichik Osiyodagi Kim degan joyda tug'ilgan bo'lsa-da, taqdir taqozosi bilan Beotiya viloyatiga borib, yunon adabiyotining ulug' shoiriga aylangan. Undan bizgacha «Mehnat va kunlar» poemasi meros bo'lib qolgan. Shoirning takabbur, yengil-yelpi hayotga o'rgangan Pers ismli ukasi borligiga ham aniqlik kiritilgan. Pers otasidan qolgan barcha merosga ega chiqadi. Ehtimol, ukasidan ranjigan Hesiod ona shahri Kimni tashlab ketishga majbur

bo'lgandir. U o'z poemasida ukasi Persga qarata pand-nasihatlarini bayon etadi. Poema Inaonni yomonlik sari qadam qo'ymaslikka, yaxshilik, mehnatni sevilishga da'vatdir. Qarchi mifologik syujetdan iborat bo'lsa-da, undagi didaktik ruh ma'bud-ma'budalar hayotidan ko'ra, insonlar hayotiga yaqin. Dostondan allegorik xarakterdagi masallar ham o'rin olgan. Hesiod masal janrining asoschisidir.

Hesiod mehnatni qadrlaydi. Aslida o'zi ham ertadan-kechgacha ter to'kib tirikchilik o'tkazadi. Otasidan qolgan katta davlatni sovurib, yordam so'rab, yalinib-yolvorib kelgan ukasi Persni halol mehnat qilishga chaqiradi. Ter to'kmasdan, jon kuydirmasdan, qing'ir-qiyshiq yo'llar bilan boylik orttirgan kimsalar ustidan zaharxandalik bilan kulib, ularga qarshi nafrat o'ti bilan sug'orilgan satrlar bitadi.

Qadimshunos olimlar Hesiodni Homerdan bir qadar ustun qo'yishadi. Hattoki, yunon adabiyoti boshlovchisi, jahon adabiyoti beshigini tebratgan shoir, deb ko'klarga ko'tarishadi. Bu da'volarini isbotlash uchun Hesiodning tarjimai holini misol qilib keltirishadi. Shoir tug'ilib o'sgan Kim shahri haqida ozmi-ko'pmi ma'lumot saqlangan. Buning ustiga keyinchalik turli xil sabablarga ko'ra, Beotiya viloyatiga borganligi Askra degan joyda yashab, umrguzaronlik qilganligi haqida manbalar mavjud. Hesiodning nomi hayotligidayoq Geshkok tog'ining chor-

atrofidagi katta-kichik qishloq va shaharlarga yoyilib borgan, Yunonistonning boshqa viloyatlarida ham ma'lum va mashhur bo'lgan.

Hesiod ijodida urush mavzusi asosiy o'rindadir. Uning deyarli barcha asarlari Yunon-Troya atrofida bo'lib o'tgan urush voqealariga bag'ishlangan. Birgina go'zal Yelenani deb qanchadan-qancha kishilar qon to'kishgan. Axir, butun boshli Troya yer bilan yakson bo'ldi. Uning ustiga o'n yildan ortiq qamal azobini tortgan shahar ahlining chekkan azoblarini aytmaysizmi?!

Hesiodning «Mehnat va kunlar» asari pand-nasihati, didaktika mavzusiga bag'ishlangani uchun ham Yunon pedagogikasi sahifalarini bezatib turibdi, hattoki G'arbdagi ko'pgina davlatlarda pedagogika tarixini o'qitishda asosiy qo'llanma vazifasini o'taydi.

Qadimgi Yunon adabiyotida mifologik xarakterdagi hikoyalar juda ko'p topiladi. «Mehnat va kunlar» poemasida ayrim ma'budalar insoniyatning yovuz dushmani, ayrimlari insoniyatning xaloskori, madadkori sifatida talqin etiladi. Prometey, Dionis, Demetra kabilar insonning do'sti, har doim yordam beruvchisi sifatida ta'riflangan.

Hesiod Zevs obraziga katta urg'u beradi. Muqaddas olovni Olimp tog'idan olib, insonga hadya etgandan so'ng, Prometey Zevsning qahriga uchrab, og'ir jazoga muhtalo bo'ladi. Zevs bu bilan cheklanib qolmasdan insonga yovuzliklar qilib, beadam qirg'inlar keltiradi. Yasama go'zal Pandorani Prometeyga hadya etadi. Aslida bu go'zalni Zevsning topshirig'i bilan temirchilar piri Gefest tuproq bilan suvdan yasab, uning ichiga kasallik tarqatuvchi zahar solib yuborgan. Bir kuni undan zahar otilib chiqib, hamma yoqni zaharlab, natijada son-sanoqsiz insonlar qirilib ketgan. Odatda ma'bud va ma'budalarni ulug'lashgan. Hesiod, boshqalardan farqli o'laroq, ma'bud va ma'budalardan nafratlanadi. Ularni qarg'aydi, inson zotining dushmani deb biladi.

Poemadan keng o'rin egallagan «Burgut va bulbul» masali ham mazmunan nihoyatda boydir. Shoir bulbulni og'ir mehnat qilib, mashaqqatli hayot kechiruvchi oddiy xalq vakiliga, burgutni zolim, boy-badavdat kishilarga o'xshatadi. Asardagi voqealar «O'ynashmagin arbob bilan, arbob urar har bob bilan», degan xalq maqolini eslatib turadi. Burgut panjalari orasida bulbulni changallab, osmonga uchib, xohlasa qonini ichib, ezib tashlashi mumkin. Bechora bulbul qancha qichqirmasin, har qancha tipirchilamasin ojizligicha qoladi.

Hesiodning xosiyatli va xosiyatsiz kunlar, oy va yillar taqvimiga oid naqllari ham ruhiyat bilan bog'liq lavhalardir. Shu jihatdan olib qaraganda, poemaning ilmiy-ma'rifiy ahamiyati ham kattadir.

ESXIL

(Mil. avvalgi 524-456-yillar)



Jahon adabiyotida «Tragediyaning otasi» deb shuhrat qozongan Esxil Yunon tuprogʻidagi Elivsin degan shaharchada dunyoga keladi. Yigitlik davrida Eron-Yunon urushida, Marafon, Plateya, Salamin shaharlari uchun boʻlgan shiddatli janglarda ishtirok etadi.

Ijodiy faoliyati davomida 90 ga yaqin tragediya yozgan boʻlib, bizgacha faqat yettitasi yetib kelgan. «Eroniyalar», «Fivanning yetti dushmani», «Iltijo-goʻylar», «Zanjirband Prometey», «Oresteya»,

«Agamemnon», «Xoeforlar», «Evmenidalar» shular jumlasidandir.

Esxilning barcha tragediyalari qatori, «Zanjirband Prometey» tragediyasi mifologik xarakterga ega boʻlib, biz uchun tarixiy ahamiyat kasb etadi. Tragediya qahramoni Prometey viqorli Kavkaz togʻiga zanjirband qilinar ekan, bepoyon skiflar oʻlkasiga, amazonkalarning yastanib yotgan keng vodiylariga nigoh tashlaydi.

Esxilning «Zanjirband Prometey» asari inson qalbini rom etadi.

Prometey Olimp togʻidagi muqaddas olovni yashirin tarzda olib, insonga hadya etmoqchi boʻladi. Axir, buning nimasi gunoh? Yaxshilik qilish savob-ku!

Bunday voqealar juda koʻp boʻlgan. Bir paytlar Dionis ham insonning nihoyatda qashshoq yashayotganini koʻrib, chiday olmagan. Olimp togʻidagi kuch-quvvat, goʻzallik bagʻishlovchi Embroziya, Nektar muqaddas taomlarini oʻzining yaqin doʻstlariga, inson zotiga ulashgan edi-ku! Bu yaxshiligi uchun oʻshandan buyon to hozirgacha insoniyat uni olqishlaydi. Prometey ezgulik yoʻlida muqaddas olovni hadya etsa nima boʻlibdi?

Bu voqeani eshitgan Zevs tutaqib ketadi. Nihoyatda dargʻazab boʻlib, qahrlanib, «Oʻgʻli gunohi uchun uzr soʻrashi kerakligini» aytadi. Biroq, Prometey bu taklifga rozi boʻlmagach, oʻgʻlini jazolashga azmu qaror qiladi. Shundan soʻng, Prometeyni Kavkaz togʻining baland choʻqqisiga zanjirband qilishni buyuradi. Prometeyni yechib boʻlmas mustahkam zanjir bilan baland choʻqqining tepasiga zanjirband qiladilar. Prometeyning Kavkaz togʻi choʻqqisiga zanjirband qilinishi diqqatga sazovor.

Yustin va Pompey, Trog asarlarida taʼkidlanganidek, fessaliyaliklar kolxidlar yurtiga, Kavkaz oʻlkalariga oltin junli terini qidirib kelar

ekan, g'aroyib va ajoyib voqealarni o'z ko'zlari bilan ko'rib hayratga tushadilar. Aytishlaricha, qadim zamonlarda bu ulug'vor Kavkaz tog'lariga Prometey zanjirband qilingan ekan. Bu haqda Esxil o'zining «Zanjirband Prometey» tragediyasida shunday satrlarni bitadi:

*Yerning olis hududiga, kimsasiz joyga,
Vahshiy skif yoboniga mana biz keldik.
Endilikda qiladigan vazifang, Gefest,
Ota amrin bajo aylab – bu badkirdorni
Osmon qadar yuksaklashgan metin qoyaga
Zanjir bilan o'rab-chirmab bandi etishdir.
Sening porloq chechagingni, muqaddas o'tni,
O'g'irlab u foniylarga armug'on qildi.
Shu gunohchun jazo bergay ma'dublar unga,
Zero nuqul elparvarlik qilavermasdan,
Zevs taxtin sevmaklikni o'rganib olsin.*

Bu o'rinda Esxil o'z qahramoni Prometeyning skiflar o'lkasidagi baland qoyaga zanjirband qilinganini ta'kidlamogda. Bundan ko'rinadiki, skiflar nomi o'sha antik zamonlardayoq olis Fessaliya viloyatiga yetib borgan. «Bir necha kun o'tgach, – deb yozadi Arrian o'zining «Aleksandrning yurishi» nomli memuar asarida, – Aleksandrning oldiga abiylar deb nomlangan skiflarning elchisi keladi. Homer ularni o'z poemasida juda adolatparvar kishilar, deb aytgan. Skiflar adolatparvar va haqiqatgo'y bo'lganliklari uchun ham hech kimga qaram emasdi». Mana shu fikrdan o'sha qadim zamonlardayoq skiflar uzoq Elladaga ma'lum va mashhur bo'lganligi ma'lum.

Kursiy Ruf ham o'zining «Aleksandr Makedonskiy tarixi» asarida Prometeyning Kavkaz tog'lariga zanjirband qilinganligi haqida qimmatli faktlarni keltirib o'tadi. Muhimi shundaki, yunonliklar qadimda shimol tomonlarga – G'arbiy Yevropa tomondagi elatlarga emas, Sharq tomonga – Osiyo o'lkalariga ko'proq qiziqqanlar. Shuning uchun ham qadimgi Yunon adabiy yodgorliklarida ko'proq sikiflar mamlakati, Kavkaz tog'lari, Panta bo'ylari, kolxidlar o'lkasi tilga olinadi.

Fessaliyaliklarning qadimgi yodnomasi bo'lgan «Ellada qahramonlari»da Prometey Kavkaz tog'larida zanjirband qilingani va bunday og'ir jazoga mahkum etilishining sabablari shunday hikoya qilinadi.

Yason «Argo» degan tez yurar kema qurib, oltin junli terini olib kelish uchun Gretsiya qahramonlari bilan uchta dengizdan suzib o'tib, Kolxidaga borishga chaqirganda qudratli Herakl ham jasur argonavtlarga qo'shiladi.


Biroq yo'lda «Argo» noma'lum bir o'lka qirg'og'ida to'xtaganda Herakl qirg'oq yaqinidagi o'rmonga kirib, uzoqqa ketib qolibdi va o'z vaqtida kemaga qaytib kelmabdi, shunda argonavtlar uni tashlab ketibdilar. Herakl esa quruqlikdan mamlakatning ichkarisiga yo'l olibdi va ko'p o'tmay bir toqqa yetibdi. Uning qarshisida ajib bir yovvoyi o'lka namoyon bo'libdi. Yuksak tog'lar tizilib turar, ular etagida yakkam-dukkam daraxtlar o'sgan, cho'qqilar esa mangu qor bilan qoplangan ekan. Qahramon toqqa ko'tarilgan sari yo'l og'irlashib, o'tib bo'lmaydigan bo'la boshlabdi. Oxiri u dengiz chetida qad ko'tarib turgan yalang'och qoyaga chiqibdi. Shunda birdan Heraklni biron chaqirib qolibdi, u qayrilib qarab, qoyaga mixlab qo'yilgan Titanni ko'ribdi. Herakl rostgo'ylik ma'budasi Femidaning o'g'li Prometeyni tanibdi. Qadim zamonda yer yuzida odam juda kam ekan. Ular o'lja ketidan quvib, hayvonlarni ovlab yurishar, xom go'sht, yovvoyi meva va ildizlar yoylshar, hayvonlarning terisini yopinib yurishar, yog'ingarchilikda g'orlarga hamda daraxtlarning kavagiga bekinishar ekanlar. Ularning aqli yosh bolanikiday ekan, ular o'z hayotlarini qurishga ojiz, yovvoyi hayvonlar va tabiatning dahshatli kuchi qarshisida himoyasiz ekanlar. Prometeyning odamlarga rahmi kelib, ularga yordam qilmoqchi bo'libdi. U o'z do'sti, Zevsning o'g'li – temirchilik xudosi va ustasi Gefestning oldiga jo'nabdi. Gefestning ustaxonasi Lemnos orolidagi yonar tog'ning tagida ekan. Katta qo'rada muqaddas o't lovullab yonar, bu o't bo'lmasa hech qanday ish, hech qanday hunar bo'lmas ekan. Gefestning ustaxonasida bir ko'zli uchta pahlavon – Kikloplar ishlashar ekan. Gefestning o'zi oltindan quyan ikkita haykal ustaxonada tirikday yurib turarkan. Cho'loq temirchi yurganida ularga tayanar ekan. Prometey Gefestni ish ustida uchratibdi. Temirchi xudo chaqmoq chaqar, Zevsga o'tli yashin o'q-yoylar yasar ekan. Prometey Gefestning mohirlik bilan ishlashini tomosha qilib turibdi. Kikloplar bosqon bilan qo'radagi o'tga dam beribdi, ustaxona ichida yalt-yult etib, uchqunlar ucha boshlabdi, shunda Prometey muqaddas uchqundan bittasini ushlab olibdi-da, qo'lidagi qamish poya ichiga bекitibdi. Prometey muqaddas o't uchquni solingan ana shu qamishni odamlarga keltirib beribdi, shundan keyin odamlar shu uchqundan yer yuzida gulxanlar yondirib, o'choq va qo'ralarga o't yoqishibdi. Biroq, dunyo hukmroni Zevs Prometeydan qattiq g'azablanib, muqaddas o't o'g'risini qattiq jazolashga ahd qilibdi. Prometeyni dunyoning bir chekkasidagi kimsasiz tog'li o'lkaga olib borish uchun o'z xizmatkorlarini yuboribdi. Gefestga esa Titanni toqqa zanjir bilan bog'lab qo'yishni buyuribdi. Prometey o'z do'sti bo'lgani uchun bu ishni bajarish Gefestga juda og'ir bo'libdi, biroq Zevsning xohishi shunday ekan. Gefest Prometeyning qo'l-oyog'iga kishan uribdi,

mahkam zanjir bilan uni katta toshga bog'labdi, ko'ksiga olmos tig' urib, qoyaga mixlab tashlabdi. Zevs Prometeyga bir umr, asrlar bo'yi shu qoyaga zanjirband bo'lib qolishni amr qilibdi.

Herakl Prometey bog'langan zanjirni uzib tashlab, uning ko'krigidan olmos tig'ni sug'urib olibdi. Ozod qilingan Prometey qaddini rostlabdi, ko'kragini to'ldirib nafas olibdi va charog'on ko'zlari bilan yer yuziga, unga ozodlik olib kelgan, xudolar bilan yarashtirgan qahramonga boqibdi. Zevs Gefestga Prometey bog'langan zanjirning bir halqasidan uzuk yasab, unga Titan mixlab qo'yilgan qoya parchasidan ko'z solishni buyuribdi. Zevs Prometeyga bu uzukni aslo qo'lidan qo'ymay, hamma vaqt taqib yurishni buyuribdi, bu dunyo zanjirband qilinganligiga ishora ekan.

SOFOKL

(Mil. avvalgi 546–406-yillar)



Sofokl Afinaning oliy davlat lavozimi strateg-likka (mil. avv. 441) saylanadi. Samos deb nomlangan qirg'inbarot janglarda ishtirok etadi. Oltmish yillik ijodiy faoliyati davomida 120 dan ko'proq asar yozadi. Biroq ularning ko'pi bizgacha yetib kelmagan.

Antik zamonlarda keng tus olgan dramatik shoirlar musobaqasida 24 marta g'olib bo'lgan. Sofokl o'z zamonasida ko'p variantlarda tarqalgan Edip Lay haqidagi afsonalarga katta qiziqish bilan qaraydi. Bunday afsonalar syujeti asosida «Shoh Edip», «Edip Kalonda», «Antigona» deb nomlanuvchi trilogiya yozadi. Bundan tashqari, «Aske», «Elektra», «Filokten», «Graxinali ayollar» asarlari ham jahon adabiyotining qadimiy durdonalaridandir.

Yunonlar bilan misrliklar o'rtasida o'z shaharlarining qadimiyligini isbotlovchi bahslar hali davom etardi. Albatta, madaniyat va san'atning qadimdan rivojlanganligi xususida gap ketganda Afmaga teng keladigani yo'q. Biroq misrliklar Fiva shahri bir vaqtlar gullab-yashnaganida Afinaning tamal toshi ham qo'yilmagan edi, deb iztehz qiladilar. Ehtimol shunday bo'lgandir. Qadimda Fiva qirq darvozali muhtasham shahar bo'lgan emish. Ularning tili hozirgi arab tiliga o'xshamagan, boshqacha bo'lgan. Yana bir isbot uchun Misr ehromlarini ko'rsatishadi.

Fiva podshohi Lay befarzandlikdan qiynalar edi. Podshohlikning ham intihosi bo'ladi. Bir kuni kelib, keksayib qolsa toju taxtni kimga topshiraman, deb ko'p o'ylanar ekan. Ko'pdan buyon qiynab yurgan bu dardini ibodatxona kohinlariga yetkazganlarida, kohinlar Layning farzand ko'rajagi haqida vahiy kelganligini xabar qilishadi. Ammo bu o'g'il farzand yillar o'tib otasini o'ldirajagi ham shohga yetkaziladi. Haqiqatan ham, oylar o'tib Layning xotini o'g'il farzand tug'adi. Podshoh Lay xursand bo'lish o'rniga sarosimada qoladi. Axir, kohinlarning karomati to'g'ri bo'lib chiqdi-da.

Bir kun kelib o'g'lining o'ldirib qo'yishdan cho'chigan Lay yarim tunda chaqaloqni xizmatkori qo'liga topshirib, hech kimga sezdirmasdan o'rmondagi yirtqich hayvonlarga tashlab kelishni buyuradi. Yo'lda ketayotganda chaqaloqqa rahmi kelgan xizmatkor o'g'ilchani qo'shni mamlakat podshohligiga berib qaytadi. Yillar o'tib kuchli bo'lib o'sgan bolakay safar qilib kelish niyatida yo'lga tushadi. Daradagi torgina yo'lda xayol surib ketayotgan yigitga bezatilgan aravani qo'riqlab kelayotgan soqchi dag'dag'a bilan «Qoch yo'ldan!» deydi. Bundan g'azablangan yigitcha soqchini oti bilan pastlikka uloqtiradi. Bundan naroonlmaga tushgan ikkinchi soqchi nayzasini o'qtaydi. Ikkinchi soqchi ham o'ldirilganini kuzatib turgan aravadagi bir chol yo'lovchiga hassasi bilan do'q-po'plaa qiladi. Yo'lovchi cholning hassasini tortib olib, boshiga chunon uradiki, qariya bechora til tortmay o'ladi. Bu fojidan xabardor bo'lib turgan orqadagi uchinchi soqchi qochib qoladi. Shundan so'ng yo'lovchi yigitcha hech narsani ko'rmagandek bamaylixotir Fiva shahriga kirib keladi. G'am-anduhga botgan shaharliklar dengizda Sfinks degan maxluq paydo bo'lganligini, shahar ahlini yeb quritayotganligini aytishadi. Biroq Sfinks balosidan qutulish oson emas. Bu bahaybat maxluqqa hech kim bas kela olmaydi. U shunday murakkab topishmoqlar beradiki, javob topolmaganni shu zahoti yutib yuboradi. Podshoh saroyida aqlli, bilimdon bo'lib o'sgan yo'lovchi shahzoda Sfinksning «Qanday maxluq ertalab to'rt, kunduz kuni ikki, kechasi uch oyoqlab yuradi», degan savoliga «odam» deb javob berganidan so'ng, maxluq dengiz qa'riga tushib ko'zdan g'oyib bo'ladi. Bu voqeadan behad shodlangan fivaliklar yigitni hech ikkilanmay Fiva taxtiga o'tqazishadi va unga *Edip* deb nom berishadi. Qadimiy odatlarga ko'ra, shoh Edip Layning xotiniga uylanadi. Malikadan ikki qiz, ikkita o'g'il ko'radi.

Yillar o'tib Fivada dahshatli vabo kasali tarqaladi. Kasallikka davo topilmaganligi sababli xalq ibodatxonaga murojat qiladi. Ular avvalgi shoh Layning qotili topilgan kuni bu balodan qutulish mumkinligini bashorat qilishadi. Ancha yillar oldin bu voqeadan xabardor bo'lib,

qochib qolgan soqchini topib haqiqatni bilib oladilar. Ming afsuski, Layning qotili shoh Edip bo'lib chiqadi. Xizmatkor Edipning chaqaloqligidan tortib hozirgacha bo'lgan voqeani saroy ahliga so'zlab beradi. Bu mudhish voqeadan dahshatga tushgan malika ichkariga kirib ketadi. Shoh Edip o'z onasiga uylanganligi va undan bir nechta farzand ko'rganligini anglab, xotining ortidan boradi. Ne ko'z bilan ko'rsinki, u o'zini osib qo'ygan edi. U sarosimada onasining yoqasidagi to'g'nag'ichni olib, ikki ko'zini sitib tashlaydi. Ikki ko'zi so'qir Edip xalqning va farzandlarining qahriga uchraydi. Shu tariqa Shoh Edip fojiasi yakun topadi.

Rivoyat qilishlaricha, Shoh Edip shaharni tashlab ketganidan so'ng Fivaning boshiga musibat tushib, xarobaga aylanibdi.

Qadimda Fiva, Afina, Rim kabi muhtasham shaharlar bo'lib, ular dushman bostirib kirishi mumkin bo'lmagan mustahkam devorlar bilan o'ralgan bo'lgan. Shuning uchun mamlakat shahar nomi bilan atalib, shahar-davlatlar deyilgan.

Sofoklning ko'pgina asarlari mana shunday shahar-davlatlardagi voqealarga bag'ishlangandir. Ne-ne shaharlar, davlatlar yo'q bo'lib ketdi, lekin Sofoklning nomi hali-hamon yashab kelmoqda.

EVRIPID

(Mil. avvalgi 480–406-yillar)



Antik muarrixlarning hikoya qilishlaricha, Evripid mahoratli so'z san'atkori bo'lib, uning talanti Esxil hamda Sofokldan ham ustun bo'lgan ekan. Shoirning adabiy merosidan bizgacha 17 ta tragediya va bitta satirik drama yetib kelgan. «Alkestida», «Medeya», «Heraklidlar», «Ippolit», «Genuba», «Herakl», «Iltijogo'ylar», «Troyalik ayollar», «Elektra», «Ion», «Ifigeniya Tavridada», «Yelena», «Andromaxa», «Finikiyalik qizlar», «Ifigeniya Avlidada» hamda «Siklop» deb nomlanuvchi dramasi jahon adabiyoti sahifalarini bezab turibdi.

Ayniqsa, «Alkestida» tragediyasi mashhurdir. Bu asarda inson taqdiri bilan bog'liq kuchli falsafiy ma'no ifodalangan. Unda shoh Admet taqdiri bilan bog'liq voqealar, Alkestidaning sadoqati, jasurligi haqida hikoya qilinadi.

Admetning paymona kuni yaqinlashgan sari butun Fessaliyaga shohning o'limi yaqinligi haqidagi xabar tarqalib ketadi. Bundan hamma

xafa edi. Axir, Admetdek adolatli podshohni ular qayerdan topishsin. Admetning o'rniga taxtga o'tiradigan boshqa podshoh adolatli bo'la oladimi? Yana zolimlik zanjirini qattiqroq bog'lab, xalq boshiga ne-ne kulfatlar yog'dirmasa koshiydi.

Kohinlar Artemida Admetning jonini olishga qaror qilganligini aytishadi. Artemida Fessaliya xalqi o'lmagan shohiga shunchalik qayg'urayotganini ko'rib, rahmi keladi. Adolatli, mehr-muruvvatli shohidan ayrilib qolsa, xalq boshiga og'ir musibatlar tushishidan cho'chigan Artemida: Admet o'rniga yaqin qarindoshlaridan biri jonini berishi shart, deydi. Ibodatxonaga borganlar shunga ham shukur qilib, ko'ngillari biroz taskin topib qaytishadi. Butun Fessaliya xalqi ichida Admet uchun o'limga tayyor mard va jasur kimsa topilarmikan.

Vaqt tig'iz, podshoh o'rniga o'lishga rozi bo'ladigan odamni shoshilinch topish kerak. Admetning yaqinlari o'zaro kelishib, Admetning qarib-qartayib qolgan otasidan rozilik so'rashga qaror qilishadi.

Nahotki, u farzandi uchun jonini berishga rozi bo'lmasa, qariyaning bir oyog'i go'r yoqasiga borib qolgan bo'lsa, bu dunyoda nima armoni ham qoldi. Yoshini yashab, oshini oshagan bo'lsa, nahotki o'z o'g'li o'rniga o'lishga rozi bo'lmasa?! Admetning esa hali bu dunyoda qilladigan ishlari juda ko'p, qartayib, beli bukilib qolgan onasi-chi?! Bu **lakkli har qancha og'ir bo'lmasin, onaizor jon-dili bilan rozi bo'lishi tayin.**

Hayot naqadar murakkab, sirli. Inson zoti bir kun, bir soniya bo'lsa ham yashagisi keladi. Boshqalarni qo'ya turaylik, qarib qolgan otasini o'g'lining o'rniga jonini berishga rozi bo'lmaydi!

Bu shum xabarni eshitib, Alkestida ich-ichidan ezilib ketadi. Admetdan ayrilib qolsa, bu ko'rgilikka qanday chidaydi, hijron azoblarini qanday ko'taradi? Alkestida Admet uchun jonini Artemida qo'lga topshirishga rozi bo'ladi.

Mehribon va go'zal malikasidan ajrab qolish Admet uchun ham, **barcha fessaliyaliklar uchun ham har qancha og'ir judolik bo'lmasin, barcha paymona kunini qayg'u bilan kutadi.**

Paymona kuni Alkestida bilan xayrlashib qolish uchun hamma ibodatxonaga boradi. Admet esa sevgilisi Alkestidaning o'lishini hech ham xohlamaydi, axir, u bu ayriliqqa qanday chidaydi!

Na iloj, taqdir o'yiniga chidash kerak-da. Admet ham malika bilan xayrlashishi kerak. Saroy darvozasi oldidan o'tib, Appolonn qarshi **oladi. Ulug' pahlavonni quchoq ochib kutib olib, unga quyuq dasturxon yozadi. Boshiga tushgan qayg'uni mehmonga sezdirmasdan saroydan g'amgin chiqib ketadi. Appolon dasturxondagi taomlardan yeb, sharbatdan ichib, Admetni uzoq kutadi. Yolg'izlikdan siqilib, saroydagi**

sukunatdan sarosimaga tushadi. Saroyda ivirsib yurgan oqsoch xotin mehmonga mudhish judolikning tafsilotlarini aytib beradi. Appolon podshohning mardligi va tantiligiga yana bir bora tan berib, boshiga shuncha savdo tushibdiyu nega menga aytmadi, deb shosha-pisha paymona joyiga otlanadi. Ulug' pahlavonning ma'budlar bilan teng keladigan kuch-qudrati bor edi. U malikani oxirat ma'budasi Artemidaning changalidan qutqarib qoladi. Saroyda xaloskor pahlavon sharafiga katta bazm beriladi.

«Alkestida» tragediyasining qisqacha mazmuni shundan iborat. «Medeya» tragediyasi bundan ham qiziqarli, bundan ham murakkab voqealar asosida yaratilgan.

ARISTOFAN

(Mil. avvalgi 445-385-yillar)



Tarixda «komediyaning otasi» degan nom olgan ulug' komediyanavis Aristofan 40 dan ortiq asar yozgan bo'lib, shulardan bizgacha 11 ta komediyasi etib kelgan. «Axariyanlar», «Tinchlik» (421), «Lisistrata», «Suvoriylar», «Arilar» (422), «Bulut», «Qurbaqalar» antik zamonning shoh komediyalaridir.

Aristofan jahon adabiyotida komediyaning boshlab bergan adibidir. Qirq yilga yaqin ijod bilan mashg'ul bo'lgan adib komediyanavislar musobaqasida g'olib bo'ladi. Uning asarlarida urush va tinchlik mavzusi yetakchi o'rinni egallaydi.

Aristofan komediyalari mavzu jihatidan xilma-xildir. Ularning biri urush mavzusiga bag'ishlangan bo'lsa, boshqa biri avj olib ketgan sudbozlikni tanqid ostiga oladi.

Haqiqatan ham Aristofan yashagan davrda Afinada sudbozlik avjiga chiqadi. Aristofan o'zining «Arilar» komediyasida bu illatdan qutulishning chorasini izlab topadi.

Har bir afinalik sudga ishtirok etishni o'zi uchun sharafl deb bilardi. Sudda nutq so'zlash esa faqat omadli kishilargagina nasib qiladi.

Asarning «Arilar» deb nomlanishi ham bejiz emas. Sudbozlar arilarga o'xshaydi. Ularning kiyimlari arining dumiga, hassasi arining xartumiga o'xshaydi. Sudbozlarning egnida arining qanotiga o'xshash yopinchiqlari ham bor edi.

Sudbozlar ko'chada kibru havoga berilib yurishadi. Ular o'zlarini jamiyatni boshqarib turuvchi buyuklardek his qilishadi. Go'yoki ular sudga bormasa, hayot to'xtab qoladigandek tuyulgan.

Adib bu asarda soxta, keraksiz ilm egasi bo'lganlardan birining obrazini beradi. Aristofan sayoz, hech bir ahamiyatga ega bo'lmagan ilmni qattiq satira ostiga oladi.

Odatda urush mavzusida komediya yozish ancha mushkul ish. Aristofanning «Lisistrata» nomli asari urush mavzusida yozilgan. Komediya qariyb yarim asr davom etgan Pemponis urushi mavzu qilib olingan. Urush qurg'ur hech tugamaydi, davlat tepasidagilar esa urushning tezroq tugashiga qiziqmaydilar ham, chunki urushdan kimlardir manfaatdor. Ular katta boylik orttirishmoqda. Odamlar ham urushga ko'nikib ketgan. Esini tanib, suyagi qotgandan buyon janggohda umri o'tmoqda. Urushning boshlanishida tug'ilgan chaqaloq ulg'ayib, yarim asrlik umri yashab qo'ygan. Urush odatiy bir ishga aylanib qolgan, har kuni erkaklar qurol-aslahalarini olib jangga otlanadilar. Har holda ular ham urushning orqasidan tirikchilik o'tkazib turibdi. Askar buyruqni bajarishga majbur. Urushni to'xtatish oddiy soldatning qo'lidan kelmaydi-ku! Biroq xotin-qizlar ertadan kechgacha erkaklarni kutaverib, toqati toq bo'ladi. Nihoyat, erkaklar to'xtata olmagan urushni xotinlar to'xtatishga bel bog'lashadi. Lisistrata ismli jasur va dovyurak xotin urushni to'xtatmasa, erlari bilan gaplashmaslikni maslahat berib, barcha xotinlarni bu ishga da'vat etadi. Tadbirkor Lisistrata barcha xotin-qizlarni g'orga qamab, g'orning og'ziga qo'riqchi sifatida ikkita ma'budni qo'yadi. Urush ko'raverib pishib ketgan, pixini yorgan, kuch-qudratga to'lgan erkaklar ham bor. Ular orasida qo'rqqoq, laganbardorlari ham yo'q emas. Ular birin-ketin g'azabga to'lib, Lisistrata huzuriga kela boshlashadi. Erkaklar urushga bormay, g'orning oldida sabrsizlik bilan xotinlarini kuta boshlaydi. G'orning ichiga kirishga esa ma'budlar yo'l qo'ymaydi. Jangchilarning oldida ikki yo'l bor. Yo urushni tashlaydi, yoki xotinni. Nihoyat, Lisistrata g'olib keladi. Erkaklar urushni qoralab, xotinlarini birin-ketin olib ketishadi. Shunday qilib, urush uzoq davom etib joniga tegib ketgan ayollar urushni tugatadi. Bu bilan Aristofan ayol nomini ulug'laydi. Olamshumul ishlarni ayollar ham amalga oshirishi, erkaklar yecholmagan muammoni ayollar hal qilishga qodir ekanligini namoyish etadi. Shu bilan birga xalq boshiga qanchadan-qancha kulfat keltirsa ham urushni to'xtatishga zarracha qiziqmayotgan, boylik orttirayotgan hukmdorlar ustidan kinoya bilan kuladi.

Aristofanning boshqa komediyalarida ham shu kabi qiziqarli va kulguli voqealar qalamga olinadi. Shu bilan birga bu voqealar shunchaki istehzoli bo'lib qolmasdan, katta mushohadaga boy falsafiy mazmun bilan yo'g'irilib

VERGILIY

(Mill. avvalgi 70–20-yillar)



Ulug' shoir Vergiliy hayoti va ijodi Rimda adabiyot va san'at gullab-yashnagan bir davrga to'g'ri keldi.

Vergiliy ijodiy faoliyati davomida «Bukolikalar» («Cho'pon she'rlari»), «Georgikalar» («Dehqon she'rlari») hamda «Eneyida» dostonini yaratadi. Vergiliy nomi ostida yana «Mayda-chuyda she'rlar» nomli bir to'plam yetib kelgan. Tadqiqotchilar bu asarning Vergiliyniki ekanligiga qat'iy ishonch bildirishmaydi.

Vergiliyning buyuk xizmati shundaki, u cho'pon she'rlari, dehqon she'rlari an'analarini boshlab berdi va an'ananing keng ko'lamda yoyilishiga asos soldi.

«Pardoz malhamlari», «Sevgi davosi», «Metamorfozalar», «G'amgin elegiyalar» asarlari Vergiliy talantining yuksakligini namoyish etadi.

Yoshligida durustgina bilim olgan Vergiliy Rimga ko'chib kelib, ma'rifatparvar kishilar bilan bog'lanadi.

Oktavian Antoniy ustidan zafar quchgandan so'ng, Rim tarixida yangi zarvaraq ochiladi. Rim tez orada qudratli davlatga aylanadi. Yangi imperator yurish boshlab, qo'shni mamlakatlarning boyligini Rimga tashib keladi. Qudratli Afrika ham Rimga osongina qaram bo'lib qoladi. Rim davlatida ayni chog'da adabiyot va san'atning oltin vaqti boshlanadi. Oktavianga Avgust yorlig'ini bergan xalq, o'z imperatorini olqishlab qo'shiqlar to'qiy boshlaydi.

O'zining aql-zakovati bilan Oktavianning ishonchini qozongan Vergiliy saroyning eng nufuzli shoirlaridan biriga aylanadi.

Oktavian ham ijod bilan shug'ullanib turardi. Imperatordagi bunday ijodiy kayfiyat mamlakatda adabiyot va san'atning gurkirab, gullab-yashnashiga katta ta'sir ko'rsatadi. Shohning iltifotlaridan bahramand bo'lgan Vergiliy ko'pincha go'zal Sitsiliya orolida yashab, sermahsul ijod qiladi.

«Bukolikalar» («Cho'pon she'rlari») uchta she'rdan iborat. Bu asarda cho'ponlar turmushi qalamga olingan.

Shoir sertashvish va sershovqin shahar hayotidan ko'ra g'am-g'usadan, ig'vo-fasoddan yiroq bo'lgan cho'ponlar hayotini afzal biladi. Zeroki o't-o'lanlar, giyohlar, dov-daraxtlar, rang-barang sayroqi qushlar cho'ponlarning hamrohidir, yaqin do'stlaridir. Shoir cho'ponlar timsoli orqali osuda hayotni, tinch-totuvlikni yoqlab chiqadi. Saroyda

fitna-fasodga, ig'vo va hasadlarga chek qo'yish lozimligini orzu qiladi. Cho'ponlarnikidek osuda hayot bo'lgandagina mamlakat gullab-yashnaydi, rivojlanish bo'ladi, to'kin-sochin hayot hukm suradi.

Vergiliyning ikkinchi asari «Georgikalar»da dehqonlar hayoti madh etiladi. Shoir shaharni, davlatni to'ydiradigan ikki omilni ko'kka ko'tarib maqtaydi, mamlakatning rivoji mana shu ikki omilga bevosita bog'liq, deb tushuntiradi. Ularning biri go'sht, teri, jun yetishtirib beruvchi cho'ponlar bo'lsa, ikkinchisi qut-baraka, don-dun, shirin-shakar mevalar yetishtiruvchi zahmatkash dehqonlardir. Shoir dehqonlar obraziga simvolik ma'no beradi. To'rt qismdan iborat bu asarda dehqonchilik bilan shug'ullanuvchi g'allakorlar, bog'bonlar, chorvadorlar, asal yetishtiruvchilar haqida so'z borsa-da, asosiy e'tibor saroyda hukm surgan ichki nizolarni to'xtatish, vayronagarchilikka barham berishga qaratilgan. Har bir inson dehqonlar kabi foydali ishga qo'l urishi kerak.

Ikki qismdan iborat «Eneyida» dostonida esa Eney sarguzashtlari hikoya qilinadi. Bu doston ko'p jihatdan Homerning «Odisseya» dostoniga o'xshab ketadi.

Biroq «Eneyida» dostoni «Odisseya» dostonidan tubdan farq qiladi. Dostonning ayrim boblari «Odisseya»ga o'xshab ketsa-da, voqealar rivoji tubdan farq qiladi. Jumladan, Troya urushining so'nggi dahshatlari, yunonlarning makr-hiylalari, Appolon ibodatxonasining kohini Laokoonning o'g'illari bilan ulkan ilon tomonidan bo'g'ilishi, yog'och ot voqeasi, troyaliklar boshiga tushgan jabru-sitamlar «Iliada» dostoniga o'xshaydi. Eneyning tush ko'rish voqeasi, narigi dunyoni sayri-sayohat qilishi voqeasi esa, «Odisseya» voqeasiga o'xshab ketadi. Odissey Yunon tuprog'iga sog'-omon qaytishni orzu qilsa, Eney Rim o'lkasiga shoshiladi. Shoir o'z qahramoni taqdirini Rim tuprog'i, Rim davlati taqdiri bilan bog'laydi. Vergiliy yashagan zamonda Afinaning ilgari mavqei yo'qolib, Rim qudratli davlatga aylangan edi.

Rimliklar Afinadan ko'ra Troyaga ko'proq xayrixoh edilar. Yunonlarning makr-hiyla yo'li bilan Troyaga bostirib kirishini ular qoralar edi. Buning ustiga Rim shoiri sharaflagan, ko'klarga ko'tarib maqtagan Eney ham aslida Troya farzandi edi. Shoirning aytishicha, ma'bud Yupiter ham Rimning kelajakda qudratli davlatga aylanishini bashorat qiladi.

Hammaga xush tushadigan fikrni o'z asari qatiga singdirib yuborgan Vergiliyning obro'-e'tibori ko'tarilib, imperatorning mukofotlariga sazovor bo'ladi. Vergiliyning butun ijodi, asarlarining ruhi Oktavian saltanatini mustahkamlashga qaratilgan. Vergiliyning pand-nasihatlari ham unga olam-olam shon-shuhrat keltiradi.

Adabiyot ixlosmandi bo'lgan barcha yoshlar Ovidiy ijodini sevib o'qishadi. Shoir «Ishq-muhabbat ma'budi» degan ulug' sharafiga bejiz muyassar bo'lmagan.

Shoir ijodida sevgi-muhabbat mavzusi keng o'rin egallaydi. «Ishqiy elegiyalar» to'plami Rimdan uzoq-uzoqlarga tarqalib, shoirga ulug'lik yorlig'ini keltirdi. O'n sakkiz ayol, uch erkak tilidan yozilgan «Qahramon ayollar» yoki «Maktublar» deb ataluvchi asari va «Sevgi san'ati» asari Ovidiyning muhabbat bobida antik dunyoda tengsiz so'z san'atkori ekanligidan dalolat beradi.

Ovidiy inson qalbining nozik torlarini mahorat ila cherta olgan beqiyos quvvai hofiziga ega bo'lgan shoirdir.

Sulmon shahridagi badavlat xonadonlardan birida dunyoga kelgan Ovidiy o'spirinlik yillari Rimga kelib, yaxshigina ta'lim oladi. Keyinchalik Yunoniston va Kichik Osiyo bo'ylab sayohatga chiqib, dunyoqarashi anchagina o'sib, olam-olam taassurotlar bilan qaytadi. O'sha paytlar har bir rimlik yunon shoirlari asarlarini o'qish va yod olishni, Afinada tahsil olishni sharaf deb bilardi. Ovidiy yunon shoirlari ijodi bilan batafsil tanishib, bir dunyo zavq oladi. Rimning ko'zga ko'ringan adabiyot darg'alari bilan yaqindan aloqa bog'lab, o'z ijodini erta boshlaydi. Ilk ijod mahsuli bo'lgan «Ishqiy elegiyalar» to'plamidagi aksariyat she'rlari Karinna nomli go'zalga bag'ishlangandir. Aslida Karinna shoirning ma'shuqasi bo'lganligini, no'malum sabablarga ko'ra undan ajrab qolganligini, bunday hijron azobi shoir ruhiyatiga qattiq ta'sir etganligini ta'kidlashadi. Ehtimol, shuning uchun ham shoir butun hayotini, borlig'ini ishq-muhabbatga bag'ishlaydi. Ovidiy yashagan zamonda son-sanoqsiz shoirlar Oktavianni ko'klarga ko'tarib maqtar va buning evaziga qator in'omlar olishga musharraf bo'lardi. Nogahon bunday saroy mushoiralarida qatnashib qolgan Ovidiyning she'rlari imperatorga unchalik xush kayfiyat baxshida etmaydi. Natijada hammaga berilgan qimmatbaho mukofotdan shoir mahrum bo'lib qoladi. Shundan so'ng Ovidiy tanqidiy fikrlarni o'z ijodiga olib kiradi.

Ovidiy yangicha ijodiy yo'lni tanlaydi. O'zidan ilgari o'tgan Yunon va Rim shoirlari kabi faqat ma'bud va ma'budalar, afsonaviy pahlavonlar hayotidan olingan mifologik syujetdan bir qadar uzoqroq turib, inson hayotiga yaqinlashadi. Insonga xos bo'lgan his-tuyg'ularni, ehtirosu izhorlarni kuylaydi. Qarangki, antik shoirning jo'shqin misralari hamon insoniyatga ruhiy quvvat bag'ishlab kelmoqda.

O'n besh bob, o'n ikki ming misradan iborat «Metamorfozalar» asari shoir ijodining, qolaversa, jahon adabiyotining gultoijidir.

Bu bebaho ijod namunasi ma'bud va ma'budalar va boshqa afsonaviy qahramonlar hayotiga bag'ishlangan bo'lsa-da, unda ishq-muhabbat mavzusi keng o'rin egallaydi. Shoir mifologik vositalar orqali o'zi yashagan zamonda yuz berayotgan yaramas illatlarni masxara qiladi.

«Sevgi davosi», «Sevgi san'ati» asarlaridagi ishqiy she'rlari Imperatorga unchalik yoqmaganligi sababli, shoir «Metamorfozalar» («Tur-lanish») asariga qo'l urgan edi. Saroy, saltanat ishlariga daxldor voqealardan o'zini biroz tiyib, ma'budalar obrazi vositasida o'z dardini ochishga harakat qilgan edi. Biroq bu urinishlari ham chippakka chiqqan edi. Oktavian bu asarni yaxshi qabul qilmagan edi. Bundan qattiq tashvishga tushib, ta'sirlangan shoir barcha asarlarini yoqib yuboradi. Tez orada shoir Imperatorning farmoyishi bilan Pant (Qora dengiz) bo'ylariga badarg'a qilinadi. Surgunda chekkan azob-uqubatlari haqida «G'amgin elegiya», «Pantdan maktublar» asarlari yuzaga keladi.

O'n yillik mashaqqatli surgun davomida shoir vatanga qaytish orzusi bilan yashaydi, Imperatordan qayta-qayta uzr so'rab, maktublar yo'llaydi. Biroq bu maktublarga Oktavian ham, uning o'limidan so'ng Rim taxtiga o'tirgan Tiberiy ham e'tibor bermaydi.

Ovidiy ona yurtini sog'inib, hasrat va nadomatlar chekib, milodiy 18-yilda Qora dengiz bo'ylarida olamdan o'tadi.

Rim adabiyotining shaydolari, muxlislari shoir o'limidan keyin qo'lyozmalarini to'plab nashr qiladilar. Avlodlar ishq kuychisi Ovidiy nomini ulug'lab, ardoqlab kelmoqda.

HERODOT

(Mil. avvalgi 484–430-yillar)



Herodot Kichik Osiyoning Galikarnas shahrida tug'iladi. Galikarnas Kichik Osiyo va Grek shaharlarini bir-biriga bog'laydigan qulay port shahri bo'lib, u yerda savdo-sotiq keng rivojlangan edi. Miloddan avvalgi XI asrda qurilgan bu shaharga turli mamlakatlardan sayyohlar, donishmandlar, shoirlar, muarrixlar tez-tez tashrif buyurib turishardi. Herodotning otasi Galikarnasning obro'li va savodxon kishilaridan biri edi. U o'g'lining yoshligidan bilim olishiga alohida e'tibor bilan qaray boshlaydi. Herodot bolalik chog'laridayoq atoqli

grek so'z san'atkorlari va ulug' muarrixlarning asarlarini qunt bilan mutolaa qiladi. Ayniqsa, Homer, Hesiod, Aristey, Arxilox, Sapfo, Alkey, Anekreont, Pindor va Esxil asarlarini qiziqish bilan o'qiydi.

Herodot grek adabiyotini juda sevardi. Ayniqsa, tarixiy proza namunalari Herodot e'tiborini o'ziga tortadi.

U dengiz shunqorlari va sayyohlari tilidan g'aroyib sarguzashtlarni tinglashni juda-juda yoqtirardi.

«Eron tarixi» kitobi Herodot e'tiborini o'ziga tortadi. Bu kitob lampsaklik Xaron qalamiga mansub bo'lib, unda Kir va Kambis hukmronligiga qaram bo'lgan Hind, Baqtriya, So'g'd va Kavkaz mamlakatlari haqida hikoya qilinardi. Herodot ijodi «To'qqiz kitob tarixi» deb nomlanuvchi katta ilmiy-badiiy xazinani tashkil etib, bu kitoblarning har qaysisi yuzlab hikoyalarni o'z ichiga oladi.

Herodot skiflarning kelib chiqishi haqida turli rivoyatlar bitgan. Jumladan, to'rtinchi kitob to'laligicha skiflar hayotiga bag'ishlangandir. Bu kitobning beshinchi hikoyatida aytilishicha, skiflar bilan yunon ma'bud va ma'budalari o'rtasida yaqin qarindoshlik aloqalari bo'lgan, greklar muqaddas bilgan ma'budlar ma'budi Zevs skiflar uchun ham ma'bud bo'lgan emish.

Herodotning «Skiflar» asari jahon adabiyoti xazinasidan munosib o'rin egallagan. Bu asar juda ko'plab tillarga tarjima qilingan. Skiflarni birinchi bo'lib jahonga tanitgan ham Herodotdir.

Herodot talay mamlakatlarni piyoda kezgan. O'zi ko'rgan-bilgan voqealarni qalamga olgan. Qayerda bo'lmasin, insonlarning qalbiga yo'l topgan. Begona odamlarni samimiyligi, dilkashligi bilan o'ziga rom etgan. Ziyrakligi bilan bir qabilaning urf-odatlarini, o'ziga xos yashash sharoitini ikkinchi qabilanikidan farqlay olgan. Jahongashta adib butun umrini ijodga baxshida etgan. Ko'p qarama-qarshiliklarga, qiyinchiliklarga, azoblarga duch kelgan. Biroq qo'lidan qalamni tashlamagan. U tahlikaga va umidsizlikka tushmagan, insoniyat uchun xayrli ish qilayotganini chuqur his etgan.

Herodot hikoyalarida skiflarning kelib chiqishi haqida shunday hikoya qilinadi. Hammayoq dastlab yap-yalang'och cho'l bo'lgan, bu cho'lda Targitoy degan odam paydo bo'lgan. Targitoy Zevs bilan daryo qizi Borifenesadan tug'iladi. Targitoydan uch o'g'il paydo bo'ladi: Lopiksay, Arpaksay va eng kichigi Koloksay. Kunlardan bir kun osmondan oltin narsalar yog'iladi. Bular quyidagilar: omoch, arqon, bolta va tovoq. Bu oltin narsalarga katta o'g'il yaqinlashganda ular o'zlaridan shunday nur taratib yarqiraydiki, orqaga chekinishga majbur bo'ladi. O'rtancha o'g'il yaqinlashganda ham shunday hodisa yuz beradi. Eng kichik o'g'il yaqinlashganda bu oltin buyumlar o'zidan nur taratishdan to'xtaydi. Natijada u bu oltinlarni olib, uyiga ravona bo'ladi. Shundan so'ng katta o'g'il Lopiksay kichik ukasi Koloksayga shohlikni in'om etadi.

Lopiksaydan tarqalgan skiflarni «Avxatovglar» deb atashgan. O'rtancha o'g'il Arpaksaydan tarqalgan skiflarni «Katiaram» va «Traspiyamlar» deyishgan. Kichik o'g'il Koloksaydan tarqalgan skiflarni «Parralatalamlar» deb nomlaganlar. «Bu voqea Doroning skiflar yeriga hujumidan ming yillar ilgari bo'lib o'tgan edi», deb yozgan muallif.

Herodotning keyingi hikoyalari ham o'quvchining e'tiborini o'ziga tortadi.

PLUTARX

(Mil. avvalgi 46–127-yillar)



Plutarx Gretsiyaning uncha katta bo'lmagan Xeron shahrida tug'iladi. Uning otasi Avtobul zamonasining o'qimishli kishilaridan biri edi. Shuning uchun ham u Plutarxning chuqur ilm olishiga alohida e'tibor bilan qaraydi.

Uning bobosi Lampriy ham ilm-ma'rifatga rag'batli kishi edi. Lampriy xonadoniga xeronlik adabiyot ahlari, donishmandlar tez-tez tashrif buyurib, quyuq suhbatlar qilib turishadi.

Bobokaloni Nikarx ham Xeronda yashab, Antoniy bilan Oktavian qo'shinlari o'rtasida bo'lib o'tgan Aktum jangining shohidi bo'lgan edi.

Plutarx Tomoksena ismli go'zal ayolga uylanadi. Undan to'rt o'g'il, bir qiz ko'radi. Ikki o'g'il – kattasi va eng kichigi hamda qizi yoshligida o'lib ketadi.

Rimdagi adabiy hayot uni ijod sari undaydi, u lotin tilini o'rganishga kirishadi. Biroq davlat ishlari bilan band bo'lganligi tufayli u uzoq yillar bu tilni o'rgana olmaydi. Faqat keksaygandagina lotin tilida yozilgan asarlarni o'qishga muyassar bo'ladi.

Rim tarixiga qiziqish bilan qaragan Plutarxni imperator Troyan, keyinchalik Adrian qabul qiladi. Plutarxning chuqur bilim egasi ekanligi, yuksak dunyoqarashi va ilg'or fikrlari Rim imperatorini qiziqtirib qolgandi. Shuning uchun ham Plutarxga «Rim imperatorligining yaqin kishisi» degan sharaflı nom beriladi.

Plutarx 50 ta «Hayotnoma» yozadi. Shulardan 46 tasi grek va rimliklar hayotidan yozilgan biografik asarlardir. Bu go'zal asarlar Plutarx nomini jahon adabiyotiga olib kirgan. Bular quyidagilar: Tesey va Romul, Likurg va Numa, Solon va Poplikova, Femistokl va Kamill, Perikl va Fabiy Maksim, Gay Marsiy Koriolan va Alkiviad, Emiliy Pavel va Timoleont, Pelopid va Marsell, Aristid va Katta Katon, Filopeme va Tit

Kvintiy Filaminin, Pirr va Mariy, Lisandr va Sulla, Kimon va Lukull, Nikiy va Krass, Evmen va Sertoriy, Agesilay va Pamayey, Aleksandr va Sezar, Fikion va Kichik Katon, Agid – Kleoman va Tiberiy Grakx, Gay Grakx, Demosfen va Sitseron, Dmitriy Poliorket va Anatoliy, Dion va Brut, shuningdek, yana to'rtta biografiya: Artakserks, Arat, Golba, Oton. Bu nomlarga diqqat bilan e'tibor bersak, ular Grek va Rim tarixida yashab o'tgan mashhur tarixiy shaxslardir. Yozuvchi ularning deyarli barchasini bir-biriga qiyoslab tasvirlaydi. Bu shaxslar hayotini tasvirllovchi asarlar majmuasi umumiy nom ostida «Qo'shaloq hayotnomalar» deb nomlanishi bejiz emas.

RUDAKIY

(Abu Abdullo)

(860–941)



«Fors-tojik adabiyotining otasi» deb nom olgan Rudakiyning she'rlari bir million baytdan iborat.

Samarqand yaqinidagi Panjrud-Rudak qishlog'ida tug'ilgan.

Rudakiyga zamondoshlaridan hech biri lirika bobida tenglasha olmagan. Uning ijodi xalq og'zaki ijodiga juda yaqin bo'lgan. Rudakiy ijodida hajv yuksak pafosda ifodalangan. U o'z xalqining qadim an'analari izchillik bilan davom ettiradi. Rudakiy o'zidan ilgari o'tgan adabiyotdan oziqlanib, ilhomlanib buyuklik darajasiga ko'tarilgani shubhasizdir.

Rudakiy keksalik chog'ida ko'ziga mil tortilib, mamlakatdan quvg'in qilinadi.

Rudakiy «Kalila va Dimna» nomli doston ham yaratgan. Bu dostonning bizga ayrim sahifalari yetib kelgan. Rudakiy she'riyat bobida Homerni eslatga, musiqa bobida yunonlar ulug'lagan Orfeyni esga soladi. G'azal, ruboiy, qasida, qit'a janrlarida ijod qilgan shoir umrining anchagina qismini Buxoroda – Somoniylar davlatining hukumdori Nasr II ibn Ahmad saroyida sozanda va shoir sifatida o'tkazadi. Ehtimol shuning uchundir hayotlik chog'idayoq shoir nomi uzoq-uzoqlarga yetib boradi. Uning g'azal va qasidalarida xalq ijodiga xos mayinlik, ifodaviylik hukmron. She'rlari insonga ko'tarinkilik ruhini bag'ishlaydi. Rudakiy do'stlikni, insoniylikni, ilm-ma'rifatni ulug'laydi. «Odamdan yuqori turarkan olam, Bilim oshirmoqqa muhtojdir odam», degan shoir nomi ijodi kabi barhayot bo'lib qoldi.



Jahon ilm-fani, adabiyoti va san'ati tarixida ibn Sinoning roli beqiyosdir. G'arbda Avitsenna nomi bilan mashhurdir. Olim matematika, falsafa, meditsina, biologiya ilmi bobida katta salohiyatga ega bo'lib, ruboiy va g'azallar ham bitgan. Uning she'rlaridan o'z davrida ham, keyinchalik ham ko'pchilik bahramand bo'lgan.

U Buxoro yaqinidagi Afshona qishlog'ida tug'iladi. Yoshligida Buxoroga kelib, ilm o'rganadi. O'sha paytlarda Buxoro davrining markaziy shaharlaridan bo'lib, ilm-fan rivoj topgan edi.

Ibn Sinoning o'rta asrlar Sharqida mashhur tabib bo'lib yetishishiga, bir tomondan, Buxoro ilmiy muhiti katta ta'sir ko'rsatgan bo'lsa, ikkinchi tomondan, unda tabiiy iste'dod ham mavjud edi.

Hukmron Somoniylar zulmi Buxoro ilmiy-adabiy muhitining rivojiga tez-tez salbiy ta'sir o'tkazib turardi. Ibn Sinoning xalq o'rtasida obro'si oshib borayotganidan tashvishga tushgan g'arazgo'y doiralarda ma'rifatparvar insonni Buxorodan haydab chiqaradilar. Shundan so'ng u Samarqand, Balxga, keyin Bag'dodga borib, ilm o'rganadi. Niso, Nishopur, Jurjon, Ray, Isfahon, Hamadon shaharlarida bo'ladi. Qayerda bo'lmasin o'z ilmi, she'riyati bilan xalq qalbidan keng o'rin egallaydi. Umrlining oxirida Hamadonda yashab, 57 yoshida vafot etadi. Ibn Sino qabri o'sha shaharda.

«Tib qonunlari», «Donishnoma», «Najot kitobi», «Turar joyning tuzilishi», «Insof kitobi», «Tibbiy ko'rsatmalar haqida» kabi 450 dan ortiq asarlaridan bizgacha 160 ga yaqini yetib kelgan.

Ibn Sinoning «Al-qonun» asari 1284-yilda lotin tiliga tarjima qilingan. «Kitob ush-shifo» asari G'arb davlatlari o'quvchilariga tezda yetib borgan. Uning «Kitob al-qonun fit-tib», «Al-qonun», «Arab tili», «She'r to'g'risida kitob», «Musiqqa haqida risola», «Mantiq bo'yicha rajaz bahrida manzuma» («Urjuza fil mantiq»), «Qushlar risolasi», «Salamon va Ibsol» kabi asarlari mavjud.

Ibn Sino tabib, adabiyotshunos, shoir, tarixchi, murabbiy, geograf, bir so'z bilan aytganda qomusiy olim bo'lib tanildi. Uning faoliyatida tibbiyot muhim o'rin egallasa-da, u ilm-fanning har xil sohalarida, badiiy ijodda ham mashhur bo'lgan.

Ibn Sinoning ruboiylari uning qalami o'tkir bo'lganligidan guvohlik beradi.

ABULQOSIM FIRDAVSIY

(941–1025)



Eronning Tus shahriga yaqin bo'lgan Boj qishlog'ida dunyoga kelgan. Shoir o'z qishlog'ida ta'lim olgandan so'ng, Tusga kelib, ilm-ma'rifat kishilari bilan bog'lanadi.

Ma'lumki, Tus qadimda gullab-yashnagan shaharlardan biri bo'lgan. Firdavsiy bu shahardagi madrasada ta'lim oladi. Dehqonchilik, bog'bonchilik bilan mashg'ul bo'ladi. Yoshligidan xalq ijodiga ixlos qo'yadi. Podshohlar haqidagi hikoyatlarni berilib o'qiydi. Pand-nasihat ruhidagi she'rlar yozadi. Shohlarni madh etuvchi asarlar yozish o'sha paytlarda

an'ana edi. Firdavsiy ilgari yaratilgan ko'plab asarlardan ilhomlanib, 35 yil tinimsiz izlanadi. Natijada yuzdan ortiq dostonni o'z ichiga olgan buyuk «Shohnoma» asari yuzaga keladi. Shoir bu asarini Sulton Mahmud G'aznaviyga taqdim etadi. «Shohnoma» o'zbek tiliga tarjima qilingan. Bu asar jahon adabiyoti xazinasidagi durdona asardir.

Firdavsiy ijodiyoti Sharq mumtoz adabiyoti rivojiga katta ta'sir ko'rsatadi. «Shohnoma»dagi Kayumars, Hushang, Taxmuras, Jamshid, Som, Narimon, Zol, Rustam, Bijon, Anushirvon, Bahrom Go'r, Xisrav obrazlarini turli xalqlar adabiyotida uchratish mumkin. Xususan, Nizomiy, Dehlaviy, Jomiy, Navoiy o'z asarlarida Firdavsiyni ustoz deb hurmat bilan tilga olishadi. Haqiqatan ham, Firdavsiy nomi jahon adabiyotida buyuklar qatoridan o'rin olgan.

UMAR XAYYOM

(G'iyosiddin Abulfath Umar ibn Ibrohim)

(1040–1123)



Umar Xayyom jahonga mashhur ruboiy ustasidir. Nishopur shahri yaqinidagi qishloqda chodir to'quvchi oilasida tug'iladi. O'z davrining ilmi kishisi Nasriddin Shayx Mansur qo'lida ta'lim oladi. Aljabr, fizika, jo'g'rofiya, ilohiyot ilmini o'rganish bilan birga fors-arab tili adabiyotini ham mukammal o'zlashtiradi. Keyinchalik Balx, Buxoro, Samarqand, Mak-kagacha boradi.

Uning ilk asari Balxda «Hisobning qiyin masalalari» nomi ostida kitob holiga keltiriladi.

Xayyomning shuhrati tobora ortib boradi. Buxoro hokimi Shamsulmulk (1068–1079) shoirni saroyga taklif etadi. Shamsulmulk Umarni saroyda izzat-hurmat bilan qabul qilib, o'tirgan taxtining yonidan joy beradi. Buxoroda katta obro'ga ega bo'lgan Xayyomning dovrug'i Saljuqiylar davlatining poytaxti Isfahonga yetib boradi. Shohning vaziri Nizomulmulk Xayyomni taklif qilib, saroydagi obro'li ilm ahllari qatoridan joy beradi. Xayyom umrining oxirida Nishopurga kelib, muttasil ijod bilan mashg'ul bo'ladi va shu yerda vafot etadi.

Uning «Mux asar fizika», «Borliq haqida risola», «Borliq va burch haqida», «Risolai jabr», «Maqolat fi jabr val muqobala» («Algebra masalalari haqidagi maqolalar» (1069–1074), «Risolatul hokimil Fozil G'iyosiddin Abdulfath Umar Ibn Ibrohimul Xayyomiy an-Nishopuriy fil barahim alo masayilil jabr val muqobala» («Hakim va Ibrohim Xayyomiy Nishopuriyning algebra va muqobala masalalari haqidagi risolasi»)) va boshqa asarlari mavjuddir. Umar Xayyom shoir sifatida ham mashhurdir. Uning ruboiylari o'zi yashagan zamon va keyingi davr adabiyoti taraqqiyotiga kuchli ta'sir o'tkazgan. «Ko'zanoma» siklidagi she'rlari jahon bo'ylab keng tarqalgan. «Navro'znoma» asarida faqat yangi yil boshi – Navro'zning kirib kelishini ta'riflab qolmay, adabiyot tarixi va qoidalari haqida ham muhim fikrlarni aytib o'tgan. Shoir vafotidan so'ng ruboiylari to'planib, qaytadan ko'chirilib, kitob holiga keltirildi. Ularning birida (1207) 252 ta, ikkinchisida (1254–1260) 172 ta ruboiy borligi aniqlangan.

Sharqshunos olim Shoislom Shomammedovning ta'kidlashicha, «U shoir sifatida, dastavval, Yevropada shuhrat qozondi. Ukrain sharqshunos olimi akademik A. Krimskiy Xayyomning Eronda shoir sifatida mashhur bo'lmaganini ta'kidlab o'tgan edi: «1913-yil oktabrida men bunga yana bir marta ishonch hosil qildim, hozir (ya'ni 1914–15-yillarda – *Sh. Sh.*) Eron tashqi ishlar ministrligining xizmatchisi bo'lmish Mirza Hamid u vaqtda (ya'ni 1913-yilda – *Sh. Sh.*) Moskva Davlat universitetida bilimini takomillashtirar edi. Eronda juda mukammal bilim olgan bu kishi menga chin ko'nglidan e'tirof qilib, «hozirgi forslar uning (Xayyomning – *Sh. Sh.*) she'rlarini o'qiganlarida uni Xo'ja Nasriddinga o'xshagan xushchaqchaq, masxaraboz kishi sifatida tasavvur qiladilar. Hindistonda esa uni avliyo-so'fiy sanab, nashr etadilar, men to «Eron va Eron adabiyoti tarixi» kitobini rus tilida mutolaa qilmagunimcha, Umar Xayyomning ulug' olim, teran fikrli faylasuf, donishmand ekanligini xayolimga ham keltirmagan edim, dedi».

Yevropa olimlari Umar Xayyomning matematika, fizika, astronomiyaga oid asarlarini uzoq vaqt tahlil qilib, undan ko'p narsa olib, ko'p narsa o'rganadilar. Saljuqiylar saltanatida shoir munajjim va tabib sifatida

faoliyat yuritadi, saroyning eng martabali shoiri sifatida hurmat-e'tiborga loyiq bo'ladi.

Umar Xayyom Ibn Sinoni o'z ustozlari deb ehtirom bilan tilga olgan va ustozning tibbiyotga oid asarlari umrining oxirigacha shoir qo'lidan tushmagan. Umar Xayyom tabiblik sir-sinoatini ham ustozidan o'rganganini tan oladi.

Umar Xayyomning zehni nihoyatda o'tkir bo'lgan, o'ziga yoqqan asarni bir bor o'qisa bas, yod olib qo'ya olgan. Buni zamondoshlari bir necha bor sinovdan o'tkazib, hayratga tushishgan.

Umar Xayyom xudojo'y edi. O'limi oldidan Qur'oni karimdan bir necha surani o'qib, Allohdan qilgan gunohlari uchun kechirim so'rab, keyin jon beradi.

G'arb ilm ahli Umar Xayyomning ruboiylarini to'plab, «Ko'zacha» nomi bilan nashr ettiradi. Shunga asoslanib, ayrim G'arb va, hattoki, Sharq olimlari uni mayparast shoir deyishadi. May haqida she'r yozgan shoirlarning hammasi ham mayparast bo'lavermaydi. Umar Xayyomning may ichib, mast-alast holda yurganini hech kim ko'rmagan va hech bir manbada qayd etilmagan. Bundan tashqari, Sharq, xususan, tasavvuf she'riyatida may obrazining ilohiylik, o'zdan kechib, komil inson bo'lish bilan bog'liq ma'nosi bor. Shoir o'zini hayot mashaqqatlari oldida juda ojiz his etadi. G'am-qayg'uga botib, nola qiladi. May shu qayg'uni unutish vositasidir.

Umar Xayyomning har bir misrasida o'ziga xos falsafa yotganini sezish qiyin emas.

NIZOMIY GANJAVIY

(Abumuhammad Ilyos ibn Yusuf)

(1141–1209)



Nizomiyni jahonga mashhur qilgan «Haft paykar» («Etti go'zal»), ya'ni ettita dostonidan iborat shoh asaridir. Ganjada ijod qilgan ulug' Ozarboyjon shoirini Sharqda ko'plab shoirlar o'z ustozlari deb bilib, uning ijodidan bahramand bo'lib kelganlar.

Nizomiy Sharq mumtoz adabiyotida «Xamsa» yaratish an'anasini boshlab beradi. Nizomiydan so'ng Sharq adabiyotida qirqdan ziyod «Xamsa» yaratilgani ma'lumdur.

«Mahzan ul-asror» («Sirlar xazinasi»), «Xisrav va Shirin», «Layli va Majnun», «Haft paykar» («Etti sayyora»), «Iskan-

daronoma» dostonlari Sharq falsafasining yorqin namunasi. Shoir ijodi bilan o'z nomini mangu qoldirdi.

Darband xoni Nizomiya Ofan nomli bir cho'ri qizni tortiq qiladi. Ofandan Muhammad ismli o'g'il ko'radi. 1180-yilda umr yuldoshi o'lgandan so'ng, yana ikki marta uylanadi. Ikkalasi ham 1188, 1200-yillarda vafot etadi. Shundan so'ng Nizomiy hayotini ijodga bag'ishladi.

Nizomiy saroyda yashamasa ham shirvoniy shahzodalarning topshirig'iga binoan ijod qilardi. Xususan, «Xamsa» ham podshohlik buyrug'iga binoan yoziladi. Shoir Xisrav, Bahrom, Iskandar obrazlari orqali adolatli shoh obrazini yaratadi. Shahzodalarni adolatga chaqiradi.

SHOTA RUSTAVELI

(1146–1196)



Gruzin xalqi Shota Rustavelini juda ulug'laydi. Shoir «Yo'lbars terisini yopingan pahlavon» asari bilan mashhurdir. Asar gruzin malikasi Tamaraga bag'ishlangandir.

U gruzin adabiyotining asoschisi degan ulug'nomga muyassar bo'ldi. Gruzin adabiyoti va madaniyatining qadimiyligini ham «Yo'lbars terisini yopingan pahlavon» asari bilan bog'laydilar.

Asarda xalq qahramonligi, do'stlik va muhabbat ulug'lanadi. Bosqinchilarga qarshi kurash va vatanparvarlik g'oyasi ham ilgari suriladi. Tariel, Avtandil, Faridun kabi mard va jasur obrazlar madh etiladi. Shoir gruzin ayolini juda ulug'laydi.

Rustaveli sevgiga sadoqat, mardlik, botirlikni ulug'laydi. Muhabbat shunday tuyg'uki, shoir nazdida, u insonni go'zallikka yetaklaydi.

*Muhabbatda vafodor bo'l, pastkashlikka begona,
Ayрилиqqa chidab turgin, sabr qilgin mardona.
Sen yagona ma'shuqangga muxlis bo'lg'in barqaror,
Fahshu zino, nafsoniyat nazarimda ko'p murdor.*

Ayni chog'da ushbu misralar didaktik, ya'ni pand-nasihat ruhi bilan ulug'orilgandir. O'rta asrlar adabiyotiga xos bo'lgan bunday didaktik ruh ushning ifodaviyligi, o'qishligini ta'minlaydi. Asarning tuzilishi, she'r o'lchovlari Sharq adabiyotidan ko'ra Yevropa adabiyotini ko'proq slotadi.

Bu ayrim G'arb so'z san'atkorlari ijodi Shota Rustaveli ijodiga xayrli a'sir ko'rsatganidan dalolat beradi. Bunday ruh asar syujetidan ham zilib turibdi.

SA'DIY SHEROZIY

(Abu Abdulloh Mushrifiddin ibn Muslih)

(1204–1294)



Mag'ribu Mashriqqa mashhur bo'lgan Sa'diy Osiyo shoirlarining ustози hamdir. U Osiyoning markaziy shaharlaridan biri Sherozda dunyoga keladi. Shoirlar shahri deb nom olgan bu shaharning nomi faqat Eronda emas, uzoq-uzoqlarda ham ma'lum va mashhur edi. Sherozda ilm o'rgangan olim Chingizxon zulmi kuchaygach, Bag'dodga borishga majbur bo'ladi. O'n besh marta Makkani ziyorat qiladi. Damashqda yashab qoladi. Bu yerda ham hayoti osuda kechmaydi. Qashqarga, Hindiston shaharlariga boradi. Qarilik chog'ida o'z ona shahri Sherozga qaytib keladi. Sa'diy poeziyasi juda mashhurdir. Proza yo'li bilan yozilgan «Guliston», 8 ming misradan iborat «Bo'ston» nomli shoh asarlari mavjud. Hyote o'zining «G'arbu Sharq devoni» asarida Sa'diy she'riyatini yuksak baholab, alohida fasl ajratadi. Shoir ijodida didaktika, pand-nasihat alohida o'rin tutadi. «Guliston» asarida zolim shohlar haqidagi hikoyatlar mavjud. Ba'zi bir tadqiqotchilar shoirming 120 yil yashaganligini ta'kidlashadi.

Sa'diy insonni ulug'laydi, yetimlarga xayr-ehson qilish lozimligini aytadi. Uning munozara janri va avtobiografik ruhdagi asarlari ham mavjuddir. Yaqiniy «O'q va yoy» munozarasini yaratish chog'ida Sa'diydan ilhomlanganini ta'kidlaydi.

Sa'diyning «Bo'ston» asarini Ma'sud ibn Ahmad, «Guliston» asarini esa Sayfi Saroiy o'zbek tiliga tarjima qilgan.

Sa'diyning adabiy merosi juda boy. Hayotlik chog'idayoq asarlari yetti iqlimga tarqalib ketgan. Sharqliklar Sa'diy she'rlarini yod olishni savob ish deb bilishgan. Sa'diyxonlik kechalari bo'lib turgan. Uning g'azallarini to'plab, alohida kitoblar qilishgan. Ali binni Ahmad binni Abubakir (manbalarda taxallusi Besutun bo'lgan deyilgan) Sa'diy asarlarini to'plab kulliyot tuzgan. Bu kulliyotda «Shash risola» («Olti risola»), «Guliston», «Bo'ston», «Qasoyidi arabi» («Arabcha qasidalar»), «Qasoyidi forsiy» («Forscha qasidalar»), «Sohibiya» («Sohib-noma»), «Masnaviyat» («Masnaviylar»), «Mulammoat» («Shiru shakarl»), «Mufradot» («Fardlar») alohida-alohida o'rin egallagan.

Sa'diy pandnomalarida didiktik ruh ufurib turadi. Ehtimol shuning uchundir shoir asarlari xalq orasida tezda mashhur bo'lib ketadi. Sharq ta'lim dargohlarida qadimdan to hozirgacha Sa'diy ijodiyoti o'rganib

kollinmoqda. Shoir inson butun umri davomida ta'lim-tarbiya olishi harak, degan g'oyani ilgari suradi. «Guliston» asarining boblarga ajratilishi tartibi diqqatni tortadi. Birinchi bob «Podsholarning xislati», ikkinchi bob «Darveshlarning axloqi», uchinchi bob «Qanoatning yaxshiligi», to'rtinchi bob «Xomushlikning foydasi», beshinchi bob «Ishq va yoshlik», oltinchi bob «Notavonlik va qarilik», yettinchi bob «Tarbiyaning kuchi», sakkizinchi bob «Suhbat odobi».

Bu boblar pandnoma ruhida bitilgandir. «Bo'ston» asarida prozaga poeziya hamohangligini ko'rishimiz mumkin. Birinchi bob «Adolat», ikkinchi bob «Ehson», uchinchi bob «Ishq», to'rtinchi bob «Tavoze», beshinchi bob «Rizo», oltinchi bob «Qanoat», yettinchi bob «Tarbiya», sakkizinchi bob «Shukur», to'qqizinchi bob «Tavba». O'ninchi bob xotima o'rnida berilsa-da, yuqoridagi boblarning mantiqiy davomidir, har ikkala asarning ma'rifiy ahamiyati kattadir.

XUSRAV DEHLAVIY

(G'iyosiddin Abulhasan)

(1253-1325)



Shoirning asli Shahrisabz (Kesh)dan bo'lgan ota-bobolari taqdir taqozosi bilan Dehliga borib qolgan. Otasi shoirtabiat kishi bo'lib, onasi hindlardan edi. O'z yurtiga qaytishni orzu qilib yurgan otasi mo'g'ullarga qarshi jangda halok bo'lgach, 8 yoshli o'spirin Dehlida umrbod qolib ketadi.

Saroy shoirlariga yaqin bo'lgani uchunmi, dashtlabki she'rlarini «Sultoni» taxallusi bilan yozadi. Aytishlaricha, shoirning she'rlari 400000 baytdan ziyod bo'lgan. To'qson to'qqizta kitob muallifi bo'lgan, deb ta'riflashadi.

Shoirning she'riyat mulki «Tuffat us-sig'ar» («Yoshlik tuhfas»), «Visot ul-hayot» («Hayot o'rtasi»), «Turrat ul-kamol» («Kamolotning boshlanishi»), «Baqiya un-naqiya» («Saralarning sarasi»), «Nihoyat ul-kamol» («Kamolot cho'qqisi») deb nomlangan besh devonga jamlangan. Bundan tashqari, yirik dostonlarni o'z ichiga olgan «Kiron ussa'dayn» («Ikki saodatli sayyoraning qo'shilishi»), «Miftah ul-futuh» («G'alabalar kaliti»), «Duvolroniy va Xizraxon», «Nuh spehr» («To'qqiz qavat osmon») asarlari majmuasi ham mavjuddir. Nizomiydan so'ng xamsachilik an'anasini davom ettirgan Xusrav Dehlaviy bu ulkan ishni ham mahorat bilan nihoyalaydi. Uning «Xamsa»sidan o'rin olgan besh

doston quyidagilardir – «Matla’ul anvor» («Yoritgichlarning chiqishi»), «Shirin va Xusrav», «Majnun va Layli», «Iskandar ko’zgusi» («Oyinai Iskandariy»), «Hasht behisht» («Sakkiz jannat»). Sharq mumtoz adabiyotining allomalari Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy uni o’z ustozlari deb bilgan va har ikkala she’riyat sultoni ham «Xamsa» yaratishda Xusrav Dehlaviy ijodidan bahramand bo’lgan.

Xusrav Dehlaviyning «Xamsa»siga kirgan «Oyinai Iskandariy» («Iskandar ko’zgusi») dostoni nihoyatda qiziqarli voqealar asosida bitilgan. Sharq xalqlari orasida Iskandar oynasi, sehrli ko’zgu va oyna nomi bilan bog’liq afsonalar bor. Ba’zi bir manbalarda «usturlob» deb nomlangan.

Xusrav Dehlaviyning «Oyinai Iskandariy» dostonida ta’kidlanishi-chi, usturlob Chindan Rumga keltiriladi. Biroq bu usturlobni Iskandar emas, Chin xoqoni yaratganligi ravshanlashadi. Chunki Iskandar Chin xoqonining ko’zgusini ko’rib, o’zi ham usturlob yaratishga kirishadi. «Oyinai jahon» yaratishga Iskandar birinchi emas, ikkinchi bo’lib kirishgan. Bu haqda shoir shunday yozgan:

*Yana ko’zgu haqda so’z bitgan zamon,
Chindan Rumga kelgan deyishadi hamon.*

*Asosi Xoqonlar, Iskandardanmas,
Dedilar shu bilan so’zni qilib bas.*

*Ammo bu da’voda Iskandar podshoh,
Ikkinchisi bo’lib tikildi tanho.*

Bu bilan shoir Xitoyda qadimda ilm-fan va madaniyat ravnaq topganligini ta’kidlamoqda. Ilm-fanning yuksakligi jihatidan Xitoy eng qadimiy madaniyat o’chog’i bo’lgan. Dunyoning hech bir burchagida yaratilmagan usturlobning Xitoyda ixtiro etilishi fikrimiz dalilidir.

DANTE ALIGERI

(1265–1321)

O’rta asrlar oxiri va Uyg’onish davrining boshi – ikki davr oralig’ida yashab o’tgan ulug’ italyan adibi. Shoir 37 yoshga to’lganda boshiga kulfat yog’iladi. Papa partiyasi davlat tepasiga chiqqandan so’ng shoirmi birinchilar qatori Florensiyadan quvg’in qiladi. Shundan so’ng qolgan umri Verona, Mantuya, Parile, Luki, Ravenna shaharlarida nihoyatda og’ir hayot girdobida o’tadi.

Shoirilar hamma zamonlarda ham sevgi-muhabbatni ulug’lab kelgan. Sevgan yorining tavsifini keltirib, unga hech go’zalning teng kelmas-



ligini ta'riflashgan. Bu yorug' olamda yolg'iz o'zi va sohibjamoligina sadoqatli deb bilishgan. Go'zalning jamoli, nazokati, husni-tarovati, qaddi-qomati haqida dostonlar bitishgan. Dante sohibjamol Beatricheni sevib qoladi. Unga atab she'rlar bitganida 17–18 yoshlarda edi. Keyinchalik bu she'rlarni «Yangi hayot» to'plamiga jamlaydi.

Shoirning keyingi asarlari «Ziyofat», «Xalq nutqi haqida» (1305), «Monarxiya haqida» (1313) asarlaridir. Bu traktat, hikoya va risolalarida u din, til, siyosiy voqealar, saltanatga daxldor falsafiy

fikrlarini bayon etadi.

«Ilohiy komediya»sida yozuvchi «Narigi dunyoni»ni uch qism – «Do'zax», «A'rof» va «Jannat»ga bo'lgan. Asarning har bir qismi 33 qo'shiqdan tuzilgan bo'lib, kirish qismi bir qo'shiq, hammasi bo'lib 100 qo'shiqdan iborat.

«Do'zax» voronka shaklida o'yib tushirilgan joy bo'lib, unda 9 pog'onali chuqurlik mavjud. Gunohkorlar shu pog'onali chuqurlarda azob chekadilar. Pastki pog'onaga tushgan sari jon qattiqroq azoblanadi. Dante o'zining siyosiy muxoliflarini do'zaxga tashlaydi, ayniqsa, xristian dini ruhoniylarini qattiq qoralab, do'zaxning so'nggi pog'onalariga qo'yadi. «A'rof» yer kurrasiga qarama-qarshi joylashgan. Yer bilan uni katta okean ajratib turadi. Okean o'rtasidagi orolda baland tog' bor. Tog' yetti pog'onali bo'lib, ulardan o'tib borayotganda aybdorning bit-tadan gunohi yuviladi. 7 pog'onadan qutulganda 7 gunoh (mag'rurlik, ichiqoralik, g'azab, umidsizlanish, ta'magirlik, mechkaylik, buzg'un-chilik) yo'qolib, jannatga chiqadi. «Jannat» 9 qavatga bo'linadi, jon qanchalik yuqori pog'onaga ko'tarilsa, u xudoning marhamatiga shunchalik ko'p muyassar bo'ladi.

Dante o'z xato va kamchiliklarini bo'yniga olgan tanti shoir edi. U o'zini do'zaxga munosib deb biladi. Do'zaxning birinchi pog'onasida Homer, Goratsiy, Ovidiy kabi ulug' shoirlarni uchratadi, ular qatoriga o'zini ham shu dargohga loyiq deb hisoblaydi. Do'zaxning birinchi pog'onasida bo'lsa-da, bu ulug'larning gunohi unchalik ko'p emas.

Do'zaxning ikkinchi pog'onasida buzuqlar, shahvoniy hirsiga berilganlar turadi. Bular anchagina, shoir ularning ayrimlarini taniydi: Vavilon malikasi Semiramida, karfagenlik malika Didona, Misr malikasi Kleopatra, Sparta go'zali Yelena va boshqalardir. Shoir oddiy kishilarni emas, boy-badavlat xonadonlarga mansub go'zallarni keskin tanqid qiladi. Shoir har pog'onadagi buzuqliklar va bu yo'ldagi hiylanayranglar haqida qiziqarli hikoyatlar keltiradi. Ikkinchi pog'onadagi Pavlo bilan Franchesko de Rimmin haqidagi rivoyat juda qiziqarlidir.

Shoir do'xaxning uchunchi qavatida mechkaylarga duch keladi. Faqat o'zining qornini o'ylaydigan, yeb-ichishdan o'zini saqlay olmaganlardan nafratlanadi. Bundaylar uchun qornini to'yg'azishdan o'zga buyuk baxt yo'q. Kelajak ham, taqdir ham, hayot ham, ezgu niyat ham yeb-ichishdir. Albatta, bundaylar do'xaxga munosib.

Shoir to'rtinchi pog'onada xasislarga duch keladi. Bular papa va uning homiylari. Xalqdan behisob boylik to'playdiyu, odamlarni xayr-ehsonga chaqiradilaru, o'zlari esa hech kimga muruvvat ko'rsatmaydilar. Odamlarni tejamkorlikka chaqiradilaru, o'zlari isrofgarchilikka yo'l qo'yishadi.

Do'xaxning beshinchi pog'onasida badjahllar turadi. Ularning ayrimlari jahl orqasida o'zlarini tutolmay, og'ir gunoh – jinoyatga qo'l urgan bo'lsalar, bir to'da shohlar fuqarolarni qo'rqitib, ularni yanada qattiq tobe qilib olish uchun o'zlarini ataylab jahldor qilib ko'rsatganlar.

Do'xaxning yettinchi qavatida shoir o'z qonlariga belanib yotgan odamlarni ko'rib, yanada dahshatga tushadi. Bular zo'ravonlikni, bosqinchilikni, qotillikni o'zlari uchun amal qilib olgan qonxo'rlardir. Ularning tirikligida ham ko'zlari qonga to'lib yurardi. Behisob qotilliklar orqasidan katta boylik orttirib, rohat-farog'atda yashagan bo'lsalar-da, endi do'xax azobini tortmoqda.

Do'xaxning sakkizinchi qavatida to'xtovsiz olov ichida yonib-kuyib yotgan, azobdagi odamlarga ko'zi tushadi. Bular yolg'on gapiruvchilar, aldov yo'li bilan kun kechirgan firibgarlar, o'zining vijdonini sotgan qalloblar. Nogahon shoirning ko'zi Papa Nikolay III ga tushib qoladi. U alanganing qoq o'rtasida azob chekardi. Shoir o'tda yonayotganlar ichida o'z mansabini suiste'mol qilganlarni, ikkiyuzlamachilarni, poraxo'rlarni, jizzakilarni ko'radi. Papa Bonifasiy VIII ham hademay shu dargohga kelib, o't ichida qovurilishini bashorat qiladi.

Do'xaxning 9-qavatidagilar muz ustida azoblanadi. Shoir muz sovug'iga chiday olmay bir-birini g'ajib, ochlikda azob tortayotgan xoinlar ichidan ikki kishini ko'rib qoladi. O'z farzandlariga ham xoinlik qilishdan toymagan bu ablahlarni shoir eng dahshatli qiynoqlarga sazovor deb o'ylaydi.

Asarning ikkinchi qismida shoir «A'rof» bo'ylab sayohatga chiqadi. Bu yerdagilarning gunohi unchalik og'ir bo'lmay, hademay ular gunohlardan xalos bo'lib jannatga o'tadilar. Shu mahal Dantening yonginasida Beatriche paydo bo'lib, sevimli shoirni Jannatga olib kiradi. Oshiq bilan Ma'shuqa Jannatda dillariga yaqin oliyjanob insonlarni ko'radi. Bu yerda Italiyaning Yangi imperatori Genrix VII ga alohida joy ajratilgan.

Shoir o'z vataniga qaytish niyatida imperatorni har qancha ulug'lamsin, uni sharaflab jannatning to'riga qo'yishga urinmasin befoyda edi.

Uning o'z yurtiga kelish orzusi amalga oshmaydi. Uning barcha iltijolari e'tiborsiz qoladi.

JOVANNI BOKKACHCHO

(1313–1375)



Italyan adabiyotining ulug' adibi Jovanni Bokkachcho novella janrida sermahsul ijod qiladi. Parijda tug'ilgan Jovanni otasi vafot etgach Italiyaga borib, Florensiya, Neapolda bilim oladi. Yoshligidan antik adabiyot namunalarini berilib o'qiydi. Tarixiy obidalarga, qadim zamondan qolgan yodgorliklarga katta qiziqish bilan qaraydi. Dastlab ritsarlik romanlarini qayta ishlaydi. O'sha davrlarda ritsarlik romanlarini o'qish odatiy bir tusga kirib qolgan edi. Ayniqsa, Vergiliy ijodi unga katta ta'sir ko'rsatadi. Xususan, «Ameto» (1341) asari Vergiliyning «Bukolikalar» («Cho'pon

she'rlari») asariga juda o'xshab ketadi.

«Fezolan parilari» (1345–1346) poemasi «Metamorfoza» asariga ko'p jihatdan o'xshab ketadi. Bu holat Fransiya da tug'ilgan Jovanni ning Italiya adabiyoti va madaniyatini qanchalik tez o'zlashtirib olganidan dalolat beradi.

«Fyametta» (1343) asari psixologik roman deb baholanib, Bokkachcho nomiga katta shuhrat keltiradi.

Adib yoshlar hayotiga, sevgi va muhabbat mavzusiga alohida e'tibor bilan qaraydi.

«Dekameron» (1352–1354) hikoyalari to'plami jahon adabiyotining javohirlar sandig'ida nodir asar hisoblanadi. Asarda hikoya qilinishicha, Florensiyada dahshatli o'lat kasali tarqalib, bunday ofatdan qutulish maqsadida 7 qiz va 3 o'g'il o'rmonga borib kun kechira boshlaydilar. Ular zerikmaslik uchun har qaysisi o'ntadan hikoya, jami o'n kunda yuzta hikoya aytishadi. Asar syujeti Sharq adabiyotida nodir asar hisoblangan «Ming bir kecha», G'arb adabiyotida keng shuhratga ega bo'lgan «Metamorfoza»larga juda o'xshab ketadi.

Jovanni Bokkachchodan so'ng uning an'analarini davom ettirib, ko'plab adiblar novellalar to'plami yaratishga kirishadi. Margarita Novarskaya «Xeptameron» («Etti kunlik voqea») asarini yozadi.

J. Bokkachcho har bir xarakterni ochib berishga harakat qilgan. Bu novellalar to'plamini ayrim tadqiqotchilar Uyg'onish davri romani deb baholaydilar. Adib shu birgina romani bilan jahonga mashhur bo'ldi.

«Dekameron» hikoyalar to'plamimi yoki romanmi, haligacha adabiyotshunos olimlar munozara yuritadilar. Asarni ketma-ket joylashgan yuzta hikoyadagina iborat desak, unda har bir hikoyani bir-biriga bog'laydigan romandagi kabi o'ziga xos badiiy vositalar mavjud.

«Dekameron» o'quvchini ezgulikka undovchi asardir. Unda ishq-muhabbat, sevgiga sadoqat, umid va ishonch o'z ifodasini topgan.

Beshinchi kunda aytilgan hikoyada berilishcha, Aristipining o'g'li Galezo juda sho'x, jizzaki, ko'p tentakliklar qilaverib hammaning joniga tekkan. Kaltak va haqoratlar unga kor qilmaydi. Unga Chimone (hayvon) deb laqab qo'ysa ham parvo qilmaydi. Janjal-g'avg'osiz turolmaydi. Ota-ona ham o'g'lining bu qiliqlaridan bezor bo'lib, uni cho'ponlarga qo'shib qo'yadi.

Biroq yigit sevib qolgandan so'ng, o'zining yoqimsiz qiliqlaridan voz kechib, jahldorlikdan tushib, mutlaqo o'zga bir odamga aylanadi. Go'zal qo'shiqlar xirgoyi qilib, xalq xaloskoriga aylanadi. Bu asar mazmunida ishq-muhabbat insonni qayta tarbiyalaydi, uni yangidan dunyoga keltiradi, degan fikr yotibdi. Haqiqiy muhabbat insonni yaxshilikka, ezgulikka yetaklaydi.

Asarning keyingi hikoyalarida ham bir-biridan qiziq voqealar berilgan. Boshqa bir hikoyada Masso degan kishining kirdikorlari fosh etiladi. U o'zini taqvodor Albert deb tanishtirib, kunduz kunlari cherkovda bo'lsa, kechalari buziqchilik bilan shug'ullanadi. Oxir-oqibat siri fosh bo'lib, sharmisor bo'ladi. Bu asarida adib hamma taqvodorlar ham xudojo'y va pokiza qalb egasi emasligini kinoya bilan hikoya qiladi.

Deyarli barcha hikoyalar ruhida istehzo mavjud. Bu bilan yozuvchi mavjud tuzum, jamiyatdagi yaramas illatlarni qattiq tanqid qiladi. Asarda mardlik, jasorat, yaxshilik, ezgulik ulug'lanadi, riyokorlik, tuhmat, nafs balosi, insonlar o'rtasidagi tengsizlik, jaholat, zo'ravonlik qoralanadi.

HOFIZ SHEROZIY

(Shamsiddin Muhammad)

(1320–1389)

«Jahon poeziyasining dohiysi» deb nom olgan Hofiz besh yuzdan ziyod g'azallar muallifi. Etti-o'n bir baytdan iborat g'azallari shoir o'limidan so'ng shogirdlari tomonidan to'planib, kitob holiga keltirilgan. Ko'plab g'azallari yo'qolib ketgan, ba'zilar o'zgarishga uchragan.



U Eronning adabiyot va san'at gullab-yashnagan shahri Sherozda tug'ilib, butun umrini shu ona shahrida o'tkazadi.

Hofizning, ayniqsa, masnaviyda yozilgan «Soqiynoma» asari mashhurdir. Hyote o'zining «G'arbu Sharq devoni», «Hofiz kitobi» asarida Hofiz ijodiga yuksak baho beradi.

Aleksandr Sergeyevich Pushkin Hofiz she'riyatiga asir bo'lganini aytib, unga atab she'rlar bitadi. Ko'plab G'arbu Sharq shoirlari Hofizni o'z ustozlari

deb biladilar.

Hofiz poetikasining mashhurligi she'rlarining hayotiy ohang va kishiga yaxshi kayfiyat bag'ishlovchi ruh bilan yo'g'rilganligidadir. Garchi Hofiz hayotligida o'z g'azallarini to'plab alohida devon qilishga qiziqmagan bo'lsa-da, uning g'azallari qo'ldan-qo'lga o'tib, nusxadan nusxa ko'payib, uning shuhrati dunyoni tutib ketdi. Muxlislari uning g'azallaridan katta-kichik devonlar tuzib olishadi.

Sudiy nusxasi deb nom olgan, 1423-yilda yaratilgan devondan shoirning 573 ta g'azali, 42 ta qit'asi, 69 ta ruboiysi va boshqa bir qancha asarlari joy olgan.

JOMIY

(Nuriddin Abdurahmon)

(1414–1492)



Fors-tojik mumtoz adabiyotining ulkan namoyandasi Jomiy Hirot shahrida tug'ilgan. Alisher Navoiy uni ustoz deb tan olgan, ustoz va shogird o'rtasida yaqin ijodiy hamkorlik mavjud bo'lgan. Turli mavzularga oid ellikdan ziyod asari mavjud.

Jomiy jahon adabiyotida Nizomiydan so'ng yettilik yozadi. Yetti dostonidan iborat «Haft avrang» («Yetti taxt») deb nomlanuvchi shoh asari jahondagi ko'pgina xalqlar tillariga tarjima qilingan. Nizomiy, Amir Xusrav Dehlaviydan so'ng uchinchi bo'lib «Xamsa» yozgan.

Jomiy «Xamsa» yozishdan avval «Silsilat uz-zahob» («Oltin zanjir», 1472), «Salamon va Absol» (1480–81) deb ataluvchi ikkita doston yaratib, o'z mahoratini sinab ko'radi.

Jomiy 1481–1482-yillarda «Xamsa» ning birinchi dostoni «Tuhfat ul-ahror» («Hur kishilarning tuhfası») asarini yozadi.

Keyin «Sabhat ul-abror» («Yaxshi kishilarning tasbihi»), «Yusuf va Zulayho» (1483), «Layli va Majnun» (1984), «Xiradnomai Iskandar» (1485) dostonlari yakunlanadi.

Jomiy yettita dostonini jamlab «Haft avrang» («Yetti qaroqchi yulduz» – «Yetti taxt») deb ataydi.

Jomiy ijodida pandnoma ruhi juda kuchli. Shuning uchun ham uning asarlarining ta'lim-tarbiya jarayonida ahamiyati beqiyosdir. Bu jihatdan 8 fasldan tashkil topib, nasr yo'li bilan yozilgan «Bahoriston» (1486–87) asarini eslash o'rinlidir.

Jomiy beaded poetik quvvai hofizaga ega bo'lgan shoirdir. U tinimsiz ijod qilib avlodlarga ulkan adabiy meros qoldirdi.

«Naqshi fasus» («Javohirlar naqshi»), «Naqd un-nusus» («Nusus tanqidi»), «Nafokat ul-uns» («Shulalar ziyosi»), «Nafohat ul-uns» («Do'stlarning vafosi») kabi ijod tuhfalari sho'ir nomini abadiylikka muhrladi.

ALISHER NAVOIY

(1441–1501)



Alisher Navoiy 1441-yil 9-fevral kuni Hirotida tug'iladi. 1447-yilda Shohruh mirzo vafotidan so'ng toj-taxt uchun kurash kuchayib, Navoiy oilasi lroqqa ko'chib o'tib, Taft shahrida yashay boshlaydi. Taft shahrida Sharafiddin Ali Yazdiyning «Zafarnoma» asarini o'qiydi va uning suhbatida bo'ladi.

1450-yilda Taft shahridan Hirotga ko'chib keladi. 1450-yildan boshlab otasi G'iyosiddin Kichkina Hirot shohi Abulqosim Bobur saroyida xizmat qila boshlaydi. Ko'p o'tmay G'iyosiddin Kichkina Sabzavor shahrining hokimi etib tayinlanadi.

Otasi G'iyosiddin Kichkina o'lganda Alisher 12–13 yoshlarda edi.

15 yoshida do'sti Husayn Boyqaro bilan Abulqosim Bobur saroyida xizmat qila boshlaydi. 1456-yilda Abulqosim Bobur Mashhadga jo'naydi, Husayn Boyqaro va Alisherni o'zi bilan birga olib kelib Mashhadga o'qitadi.

1457-yilda Abulqosim Bobur vafot etgach, Husayn Boyqaro Marvga kelib, taxtni egallash uchun kuch to'playdi. Alisher Mashhadda qolib, o'qishini davom ettiradi.

1459-yilda Hirot taxtni Abusaid egallaydi. U Xo'ja Ahror maslahati bilan ish yuritadi. Abusaidga qarshi ko'pgina qo'zg'olonlar bo'lib o'tadi. Bunday qo'zg'olonlarda Alisherning tog'alari Qobuliy va G'ari-biylar ham ishtirok etadi.

Abusaid Alisherning Hirotga turishini xavfli bilib, Samarqandga jo'natadi. Chunki Alisher Husayn Boyqaroning yaqin do'sti edi.

Samarqandda Fazlulloh Abulays degan olim Alisherga ikki yil ta'lim beradi va uni o'z farzandidek ko'radi. Alisher Alo'i Shoshiydan ham ta'lim-tarbiya oladi.

1469-yilda Abusaid G'arbiy Eronni egallash uchun bo'lgan jangda halok bo'ladi. Abusaid o'limidan so'ng, Hirot taxtni Husayn Boyqaro egallaydi.

Shu yilning aprelida Alisher Samarqanddan Hirotga keladi va Hirot shohi Husayn Boyqaroga bag'ishlab qasida yozadi.

Navoiy Hirotga Husayn Boyqaro saroyida muhrdorlik – muhr bosib, hujjatlarni tasdiqlovchi lavozimida ishlaydi.

1472-yilda Navoiy shoh Husayn Boyqaroning vaziri lavozimiga tayinlanadi. Husayn Boyqaro saroyida musavvir Behzod va xattot Sulton Aliga homiylik va ustozlik qiladi.

1476-yilda Navoiy vazirlik lavozimidan iste'fo beradi. Majiddidin Navoiyning o'rniga vazir bo'lish uchun Husayn Boyqaro xazinasiga 2000 tuman aqcha olib keladi.

Navoiyning o'rniga Nizomulmulk degan johil va zolim kishi vazir bo'ladi. 1487-yilda Navoiy Astrobodga hokim qilib tayinlanadi.

Navoiy 1483-yili «Xamsa» yozishga kirishib, «Hayrat ul-abror» asarini yozadi. 1484-yilda «Farhod va Shirin», «Layli va Majnun», «Sab'ai sayyor» asarlarini yozadi.

1435-yilda «Saddi Iskandariy» («Iskandar devori») asarini yozadi.

1491-yilda 450 dan ortiq yozuvchining hayoti va ijodiga oid «Majolis un-nafois» («Go'zal majlislar») asarini yozadi.

1500-yilda «Mahbub ul-qulub» («Ko'ngillarning sevgani») asarini nasrning saj-qofiyali nasr usulida yozadi.

Shoirning ijod mulki ulkan xazina. «Lison ut-tayr», «Majolis un-nafois» («Nafis majlislar»), «Badoye ul-bidoya» – «Badiiylik ibtidosi» (1476), «Navodir ul-nihoya» – «Nihoyasiz nodirliklar» (1483), «Vaq-

fiya» (1482), «Tarixi muluki Ajam» – «Ajam shohlari tarixi», «Tarixi anbiyo va hukamo» – «Anbiyolar va hokimlar tarixi», «Xamsat ul-mutahayyrin», «Holati Pahlavoni Muhammad», «Risolai muammo», «Mufradot», «Xozoyin ul-maoniy» – «Ma'nolar xazinasini» (1490), «G'aroyib us-sig'ar» – «Yoshlik g'aroyibotlari», «Navodir ush-shabob» – «Yigitlik nodirliklari», «Badoye ul-vasat» – «O'rta yosh go'zalliklari», «Favoyid ul-kibar» – «Keksalik foydalari», «Devoni Foni», «Mezon ul-avzon» – «Vaznlar o'lchovi», «Hayrat ul-abror» – «Yaxshi kishilarning hayratlanishi», (1483), «Farhod va Shirin» (1484), «Layli va Majnun» (1484), «Sab'ai Sayyor» – «Yetti sayyora» (1485), «Saddi Iskandariy» – «Iskandar devori» (1485) asarlari jahon adabiyoti xazinasidagi nodir asarlardandir.

ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR

(1483–1530)



Zahiriddin Muhammad Bobur 1483- yilda Farg'ona viloyati hokimi Umarshayx oilasida dunyoga keladi. Umarshayx Movarounnahr hokimi Abu Said Mirzoning o'g'li bo'lib, 1455-yilda Samarqandda tug'ilib, 1494-yilda Farg'onaning Axsi degan joyida fojiali vafot etadi.

Onasi Qutlug' Nigorxonim mo'g'ul xonlaridan Yunusxonning qizi bo'lgan.

1494-yilda otasi vafot etgach, 12 yoshli Bobur taxtga o'tiradi. 1497-yilda Samarqandni egallaydi.

1500-yilda 19 yoshli Bobur Samarqandni ikkinchi bor egallaydi. Shu davrda Hirotdagi Alisher Navoiydan maktub oladi. Biroq bu maktub yo'qolgan. Bobur Alisher Navoiyga javob maktubi yozadi. Shayboniyxon ikkinchi bor hujum qilib, Samarqandni egallaydi. Shaharni 5 oy qamal qilib turadi.

Shundan so'ng Bobur ozgina odamlari bilan shaharni tashlab chiqib ketadi. 1507-yilda Jizzax, O'rtepa, Toshkent, Xo'jand tomonlarda sargardon yuradi.

Andijon Shayboniyxon qo'liga o'tgach, 1503–1504-yillarda Bobur Hisor tog'lari orqali Kobulga boradi.

1508-yilda Bobur Kobul va G'aznani egallab, o'zini o'sha yerlarning podshohi deb e'lon qiladi.

1510-yilda Eron shohi Ismoil Safaviy Shayboniyxonga qarshi yurish qilganda, Bobur u bilan birga harakat qilib, Samarqand taxtini egallaydi.

1512-yil 28-aprelda Bobur Shayboniyxon avlodlaridan Ubaydulla Sulton bilan bo'lgan jangda yengilib, Kobulga qaytadi.

1504–1526-yillari Bobur Hindistonni egallagandan so'ng, Kobul hukmdorligini o'g'li Komron Mirzoga beradi. Boburning o'g'illari – Humoyun, Komron, Askariy, Hindol.

1522-yilda Bobur Qandahorni egallaydi. Boburning qizlari Gulchehra, Gulrang, Gulbadan.

1526-yilda Bobur Dehli yaqinidagi Panipat degan joyda 12 ming askari bilan hind shohi Ibrohim Lodiyning 100 mingga yaqin lashkarini mag'lubiyatga uchratadi.

Uning «Mubayyin», «Xatti Boburiy», «Muxtasar», «Boburnoma», «Voqeoti Boburiy», «Tuzuki Boburiy» asarlari bor. «Voqeanoma» asarida 1496–1530-yillar oralig'idagi voqealar qalamga olinadi.

FUZULIY

(Muhammad Sulaymon)

(1498–1556)



Fuzuliyning otasi bir vaqtlar Ozarboyjonning Arash degan joyida tug'ilgan. Keyinchalik u Bag'dodga yaqin Karbalo degan joyga ko'chib borgan.

O'sha davrlarda Bag'dod ilm-fan, adabiyot va san'at gullab-yashnagan ma'rifat o'chog'i edi. Ko'plab Sharq allomalari Bag'dodda tahsil olgani sir emas. Fuzuliy yoshligidan ilm olishga berilib, Bag'dod adabiy muhiti bilan bog'lanadi. Qalami shu shaharda charxlanadi. Shuning uchun Bag'dodiy taxallusini ham qo'llab kelgan.

Bag'dodda turkigo'y shoirlarning obro'si baland bo'lgan. Bundan Fuzuliy faxrlanar, qalbi quvonchga to'lardi. Fuzuliy bir umr ota yurti Arashni sog'inib yashaydi. Bu o'lkaga qaytib kelishni orzu qiladi. Fuzuliy ijodiyoti juda keng, undan ulkan meros qolgan.

O'z zamonasida Fuzuliyga teng keladigan shoir bo'lmagan. U «Layli va Majnun», «Haft Jam», «Anis ul-qalb» («Qalb do'sti»), «Matlav ul-e'tiqod» («E'tiqod boshlanmasi»), «Rindi Zohid», «Sihhat va maraz»,

«Bangu boda», «Suhbat ul-asmor» («Mevalar suhbat»), «Shikoyatno-ma» va boshqa ko‘plab g‘azallar majmuasini va «Risolai shoiron» asarini yaratgan.

FRANSUA RABLE

(1494–1553)



Fransuz Uyg‘onish davri adabiyotining yirik vakili Fransua Rable Turen viloyatining Shinon shaharchasida, advokat oilasida dunyoga keladi. Dastlab Shinon shahri yaqinidagi ruhoniylar tayyorlaydigan mahalliy maktabga boradi. Monastirda faoliyat ko‘rsata boshlagan Fransua man qilingan antik kitoblarni o‘qishni boshlaydi. Lotin, grek tillarini o‘rganadi. Homer asarlarini qiziqish bilan o‘qiydi. 1530-yilda Manpelega kelib, qadimgi dunyo hakimi Hippokratning «Aforizm»larini izohlab beradi. Lion shahrida

kasalxona tabibi bo‘ladi. Uch marta Italiyaga borib, qadimgi Rim madaniyatini hamda lotin, arab tillarini o‘rganadi. «Gargantyua va Pantagryuel» epopeyasining birinchi kitobi 1533-yilda Alkfribas Naze taxallusi bilan «Ulkan pahlavon Gargantyuaning o‘g‘li Dipsad qiroli ajoyib Pantagryuelning dahshatli va g‘oyat qo‘rqinchli harakatlari va qahramonliklari» nomi ostida yoziladi. Besh kitobdan iborat bu asarni u 20 yildan ziyodroq vaqt mobaynida yozadi. Ikkinchi kitobi «Pantagryuelning otasi Gargantyuaning vahimali hayoti haqida» (1534), uchinchi kitobi «Olijanob Pantagryuelning qahramonona harakatlari» (1546), to‘rtinchi kitobi «Jasur Pantagryuelning qahramonona harakatlari va qimmatli gaplari haqida» (1552), beshinchi kitobi «Olijanob Pantagryuelning qahramonona harakatlari va qimmatli fikrlari haqida so‘nggi kitob» (1564) nashr qilinadi. Fransua Rable nomini jahonga mashhur qilgan «Gargantyua va Pantagryuel» asaridir.

Rable o‘z asarida ikki xil hayotni, ikki xil tarbiyani bir-biriga qiyoslab, o‘zining muhim fikrlarini ayta olgan. Bir jamiyatda ikki xil hayot, bir-biriga qarama-qarshi bo‘lgan ta’lim-tarbiya – biri sxolastika, ikkinchisi gumanizm.

Roble o‘z asarida ilmni ulug‘laydi. Buning uchun ikki xil toifadagi kishilar obrazini namoyon etadi. Biri o‘qimishli, adolatparvar, odil

qirol Tronzuze va uning o'g'li katta bilim sohibi bo'lgan Gargantuya bo'lsa, ikkinchisi savodsiz Pikroxoldir. Eski usuldagi sxolastika va safsatadan ta'lim olgan Pikroxol oddiy jumboqlarning ham mag'zini chaqolmaydi. U mustaqil fikrlashdan, adolatli hukm chiqarishdan mahrum bo'lgan manqurt obrazidir.

«Gargantuya va Pantagryuel» asarida fantastika nihoyatda kuchli. Biroq mana shu bo'rttirish, o'xshatish va ayniqsa, istiora ortida muhim hayotiy voqealar yashiringan. Asarda hajv, satira, yumor, kesatish, qochiriq, kinoya kuchli. Asarni o'qir ekansiz, kulgingiz qistab zavq-shavqqa to'lasiz. Taomni yeb bo'lgach, og'zini «par yostiqa artish» yoki «paltoning mo'yna yoqasiga artish» voqeasini eslab ko'ring. Bu asarda fantastik voqealar hayotiy haqiqatni ta'minlaydi.

SERVANTES

(1547–1616)



Migel de Saavedra Servantes ispan adabiyoti-ning yirik vakili. Uning «Don Kixot» romani jahon adabiyoti xazinasini bezab turibdi. Servantes ritsar romanlarini fosh etishni asosiy maqsad qilib oladi. Asar o'rta asr ritsar romanlariga parodiya sifatida yaratilgan bo'lsa ham, mazmuni nihoyatda keng. Lamanch qishlog'ida yashovchi ellik yoshlardagi bir kambag'al dvoryan Kixot asarning bosh qahramoni.

Romanda feodal jamiyatining yaramas illatlari, chuqur tomir otib ketgan urf-odatlar mahorat bilan fosh qilgan. Asar qahramoni Don Kixot ritsar romanlarini berilib o'qiydi, dehqonchilik va ovchilikdan orttirgan ozgina daromadini ham kitob sotib olishga sarflaydi. So'ng ritsar qiyofasida nohaqliklarga qarshi kurashadi. Bu yo'lda unga eng yaqin do'sti Sancho Pansa yordam beradi.

Ma'lumki, o'rta asrlarda ritsarlar yasatilgan otlarda, boshiga dubulg'a kiyib shahar ko'chalarini to'ldirib yurishgan. Qirol nimani buyursa so'zsiz bajarish ularning burchi bo'lgan. Ritsarlar ko'pincha qirolga bo'ysunmagan odamlarni, qishloqdagi yer egalarini savalab, mulklarini talab, xonavayron qilishgan. Biroq xonimlarga nisbatan odob-tavoze bilan munosabatda bo'lishgan.

Servantes yaratgan Don Kixot adolatparvar, bechora odamlarga mutlaqo ozor yetkazmaydi, mehr-shafqatli. Shu bilan birga bu romanda do'stlik, fidoyilik ham ulug'lanadi. Don Kixotning do'sti Sancho Pansa oddiy kambag'al kishi. Hayotda ritsarlar kibru havoli bo'lgan. Sancho Pansaga o'xshash qashshoqlarni ko'p ham ko'zga ilavermagan. Don Kixot esa Sancho Pansa bilan do'st bo'ladi. Do'st bo'lganda ham sadoqatli do'st!

Servantesning qahramonlari xalqning orzusiga, diliga yaqin. Shuning uchun «Don Kixot»ni hamma sevib o'qiydi.

LOPE DE VEGA

(1562–1635)



Ispan Uyg'onish davri adabiyotining atoqli vakili. 1588-yilda «Yengilmas Armada» flotida ispan soldati sifatida Angliya qirg'oqlariga boradi va shu yurish paytida «Anjelikaning go'zalligi» nomli ilk poemasini yozib nom chiqaradi. Sonet, romans, qasida, poema, hikoya, romanlar muallifi va hatto o'zi ta'kidlaganidek, 1500 ta dramatik asar yaratgan. «O'z uying – o'lan to'shaging», «Dehqon o'z kulbasida» pyesalarida muhabbat va nikoh masalasi yoritilgan. «Qo'zibuloq» pyesasini H. G'ulom o'zbek tiliga tarjima qilgan.

Lope de Vega asarlarining mavzusi xilma-xil bo'lib, u serqirra ijodkor edi. Jahon dramaturgiyasida munosib o'rin tutadi. Uni tinimsiz ijod qilgan adib deb atashlari bejiz emas. O'z ijodi bilan zulmga qarshi tinimsiz va muttasil kurash olib borgan.

Lope de Vega 1562-yil 15-noyabrda muhtasham va qadimiy Madrid shahrida, dehqon oilasida tug'iladi. Keyinchalik ularning oilasi Kastiliyaga ko'chib keladi. Avvalo iyezitlar maktabida, so'ngra Alkala de Enares universitetida o'qigan Vega yaxshi bilim egasi bo'lib yetishadi. Dastlabki ish faoliyatini kotiblikdan boshlagan yigit she'riyatga ixlos qo'yadi.

Shoirning bizgacha 500 yaqin pyesalari yetib kelgan. Qolganlari turli sabablarga ko'ra yo'qolib ketgan.

Lope komediyalari hayotga juda yaqin. Uning komediyalaridan antik dunyoning mohir hajvchisi Plovit ijodining hidi keladi. Ma'lumki, Plovit

o'zining «Maqtanchoq jangchi» asarida Artotroch va Pergoposlinik obrazlari orqali qo'lidan hech ish kelmaydigan maqtanchoqlar qiyofasini mahorat bilan yaratgan edi. Plovtning fikricha, maqtanchoqlik Vaganing komediyalarida goh maqtanchoqlar, gohida firibgarlar, boraxo'rlar, nafs balosiga muhtalo bo'lganlar, xasislar va yaramas hlatlar tanqid ostiga olinadi. Komediyanavisning «Qirol Vambaning hayoti va o'limi» (1604). «Simankaslik qiz» (1605) asarlarida mamlakatda avj olib borayotgan ichki ziddiyatlarga iztehzoz bilan ishora qilinadi.

Muallifga tarixiy mavzu ham qo'l keladi, ishonuvchan, irodasi bo'sh imperatorlar tufayli saroyda ig'vo, fasod, xiyonat kuchayib ketayotganligini, kayfu-safoga mukkasidan ketgan davlat boshliqlarining ayblari bilan mamlakatda qotillik, zo'ravonlik avjiga chiqqanligi kinoya bilan yuzaga chiqariladi. Lopening dramalari keskin qaramaqarshiliklar asosiga qurilgan. «Graf Fernan Gonsales» yoki «Kastiliyaning ozod etilishi» (1625) pyesasida Ispaniya tarixida yuz bergan mudhish voqealar, toj-taxt uchun kurash, bosqinchilik orqasida yuz bergan turli razolatlar haqida hikoya qilinadi.

Dramaturgning dehqonlar qo'zg'oloniga bag'ishlangan asari «Qo'zibuloq» dramasidir. Voqea «Qo'zibuloq» qishlog'ida bo'lib o'tadi. Qirol farmoyishiga binoan dehqonlarga og'ir soliqlar solinar, zo'ravonlik va kulfatlar keltirar edi. Qirolning laganbardorlari bo'lmish ikkiyuzlamachi feodallar ham zo'ravonlarga qo'shilib, oddiy fuqaroga battar azob-uqubatlar berar edi. Bu ham yetmagandek, go'zal qizlarni saroyga olib ketar edilar.

Dramaturg o'z asarini yaratish chog'ida tarixda bo'lib o'tgan Fuyente Ovexuna (1476) qishlog'i ahlining qo'zg'olonini obdan o'rganib, asar voqeasiga mahorat bilan bog'laydi. Shuning uchun ham asar «Qo'zibuloq» («Fuyente Ovexuna») deb nomlangan.

Lope de Vega Ispan dramaturgiyasini eng yuqori cho'qqiga ko'tardi.

VILYAM SHEKSPIR

(1564–1616)

Ingliz Uyg'onish davri adabiyotining yirik vakili. Oddiy kosib oilasida tug'ilgan Shekspir 1587-yilda Londonga keladi. Teatrda avval suflyor, so'ngra aktyor, keyinroq rejissyor bo'lib ishladi, teatrnı boshqarishda direktorga hamkorlik qiladi.



Shekspir hammasi bo'lib 2 poema, 154 sonet va 37 pyesa yaratgan. Ijodining birinchi davrida Shekspir «Adashishlar komediyasi», «Qaysar qizning quyilishi», «Veronalik ikki yigit», «Sevgining behuda kuchayishi», «Yo'q narsadan bir talay g'ovg'a», «O'n ikki kecha» kabi komediyalar, «Genrix VI», «Richard III», «Yuliy Sezar», «Romeo va Jyulyetta» tragediyalarini yaratadi. Ijodining ikkinchi davrida «Hamlet», «Otello», «Qirol Lir», «Makbet», «Antoni va Kleopatra», «Kariolan» tragediyalarini yozadi. Ijodining uchinchi davrida tragikomediyalar – «Simbelin», «Qishki ertak», «Bo'ron» asarlari yoziladi.

G'. G'ulom, M. Shayxzoda, Uyg'un, T. To'la, J. Kamol va boshqa adiblar Shekspir asarlarini o'zbek tiliga tarjima qilganlar.

Muhabbat shohu gadoga bir deyishadi. Shekspir yaratgan obrazlar, turli toifa kishilari hammasi ishq deydi, muhabbat deydi. Shekspir eng qiyin adabiy janrda qalam tebratdi. Jahon adabiyotida hech bir adib Shekspir darajasiga ko'tarila olmagan. Shekspirning deyarli barcha asarlari she'riy yo'l bilan yozilgan. Ko'pincha aktyorlar asarni repititsiya qilish jarayonida she'rni yodlash qiyinligidan shikoyat qilishadi. Shekspir she'riyati esa ravon va ifodaviy. Uni esda saqlab qolish juda oson.

Shekspir ijodining muhim tomoni – uning asarlari, dialog va monologlari qatida falsafa, ma'no yashirilgan. Shekspir drama, tragediya, komediya, sonet ustasi. Shu bilan birga u tarixning bilag'oni, faylasuf va shoirdir. Shekspir fikrlarni yoqimli, tushunarli tarzda bera olgan. Har bir tragediyasida shunday satrlar borki, ularni alohida she'r qilib e'lon qilsa ham bo'ladi.

«Romeo va Jyulyetta» tragediyasidan, Romeo tilidan:

*U saharga jarchi bo'lgan to'rg'ayning o'zi,
Bulbul emas, sevimli yor, ana qarab ko'r,
Bulutlarning ortidagi baxil saharini.
So'qmoqdadir kechalarning shamchiroqlari
Quvnoq kunduz pisib turar tog' tumanida
Ketmog'ligim menga hayot, qolishim o'lim.*

Shekspir o'zidan keyin o'lmas meros qoldirib ketdi. Bu merosdan hozirgi kunda millionlar bahra olmoqda.



Milton notarius oilasida tugʻilib, diniy sharoitda yashadi. Milton ingliz va lotin tillarida sheʼrlar yoza boshlaydi. Shular ichida «Xristosning ertalabki tugʻilishi», «Shekspirga», «Qariya janob» asarlari diniy xarakterda edi. Yoshligi dindorlar oʻrtasida oʻtgan Milton universitetda oʻqishni davom ettiradi. Soʻng Londonga yaqin Gortoni shahrida otasi qurgan uyda yashay boshlaydi. Dastlabki «Quvnoq va gʻamgin»,

«Qomus» asarlarini yaratadi. Uygʻonish davri taʼsiri Milton ijodida yaqqol sezilib turadi. Din va ishonch mavzusi «Dinga qattiq ishonch, Papaning irodasi va yuksakligi» asarida, ozodlik mavzusi «Ozod ovoz haqida nutq» asarida, tarbiya masalalari mavzusi «Tarbiya haqida» tadqiqotida, inson huquqlari mavzusi «Ajralish haqida» va «Ximiya» asarlarida oʻz ifodasini topgan.

Miltonning nazarida inson uchun uch ozodlik barqaror boʻlishi kerak: diniy, oilaviy va grajdanlik huquqlari.

Milton ijodida lotin tilida yozilgan «Angliya xalqining himoyasi» asari alohida oʻrin tutadi. 1660-yilda Angliyada reaksiya davri boshlanadi. Londondan uncha uzoq boʻlmagan shaharda Milton ochlikdan ancha qiynalib hayot kechiradi. U bu davrda «Yoʻqolgan jannat», «Jannatning qaytishi» poemalarini va «Kurashchi Samson» tragediyasini yaratadi. 1655-yilda Jon Miltonning lotin tilida «Oʻzimni himoya qilaman» kitobi chop etiladi. Bunday nom hammani hayratga soladi. Kimdan u oʻzini himoya qiladi, davlat tepasidagilardanmi yoki dushmanlardanmi? Adib gʻarazgoʻy ijodkorlardan koʻproq xavf-xatar kutadi. Bunday oqim muxlislari A. Mor, Filmer, Roulend boʻlib, ular Jon Miltonga oʻlim jazosini tayinlashni talab qilar, oʻz maqsadiga erishish uchun har qanday yovuzliklarni qilishga tayyor edilar.

Jon Miltonning «Yoʻqolgan jannat» asari dunyoga mashhur boʻldi. Bu asarda Odam Ato – haqiqiy erkak, Momo Havo ajoyib ayol qiyofasida namoyon boʻladi. Bu asar pand-nasihatchilik ruhi bilan sugʻorilgan boʻlib, unga taʼlim-tarbiya jarayonida muhim ahamiyatga ega asar sifatida qarab kelinmoqda.



Fransuz adabiyotining mashhur dramaturgi Ru-an shahrida tugʻiladi. Dastlabki ijodini komediyadan boshlaydi. Uning «Melita» (1629) komediyasi doʻruq qozonadi. Soʻng «Klitandr», «Sud hayʼati», «Qirollik maydoni» (1631–1636) dramalari birin-ketin yoziladi.

Kornel oʻzining «Sid» tragediyasi bilan mashhur boʻladi. Tragediya ispan qahramonlik eposining yorqin namunasi boʻlgan «Sid haqida qoʻshiq» asari taʼsirida yozilgan. «Sid» nihoyatda mahorat bilan yozilgan boʻlsa-da, dramaturgning Parijdagi muxoliflari uni obroʻsizlantirish maqsadida «koʻchirmachi» deb haqorat qiladilar, shaʼnini yerga urishga urinadilar. Bundan qattiq taʼsirlangan Kornel oʻz ona shahri Ruanga ketib qoladi. Ancha vaqt ijod bilan shugʻullanmay, soʻngra «Goratsiy», «Sinni», «Edit» (1659) tragediyalarini yaratadi. 1667-yilda yana Parijga qaytib kelib, mashhur dramaturg Rassin bilan uchrashadi. Bu yerda «Pompey», «Atil», «Heraklius» tarixiy tragediyalarini yaratib, tomoshabinlar olqishiga sazovor boʻlib, mashhur dramaturg sifatida taniladi.

Tragediyada ham Radrigo Dias obrazi berilgan boʻlib, Sid uning laqabi, «Janob» degan maʼnoni anglatadi.

Kornel tarixiy tragediyalar yaratishda davom etadi. Harqancha tuhmat va malomat toshlari yogʻilmasin, tarixdagi qahramonlarni, afsonaviy syujetlarni qalamga olaveradi.

Muarrix Tit Liviyning tarixiy kitoblariga asoslanib «Goratsiy» (1639), Oktavian Avgust bilan bogʻliq voqealarga tayanib «Vina yoki Avgust marhamati» (1639) asarini yozadi. Kornel Evripidning «Medeya» tragediyasi va Seneka ijodi durdonalaridan ilhomlanib «Medeya» (1635) asarini yozgan edi.

Kornel tarixni qayta tiriltirgan, xalq qahramonlariga qaytadan hayot baxsh etgan ulugʻ dramaturgdir. Kornelning boshqa tragediyanavislardan farqli tomoni ham shunda.

Kornel «Qallob» (1643) asari orqali oʻz mahoratini komediya janrida ham sinab koʻradi. Adib oʻz komediyasini yaratish chogʻida yana oʻsha anʼanani davom ettirib, Alarkoning «Shubhali haqiqat» komediyasiga bir qadar oʻxshash voqeani tanlaydi va buni oʻzi ham tan olib, ulugʻ komediya ustasi ijodidan bahra olganligini taʼkidlaydi.

JAN BATIST MOLYER

(1622–1673)



Molyer Parijda savdogar oilasida tug'ilgan. Molyer Parijda teatr tashkil qiladi. Ko'chib yuruvchi sayyor truppada artist bo'ladi. Spektakllardagi asosiy rollarni o'ynaydi. 1650-yildan Molyer guruh boshlig'i bo'ladi.

Ilk komediyasi «Telba» (1653) sahnalashtirilgandan so'ng «Oshiq bo'lgan doktor» pyesasini yozadi.

«Ayollar uchun saboq» (1662) pyesasi qo'yilgandan so'ng muxoliflari dramaturg obro'siga putur yetkazish uchun uni dahriylikda ayblab, o'tda kuydirishni talab qiladilar.

«Yolg'on kasal», «Zo'raki tabib», «Kulgili nozaninlar», «Mizantrop», «Jorj Daiden», «Xasis» kabi ajoyib satirik komediyalari mavzusi bilangina emas, so'z o'yini, voqealarni ko'rsatish uslubi bilan uning katta mahorat egasi ekanligidan darak beradi.

Molyer «Tartyuf» (1664) komediyasida avj olgan riyokorlik va munofiqlikni Tartyuf obrazi orqali ko'rsatib beradi.

«Xasis» (1668) komediyasi syujetini qadimgi Rim shoiri Plavtning «Ko'zacha» asaridan ilhomlanib yozadi.

«Tartyuf», «Xasis», «Skapening nayranglari» komediyalari o'zbek sahnasida qo'yilgan.

Molyer dramaturgiyaning deyarli barcha janrlarida o'z mahoratini sinab ko'radi. U aksariyat asarlarini o'zi sahnalashtirar, xalqqa manzur bo'ladigan mavzularni qidirib topardi.

Molyer jasur qalb egasi edi. Ijodkor uchun jasurlik ham muhim ahamiyatga ega. Molyer jasur bo'lmaganida ilk to'qnashuvdayoq ijodini to'xtatib qo'yardi. «Sinarel» (1660) she'riy komediyasida u mamlakatda hukm surayotgan riyokorlik va ig'vo-fasod ustidan zaharxandalik bilan kuladi. Bu komediya saroy ahllariga yoqmasa ham, uni xalq iliq kutib oladi.

Shundan so'ng Molyerning «Erlar uchun saboq», «Ayollar uchun saboq» (1662), «Ezmalar» (1661) komediyalari birin-ketin e'lon qilinib, muallif nomini ko'pchilikka tanitdi.

Molyer ijodini jahonga tanitgan uning «Don Juan» komediyasidir. Adabiyot tarixida Don Juan haqida juda ko'plab hikoyalar, afsona va

rivoyatlar yaratilgan. Bular ichida Molyerning «Don Juan»ni eng mukammalli, yuksagidir.

Don Juan qiyofasida, bir tomondan, munofiqlik, ikkinchi tomondan, tavba-tazarru gavdalan tirilgan. Muallif yoshligida bilib-bilmay firibgarlik yo'liga kirib qolib, keyinchalik qilgan ishlariga pushaymon qilgan kishilar ustidan kuladi.

DANIEL DEFO

(1660–1731)



Jahonga mashhur ingliz adibi, «Robinson Kruzo» asarining muallifidir. Roman hayotiy voqealarga asoslangan. 1713-yilda jurnalist Richard Still «Angliyalik» nomli jurnalda kimsasiz orolda to'rt yildan ortiq yashagan matros Aleksandr Selkirk to'g'risidagi ocherkni chop qilgandan so'ng, bu ocherkni o'qigan adib «Robinson Kruzo» romanini 1719-yilda yozadi.

Asarning ikkinchi qismi – «Robinson Kruzo-ning keyingi sarguzashtlari» 1719-yilda yoziladi. Romanning ikkinchi qismida yanada ajoyib voqealarga duch kelamiz. Qahramon ilgari yashagan kimsasiz orolga borib, koloniya barpo etadi.

Asarning uchinchi qismi – «Robinson Kruzo-ning jiddiy mulohazalari» 1720-yilda yozilgan bo'lib, dunyoning ko'p tillariga tarjima qilingan.

Robinson Kruzo sarguzashtlari o'quvchini o'ylashga, hayot haqida mulohaza yuritishga, atrof-muhitga ziyraklik bilan munosabatda bo'lishga majbur etadi. Y. Shamsharov romanni o'zbek tiliga o'g'irgan. Shu birgina roman Daniel Defo nomini jahonga tanitdi.

Mabodo siz kimsasiz orolga tushib qolsangiz yo cho'lu biyobonda qolsangiz, yoki o'rmonda adashib qolib ketsangiz nima qilgan bo'lar-dingiz? Ruhan sog'lom kishi umrining oxirgi daqiqasigacha hayot uchun kurashadi. «Hayot davom etyapti-ku» deya o'ziga-o'zi tasalli beradi. Robinson: «Hayot degani inson uchun odamlar, hayvonlar uchun hayvonlar, qushlar uchun qushlar, jonzodlar uchun jonzodlar degani», deydi.

Inson hamma narsa muhayyo bo'lgan shohona qasrda yashasa ham yolg'izlikdan qiynaladi. Robinsonni qiynagan narsa mana shu. U ermak uchun hayvonlar bilan do'stlashishga majbur bo'ladi. Bu do'stlik unga tasalli beradi.

U ajoyib hayot qo'ynida yashaydi. Tirikchilik qiladi. Yashash uchun kurashadi. Biroq unga inson yetishmaydi, do'stlari, yaqinlarini, ona tuprog'ini sog'inadi. Shu orqali romanda inson qadr-qimmatini nihoyatda ulug'lanadi. «Odam odam bilan tirikdir», degan g'oya ilgari suriladi.

JONATAN SVIFT

(1667–1745)



Angliya adabiyotining atoqli vakili Jonatan Sviftning «Gulliverning sayohatlari» (1726) romani jahon adabiyotining durdonasi hisoblanadi. Roman qahramoni Liliputiyaga, ulkan odamlar mamlakatiga, *Laputa* hamda aqlli otlar mamlakatiga sayohat qiladi. «Gulliverning sayohatlari» romani to'rt qismdan iborat. Muallifning mubolag'a yaratish, voqealarni bo'rttirib tasvirlash mahorati nihoyatda kuchlidir. Asarda o'sha davrning yaramas illatlari qalamga olinadi. Gulliver o'z zamonasining ma'rifatparvar, qalbi toza va ayni chog'da o'qimishli kishisi obrazidir. «Gulliverning sayohatlari» romani orqali o'sha davrning haqiqiy manzarasi bilan tanishamiz. Mavzu o'zgacha bo'lsa ham, adib o'zi yashagan jamiyat hayotidan chetda tur olmaydi.

Bir qarashda asar boshdan-oyoq fantastikadan iborat. Mittivoylar mamlakati ham, ulkanlar mamlakati ham bo'lmagan. Ehtimol, Gulliverning o'zi ham bo'lmagandir. Adabiyotning sehr kuchi shundaki, u xayolotdan hayot yaratadi. Yozuvchining mahorati shundaki, bo'lmagan narsalarni bor qilib tasvirlaydi, unga o'quvchini ishontiradi. Jonatan Svift o'z o'quvchisini ishontira oldi. Jahonni ishontira oldi.

Tasavvur qilib ko'ring! Gulliver mittivoylar mamlakatiga tushib qoladi. Mittivoylarning xatti-harakati, bir-biriga munosabati, fikrlari hayotning o'zginasi.

So'ngra Gulliver ikkinchi bir qutbga tushib qoladi. Bu mittivoylarning aksi – ulkanlar mamlakati. Gulliver ularning qarshisida chumoli-dek odamchaga aylanib qoladi. Shu qarama-qarshi qutb hayoti o'quvchini o'ylantirib, mushohada yuritishga majbur etadi.

RASIN

(1639–1699)



Ferte-Milon shahrida obro'li oilalardan birida tug'iladi. Yoshligida poeziyada qalam tebratadi. 1658- yili 18 yoshli yigitcha bilim olish uchun Parijga keladi. Garkur kollejida o'qishni, falsafa bilan shug'ullanishni orzu qiladi.

1660-yilda yosh qirol Lyudovik XIV ning uylanishi munosabati bilan «Nimfa Seplar» qasidasini yozib, o'z asarini qirolga yuboradi. Bag'ishlov qirolga juda yoqib qolib, yuz luidor mukofot beradi va yosh shoirning mutassil ijod bilan shug'ullanishi uchun nafaqa tayinlaydi. Shundan so'ng u Parijda shoir sifatida tezda taniladi.

Rasin dramalarining mavzusi qadimgi dunyodan olingan. «Fedra» (1677), «Esfir» (1689), «Ataliya» (1689), «Andromaxa» kabi asarlari juda yuksak saviyada yozilgan.

Bundan tashqari boshqa janrlarda ham samarali ijod qilgan. «Fransiyada», «Britannik», «Boyazid», «Ataliya» kabi poema va tragediyalarida tarixiy mavzuni mahorat bilan tasvirlagan.

Turkiya tarixiga bag'ishlangan «Boyazid» tragediyasi turk sultoni Boyazid Yildirim va uning sevimli malikasi Roksana haqida hikoya qiladi. Albatta, tragediyada to'qima voqea va obrazlar ko'p bo'lsa-da, dramatism, intriga, kolliziyaga boyligi jihatdan asar yuksak mahorat namunasiga aylandi.

Rasinning atoqli adabiyot vakillari Kornel, Lafonten bilan yaqindan do'stlashishi shoir ijodida yangi zarvaraq ochadi. Ota-onasidan erta yetim qolib, Bove shahridagi buvisining qo'lida ulg'ayib, hayot qiyinchiliklarini obdan tortgan Rasinning keyingi hayotida, uning tezda mashhur bo'lishida bu ikki allomaning xizmati katta bo'ladi.

O'sha paytlarda Parijda eng ko'zga ko'ringan dramaturg va teatr ustasi sifatida tanilgan Molyer Rasinning ilk ijod namunasi «Fivisda yoki dushman aka-ukalar», «Buyuk Aleksandr» (1665) tragediyasini o'z teatrida namoyish etishga ko'maklashadi.

Keyinchalik Molyer bilan ijodiy ziddiyatlar kuchayib, shoir Bualoga yaqinlashadi. Dramaturgiya va teatr tadqiqotchisi Bualo o'z shogirdining «Andromaxa», «Sudbozlar», «Britannik» pyesalarining yuzaga kelishiga yordam beradi.

Shundan so'ng dramaturg «Berenika» (1670), «Mitridat» (1673) tragediyalarini ijod qiladi. «Ifigeniya» (1674), «Fedra» (1677), «Esfir» (1689), «Gefoliya» («Antaliya») (1691) asarlari dunyo yuzini ko'radi.

Albatta, hamma jamiyatlarda ham buyuk ijodkorlarni ko'rolmaydiganlar juda ko'p bo'lishgan. Tarixda bunga misollar juda ko'p.

Rasinning mashhur bo'lib ketayotganini ko'rolmagan g'alamis, lg'vogarlar uning tragediyalarini yerga urib, saroydagi aslzodalarning va, hattoki, Lyudovik XIV ning g'azabini qo'zg'aydilar. Rasinning deyarli barcha asarlarini tomosha qilib, unga olqish va yorliqlar hadya etgan qirol shoirni hamma imtiyozlardan mahrum qiladi.

Uyg'onish davri va undan keyingi (XVII–XVIII) asrlar G'arb adabiyoti ijodkorlariga antik dunyo adabiyotining ta'siri katta bo'lganligini sezamiz. Bu holatni Rasin asarlarida ham ko'ramiz. Ma'bud va ma'budalarni, afsonaviy va tarixiy qahramonlarni o'z asarlariga olib kirish Rasin yashagan zamonda katta an'anaga aylanadi.

Rasinning ko'pgina asarlari ham antik dunyo voqealariga bag'ishlangan.

Biroq Rasin bu antik voqealarga yigirma uch asrdan keyingi taraqqiyot yuksakligidan turib teran nazar soladi.

FRANSUA MARI VOLTER

(1694–1778)



Fransuz adabiyotida ma'rifatparvar shoir sifati-da shuhrat qozongan bu adib Parijda tug'ilgan.

Ilk ijodini hajviy asarlar yozishdan boshlab, Filipp va uning qiziga bag'ishlaydi. 1717-yilda qamoqxonaga tushgan adib Genrix IV haqida poema va «Edip» tragediyasini yozadi. «Edip» tragediyasi 1718- yilda sahnalashtirilgandan so'ng Volter nomi tezda ko'pchilikka ma'lum bo'ladi. Keyinchalik Angliyadagi uch yillik hayoti davomida bu mamlakatdagi adabiy hayot bilan yaqindan tanishadi. Yozgan asarlari: «G'aroyib o'g'il» (1736), «Falsafa lug'ati», «Ozod fransuz» (1656), «Lyudovik XIV asri», «Lissabon halokati haqida» (1756), «Vavilon malikasi» (1768), «Brut», «Zaira», «Zadig», «Mikromegas», «Kandid yoki xayoliyot», «Soddadil». Ijodiy faoliyati davomida ellik ikkita sahna

asari yozadi. Volter hayotligidayoq butun Yevropaga mashhur bo'lgan edi.

Volter ayni chog'da faylasuf, tarixchi, adabiyotshunos va teatr tanqidchisi hamdir. «Falsafa lug'ati» asarida juda ko'plab asarlarni tarixiy va falsafiy jihatdan tahlil qilib bergan. O'z davrida hajviyotda hech kim Volterning oldiga tusholmagan.

O'z davrining ma'rifatparvar adiblari Deni Didro, De Alamber Volterni juda hurmat qilar, «ustoz» deya tan olib, murojaat etar edilar.

Rus shoiri A. S. Pushkin ham haqli ravishda Volter ijodidan bitmas-tuganmas zavq-shavq olganini qayd qilib o'tgan edi. «Meni ijod sari yetaklagan Volter bo'ladi», degan fikrni aytib, ustozni nomini shon-sharaflar bilan bezab o'tgan edi Jan Jak Russo.

Moskva universitetiga asos solgan M. V. Lomonosov Volterning ilm-fan sohasidagi yutuqlari bilan qiziqib, uning nazariy ta'limotini yuksak baholab, buyuk olimi Nyuton bilan tenglashtiradi. M. V. Lomonosov taklifi bilan Volter Rossiya akademiyasining a'zoligiga qabul qilinadi.

1734-yilda Angliyadan o'z vataniga qaytib kelgan shoir Ruana shahrida «Angliya haqida maktublar» asarini chop etadi. U «Brut» (1730), «Zaira» (1732) tragediyalarini Angliyada yozib tugatgan edi.

Volter Fransiyada «Muhammad» (1740), «Meropa» tragediyalarini yozadi. «G'aroyib o'g'il» (1736), «Nanin» (1749) komediyalari, «Zadig yoki Taqdir» (1748) nomli falsafiy ruhdagi asarlari yuzaga keladi.

1749-yilda Volterning qalbiga eng yaqin bo'lgan, uni chuqur insoniy tuyg'u bilan sevadigan, yaqin suyanchiq do'sti go'zal Emiliya vafot etadi. Bu mash'um voqea shoirni chuqur qayg'uga soladi.

Shundan so'ng shoir Prussiyada, Shvetsariyada yashab, og'ir hayot kechiradi, o'z vatani Fransiya qaytish sog'inchi bilan yashaydi. Biroq Fransiya uni yana ta'qib va qamoqxonalarda kutib turganidan xavfsirar edi.

Volter Fransiya ma'naviyati va ma'rifatini namoyish etuvchi ramzga aylanib qoldi.

JAN JAK RUSSO

(1712–1778)

Farzandi dunyoga kelayotganida onasi dunyodan o'tadi. Otasi oilani tashlab ketadi. Ona shahri Jenevada va uning atrofida sarson-sargardon, tahqirlanib o'sib-ulg'aygan Jan Jak Russo nihoyatda qiyin hayot kechi-



radi. Taqdir taqozosi bilan 16 yoshli yigitcha Turin shahriga keladi. 1741- yildan boshlab Parijda yashab, ijodini ancha kech boshlaydi.

«Lissabon zilzilasi», «Traktatlar» (1762), «Emil», «Odamlar orasida tengsizlikning kelib chiqishi to'g'risida» (1755), «Yuliy», «Ijtimoiy kelishuv» (1762) va boshqa asarlari siyosiy va falsafiy ruhdadir. Zamondoshi Volter bilan yaqindan ijodiy aloqada bo'ladi, u bilan hamkorlikda asarlar yaratadi.

«Garlar bilan xat» asari Volterning «Falsafa lug'ati» asari bilan birga yoqib yuboriladi. Russo doimo ta'qib ostida yashaydi. «Qayerga borsam ta'qib», deb yozadi adib. Uning bir qancha asarlari gulxanda yoqib yuborilgan. Russo qiynalib yashasa-da, o'ziga adabiy haykal tiklagan.

Russoning «Navarra shahzodasi» (1745) opera balet asari uning nomini ko'pchilikka tanitadi. Hattoki, gersog Rishelye ham Russoni yaqindan taniy boshlaydi. Gersog Russoga ulug' adib Volter bilan yaqindan aloqa bog'lashni taklif etadi. Shundan so'ng Volter bilan ijodiy hamkorlik va maktub orqali yozishmalari boshlanadi.

Russo zamondoshi Deni Didro bilan hamkorlik qilish maqsadida 1749- yilda yo'lga chiqadi. Yo'l-yo'lakay «Fransiya xabarnomasi» gazetasi tahririyatiga kirib, ayrim asarlarni berib o'tadi. Didro esa «Ko'rlar haqida maktublar» asari uchun qamoqxonaga tushgan edi.

Shundan so'ng Russo falsafiy ruhdagi qator traktatlar yozib, e'lon qiladi.

Russo «Emil» nomli falsafiy ruhdagi romanini yozgandan so'ng mashhurlik shohsupasidan o'rin egallaydi. Fransiya parlamenti sudi 1762- yil 9-mayda bu romanni yig'ib olib yoqib yuborish, Russoni esa qamoqqa olish haqida hukm chiqaradi. Russoning «Emil» romani bilan birga «Jamoatchilik kelishuvi» asari ham shoirning tug'ilgan shahri Jenevada yoqib yuboriladi.

1762-yilda Parij diniy boshqarmasi boshlig'i (arxiyepiskop) Xristofor Bomon o'ziga tegishli barcha diniy mahkamalarga xabar qilib, Russoni Xudo va insonlarning dushmani deb e'lon qiladi. Shundan so'ng Russo bir qator pamfletlar yozadi.

1766-yilda Russo Angliyaga ketib qoladi. Adib Angliyada ham tinch va osuda hayot kechirolmaydi. O'z davrining taniqli faylasufi David Yum Russoni suhbatga taklif qilib, bu suhbatda qattiq bahslashib, so'ngra Russoni tanqid qilib, matbuotda chiqish qiladi.

Jan Jak Russoning o'z dunyosi bor edi. U o'z e'tiqodini hech narsa-ga almashtirmaydi, hech qachon sotmaydi. Bu uning haqiqatgo'yligi, adolatparvarligi, yuksak insoniy qiyofasi edi. O'zi tahlikali kun kechirib, Angliyada yashirib yuradi. Dard ustiga chipqondek boz ustiga David Yum bilan bahs qilib, qattiq janjallashib qolish darajasiga yetadi. Faylasuf olim Russoni o'z g'oyasidan kechishga da'vat etadi. Biroq Russo hech qachon o'z g'oyasidan kechmaydi. O'zining haqligiga qattiq ishonadi.

DENI DIDRO

(1713–1784)



Fransiyaning qadim shaharlaridan biri Langrda dunyoga kelgan. Parijdagi Garkur kollejida tahsil olgan. Talabalik yillarida falsafadan bilim oladi. Uning siyosiy ongi yetilib boradi. Ehtimol shuning uchundir uning ilk ijodi «Falsafiy mushohada» asarining yaratilishi bilan boshlanadi. 1750-yildan boshlab Lebretonda chiqadigan «Ensiklopediya»ga muharrirlik qila boshlaydi. Bu nashriyotda o'z davrining yirik adiblari asarlari birin-ketin chiqa boshlaydi. Siyosiy jihatdan yetuk asarlarning chop etilishi jamiyat siyosiy hayotiga putur yetkazishidan cho'chigan hukumat boshliqlari «Ensiklopediya»ning chiqishiga turli yo'llar bilan qarshilik qilardi. 1773-yilda u Yekaterina II taklifi bilan Rossiyaga keladi va Rossiya akademiyasining haqiqiy a'zosi bo'ladi.

«Vilmen ma'ruzasining bo'sh vaqtdagi davomi» (1842), «Tabiatni tushunish va falsafiy qat'iyatlik» (1754), «Son D'Alamber» (1769), «Fiziologiya bo'limlari» (1774), «Richardson maqtovlari» (1761), «Dramatik poeziya muhokamasi», «Ralo nevarasi», «Xayolparast Jak» (1785), «Monarxiya» (1760) kabi asarlari Didroning ilmiy, dramaturglik salohiyatidan dalolat beradi.

Deni Didro falsafa va tarix olimi sifatida mashhurdir. Jahon falsafa fanining rivojida Deni Didroning alohida o'rni bor. O'z zamonasida falsafiy fikrlash ko'lamining kengligi bilan unga teng keladigani bo'lmagan. «Falsafiy ong» kitobi 1746-yilda Parij sudining hukmi bilan yig'ib olinib, yoqib yuboriladi. «Ko'rlar haqida maktublar» kitobi uchun 1749-yilda yuz kunga Vensenn qamoqxonasiga tushadi.

O'ttiz yilga yaqin nashr qilingan «Ensiklopediya» da mingga yaqin ilmiy maqolalari va boshqa asarlari bosiladi.

«Ensiklopediya»ning asosiy sahifalarini Deni Didro ijodi namunalari qamrab olardi. «Ensiklopediya» yozuvchi ijodining gullab-yashnashida va uning nomi jahonga mashhur bo'lishida alohida o'rin tutadi.

Didro fransuz dramaturgiyasining nazariy asoslariga oid ham qator ilmiy-publitsistik asarlar yozdi. «Dramatik poeziya tahlili» asari bu qiyin janrning o'ziga xos tomonlarini ilmiy-nazariy jihatdan yoritib beradi. Ayni paytda o'zi ham qator drama va komediyalar ijod qilib mashhur bo'ldi. «Fransuz kuychisi», «Oilalik ota» pyesalari Parij sahnasida muttasil namoyish etilardi.

Adibning «Xayolparast Jak» qissasi ham hali o'zi hayotligidayoq mashhur bo'lib ketadi. Shiller bu qissani 1785-yilda nemis tiliga tarjima qiladi. Asar «Xayolparast Jak va uning xo'jayini» nomi bilan ko'p tillarga tarjima qilinadi.

Deni Didroning mashhur romani «Monarxiya» (1760) deb ataladi. Roman qahramoni nihoyatda sohibjamol, aqlli va dono qiz Syuzanna-dir. Biroq u diniy tartib-tarbiya doirasida yashab, muhitdan bezor bo'ladi, o'zini yolg'iz his qiladi, jamiyatdan ajrab qolganini tushinib boradi. O'g'rilik, muttahamlik, ayyorliklarni ko'rib dahshatga tushadi. Muallif Syuzanna orbazi orqali fransuz jamiyatining barcha kirdikorlarini, yaramas tomonlarini ochib beradi.

Deni Didro o'zining badiiy-estetik dunyoqarashi bilan jahon adabiyoti sahifasini bezab turibdi.

GOTXOLD EFRAIM LESSING

(1729–1781)

Nemis adabiyotining gullab-yashnashiga Lessing munosib hissa qo'shdi. Kamens shaharchasida tavallud topib, dastlab mahalliy maktabda, Leypsig universitetida ta'lim oladi. Molyer an'analari ruhida yozilgan «Yosh olim» komediyasi tezda sahnalashtirilib, Lessing nomini ko'pchilikka tanitadi. 1748-yilda Berlinga kelib, adabiy hayot bilan bog'lanishi uning ijodini yuqori pog'onaga ko'taradi. Bu yerda u Volterning kotibi bo'lib ishlaydi. 1767–1769-yillarda Gamburg teatrida ishlash jarayoni Lessingning dramaturglik faoliyatini o'stiradi. «Gamburg dra-



maturgiyasi» (1768) deb nomlanuvchi, teatr va dramaturgiya nazariyasiga bag'ishlangan asari shu davrda yozilgan edi. «Muhtarama Sara Sampson» (1755), «Minna fon Barnxelm» (1763–1767), «Emiliya Galotti» (1772), «Laokoon» (1766), «Donishmand Natan» (1779) kabi asarlari Lessing dunyoqarashining nihoyatda yuksakligidan, falsafiy qobiliyatining zo'rligidan dalolat beradi.

Lessing juda qashshoq hayot kechirardi. Uning kechgacha ishlab topgan puli hayot kechirishiga zo'rg'a yetardi. Germaniya Lessingdek buyuk iste'dod egasini avaylab-asrab, unga moddiy yordam ko'rsata olmadi. Lessing umrining oxirigacha kambag'al yashadi. Lessing agar boy-badavlat bo'lganida ehtimol ko'p narsa ijod qilgan, nemis adabiyoti taraqqiyotiga hissa qo'shgan, yangidan-yangi shoh asarlar ijod etgan bo'lardi.

Jahon adabiyoti tarixida Lessing kabi yuzlab iste'dodlar qashshoqlikdan nobud bo'lib ketgan. Hozir ham jahonda muhtoj ijodkorlar, nihoyatda qiyin hayot kechirayotgan talantlar kam deysizmi?!

Lessingning «Yangi adabiyot haqida maktublar» asari barcha ijodkorlarni oyoqqa turg'azdi. U Spinoza falsafasini o'rganib, uni yuksak ilmiy yo'nalishda tadqiq etadi. 1759–1765-yillarda yozilgan maktublari xalqning ezgu-o'ylari bilan hamohang edi.

Lessing erkin adabiyot uchun kurashdi. Adabiyot hech qachon imperator va uning saroyi uchun emas, xalq uchun xizmat qilishi kerak. Bir hovuch buyruqbozlar uchun xizmat qiluvchi adabiyot hech kimga kerak emas, bunday ruhdagi adabiyot hech qachon gullab-yashnamaydi, degan g'oyani ilgari surdi.

1774–1779-yillarda Lessing Volfenbyutel kutubxonasidan professor German Samuel Reymarus qo'lyozmalarini topib olib e'lon qiladi. Professor Reymarus o'z qo'lyozmasida Bibliya va xiristian dini haqida muhim fikrlarini aytib, o'z talqinlarida ko'plab diniy kitoblar, qo'lyozmalar, din tarixi bilan bog'liq manbalarni tahlil qilgan edi. Bu qo'lyozma Lessingda katta taassurot qoldirib, «Donishmand Natan» (1779) dramasiini yozadi. Diniy xarakterdagi bu drama Lessingning oxirgi yirik asari edi.

Keyingi davrlarda ijod qilgan ulug' nemis dramaturglari Hyote va Shiller haqli ravishda Lessingni o'z ustozlari deb tan olishgan.

MAXTUMQULI

(Firog'iy)
(1733–1791)



1733-yilda Turkmanistonning Artek daryosi yaqinidagi Hojigovshan qishlog'ida dunyoga keladi. Otasi Davlatmamat dehqonchilik va hunarmandchilik bilan shug'ullansa ham o'z davrining maktab va madrasa ko'rgan, ma'rifatli kishisi bo'lgan, Ozodiy taxallusi bilan pandnomalar yozgan. Uning olti ming misraga yaqin «Va'zi ozod» asari mavjuddir.

Maxtumorli Xivadagi Sherg'oz madrasasida, Qiziloyoq ovulidagi Idrisbobo, Buxorodagi Ko'kal-dosh madrasalarida tahsil ko'radi. To'qqiz yoshidan qo'liga soz olib, qo'shiqlar xirgoyi qila boshlaydi.

Maxtumorli Oqqiz degan go'zalga uylanib, undan Sori, Ibrohim ismli o'g'illar ko'rgan. Biroq ikki farzandi ham kasallik tufayli o'lib ketib, shoir farzand dog'ida ko'p aziyat chekadi. Maxtumorli o'zbeklarning ham sevimli shoiridir. Folklorshunos olim Muzayyana Alaviya shunday yozadi: «Men ancha vaqt Islom shoir bilan birga ishladim. U o'z dostonini aytmadan ilgari Maxtumorlidan aytardi. Xalq shoiriga «Nega Maxtumorlidan boshlaysiz», deb murojaat qilganimda, «Maxtumorlidan aytsam xalq ko'p keladi, yoshlar ham, qarilar ham ko'p yig'iladi», deb javob bergan edi». («O'zbekiston madaniyati» 1986, 23- noyabr.) Bu manba guvohlik berib turibdiki, Maxtumorli faqat turkman xalqining ardoqli shoiri bo'libgina qolmasdan, o'zga xalqlarning ham sevimli shoiriga aylangan.

Maxtumorli ijodi xalq tiliga, xalq diliga yaqin. Shoirning she'rlarida didaktik pandnoma ruhi kuchli. O'z asarlari orqali insonni mard, jasur, to'g'ri so'z, halol va bir-biriga mehrli, saxiy bo'lishga chaqiradi.

*Oqmasdan qolmaydi bir oqqan ariq,
Bir tanda orom goh semiz, goh oriq.
Bir yuzi qoradir, bir yuzi yorug',
Qora deb qattiq so'z aytuvchi bo'lma.*

Maxtumorli ijodining tarbiyaviy ahamiyati katta. Shoir she'rlarini b'qib o'ylanib qolasiz. Yaxshi-yomon, savob-makruh ishlaringizni sarhisob qilasiz. Yaxshi tomonga intilasiz, savob ishlar qilishga bel bog'laysiz.

*O'qir bo'lsang, o'qur nafsing ko'ziga,
Chin ko'z bilan qara kitob ko'ziga.
Aldanib kirmagil shayton so'ziga,
Yaxshilikni hech vaqt qo'yuvchi bo'lma.*

Ushbu misralar hozirgi zamon Sharq pedagogikasi uchun ham qadrli. Pand-nasihati hamma zamonlarda ham dilga yaqin tuyg'u bo'lib kelgan. Maxtumquli ham dilimizga yaqinligining boisi shu.

HYOTE

(1749-1832)



Jahon adabiyotining ulug' shoiri Yoxann Fankfurt-Mayn shahrida dunyoga keladi. Yoshligidan o'qishga, ilm o'rganishga qattiq beriladi. Keyinchalik Leypsig universitetida ma'ruza tinglaydi. 1769- yilda qattiq betob bo'lib, universitetni tark etadi.

Uning ilk ijod durdonasi «Nazm va haqiqat» yuksak falsafiy ruhi bilan muxlislar e'tiborini o'ziga tortdi. «Ganimes» (1774) falsafiy she'ri Hyote talantining yuksakligini namoyish etadi. Hyote 1600 ta she'r ijod qilgan. Bu she'rlarning hech birini sayoz yoki quruq satrlardan iborat deb bo'lmaydi.

Har bir she'rida yoniq fikr, katta falsafa ko'zga tashlanadi. «Prometey» (1773), «Ges fon Berlixingen» (1771), «Yosh Verterning iztiroblari» (1774) asarlarida jamiyat hayotining turli manzaralari yoritiladi. Hyote o'z ijodiga o'ta mas'uliyat bilan yondashadi. Ikki tomlik «Vilgelm Mayster» romanining birinchi kitobi ustida 20 yilga yaqin, ikkinchi kitobi ustida 20 yildan ko'proq mehnat qiladi.

Buyuk shoirning «G'arbu Sharq devoni» bilan yaqindan tanishar ekanmiz, 12 kitobdan iborat asarning quyidagi sarlavhalariga ko'zimiz tushadi. «Qo'shiqchi kitobi», «Hofiz kitobi», «Sevgi kitobi» va hokazo. Hofiz, Nizomiy, Firdavsiy, Sa'diy ijodiga bag'ishlangan alohida boblar beixtiyor e'tiboringizni o'ziga tortadi. Shoirning Sharq mumtoz adabiyoti namoyandalariga alohida hurmat va e'tibor bilan qarashiga guvoh bo'lamiz.

Shoir «Faust» tragediyasi ustida qariyb 40 yil samarali ijod qildi. Bu asar jahondagi deyarli barcha xalqlar tillariga tarjima qilingan nodir durdonadir.

Shoirning «Prometey» (1773) falsafiy dramasi antik zamonning ulug' so'z san'atkori Esxilning «Zanjirband Prometey» tragediyasiga bir qadar o'xshab ketsa-da, Hyote drama syujetini yangicha yo'nalishga buradi. Yangi zamon ruhiga mos dialog va monologlar bilan boyitilgan bu dramani Esxil tragediyasidan ko'chirilgan deguvchilar ham bo'lgan. Vaholanki, Hyote o'z dramasini yangi obrazlar bilan boyitgan.

Eng muhimi shundaki, nemis ma'rifatparvarlari va teatrshunoslari bu dramani iliq kutib olib, yuqori baholaydi.

Hyote 83 yoshida vafot etadi. Undan qolgan boy adabiy meros jahon adabiyoti zarvaraqlarini bezab turibdi.

FRIDRIX SHILLER

(1759–1805)



Marbax shaharchasida, harbiy tabib oilasida tug'ilgan Fridrix juda qiyin hayot kechiradi. Uning yoshligi harbiy doiralar orasida o'tadi. 1780- yilda harbiy akademiyaning meditsina fakultetini bitiradi. Yoshligidan boshlab she'riyatga ixlos qo'yadi. Jan Jak Russo, Lessing, Shekspir asarlarini sevib o'qiy boshlaydi.

Birinchi eng yirik ijod namunasi bo'lmish «Qaroqchilar» (1781) Shiller nomini tezda mashhur qiladi. Shundan so'ng «Fiyesko fitnasi» (1874), «Don Karlos» (1787), «Makr va muhabbat», «O'rmon qizi», «Vilgelm Tel» kabi asarlari ni yaratadi.

Dramaturgning «Vallenshteyn» (1796–1799) trilogiyasi o'z davrida yuksak baho olgan edi.

Shiller mahoratini ko'z-ko'z qiladigan «Makr va muhabbat» tragediyasidir. Tragediyaning nomidan ham sezilib turibdiki, unda bir-biriga qarama-qarshi hayot ko'rsatib berilgan. Asar 1784-yil 9-may kuni Mannheim teatrida namoyish etilgandan so'ng, Shillerga bo'lgan hurmat-e'tibor nihoyatda oshib ketadi.

1788-yilda Shiller Rudolshtad shahrida zamondoshi Hyote bilan uchrashadi.

Bu ikki ulkan adib deyarli bir davrda yashab, ijod etadi. 1856–1861-yillarda Shillerning to'qqiz tomlik asarlar to'plami Rossiyada chop etilgan edi. O'sha davrlarda Rossiyadagi adabiy jamoatchilik Hyote ijodidan ko'ra Shiller asarlarini ko'proq o'qirdi. Rossiya sahnalarida ham Shillerning asarlari ko'proq namoyish etilardi.

Shillerning ilmiy-falsafiy dunyoqarashi nihoyatda keng bo'lib, uning «Sentimental poeziya haqida», «Tragediya san'ati haqida», «Insonning estetik tarbiyasi haqida maktublar» kabi ilmiy maqolalari universitet va kollejlarda tahlil qilinadi. Hyote bilan hamkorlikda «Xoren» nomli ilmiy-adabiy jurnal chop etadi. Shiller balladaning mohir ustasi hamdir. Uning balladalari «Xoren» jurnalida muttasil bosilib turadi. «Vallenshteyn» trilogiyasi uchta tragediyani o'z ichiga oladi. «Vallenshteyn qarorgohi» (1792), «Pikkolin» (1795), «Vallenshteyn o'limi» (1799) deb nomlanib, Veymar teatrida to'xtovsiz namoyish etilardi.

Shiller romantik ruhdagi «Mariya Styuart», «Messin kelini» tragediyalarida antik adabiyot an'analari o'ziga xos ruhda davom ettiradi.

«Qaroqchilar» tragediyasi Shiller iste'dodining yuksakligini, dunyoqarashining kengligini namoyish etuvchi asardir. Bu asar hali Shiller hayotligidayoq Germaniyadan boshqa mamlakat sahnalarida namoyish etiladi. Ayniqsa, Parij teatrlari tragediyani tashnalik bilan qabul qiladilar.

Tragediyada hukmdor bilan oddiy xalq hayoti bir-biriga qarama-qarshi qo'yiladi. Hukmdor Fiyesko gohida osuda va sokin hayotni qo'msab qoladi. Hukmdorning atrofida hamma vaqt xavf-xatar borligi ta'kidlanadi.

Shiller ijodi Markaziy Osiyoda drama janrining rivojiga katta ta'sir o'tkazgan.

VALTER SKOTT

(1771–1832)



Angliya romantizmining bayroqdorlaridan biri bo'lgan Skott yurist oilasida tug'ilgan. Skott ota izidan borib, huquqshunoslik bilan shug'ullanadi, 1792-yilda advokat bo'ladi. Xalq og'zaki ijodini jon-dilidan sevadi. Shotlandiya tog'larida qishloq ahlidan qahramonlik hikoyalarini ko'p eshitadi. «Shotlandiya chegarasidagi poeziya» nomli ikki tomlik (1802–1803) balladalar to'plami shoir nomini mashhur qilib yuboradi. Skott Hyotening «Ges fon Berlixingen» tragediyasini va juda ko'plab balladalarni tarjima qiladi va shu yo'sinda tarjima-chilik san'atini ham mukammal egallab oladi.

«Monastirdagi oxirgi qo'shiq» (1805), «Mariion» (1808), «Ko'l qushi» (1810), «Qoya xo'jayini» (1828) kabi poemalari nashr qilinadi. Bundan tashqari qator romanlari mavjud.

Proza va poeziya Skott ijodining ikki qirrasidir. Adib qator poemalari va romanlari bilan shuhrat qozongan. O'ttizta tarixiy roman, povest, hikoyalar muallifidir. Roben Gud haqidagi hikoyalarga ham murojaat etadi. Shotlandiya va Angliya haqida turkum asarlari yuzaga kelgan. «Ueverli» (1814), «Gay Mannering» (1815), «Lomenburg kelini» (1819), «Mantroz haqida rivoyat» (1819), «Cherkov» (1820), «Sentranin suvi» (1824), «Qaroqchi» (1821) «Nigel g'aroyibotlari» (1822), «Bashoratgo'y» (1825), «Pert go'zali» (1828), «Anna Geyereshteyn» (1829), «Graf Robert» (1832), «Xavfli qulf» (1832) asarlari ijodining hammasi emas. Ayrim kezlarda u bir yo'la ikki, gohida uch roman ustida ishlagan.

Skott Angliya va Shotlandiya tarixini birdek bilardi. Adibning bobokalonlari shotlandiyalik bo'lib, Valter Shotlandiya madaniyatini, urfodatlarini, xalq og'zaki ijodini puxta o'rgangan edi.

Valter Skott ikki xalq tarixiy o'tmishiga katta qiziqish bilan qarardi. Uning ko'pgina ballada va poemalari tarixning in'ikosi bo'lib, yozuvchi ikki xalq tarixiga qaytadan hayot bag'ishlashni o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan edi. «Monastirdagi oxirgi qo'shiq» (1805) «Mamion» (1808) asarlarida aynan mana shu tarixiy o'tmish voqeligini qalamga olgan edi. Eng muhimi, muallif ikki xalq o'rtasida ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlik va taraqqiyot tarafdori bo'ladi.

Valter Skottning «Rob Roy» (1917), «Puritanlar» (1816) romanlarida jamiyat, xalq, millat masalasi ko'tarilgan. Bu ikki romandan tashqari «Ueverli» (1814) «Gay Mannering» (1815), «Antikvar» (1816) romanlari ham «Shotland romani» turkumiga kiradi. Bundan tashqari, «Xo'jayinimning hikoyalari» nomi ostida turkum hikoyalar to'plami ham e'lon qilingan.

Valter Skott ijodida «Mantroz afsonalari» (1819), «Edinburg yubkasi» (1818) romanlari alohida o'rin tutadi. Bu romanlarda yuz yillik tarix (1650–1750) haqida hikoya qilinadi.

VASHINGTON IRVING

(1782–1859)

Vashington Irvingning ota-bobolari Gollandiyadan bo'lib, Amerika-ning Vashington shtatiga ko'chirilgan edi. XVII–XVIII asrlarda minglab yevropaliklar o'z ixtiyorlari bilan, ayrimlari majburan Amerikaga keltirilgan edi. Hali o'sha davrlarda Amerikaning ko'p qismida yerli qabilalar yashar, ularni siqib chiqarish va butun Amerika hukmronligini qo'lga kiritish uchun yevropalik oq tanlilarni ko'chirib keltirish va ularga bir qancha imtiyozlar yaratib berish kerak edi.



Vashington Irving ikki akasi bilan savdo-sotiq ishlari bilan shug'ullanib, tezda oilani tiklab oladi. Irving bir qancha muddat huquqshunoslik bilan ham shug'ullanadi. O'sha paytlarda Amerikada demokratik tendensiyalar anchagina kuchaya borib, sodir bo'lgan voqea-hodisalar huquqshunos nazaridan o'tar, huquqshunoslarning hurmati tobora ortib borardi.

Vashington Irving ko'proq vaqtini badiiy asarlar o'qishga, she'rlar yod olishga sarflab, adabiy ijod sari intilar, yangi asarlar yozishni orzu qilardi.

Yozuvchi bo'lish uchun yosh Vashington savdo-sotiqdan ham, huquqshunoslikdan ham voz kechib, Nyu-Yorkka ketib qoladi. Nyu-Yorkdagi adabiy doiralar bilan birgalikda Yevropa bo'ylab sayohatga chiqqanida hali endigina o'n sakkiz yoshga kirgan edi. U dastlab Londonga borib, faoliyatini ingliz adabiyoti namunalarini o'qishdan boshlaydi, ingliz adabiy doiralari bilan yaqindan munosabat o'rnatadi.

Vashington Irvingning mavqeini Amerika adabiyotida mustahkamlagan – 1819-yilda nashr etilgan «Chizgilar kitobi»dir. Hikoya va ocherklar to'plamidan iborat bu kitob tezda sotilib ketadi va yozuvchiga ham moddiy, ham ma'naviy boylik keltiradi. Bundan ruhlangan adib badiiy ijodga butunlay sho'ng'ib ketadi.

Vashington Irvingni irqi, millatidan qat'iy nazar barcha amerikaliklar sevar edi. U Amerikaga ko'chib borgan yevropaliklar hayoti haqidagina emas, Amerikaning tub aholisi haqida ham ancha-muncha asarlar yozgan edi. O'sha paytlarda Afrika va Osiyodagi ko'pgina davlatlar inglizlar qo'l ostida bo'lib, Afrikadan negrlar, Osiyodan musulmonlar ham Amerikaga olib ketilgan edi. Adib Amerikada yashayotgan negrlar, musulmonlar hayotini tasvirlashni ham e'tibordan chetda qoldirmaydi.

Vashington Irvingning ko'pchilik hikoyalari sayohatlari davrida eshitgan afsona va rivoyatlar asosida bitilgan. Shu jihatdan olib qaranganda, uning «Arvoh kuyov» hikoyasi o'quvchi e'tiborini beixtiyor o'ziga tortib, sehrlab oladi.

Vashington Irvingning afsonalar asosida bitilgan asarlari ham mavzu e'tiboriga ko'ra turkumlarga ajratilib alohida kitob holida nashr etilgan. Bunday turkum hikoyalar «Xazina izlovchilar», «Breysk Brijxill», «Al-Hamro» deb nomlanib, nashr etilgandir.

Vashington Irving o'zi xristian diniga mansub bo'lsa ham musulmon dunyosiga bir qadar xayrixohlik bilan qaraydi. O'sha davrlarda arab mamlakatlaridan qul sifatida olib kelingan arablardan turli-tuman hikoyalar eshitib, ularning badiiylashtiradi. «Al Hamro» kitobiga kirgan

«Uch sohibjamol hikoyati», «Arab munajjimining rivoyati», «Shahzoda Ahmad al-Kamol yoki oshiq qalandar», «Al-Hamro guli yoki mahram va lochin qissasi», «Marv vasiyati» kabi hikoyalari shular jumlasidandir. Bu hikoyalarda arablarning donishmandligi haqida soʻz yuritadi.

Vashington Irving «Muhammad tarixi» kitobida Muhammad paygʻambarning dono, aqlli, donishmand kishi boʻlganligini xayrixoh va ixlos bilan taʼriflab, paygʻambar tarixiga oid muhim manbalarni berib oʻtadi. Bu asar jahondagi koʻpgina tillarga tarjima qilingan.

Vashington Irving Amerika adabiyoti taraqqiyotiga ulkan hissa qoʻshgan ulkan adibdir. Ulugʻ Amerika adibi Mark Tven uni ustoz deb tan olgan. Ayni chogʻda, Mark Tvenning koʻplab yumoristik hajviyalari Vashington Irving ijodini esga soladi.

FREDERIK STENDAL

(1783–1842)



Stendal haqiqat izlagan adib. U millionlab kitobxonlar qalbiga haqiqat olib kirdi. Roman va xilma-xil mavzudagi novellalar muallifi, Fransiya adabiyotining mashhur soʻz sanʼatkori «Qizil va qora», «Parma ibodatxonasi» romanlari, «Italiya xronikalari» nomli novellalar toʻplamlari bilan ixlosmandlari qalbini zabt etdi.

«Rim boʻylab sayohat», «Neapol», «Florensiya», «Italiya tasviriy sanʼati tarixi», «Gaydn», «Rasin va Shekspir», «Xudbinning xotiralari», «Rasining hayoti» kabi asarlarida jamiyat hayotidan haqiqat qidiradi. Uning asarlari shuning uchun ham haqiqatparvar xalq diliga yaqin.

Stendal izlanuvchan adibdir. U har doim yozilajak asari uchun manba qidirib yuradi. Adib hayot haqiqatni yaxshi koʻradi. Buning uchun odamlar orasida boʻladi, gazeta va jurnal sahifalarini varaqlaydi, tarixni mukammal oʻrganadi.

Gazetada bosilgan oʻspirin haqidagi bir xabar, ayniqsa, uning oʻlimi oldidan «Haqiqatni sevardim» degan soʻzlaridan yozuvchi qattiq hayajonga tushadi va hayotning barcha ikir-chikirlarini bir chetga surib, «Qizil va qora» romanini yozishga kirishadi.

«Qizil va qora» yozuvchining yorqin ijod namunasi. Bu roman yuzaga kelguncha ham adib qator asarlar yozib, qalamini sinab koʻrgan edi.

«Qizil va qora» tarixiy asar emas. Gazeta voqeasi yozuvchiga shunchaki ijodiy turtki bo'ladi. Stendal o'z oldiga ijtimoiy-psixologik roman yozishni maqsad qilib qo'yadi.

Romanda adib o'zi yashagan zamonga, ya'ni frunsuz hayotiga xos bo'lgan muhabbatni tasvirlaydi. Jyulyenning sevgisi yurak amri emas, shunchaki ichki bir havasdir.

Stendal deyarli barcha asarlari uchun hayotiy voqealarni asos qilib oladi. «Ushbu qissa 1830-yili Parijdan uch yuz chaqirim» naridagi bir joyda yozilgan, shu boisdan ham asarda hozirgi, 1839-yil voqealariga aloqador bironta ham gap yo'q», degan edi yozuvchi «Parma ibodatxonasi» asarining muqaddimasida. Garchi adib asar voqeasiga aloqador emas, deb ta'kidlagan bo'lsa-da, davrning ta'siri borligini sezamiz. Bu safar yozuvchi fransuzlar hayoti emas, italyanlar tarixi haqida qalam suradi. «Mening qissamda tasvirlangan qahramonlar fransuzlarga sira o'xshamaydi», deb ta'kidlaydi yozuvchi.

Asarda Grafiniya bilan Fabritsio o'rtasidagi ishqiy mojarolar jozibali lavhalarda berilgan. Fabritsio o'lgandan so'ng Parma ibodatxonasi huvullab qoladi. Grafiniya uchun endi hayotning, yashashning qizig'i yo'qdek tuyuladi. Shu tufayli bo'lsa kerak, Grafiniya ham tez orada bu olamdan ko'z yumadi.

Stendalning ko'pgina asarlari ishqiy sarguzashtlarga bo'ydir. Yozuvchi o'z qahramonlarining ishq-muhabbat savdosini mahorat bilan tasvirlaydi.

JORJ GORDON BAYRON

(1788–1824)



Jorj Bayron ingliz adabiyotining atoqli vakili. «Chayld Goralld ziyorati», «Sharq dostonlari», «Kofir», «Don Juan» asarlari muallifi.

«Sharq dostonlari» to'plamiga kirgan «Gyaur», «Abidoslik kelin», «Korsar», «Lara», «Korinf qamali», «Parizod» poemalarini yozgandan so'ng muxoliflari unga qarshi turli tuhmatlar uyushtirishadi. Shundan so'ng u Angliyani tashlab chiqib ketishga majbur bo'ladi.

Bayron 1816-yilda Shveytsariya poytaxti Jenevaga kelib respublikachi Bonivar jasorati haqida «Shiylon tutquni» asarini yozadi. 1817–1821-yillarda dramatik asarlar turkumi

yaratadi. Bu turkumda «Manfred», «Osmon va Yer», «Kain» dramatik asarlari bor edi.

«Don Juan» she'riy romani Bayron nomini jahonga tanitdi. Asarda XVIII asr hayoti qalamga olinsa-da, o'zi yashab turgan davrning eng muhim voqealari nazarda tutiladi.

Bayronning ko'pgina asarlari o'zbek tiliga tarjima qilingan. Bayron jahon adabiyotida eng kuchli siyosiy shoir sifatida mashhurdir.

Bayron o'zining ilk she'rlari bilanoq ko'zga tez tashlanadi.

«Nyusteddan ketish oldidan» (1803) deb nomlanuvchi she'ri ko'pchilikka manzur bo'ladi. Shundan so'ng shoirning «Chog'lanish soati» (1807) she'rlar to'plami chop etiladi. O'n to'qqiz yoshli shoirning iste'dodi hammani lol qoldiradi. Uning she'rlari iste'dodining nihoyatda yuksakligidan dalolat berardi.

1809-yilda «Angliya boyvachchalari va Edinburg talqinchilari» nomli hajviy ruhdagi poemasi e'lon qilinadi. Bu poemasida shoir mudrab qolgan ingliz adabiy jamoatchiligini sergaklikka chaqiradi. Faqat pul, mol-dunyo orttirish uchungina xizmat etuvchi, o'z iste'dodini oyoq osti qiluvchi ijodkorlarni qattiq tanqid qiladi. Bunday ijodkorlarning asarlari qirolga va saroy ahliga yoqsa bo'ldi, adabiyotning kelajagi ularni zarracha qiziqtirmaydi, degan fikrni aytib o'tadi. Edinburg jurnali tahririyatini esa qo'rqqoq va xushomadgo'ylar toifasiga qo'shadi. Shu ketishda Angliya adabiyoti tuban holga tushushidan tashvishlanadi.

Bayron ijodida «Chayld Gorald ziyorati» (1812) poemasi alohida o'rin egallaydi. Bu asarida shoir Yevropada avj olib ketgan turli bosqinchilik urushlarini qoralaydi.

Bayron «Sharq poemasi» (1813) asarini ko'p mamlakatlarda bo'lib, Angliyaga qaytib kelgandan so'ng yozadi. Asarda ishq-muhabbat, insoniylik, sadoqat ulug'lanadi. Pokiza qalb egalari zo'ravon va zolimlar, bosqinchilar tomonidan toptalganini, oyoq osti qilinganini zorlanib, kuyinib aytadi.

Shoirning ikkinchi poemasi «Korsar» (1814) «Sharq poemasi» asarining mantiqiy davomidir. Shoirning ta'kidlashicha, qabohat va qotillik hukmron bo'lgan Angliya kabi jamiyatda ikki qalbning bir-birini sevib, murodiga yetishi u yoqda tursin, bunday jamiyatda osoyishta yashashning o'zi ham amrimahol, poklik, haqiqat, ishq-muhabbatning yakson bo'lishi turgan gap.

Bayronning hayoti ham she'rlari kabi hayajonga to'la. U butun borlig'ini, hayotini insoniyatga bag'ishlagan inson edi. Shoir ijodini qashshoq xalqning istiqboli va kelajagiga bag'ishlaydi. Oddiy xalqning turli yo'llar bilan aldanib kelganidan nafratlanadi.

Bayron o'zidan keyingi avlodlarga juda katta adabiy meros qoldirdi. Hozirgi kunda bu merosdan butun jahon bahramand bo'lmoqda.

ALEKSANDR SERGEYEVICH PUSHKIN

(1799–1837)



Moskvada dvoryan oilasida dunyoga kelgan A. S. Pushkin 1812-yilgi Vatan urushini o'z ko'zi bilan ko'radi. Yoshligidanoq xalq ijodiga alohida mehr bilan qaragan shoirning ilk she'ri «Uyqu» (1816) xalq dilidan alohida o'rin egalladi.

Peterburg yaqinidagi litseyda o'qib yurgan kezlaridanoq adabiyotga ixlos uyg'onadi. U ko'p umrini surgunda o'tkazadi. Ko'p shaharlarda ijod bilan mashg'ul bo'ladi. «Kavkaz asiri» (Gruziyada), «Boqchasaroy fontani» (Boqchasaroyda) asarlarini bitadi, Odessa, Mixaylovsk, Moskva, Kishinev, Orenburg shaharlarida bo'ladi.

Uning «Erkinlik» (1817), «Qishloq» (1819), «Haykal» (1936) kabi she'rlari noyob javohirlaridir.

Shoirning «Ruslan va Lyudmila», «Tavriliada», «Aka-uka qaroqchilar», «Qushlar», «Graf Nulin», «Poltava», «Kolomnadagi uy», «Anjella» «Mis chavandoz» poemalari xalq qalbidagi dardga malham bag'ishlaydi.

A. S. Pushkin asarlarining bosh qahramoni asosan xalqdir. Shuning uchun ham shoirning asarlarini xalq sevib o'qiydi. «Boris Godunov» tragediyasida bosh qahramon xalq hayotiga, uning orzu-umidlariga qarshi turadi. «Xasis ritsar» tragediyasida ota bilan o'g'ilning boylik talashib razil dushmanlarga aylanishi voqeasi ko'rsatilgan.

1820-yilda Pushkinni isyonkor shoir sifatida ayblab, janubga surgun qilishadi. Shoirning «Erkinlik» qasidasi xalq olqishiga sazovor bo'lib, ko'p nusxalarda tarqaladi. Shoirning surgun qilinishiga ham shu she'r odasi asosiy sabab bo'ladi.

Pushkin bu she'rini Turgenev uyida, quyuq suhbatdan so'ng yozgan edi. Bu suhbat podshoh zulmi, mamlakatda hukm surgan nohaqliklar, boylik to'plash yo'lida har qanday jirkanch ishlardan qaytmaydigan bir to'da zulmkorlarga nafrat ruhida bo'lgan edi. Suhbatdan so'ng Pushkin deraza yoniga o'tirib uzoqlarga qaraydi.

Turgenevlar uyining derazasidan Mixaylovskiy saroyi aniq ko'rinib turardi. Shoir nafrat to'la ko'zlarini saroyga qarab shunday yozadi:

*Ey, yovuz hukmron, badkirdor zolim!
Nafratlarim senga, toju-taxtingga,
Senga va naslingga kelarkan o'lim,*

*Qattiq sevinch bo'lib ko'rinar menga.
Sening peshonangga, ey zulm shohi!
Xalqlar o'qir aniq – la'nat tamg'asi.*

Pushkin bor-yo'g'i yigirma yil ijod qildi. Shu qisqa yigirma yillik ijodiy faoliyati bilan jahon adabiyotida mustahkam o'rin egalladi.

Pushkin hayotidagi ziddiyatlar, qarama-qarshiliklar, qiyinchiliklar, ehtimol uning ulug' bo'lib ketishi uchun yo'l ochib bergandir. Shoirning har bir she'rida yoniq dard bor. Bu shunday dardki, qalbingizni chertib o'tadi. Bir she'rini o'qib bo'lgandan so'ng, yana boshqasini o'qigingiz keladi.

*Ruhim yana uyg'ondi bu dam.
Yana unda tirildi najot;
Yana dilda xudo va ilhom,
Ko'z yoshi-yu, muhabbat hayot.*

Aytishlaricha, muhabbatni ulug'lagan muhabbat kabi barhayot bo'larkan. Pushkin muhabbat kabi mangudir.

HAYNRIX HEYNE

(1797–1856)



1827-yilda nemis shoiri Heynening «Qo'shiqlar kitobi» she'rlar to'plami bosilib chiqadi. To'plam besh qismga – «Yoshlik azoblari», «Lirik intermediya», «Vatanga qaytish», ikki qismdan iborat «Shimoliy dengiz» silsilasiga bo'linadi. 1830- yilda Heyne ikkinchi yirik asari «Yo'l lavhalar» ocherklar to'plamini yozadi. «Sileziya to'quvchilari» (1844) she'ri, «Germaniya. Qish ertagi» dostoni (1844)da shoir vatanining ozodligi va kelajagini kuylaydi.

Heyne she'rlari faqat nemislar diyorida emas, butun dunyoga mashhurdir. «Qo'shiqlar kitobi» (1827) inson qalbining isyoni, nidosi, tuganmas qo'shig'idir. «Yoshlik azoblari», «Lirik intermediya», «Vatanga qaytish», «Shimoliy dengiz» deb nomlanuvchi bo'limlarini o'qib, Heynening shoirlik talanti nihoyatda yuksak ekanligiga guvoh bo'lamiz. Bu to'plamdagi she'rlar o'zining mayinligi, mungliligi, ta'sirchanligi jihatidan S. Yesenin, A. Pushkin lirikasiga o'xshab ketadi. O'qishliligi bilan ajralib turadi.

Heyne faqat dilbar shoirgina emas, u ocherkchi va hikoyanavis hamdir. U «Yo'l lavhalarini» (1839) asarida vatani bo'ylab sayohatlari davomida o'z ko'zi bilan ko'rgan, bilgan, eshitgan voqealarini hikoya qiladi. Qator ocherklar turkumidan iborat bu asarda nihoyatda hayotiy va ishonarli bayon etilgan voqealar tasviriga duch kelamiz.

1830-yilda nemis xalqi tarixida katta siyosiy voqea bo'lib o'tadi. Iyul inqilobi Heyne hayoti va ijodiga ham katta ta'sir o'tkazadi. Bunday siyosiy voqealardan Heynedek ulug' so'z san'atkorining chetda turishi mumkin emasdi. Shoir o'zining siyosiy qarashlarini keyinchalik «Sileziya to'quvchilari» (1844) asarida to'la-to'kis bayon qilgan. Sileziya fabrikasi ishchilarining ish tashlashi, katta siyosiy masala bilan namoyishlar o'tkazishi va bu harakatning qo'zg'alonga aylanib ketishi haqida o'sha paytda va keyinchalik G'arb adabiyotida ko'plab asarlar yuzaga kelgan edi.

Heyne ijodining gullab-yashnashi Parijdagi muhojirlik davrida sodir bo'ldi. Shoirni isyonkor ruhda she'rlar yozgani uchun ta'qib etadilar. U 1830-yilda Fransiya ketishga majbur bo'ladi. Shoir Parij adabiy muhitiga tezda yaqinlashib, ko'plab she'rlar bitadi. Ayniqsa, «Germaniya» (1844) dostoni, «Qullar kemasi» balladasi shoirga katta shuhrat olib keladi.

Haynrix Heynening «Germaniyada falsafa va din tarixi» asari shoirning falsafa ilmining nazariy asoslari haqida chuqur bilimga ega ekanligidan dalolat beradi. Bu asarida adib o'z davrining qator faylasuf tadqiqotchilarini keskin tanqid ostiga oladi. Siyqasi chiqqan eski mavzular va iboralar bilan mashg'ul bo'lgan ayrim faylasuflarni hajv ostiga oladi, ularning ustidan kinoya bilan kuladi. «Men o'z asarimda ayrim faylasuflarning kulgili so'zlariga e'tibor qarataman», deb ta'kidlagan edi Heyne.

ONORE DE BALZAK

(1799–1850)

Onore de Balzak ijodi butun bir frunsuz jamiyatining ko'zgusiga aylandi. Rus adiblari L. N. Tolstoy, V. G. Belinskiy, Saltikov-Shchedrin, N.G. Chernishevskiylar Onore de Balzak ijodini inana shunday yuksak baholagan edilar.

Balzakning buyukligi shundaki, u adabiyotni yangi mavqega ko'tardi, butun boshli obrazlar galereyasini yaratdi, hayotdagi nohaqliklar, razolat, zulm iskanjasiga qarshi isyon ko'tardi.



Balzak «Bir yilda ikki uchrashuv» (1831), «Yevgeniya Grande» (1833) qissalarida, «Sezar Birotto» (1837) romanida fransuz jamiyatining o'tmishi va o'zi yashagan davr haqida fikr yuritadi.

O. Balzakning falsafiy va siyosiy ruhdagi maqolalari ham talaygina. «Mehnat haqida maktub» (1838), «Ishchilar haqida» (1840) kabi ilmiy-falsafiy ruhdagi maqolalarida o'zi yaratgan ishchilar obrazi jamiyat hayotidan va uning ijtimoiy-siyosiy voqeligidan ancha ilgari ketganligini e'tirof etadi.

O. Balzak ijodida uning «Gorio ota» romani alohida o'rin egallaydi. Jahondagi ko'pgina tillarga tarjima qilingan bu romanda pul, boylikning hamma narsadan, ustun turushi nafrat bilan tanqid ostiga olinadi. Boylik, mansab-martabani hamma narsadan ustun qo'yuvchi farzandlar qoralanadi.

Onore de Balzak «Gobsek»da jamiyat qusurlarini fosh etadi. Gobsek kim o'zi? Katta hayot tajribasi bor bo'lgan, o'z falsafasi, aql-idroki bor inson. Jamiyatdagi o'rni qanday? U boylikni hamma narsadan ustun qo'yadi. Dunyoni oltin, pul boshqaradi, deb o'ylaydi.

Onore de Balzak ijodining bosh mavzusi – jamiyat. Jamiyat va inson.

«Inson komediyasi» Balzak ijodining gultojidir, aniqroq qilib baho berganda, jahon adabiyoti xazinasining durdona asarlaridir.

«Inson komediyasi» uch qismdan iborat. Birinchi qism «Haqiqat haqida lavhalar», ikkinchi qism «Falsafiy lavhalar», uchinchisi «Qiyosiy lavhalar» deb nomlanadi. Bizdan avvalgi tahlilshunoslar «etyud» deb nomlagan, biz esa «lavha» deb nomladik.

Bir so'z bilan aytganda, «Inson komediyasi»ga kirgan asarlarda jamiyat va tanholik, munofiqlik, boylik, ijod, o'g'rilik, haqiqat, qiyinchilik bor bo'yicha ochib berilgan.

VIKTOR HYUGO

(1802–1885)

Bezanson degan joyda tug'ilgan Hyugo ijodini juda erta boshlaydi. O'n besh yoshga to'lganda uning ilk she'ri Fransuz akademiyasining mukofotiga sazovor bo'ladi. «Byug Jargal» (1818) novella-romani chop etilganda o'n olti yoshda edi, 20 yoshga to'lar-to'lmas birinchi she'rlar to'plami chiqadi.

Viktor Hyugo rahbarlik qilgan adabiy to'garakka Sent-Buyov, Myusse, Vini, Aleksandr Dyuma kabi adiblar qatnashar edi. Hyugo «93-yil»



(1874), «Asr afsonalari» (1883), «Yangi odam» (1824), «Xo'rlanganlar» (1862), «Dengiz zahmatkashlari» (1866) kabi asarlari jahondagi ko'pgina tillarga tarjima qilingan.

Adibning «Dengiz zahmatkashlari» romanidagi Jilet obrazi katta mahorat mevasidir. Jilet qiyofasida jasorat va matonat egasini ko'ramiz. Dengizda qirq oyoqli maxluq bilan olishuvi o'quvchini hayajonga soladi.

Adib jamiyatdagi haqsizliklarni qattiq tanqid ostiga olib, fosh etgani uchun bir necha yillar quvg'inlikda yuradi. Nihoyat 1870-yilda 20 yillik quvg'indan so'ng o'z vataniga qaytib kelishga muvaffaq bo'ladi.

Viktor negrlar, qullarni isyonga da'vat etadi. Bu isyonkorlarga Byug Jargalni rahbar sifatida tasvirlaydi. Isyonkorlarni o'z erki va ozodligi yo'lida mardonavor jang qilishga chorlaydi. Ozodlik yo'lida hech narsadan, hattoki, o'limdan ham qo'rqmaslikka chaqiradi.

Viktor Hyugo keyingi qissasini «O'limga hukm qilingan oxirgi kun» deb nomlaydi. Bu qissa Fransuz kitobxonlarning qo'lidan-qo'lga o'tib, nihoyatda sevib o'qiladi. Fransuz adabiyoti kutilmaganda shunday katta iste'dod egasiga ega bo'ladi.

Viktor Hyugoning ilk ijodi harqancha yuksak bahoga sazovor bo'lmasin, asarlarida hali mazmun va shakl nomutanosibliigi, badiiylikning qiyomiga yetmagan jihatlari sezilib turardi. «Ajoyibotlar qarorgohi» asari adib qalamining charxlanib, badiiy mahorati yuksalganligidan dalolat beradi. Bu asarida adib hali hayotning achchiq-chuchugini obdan totib ko'rmagan Esmeralda obrazini yaratadi. Shu romandan so'ng Viktor Hyugoning ijtimoiy hayotdagi faolligi kuchayadi, siyosiy qarashlari o'sib boradi, hayot jumboqlarini teranroq anglay boshlaydi.

Viktor Hyugo notiq va publitsist sifatida faoliyatini kuchaytiradi. Adib xalqni o'zligini anglashga, saroy qalloblari tomonidan aldanib qolmaslikka chaqiradi. Bu xususda faqat otashin nutq so'zlab qolmasdan, mavjud tuzumga qarshi norozilik kayfiyatida bosh ko'targan oddiy xalq vakillari bilan yelkama-yelka turib kurashga otlanadi, norozilik namoyishlarida ishtirok etib, o'q-olovlarga tik boradi.

Yozuvchi «Ajoyibotlar qarorgohi» romanida 1832-yilgi Parij qo'zg'aloni va barrikada to'siqlarida olib borilgan shiddatli jang tafsilotini berar ekan, bu mardi-maydonlar orasida o'zining ham ruhan ishtirok etayotganini to'liq namoyon etadi.

U «Qizil shapkacha», «Gavrosh» asarlari orqali eng oliy fazilatlarni - mardlik, jasorat, qahramonlik namunalarini qahramonlari qiyofasida ko'rsata oldi.

«93-yil» romanida o'zining kelajagi, baxt-saodati uchun kurashuvchi xalq vakillari obrazini yaratdi. Romandagi Goven, Simurden, Ursus, Telmarsh oddiy xalq vakillaridir. Ular nima uchun yashayotganini, nega kurashayotganini, kimga yordam berishni ham bilmaydilar. Ayni chog'da ular to'g'ri so'z, qalbi pok, birovga ozor yetkazishni xohlamaydigan insonlardir. Zolimlar bunday oddiy odamlarning kuchidan qanday foydalanish yo'lini biladilar. Bunday oddiy xalq vakillari kimga bo'lsa ham yaxshilik qilishni, yordam qo'lini cho'zishni o'ylaydilar. Yaxshilik qilish oliy hikmat, bu ular uchun muhim bir shiordir.

Viktor Hyugo otashin shoirdir. Shoirning «Asr afsonalari» to'plamidagi ko'plab she'rlar fransuz xalqining sevimli qo'shig'iga aylangan. Bu she'rlarning asosiy qismi fransuz xalqining tarixiy o'tmishiga bag'ishlangan.

ALEKSANDR DYUMA

(1802–1870)



Fransuz adabiyotida roman ustasi sifatida shuhrat qozongan adib general oilasida tug'iladi. Yosh Aleksandr gersog Filipp qarorgohida kotib bo'lib ishlaydi. Parijda Viktor Hyugo bilan yaqin aloqada bo'ladi. Dyumaning «Genrix III va uning saroyi» (1829), «Antoni», «Kin» dramalari teatr rivojida katta rol o'ynaydi. U yuzdan ortiq tarixiy-sarguzasht romanlar yaratgan. «Graf Monte-Kristo», «Uch mushketyor», «Qora lola», «O'n yildan so'ng», «Yigirma yildan so'ng», «Qirolicha Margo» shular jumlasidandir. Adibning mashhur asari «Graf Monte-Kristo» (1845) romanidir. Asar

qahramoni Dantes afsonaviy Monte-Kristo orolida tuganmas xazina topib, juda boyib ketadi, o'zini Graf Monte-Kristo deb e'lon qiladi. «Qora lola», «Uch mushketyor», «Graf Monte-Kristo» romanlari o'zbek tiliga tarjima qilingan. «Ajal minorasi» asari o'zbek sahnasida o'ynalib kelinmoqda.

Dyuma butun umri davomida tinimsiz badiiy ijod bilan mashg'ul bo'ladi. O'z davrining badiiy ijod ahllarini ancha ortda qoldirib, bayroq-

dor roman ustasiga aylanadi, nomi o'z zamonidayoq va keyingi asrlarda ham shon-sharaf bilan bezaladi. Uning to'la asarlar to'plami 277 tomni tashkil etadi.

Dyuma nomini jahonga mashhur qilgan romanlari «Uch mushketyor», «Yigirma yildan keyin», «Vikont de Brejalon», «Askanio» ko'pgina tillarga tarjima qilingan.

Aleksandr Dyumaning «Askanio» romani badiiyat jihatidan «Uch mushketyor» romanidan bir qadar ustun turadi. Romanda Askanio beg'ubor qalb egasi, ma'suma va go'zal qiz Kolombaga bo'lgan chin sevgisini ardoqlagan yigirma yoshlardagi yigitcha sifatida namoyon bo'ladi.

«Askanio» romani Aleksandr Dyumaning yozuvchilik mahoratini ko'z-ko'z qilib turibdi. Yozuvchi o'z romanini shunday go'zal tarzda jilolay olganki, uni qo'ldan tushirmay o'qigingiz keladi.

«Askanio» romani ham Yunon, Rim va Fransiya o'tmishiga oid juda ko'plab tarixiy manbalar bilan tanishish sharafiga ega bo'lamiz.

Jahon adabiyotida bunday go'zal tasvir «javohirlar xazinasi» deb nom olgan Aleksandr Dyumagina xosdir.

PROSPER MERIME

(1803–1870)



Prosper Merime fransuz adabiyotining yirik vakili.

«Klara Gasul teatri» (1825) ilk pyesalar to'plami adibni XVIII asr ma'rifatparvar degan sharafiga muyassar etdi. Ikkinchi to'plami «Guzla» (1827) nomi bilan nashr qilindi. «Slavyan xalqlari ijodidan» deb nomlangan balladalariga xalq og'zaki ijodining ta'siri katta. «Jakeriya» (1828) nomli tarixiy dramasida XIV asrdagi dehqonlar qo'zg'aloni tasvirlanadi.

«Karl IX saltanatining yilnomasi» (1829), «Karmen», «Tamango», «Mateo Falkone», «Qo'sh xato» kabi asarlari bilan mashhur.

Merime 1848-yilgi burjua inqilobidan so'ng ham sermahsul ijod qiladi.

Tarixiy roman yozish ancha mushkil ijodiy jarayondir. Tarixni qaytadan tiriltirish, tarixiy shaxslarga jon ato etish, voqeilikni xayoliy obrazlar bilan to'ldirish yozuvchidan katta mahorat talab etadi. Buning uchun ham tarixchi, ham yozuvchi bo'lish kerak. Yozuvchining tarixiy manbalarni buzib ko'rsatishga haqqi yo'q. Ayni chog'da tarixiy

voqeylikni go'zal badiiy tasvirlar ekan, adib o'z fantaziyasidan mahorat bilan foydalanadi.

Tarixiy mavzuga qo'l urgan yozuvchi, tarixiy manbalarni sinchiklab o'rganadi. Faqat badiiy tasvirlash san'atigina kifoya qilmaydi. Merime o'zining tarixiy romanlari bilan, ham tarixchi, ham san'atkor adib sifatida mashhurdir.

Prosper Merime mana shunday usta san'atkor edi. U o'zining «Karl IX saltanatining yilnomasi» romanida butun bir tarixiy davrni badiiy gavdalandirib beradi.

Yozuvchi o'z romaniga manba yig'ish maqsadida XVI asrning tarixiy jarayoniga oid ko'plab asarlarni o'qib chiqqanligini ta'kidlaydi. Yozuvchi faqat tarixiy asarlarni o'qish bilan kifoyalanmaydi, o'sha davrga xos afsona va rivoyatlarni, hattoki, latifalarni ham o'qib chiqadi. Tarixiy asarda sana va manbalar berilgan bo'lsa, xalq og'zaki ijodiyotida urf-odatlar, har bir millatning o'zigagina xos bo'lgan fe'l-atvorlar ham ifodasini topgan bo'ladi. Muhimi shundaki, tarixchini manba qiziqtiradi, yozuvchi esa insonni va tarixda insonning tutgan o'rnini tasvirlaydi.

Romanda qirol Karl IX ning munofiqligi, razilligi o'z ifodasini topgan. Tarixiy manbalarning guvohlik berishicha, qirol Karl IX o'ta munofiq kishi bo'lgan ekan. O'sha davrlarda Fransiyada protestantlik oqimi mavjud edi. O'z davrining ko'pgina ilg'or fikrli kishilari bu oqimga mansub edilar. Xristian dini tarafdorlari protestantlarni cherkovga yaqin yo'latmas edilar. Genrix IV protestant bo'lib, uning Margarita Valua bilan nikohdan o'tishi uchun cherkovga borishini taqiqlab qo'yishadi.

Karl IX cherkovdagilarga: «Agar singlim Margarita Valuaning nikohini tayin qilmasalaring uning nikohini protestantlar cherkovida o'tkazaman», deydi. Qirolning dinga bo'lgan e'tiborsizligi natijasida qirg'in urushlar kelib chiqadi

Prosper Merime hikoya ustasi. Uning hikoyasida turli-tuman insonlar qiyofasi chizib beriladi. Ayni chog'da bu hikoyalar har xil mavzularda. «Matteo Falkone», «Tamango», «Qo'sh xato», «Ill Venerasi», «Arsena Giyo», «Havorang xona» kabi hikoyalarida inson yetakchi o'rinda turadi.

Prosper Merime go'zal obrazlar yaratdi va shu bilan nom qoldirdi.

CHARLZ DIKKENS

(1812–1870)

Charlz Dikens 1812-yilda dunyoga keladi. Bu davrda Angliya tarixida muhim voqealar sodir bo'lmoqda edi. Bir necha yillardan buyon Napoleon hujumi xavfi ostida yashayotgan ingliz xalqi Napoleon



qo'shinlari Rossiyaga, Moskva ostonalarida mag'lubiyatga uchraganidan xursand bo'lib, yengil tortadi. Ayni paytda rus qo'shinlarining fransuz qo'shinlari ustidan g'alabasi, inglizlar uchun ham bayramga aylanib ketdi.

Shunday qilib, ingliz xalqi uchun osuda kunlar boshlanadi. Charlz Dikkins mana shunday tinchlik zamonasida o'sib, ulg'ayadi.

Dikkins pokiza qalb egasi bo'lgan. U har qancha og'ir hayot kechirmasin, hatto, bir burda nonga zor qolgan kunlari ham birovning haqiga xiyonat qilmas, jinoyat ko'chasiga kirmas va hech kimga ozor bermas, eng muhimi o'zgalarga og'irligi tushmasligi haqida o'ylardi.

Dikkins yashagan zamonda o'g'irlik, zo'ravonlik, qotillik va turli xil jinoyatlar avjiga chiqib ketadi. Shunday bir paytda mamlakatdagi sud idoralariga katta vakolatlar berilgan edi. Sud mahkamasidagilar bo'lar-bo'lmasga odamlarni qamar, turli og'ir jazolarga tortar edi. Mamlakat siyosatdonlari jinoyatchilarni qamash, jazolash va sudga erkinlik berish orqaligina mamlakatda tartib o'rnatish mumkin, deb o'ylardi.

Charlz Dikkins sud hay'atiga maktub yo'llagandan va, ayniqsa, «Oliver Twistning boshidan kechirganlari» romani chiqqandan so'ng mamlakat axloqiy-tarbiyaviy hayotida keskin o'zgarish sodir bo'ladi. Odamlarni faqat jazolash yo'li bilan mamlakatda tartib yoki tarbiyani yo'lga qo'yib bo'lmasligini ko'pchilik tushinib yeta boshlaydi. Shundan so'ng to'lib-toshib ketgan Angliya turmalari, jinoyatchilardan biroz xoli bo'lib qoladi.

Badiiy asar mamlakatning ijtimoiy-siyosiy va ma'naviy-ma'rifiy hayotiga ma'lum darajada ta'sir ko'rsatgan taqdirda o'quvchilar tomonidan olqishlar bilan qarshi olinadi. Charlz Dikkinsning deyarli barcha asarlari shunday ta'sir kuchi bilan bebahodir.

Yozuvchining birinchi romani «Oliver Twistning boshidan kechirganlari» (1837) nashr qilinishi ingliz adabiy jamoatchiligida katta voqeaga aylandi.

Romanda Oliver va u kabi yetim-daydi va qashshoqlikdan tinkasi qurigan bolalar hayoti tasvirlangan. Oliver onasidan erta, hali go'dakligidayoq ayrilgan edi.

Yozuvchi Olver orqali tashlandiq bolalarning xatarli, achinarli, dahshatli hayotini ko'rsatib beradi. Tashlandiq bolalar yashash zarurati tufayli bilib-bilmay turli boshi berk ko'chalarga kirib qoladilar. Angliya sudi esa ularning sababini surishtirmay, taqdiriga zarracha qiziqmasdan, eng og'ir jazolarga mahkum etadi, qamoqlarga tiqadi, uzoq muddatli


jazo tayin etadi. Yozuvchi o'z asarida jamiyatda hukm surayotgan mana shunday mudhish illatni qattiq tanqid ostiga oladi.

Charlz Dikkensning asarlari juda o'qishli, o'quvchining diqqatini o'ziga jalb etuvchi, badiiyati go'zal. Dikkens «Dombi va uning o'g'li», «Edvin va Drudning siri» va boshqa ko'plab yumoristik hikoyalari bilan jahonga mashhur adibdir. Charlz Dikkens qayerga borsa, Angliyadami, Amerikadami u bilan uchrashish va uning nutqini eshitish niyatida bo'lganlar minglab kishilarni tashkil etar edi. Uchrashish joylarida o'tirish imkoniyati bo'lmasdi. Yo'laklar, ko'cha, sahnalar uning muxlislari bilan to'lib ketardi. Charlz Dikkens bilan uchrushuv belgilansa, muxlislari bir necha kun ilgari kelib, ko'rpa-to'shak qilib yotib olardi.

Charlz Dikkens jahon xalqlariga adabiyotning naqadar yuksak ta'sir kuchiga ega ekanligini namoyish etgan adibdir.

TARAS SHEVCHENKO

(1814–1861)



Ukraina adabiyotini tilga olganimizda beixtiyor ko'z o'ngimizga Taras Shevchenko keladi. Har birimiz maktab partasida o'tirgan kezlarimizda «Taras Bulba» asarini zavq bilan o'qiganmiz. Haqiqatan ham «Taras Bulba» o'quvchini sehlash kuchiga ega bo'lgan, mahorat bilan yozilgan asardir.

«O'lsam mening jasadim Ukrainaga ko'mil-sin», deb vasiyat qilgan edi shoir. U o'z yurtini nihoyatda sevgan. O'z millatini ulug'lagan. Shoirdan Vatanni sevlash, millatni ulug'lash tuyg'usini o'zingizga «yuqtirasiz». Shoir «yaxshi gap» kutadi, «lablardan iliq so'z» eshitgisi keladi, qalbi «xafaqon» bo'lib yashasa ham Vatanni sevardi. «Tutqunlikda zerikaman, yolg'izman», «O, faqir odamlar!» she'rlari shoir Ukraina nomini jahonga tanitdi. Shevchenko kelajakda, albatta, «Quyosh chiqajak, Nurida yovuzlik erib ketajak», deb hayqiradi. Kelajakka ishonch bilan qaraydi.

Shevchenko ijodini «Hayotning aynan o'zi», «Hayotning yorqin ko'zgusi» deb ta'riflashlari bejiz emas. Shu jihatdan shoirning «O, faqir odamlar» she'ri alohida ajralib turadi.

Asarni o'qir ekansiz, beixtiyor Shevchenko yashagan zamonni eslaysiz. Shoir qanday qora kunlarning guvohi bo'lgan degan savol xayolingizdan o'tadi.

Shoir Neva daryosi ustidagi ko'prik ustidan o'tib borar ekan, muz parchalarini oqizib ketayotgan daryoni kuzatadi. «Sokin tun qo'ynida» sovuq qor yog'ar edi. Shunday qora tunda «loy kechib» borayotgan bir to'da «qo'zichoqday yuvosh» yetim bolalarni ko'rib behad rahmi keladi. Ularning ketidan «oqsoqlanib bir chol», go'yoki qo'zilarni «qo'yxonaga» haydayotgandek borar edi.

*Haydar qo'yxonaga, isnod emasmi,
O, qanday baxtsizlik! Haqiqat qani?!*

«Och, yupun, bechora yetimchalar»ga shoirning achinish hissi nihoyatda kuchli.


Asar oxirida shoir haqiqatning qaror topishiga, bir kun kelib quyosh chiqishiga, yetimlarga «poda» dek munosabatda bo'lgan gunohkorlar jazosini topajagiga ishonadi. Hozir Ukrainaga Shevchenko orzu qilgan zamon yetib keldi. Shoirning ona yurti mustaqillikga erishdi.

*Shoir orzu qilgan «haqiqat»
Topar albat, axir quyosh chiqajak,
Nurida yovuzlik erib ketajak.*

«Bir yaxshi gap kutadi qalbim hamon», deya orzu qilgan shoirni avlodlar qutlaydi, ulug'laydi.

GYUSTAV FLOBER

(1821–1880)



Flober ijodi serqirra va mazmunan boydir. Ammo Floberni jahonga mashhur qilgan «Bovari xonim» romanidir. Bu asar ko'pgina tillarga tarjima qilingan. Romanni rus xalqining ulug' so'z san'atkorlari, adibning zamondoshlari I. S. Turgenev, L. N. Tolstoy zavq bilan o'qib, yozuvchi ijodiga yuksak baho bergan edilar.

Floberning bu romani hayotning haqqoniy aksi bo'lib, adib o'zi yashagan jamiyatga xos bo'lgan voqealarni qalamga oladi. Hayotiy asar o'quvchining ishonchini qozonadi, adib nomini mashhur qiladi. Yozuvchining «Salambo», «Sezgilar tarbiyasi», «Avliyo», «Antoniyning aldanishi», «Buvar va Pekiyshe», «Oddiy qalb», «Qayd etilishi kerak bo'lgan haqiqatlar leksikoni» asarlari boy adabiy meros namunalari bo'lib, jahon adabiyoti xazinasidagi durdona asarlardandir.



Qoraqalpoqlar Berdaq bilan haqli ravishda faxrlanishadi. Berdimurod Qarg'aboy o'g'li (Berdaq) Orol dengiziga yaqin Oqqala (hozirgi Mo'ynoq) degan joyda dunyoga keladi. Otonasidan erta ajralgan shoir, kun kechirish uchun ovul mollarini boqib yuradi. Ana shu keng yaylovlarda mol boqqan kezlarida, xalq og'zaki ijodi namunalarini o'zicha xirgoyi qilib yurardi.

Berdimuroddagi bu iste'dod uni dastlab ovul maktabiga, so'ngra Qoraqumdag i Eshon madrasasiga yetaklab boradi. U turkman, qoraqalpoq, o'zbek, qozoq tillarida birdek qo'shiq kuylaydi. Qayerga borsa uning og'zidan «Go'ro'g'li», «Alpomish», «Oshiq G'arib va Shohsanam», «Tohir va Zuhra» tushmaydi. Shuningdek, Firdavsiy, Navoiy, Sa'diy, Fuzuliy g'azallarini ham berilib kuylaydi.

«Nodon bo'lma», «Xalq uchun», «Bo'lgan emas», «Ko'rindi», «Bulbul», «Qaramas», «Xasis ekan», «Dod dema», «Shajara», «Xorazm», «Ernazarboy» asarlari hamon qoraqalpolarning sevimli asarlari bo'lib kelmoqda.

Berdaq she'larini o'qib lazzat olasiz. Shoir oshkora so'zlaydi. Haqiqat esa o'lmasdir, yo'q bo'lib ketmasdir. Berdaqning nomi ham hech qachon o'chib ketmaydi. Qoraqalpoq xalqi bu nomni qalbining to'rida ardoqlab, asraydi.

Berdaq hayotining mashaqqatli so'qmoqlariga duch keladi.

Amakisi Qo'chqorboyning qo'ylarini boqib yurar ekan, biyday dalayu dashtlarda yolg'izlikdan zerikib, qo'shiq xirgoyi qilar, she'r to'qir, kuylar edi. Ovulma-ovul yurib, u yerdagi ayanchli hayotni o'z ke'zi bilan ko'rgani uchunmi, mashaqqatli yashash tarzidan zorlanib yozadi:

*Otim Berdimurod, men xalqning o'g'li,
Sahroda sayrovchi sayroq bulbuli.*

Bek-biylarning bolalari shohona uylarda yashagani holda, «shoirning yig'lamagan biror kuni» bo'lgan emas. Shunday bo'lsa-da, shoir o'zini burgut deb biladi. Shoir burgutdek osmond a uchib, yerdagi hayotni kuzatadi. Agar biror yerga qo'nsa, yana xor-zor bo'ladi, «yig'lay-yig'lay esi ketadi».

Shoir o'zini tahqirlangan, ezilgan, jabru jafolarga muhtalo bo'lgan kishi sifatida tasvirlaydi. Boshqa bir she'rida «o'n tilladan» soliq solinishi sillasi qurigan, «hattoki bir tovug'i yo'q» xalq boshiga tushgan og'ir kulfat, musibat bo'lganligini zorlanib, beklarni qarg'ab, nafratini ifodalaydi. «Yurak bag'ri tig'lanib» yashagan shoir she'rlari o'quvchining ham bag'rini tig'lab yuboradi. Berdaq she'rlarida g'amginlik hukmron. Bugun shoir sevgan qoraqalpoq xalqi o'z hurriyatiga erishgan.

LEV TOLSTOY

(1828–1910)



Graf oilasida, Yasnaya Polyana degan joyda tug'iladi. Adibning birinchi asari «Bolalik» povestida yoshlik yillari mufassal yoritib berilgan. Tolstoy xalq qo'shiqlari, hikoyalar, rivoyat va afsonalarni ko'p eshitgani haqida yozgan. U o'ziga qarashli bo'lgan joylardagi dehqon bolalarini o'qitish uchun 20 ta maktab ochadi. Bu maktablar uchun «Alifbe», «O'qish kitobi» kabi talay darsliklar yaratadi.

Lev Tolstoyning ulug'lagan, jahonga mashhur qilgan «Urush va tinchlik», «Anna Karenina» romanlaridir.

Tolstoyning ilk ijod mahsuli bo'lgan «Bolalik» (1851–1856), «O'spirinlik» (1852–1854), «Yoshlik» (1855–1856) asarlaridir.

«Bolalik» «Sovremennik» jurnalida bosilib chiqadi. Nekrasov yosh Tolstoyning «Bolalik» asari va uning «Sovremennik» jurnalida bosilganligi munosabati bilan qutlov tarzida xat yozadi. Tolstoy bu maktubdan ruhlanib «O'smirlik», «Yoshlik» asarlarini yozib «Sovremennik» jurnaliga yuboradi. Lev Tolstoyning uch qismdan iborat bu ijod namunasi o'ziga xos trilogiyani tashkil etadi.

1853-yilda boshlangan Rossiya-Turkiya urushiga Lev Tolstoy birinchilardan bo'lib o'tlanadi va Dunay ortida harakatlangan armiyada prapor-shchik bo'lib xizmat qiladi.

Rossiya-Turkiya urushi adib dunyoqarashiga katta ta'sir ko'rsatadi. Urush mavzusiga bag'ishlangan turkum hikoyalar yuzaga keladi. «Sevastopol hikoyalari»da urush dahshatlari yoritilgan.

Urush tugagach, 1855-yildan Tolstoy «Sovremennik» jurnalida faoliyat ko'rsata boshlaydi va Peterburgda adib ijodi gullaydi.

Shundan so'ng yozuvchi olti yilga yaqin «Urush va tinchlik» (1863–1869) romani ustida ishlaydi. Bu roman ilk marta «Rus xabarlari» jurna-

lida (1868–1869) uzluksiz bosilib boradi. Bu asar o'sha davr adabiyot jarayoni uchun favqulodda yangilik edi.

«Urush va tinchlik»dan so'ng yozuvchi tinchlik mavzusiga qaytib, «Anna Karenina» romanini yozadi. Bu romanda ayol xarakteri juda yorqin ochib berilgan.

Lev Tolstoy o'z romanini shunday so'zlar bilan boshlaydi: «Baxtli oilalarning hammasi bir-biriga o'xshaydi, har bir baxtsiz oilaning esa har biri o'zicha baxtsizdir».

Yozuvchi oila muammosini davlat siyosatiga bog'laydi. Davlat siyosatining jamiyat, oila va inson taqdirida muhim rol o'ynashini ta'kidlab o'tadi.

JYUL VERN

(1828–1905)



Ilmiy fantastik va sarguzasht asarlar muallifi, fransuz yozuvchisi Jyul Vern «Havo sharida besh hafta» nomli birinchi romani bilan juda mashhur bo'ldi. Umri davomida 65 tomdan iborat ilmiy fantastik hamda hajviy romanlar yaratdi. «Yer markaziga sayohat», «Yerdan Oygacha», «Oy atrofiga», «O'n besh yoshli kapitan», «Kapitan Grant bolalari», «Suzib boruvchi orol», «Ostin-ustun», «Suv ostida 20000 kilometr» asarlari kitobxonlarning sevimli asarlaridir. 6 ta romani o'zbek tiliga tarjima qilingan.

«O'n besh yoshli kapitan» asari jahon bolalarining sevimli kitobi bo'lib, maktab darsliklaridan o'rin olagan.

Adibning «O'n besh yoshli kapitan» asarini o'qimagan yoki badiiy filmini ko'rmagan kishi bo'lmas kerak. Bu asar yoshlarni mardlik va jasorat maydoniga yetaklaydi. Kattalarda esa Dik Sandga nisbatan havas, mehr-muhabbat uyg'otadi, o'z farzandlarining shunday ajoyib qalb egasi bo'lishi orzusini paydo qiladi.

Dik Sand musibatlar oldida esankirab qolmaydi. Yosh bo'lishiga qaramasdan kattalardek mushohada yuritadi.

Kitning hujumi tufayli kema halokatga uchrab, Kapitan Gul va beshta matros halok bo'ladi. O'n besh yoshli Dik kapitan bo'lgandan so'ng, uning orzulari birma-bir ushala boshlaydi. U o'zini kattalardek tutar, jiddiy, mustaqil fikrlovchi, dovyurak, har bir ishni epchillik bilan bajaruvchi serg'ayrat yigit edi. Shuning uchun ham odamlar unga ishona

boshlashadi. Qo'l ostidagilar esa bu yoshgina kapitanga o'rganib, itoat qila boshlaydi.

Jyul Vernga olim-adib deb bekorga ta'rif berishmagan. Yozuvchi xayoliy-ilmiy sarguzashtlar orqali ilm-fanning kuch-qudratini mahorat bilan yoritgan.

U jahon adabiyotida ilmiy fantastikaning asoschisi degan sharaflı nomga musharraf bo'ladi.

Adib ilk ijod namunalaridan bo'lmish 1864-yilda yozilgan «Yer markaziga sayohat» asaridan tortib 1896-yilda yozilgan ijodining so'nggi sahifalaridan biri bo'lmish «Barsak ekspeditsiyasining ajoyib sarguzashtlari» asari orqali ilmiy-fantastika xazinasini duru javohirlar bilan bezadi.

HENRIX IBSEN

(1828–1906)



Norvegiyaning Shiyen shahrida tug'iladi. 8 yoshga yetganda otasi vafot etib, hayotning og'ir so'qmoqlariga erta qadam qo'yadi. Gimnaziya o'qib yurgan kezlari dayoq o'zining zehni o'tkirligi bilan ajralib turadi. Keyinchalik aptekada ishlab yurgan vaqtida ham tinimsiz badiiy asarlar o'qiydi. Ijodi she'r yozish bilan boshlanadi. Uning birinchi dramasi «Katlina» (1848–1849) 20 yoshli ijodkorga shuhrat olib keladi.

«Siyosatchi sevgisi», «Ivon kechasi», «Ziyofat», «Gelgelandagi urushlar» kabi asarlari jahondagi

ko'pgina tillarda tarjima qilingan.

Adib ijodining gullab-yashnagan davrida «Per Gyunt», «Yoshlar ittifoqi», «Jamiyat peshvolari», «Qo'ng'iroq uy», «Sharpalar» asarlari yaratiladi. Ularda chuqur falsafiy ma'no mujassamlangan. Adib yaratgan qahramonlar mukammal.

Ayniqsa, «Yovvoyi o'rdak», «Gedda», «Kichkina Eyolf» kabi asarlarini o'qir ekanmiz, adib mahorati charxlanganiga guvoh bo'larniz.

Ibsen universitetda bilimini oshirish bilan birga, «Birlashgan ishchilar gazetasi»da ham faoliyat ko'rsatadi. Uning keyingi hajviy ruhda-gi pyesasi «Me'yor yoki muhabbat siyosati» deb nomlanadi. Bu qiyin janr unga dastlab shon-shuhrat olib kelmaydi.

1851-yilda 24 yoshida Bergen shahridagi yangi ochilgan Norvech milliy teatrida badiiy rahbar va rejissyor sifatida faoliyat boshlagandan so'ng

teatr talabi va dramaturgiya qonun-qoidalarini o'rganib, yangicha ijodiy kayfiyat bilan pyesalar yarata boshlaydi.

Tomoshabinlarga manzur bo'lgan pyesalari orasida «Estrotlik Inger xonim» (1854), «Pyer Solxougda» (1855), «Olaf Liliyenkrans» (1862), «Taxt uchun kurash» (1863) tarixiy voqealarni ko'rsatib bergani bilan xarakterlidir. Bular ichida «Estrotlik Inger xonim», «Taxt uchun kurash» pyesalari Skandinaviya afsonalari asosida yozilgan.

Ibsenning «Tahlikali aka» va «Kulgili sevgi» asarlari Norvegiya qirolligi saroyidagi siyosiy o'yinlarga daxldor voqealar asosida yozilganligi sababli, hayoti xavf ostida qolgan dramaturg 1864- yilda Norvegiyani tashlab chiqib ketadi. O'ttiz yilga yaqin Italiya, Germaniya kabi mamlakatlarda bo'lib, 1891- yilda yana o'z vataniga qaytadi.

Ibsen muhojirlikda yurgan kezlari ham tinimsiz izlanishda bo'ldi, yangi asarlar yaratish dardi bilan yashadi. Bu davrda «Brand» (1865), «Pyer Gyunt» (1866), «Yoshlar ittifoqi» (1869), «Gavjum jamiyat» (1877), «Qo'g'irchoq uy» (1879), «Xalq dushmani» (1882) dramalarini yaratdi.

MARK TVEN

(1835–1910)



Samyuel Klemens Missuri shtatida tug'iladi. Bolalik yillari Missisipi daryosining qirg'og'idagi Ganibal shahrida o'tadi. Huquqshunos bo'lgan otasi o'lgandan so'ng yosh Samyuel moddiy jihatdan nochor hayot kechiradi. Bolalik yillaridayoq Missisipi daryosi bo'ylab qatnaydigan paroxodda ishlay boshlaydi. Mark Tven taxallusini ham shundan olgan.

1861–1865- yillarda Amerikada fuqarolar urushi boshlanib, Missisipi daryosida kema qatnovi to'xtatilgandan so'ng Mark Tven Nevada tomonlardagi oltin-kumush konlariga ishga ketadi.

Dastlabki faoliyatini jurnalistikadan boshlaydi. «Enterprayz» gazetasida xabarleri, satirik hikoyalari tez-tez ko'rina boshlaydi. Keyinchalik u Yevropa va Kichik Osiyo bo'ylab sayohatga chiqadi. Safar taassurotlari haqida qator asarlar yozib, so'ngra qizg'in ijod bilan shug'ullanadi.

«Geklberri Fin sarguzashtlari», «Tom Soyerning sarguzashtlari» jahon bolalar adabiyotining shoh asaridir. «Missisipidagi hayot» (1883), «Amerikalik o'rinbosarlar» (1892), «Uilsonning puch kallasi» (1894), «Qirol Artur saroyidagi surnaychi Yanka» (1889), «Janka de Arn»

(1896) asarlari ham qiziqarli voqealarga bag'ishlangan. Muallif Amerika hayotini haqqoniy ifodalaydi. Tven asarlarida negrlarga xayrixohlik, qora tanlilarning haq-huquqini himoya qilish tuyg'usi mujassam.

Yozuvchining fantastik asarlarida ham tasvir haqiqat, adolat nuri bilan yo'g'rilgan.

«Tom Soyerning yangi sarguzashtlari» asarida bolalarga xos fe'l-atvor xususiyatlari, jasorat, mardlik, soddadillik o'z ifodasini topgan.

Mark Tven faqat Amerikada emas, yer yuzida yomonlik, turli xil qabihliklarning yo'q bo'lishini orzu qiladi. Ayniqsa, bolalarning jabrlanishini xohlamaydi. Dunyo bolalarining Tom bilan Jim kabi xaloskori bo'lishini istaydi. Dunyoning qaysi bir o'lkasida, xoh Sahroi Kabirda, xoh boshqa chekka mamlakatda bo'lmasin, bolalarning bexavotir, hech bir jabr-sitam chekmasdan osoyishta yashashini o'ylaydi.

Mark Tven zamonida Afrikadagi ko'pgina davlatlar mustamlakachilar asoratida yashardi. Amerika va G'arbdagi rivojlangan davlatlar bu qit'ani o'zaro bo'lib olishgandi. Mustamlakachilar Afrikadagi mehnatkash xalqni qulday ishlatib, ularning boshiga cheksiz kulfatlar keltirar edi. Afrikaliklar bir parcha nonga zor bo'lib, og'ir hayot kechirsalar, mustamlakachilar behisob boyliklar orttirardi. Ayniqsa, afrikalik bolalarning hayoti dahshatli kechardi. Ochlik tufayli turli kasalliklar tarqalib, bolalar yoppasiga o'lib ketardi. Yozuvchi bunday mudhish voqealarga befarq qarab turolmaydi.

Mark Tven «Tom Soyerning boshidan kechirganlari» asarida Tom bilan Geklberri Finning hamrohligi, ularning sarguzashtlarini hikoya qilganida Tom hali juda yosh edi. U bilan bog'liq voqealar Amerikadagi oq tanli, qora tanli, qizil tanlilar hayotiga ham ulanib ketadi. O'shanda adib faqat Amerikadagi bolalar hayotini tasvirlab bergan edi. Adib Tomning sarguzashtlarini davom ettirish niyati borligiga ishora qilib, asarning yakunida shunday deb o'tgan edi:

«Bu kitob qahramonlarining ko'pchiligi hali ham tirik: ular baxtiyor. Ehtimol, keyincha men bu kitobda tasvirlangan bolalarning tarixlari bilan shug'ullanishni lozim ko'rib, ulardan qanday kishilar yetishib chiqqanini yozishga kirisharman».

Adib «Tom Soyerning yangi sarguzashtlari» asarida kichik qahramonlaridan qanday kishilar yetishib chiqqanini yozishga kirishadi.

Mark Tven dunyoqarashi ham kengayib, qahramonlari kabi ulg'ayib, endi jahon bolalarining taqdirini o'ylaydi. Ulg'ayib qolgan qahramonlarini sharga solib, dunyo bolalarining boshi uzra yuborib, yuksaklikdan bolalar hayotini kuzatadi. Tom yer kurrasining qay bir chekasida bo'lmasin, ularga yordam qo'lini cho'zadi, yangidan-yangi sarguzashtlarni boshidan kechiradi.

EMIL ZOLYA

(1840–1902)



Mashhur fransuz adibi Emil Zolya Parijda tugʻiladi. Otasi italiyalik, onasi fransuz qizi edi.

«Qashshoqlar hikoyasi» (1864) nomli novellalar toʻplami ilk ijod namunasi boʻlishiga qaramasdan, tezda tildan-tilga koʻchadi. «Tereza Rakin» (1867), «Madlen Fera» (1868) romanlarida naturalizm hidi sezilib tursa-da, oʻsha davr jamiyati uchun bu odatiy bir hol edi.

Adibning «Rugon-Makkarlar» (1871–1893) epopeyasi yigirma yillik mashaqqatli va samarali mehnat hosilasidir. «Uch shahar» (1894–1898) trilogiyasida ijtimoiy-siyosiy mavzu keng oʻrin egallagan boʻlib, butun bir davr oʻz ifodasini topgan.

«Hamal», «Gʻarb» romanlari Emil Zolya nomini jahonga mashhur qildi.

Emil Zolyaning birinchi hikoyalar toʻplami «Ninon ertaklari» (1864) deb nomlanib, sakkizta hikoyani oʻz ichiga olgan va minglab oʻquvchilarning sevimli asariga aylangan. Emil Zolyani tanitgan «Oʻliklar chaqiradi» (1866) romanidir. Bu asar Emil Zolyaning ikkinchi romanidir. Undan ilgari «Klodning tavbasi» nomli romani eʼlon qilingan edi.

Adib ilk ijodiy izlanishlari bilanoq oʻzining qobiliyati namoyish etdi. Yozuvchining yigirmata romanni oʻz ichiga olgan «Rugon-Makkarlar» epopeyasi faqat fransuz emas, Gʻarb adabiyotining ulkan xazinasiga aylandi.

Bu epopeyada Makkarlar oilasining toʻrt avlodi tarixi tasvirlanadi. Yozuvchi bu oilaning genetik asoslaridan tortib, jamiyatdagi oʻrniga, har bir aʼzoning oʻziga xos fazilatlarini, yashash tarzi, yurish-turishi, turmush kechirishi, xalq, burjuaziya, aristokratiya, din bilan aloqalari batafsil hikoya qiladi.

Epopeyaning «Foyda», «Pul», «Gʻarb», «Hamal», «Yer», «Ijod», «Inson-hayvon», «Doktor Noskal» romanlari yuksak saviyada yozilgan. Epopeyaning har bir romani alohida nashr etilgan.

«Hamal» (1885) romani oʻzining gʻoyaviy yuksakligi bilan boshqa asarlardan ajralib turadi. Romanda XIX asrning 80-yillarida yuz bergan juda koʻplab norozilik namoyishlarining sabablari va uning oqibatlariga alohida urgʻu beriladi.

Zolya o'z romanini yozishdan avval «Yozuvchi huquqi» maqolasini e'lon qiladi. Unda yozilishicha, yozuvchi namoyish o'tkazgan Anzen shaxtasiga borib, ishchilar hayoti bilan tanishadi, namoyishchilar bilan suhbat qiladi. «Hamal» romanining yozilishida bu katta manba bo'lib xizmat qiladi.

Emil Zolyaning «Uch shahar», «Lurd» (1894), «Rim» (1896), «Parij» (1898) asarlarida dunyodagi eng mashhur shaharlar tarixi, ijtimoiy-siyosiy hayoti yoritiladi.

Umrining so'ngi yillarida «Hosildorlik» (1899), «Mehnat» (1901), «Haqiqat» (1903) asoslarini yozadi. Bu asarlar Emil Zolya ijodining eng yuqori cho'qqisi hisoblanib, adibning yuksak so'z san'atkori ekanligini namoyish etadi.

TOMAS GARDI

(1840–1928)



Tomas Gardi dastlab she'rlar ijod qiladi. Qashshoqlik haqidagi birinchi romani muvaffaqiyatli chiqmaydi. 1871- yilda uning galdagi romani nashr qilinadi. Kitobxon bu romanni iliq kutib oladi. Shu yildan boshlab, u tug'ilgan yurtiga qaytib, muttasil ijod bilan band bo'ladi. O'z ijodiy faoliyati davomida o'n to'rtta roman yozadi. Bu romanlar Angliya adabiyoti tarixi sahifalarini bezab turibdi.

Yoshligidan musiqa, san'at, adabiyotga qiziqish bilan qaraydi. Stil, Milton, S. Richardson, G. Filding asarlarini berilib o'qiydi. Ayniqsa, Ch.

Darvin, Ch. Dikkens, A. Barbyus asarlari uning dunyoqarashining o'sishiga katta ta'sir ko'rsatadi. 1926- yilda Oksford universitetida doktorlik ilmiy darajasiga ega bo'ladi.

«Ona yurtga qaytish» (1878), «Mer Kosterbrij» (1886), «O'rmon oxirida» (1887), «Romantik tarix va xayol» (1872), «Dragun polkidagi keksa surnaychi» (1880), «Sevgilim» (1892) kabi asarlar T. Gardining nihoyatda sermahsulligidan darak beradi.

Tomas Gardi asarlarida urushni qoralaydi. Gardi ko'pchilik romanlarini umumiy nom ostida «Uessen romanlari» deb ataydi. Gardi ona shahrini romanlarida Kester Birdj shahri nomi bilan ataydi. O'zining turkum qissa va hikoyalari esa «Uessen hikoyalari» umumiy nomida beradi. Dastlabki yozgan turkum she'rlarini esa «Uessen she'rlari» deya

nomlaydi. Gardi qaysi mavzuda ijod qilmasin, yozuvchi uchun asosiy tasvir makoni Uessen bo'lib qolaveradi.

Gardi o'z ijodi davomida yozgan o'n to'rtta romanini sanalar va voqelik jihatidan uch qismga ajratib, bu turkumlarning har qaysisini uchta nom ostida ataydi. Birinchi turkum «Xayolot va tarix romantikasi», ikkinchi turkum «Keskin nisbat romanlari», uchunchisi «Muhit va xarakterlar haqidagi romanlar» deb nomlaydi.

Tomas Gardining ilmiy va falsafiy dunyoqarashi ham juda keng. O'z romanlarida davr va jamiyat falsafasini, inson va zulm mavzusini asosiy tasvir bayoni qilib oladi. «Daraxt ostidagi maysazor» (1872) deb nomlanuvchi birinchi romanidayoq maysazorni qashshoq, kun bo'yi og'ir mehnat qilsa ham qorni to'yib ovqat yemaydigan kambag'al insonga qiyos qiladi. Maysazor o'smaydi, uni bosib, ezib o'tib ketaverishadi. Uning o'sishiga daraxt yo'l qo'ymaydi. Umr bo'yi soyada, daraxt tagida o'sadi. Quyosh ko'rmay yashagan maysa – inson nimjon bo'ladi.

Tomas Gardi ijodining oxirgi davrida yana avlodlar masalasiga qaytadi. Adibning falsafiy epik ruhdagi dramasi «Avlodlar» uch qismdan, o'n to'qqiz ko'rinishdan, bir yuz o'ttiz pardadan iboratdir. Bu dramani sahnaga olib chiqish uchun teatr jamoasi juda qiynaladi. Shunda Gardi teatr rejissyorlariga qarata «Men o'z dramamni teatr uchun yaratganim yo'q, o'qish uchun yaratganman», deb javob beradi.

Dramada xalq hayoti va taqdiri birinchi o'rinda turib, ijtimoiy-falsafiy voqelik ko'rsatib beriladi. Dramaturg o'z asarini yaratish uchun shahar va qishloqlarga, janggohlarga, dengiz qo'shinlari orasiga borib qirg'in urushlar jarayonini o'z ko'zi bilan ko'radi. Hayotini xavf ostiga qo'yib bo'lsa-da asari uchun manba to'playdi.

Dramada Angliya, Fransiya, Rossiya, Germaniya, Ispaniya, Italiya kabi ulkan davlatlarning o'zaro munosabati yoritilgan, harbiy qo'mondonlar, marshal va generallar, elchi va siyosatdonlar obrazi yuksak mahorat bilan yaratilgan. Dramada Napoleon va Kutuzov obrazi ham berilgan.

«Avlodlar» dramadini sahnaga olib chiqish uchun yuzlab aktyorlarni jalb etish va ko'p mablag' sarf qilish lozim edi. Bu drama sahnada qo'yilmasa-da, kitobxonlarning sevimli asariga aylandi. Tadqiqotchilar jahon dramaturgiyasi tarixida munchalik ko'p qiyofalar ishtirok etuvchi drama hali yaratilmagan edi, deb baho berishadi.

Tomas Gardi umrining oxirgi yillarida «Uch begona», «Cho'pon nima ko'rdi», «Taqiqlangan o'g'il» kabi hikoyalar yozdi. Hayotining so'ngi daqiqalarigacha ijod bilan mashg'ul bo'lgan adibdan avlodlarga, boy adabiy meros qoldi.

ABAY

(Ibrohim Qo'nonboy o'g'li)

(1841–1904)



Abayning «O'lan», «Bahor» she'rlari o'quvchi qalbining nozik torlarini chertadi, ular nihoyatda mayin va yoqimlidir. Abay ijodida ishq-muhabbat mavzusi keng o'rin egallaydi. Shoir o'z xalqini ilm-ma'rifat o'rganishga da'vat etadi va ilmni ulug'lab juda ko'plab she'rlar ijod qiladi. Abay o'z xalqini sevadi. Shu bilan birga o'zga xalqlar, millatlar bilan ham do'stlik, inoqlikni ulug'laydi.

Qozoq xalqining oqini, o'lanchisi, baxshisi Abay saxovatli shoir bo'lgan. Unchalik nochor hayot kechirmasa-da, zamona zulmidan zorlanadi, qozoq xalqining «qorong'ilikda yo'l topolmay» sarson bo'lib qolganidan qayg'uradi.

*Qozog'im, sho'rlik yurtim, vayron yurtim!
Qorong'uda yo'l topolmay, hayron yurtim.
Yomon bilan yaxshini farq qilolmay,
Og'zida ham qon, ham moy, sarson yurtim...*

Abay she'rlari o'qishli, yoqimli, mayin. Unda zamon manzarasi go'zal tarzda chizib berilgan. Yurt boshiga soya solgan, oshiga zahar solgan biylarga nisbatan shoirning qahri keladi, bunday zulmat qo'ynida shoir o'zini «hassasi yo'q ko'r singari» his etadi.

Abay asarlari pand-nasihat ruhi bilan sug'orilgan.

Insonni to'g'rilikka, insoniylikka, go'zallikka yetaklaydi. Haqiqat yo'lini tanlashni maslahat beradi.

Abay o'z xalqining istiqbolini o'ylaydi. Saodatga erishish uchun ilm olishga, o'qishga chaqiradi. Bilimsizlik jaholatga tushiradi. Biy-boylarning berahm, jahldor, insofsiz bo'lishi bilimsizlikdan edi. Shoir ochlik, qashshoqlik hukm surgan jamiyatdan zorlanadi. Endi Abay orzu qilgan hur zamonlar keldi. Qozoq xalqi mustaqillikka erishdi.

Abay yoshligida rus maktabiga qatnab rus tilini o'rgandi, rus adiblari asarlarini o'qiydi. Rus tili o'qituvchisining yordami bilan A. S. Pushkin, L. N. Tolstoy, M. E. Saltikov-Shchedrinning qator asarlarini rus tilida o'qishga muvaffaq bo'ladi. A. S. Pushkinning «Yevgeniy Onegin» asarini qozoqchaga tarjima qiladi. Bu esa qozoq yozma adabiyotining rivojiga katta ta'sir o'tkazadi. Abay ko'pgina o'lanlari og'zaki ijro etilib, xalq o'rtasida tarqalib ketgan bo'lsa-da, keyinchalik ularning bir qismini to'plab, kitob holiga keltiradi.

«Sho'rli qozog'im» (1885), «O'lanlar» (1890) asarida to'zg'ib, bir-biri bilan yovlashib yurgan ovullarni birlashishga chaqiradi.

*O'zi bilan yovlashgan yurtim tingla!
O'zi bilan dovlashgan yurtim tingla!
Dardingga davo bo'lsin o'lanlarim,
Bir-birini ovlashgan yurtim tingla!*

Shoirning «Ko'klam» (1890) she'ri ham nihoyatda jozibali misralarda bitilgan. Shoir tabiatning uyg'onganidan, uning go'zalligidan, «olamga bezak bergan» fasldan ilhomlanadi, taskin topadi. Abay proza yo'li bilan ham bir qancha asarlar yozgan. Bular ichida 1890–1898-yillarda yozilgan «Nasihatlar»i alohida ahamiyat kasb etadi. «Bizda bir maqtanchoqlik degan yaramas narsa bor. Aslida shu narsaning nima keragi bor o'zi? Zotan bu – or-nomussizlik, nodonlik, hayosizlik hamda na botirlik va na odamgarchilikdan xabari yo'qlikning alomatidir», deb yozadi Abay.

Abay nasihatlaridagi fikrlar ruhshunoslar uchun ham, o'quvchi uchun ham ko'p jihatdan foydalidir. Jumladan adib o'ttiz ikkinchi nasihatida shunday yozadi:

«Kishi eshitgan narsasini unutmaslik uchun to'rtta shart bor: avvalo, buning uchun zehnli bo'lmoq kerak; ikkinchidan, bir narsani ko'rganda yo eshitganda unga chin yurakdan ixlos qo'yib, fahm-farosat bilan uqib olmoqlik lozim; uchinchidan, eshitganlarini ichida bir necha marta takrorlab, ko'ngilga jo qilmoq kerak; to'rinchidan, ko'ngilga boshqa narsalarni mutlaqo keltirmaslik va kelsa ham unga zarracha e'tibor bermaslik kerak. Masalan: beg'amlik, beparvolik, o'yin-kulgi yoki qayg'u-hasratga berilmaslik va boshqa narsaga ixlos qo'yimaslik kerak. Aks holda, bu to'rt narsa aql bilan ilmga putur yetkazadigan omillardir».

Abay ilm, o'qish-o'rganish haqida ham qimmatli nasihatlarini beradi. Ilmni o'rganish chog'ida avvalo «mulohaza yuritish», keyin esa uni «muhofaza qilish» lozimligini uqtiradi. «Fe'l-atvor va xulqni bir me'yorda» saqlash haqida ham qimmatli fikrlarini bildiradi. Umuman olganda, Abay pand-nasihatlarini o'qish foydalidir.

ELIZA OJESHKO

(1842–1910)

Polyak adabiyotining vakilasi. Boy-badavlat xonadonda tug'ilib, Varshavada ta'lim oladi. Eliza 16 yoshga to'lganda belorussiyalik Petr Ojeshkoga turmushga chiqadi. Oila qurishiga qaramasdan tinimsiz adabiy-



badiiy asarlar o'qiydi. «Mening hayotimda turmushim haqiqiy universitet edi», – deb eslaydi keyinchalik adiba.

O'sha chog'larda Belorussiya Polshaga qaram edi. Eliza «Adabiyot haqida xatlar» (1873) kitobida hayot bilan adabiyotni bir-biriga bog'ladi, bu uzviy aloqadorlikdan falsafiy xulosalar chiqardi.

Eliza Ojeshko ijodida xotin-qizlar obrazi alohida o'rin tutadi. Ehtimol o'zi ayol bo'lgani uchun ham xotin-qizlar qalbini yaxshi tushungan. «Muhtaram Grabe» (1869), «Vaslavlilar kundaligi»

(1870), «Marta» (1873), «O'n to'rtinchi bo'lim» (1873) asarlarida ko'proq ayollar hayoti va taqdiri tasvirlangan.

Eliza ijodi rang-barang. U polyak adabiyotini bezadi. «Eli Makover» (1877), «Qudratli Samson» (1878), «Gul hadya eting» (1878), «Broxvichlar oilasi» (1878) asarlarini o'qisangiz, buning guvohi bo'lasiz. Adiba bular bilan cheklanib qolmaydi. U tinimsiz ijod qiladi. «A-V-S» (1884), «Romanov ayoli» (1884), «Silvida» (1880), «Mehribon xonim» (1888), «Neman uzra» (1887) romanlarini kitobxonlar iliq kutib oldilar. Ijodkor ayol yana yuksakliklar sari talpinadi, ijod dardi bilan yashaydi. Uning asarlari juda ko'p.

ANATOL FRANS

(1844–1924)



Anatol Frans taxallusi bilan tanilgan Anatol Tibo Parijda tug'ilgan. Otasi Fransua Tibo kitobsevar kishi bo'lib, ko'p kitob o'qirdi. Anatol Tibo Fransiyani juda sevardi. Shu tufayli ham Frans (France) taxallusini olgan.

Yozuvchi dastlab novellalari bilan shuhrat qozonadi. «Oltin dostonlar» deb nomlanuvchi poemalar majmuasi shoir mahoratini namoyish etdi. «Korinf to'yi» dramasi ham she'riy yo'l bilan yozilgan. Mifologik xarakterdagi bu asar Aleksey Tolstoyning qiziqtirib qoladi va ularni rus tiliga tarjima qiladi. «Silvestr Bonar jinoyatlari» (1881), «Tais» (1890) asarlari ham ijodkor mahorati samarasidir. Tarixdan ma'lumki, Tais tarixiy obrazi jahon adabiyotida ko'pchilik adiblarning e'tiborini o'ziga tortib kelmoqda. Tais Aleksandr Makedonskiyning sevgilisi bo'lgan. Bu haqda A. Yefimovning «Afinalik Tais» romani ham

mavjuddir. Anatol Frans o'z romanini yangi tarixiy obrazlar bilan boyitadi. Bu roman ko'pgina tillarga tarjima qilingan.

Anatol Fransni yoshligida hamma «Kichkina Tibo» deb atardi. Tibo otasining kitob do'konida yordam berib yurgan kezlarida deyarli hamma yangi chiqqan kitoblarni birma-bir o'qib chiqar, xaridorlar bilan u yoki bu asar yuzasidan bahs va muloqotlar qilib turardi.

Kitobxonlarni turli mavzudagi asarlar qiziqtirar, kichkina Tibo esa deyarli barcha asarlarning syujetini birma-bir aytib berardi. Ayniqsa, o'z davrining taniqli adabiyotshunosi va tanqidchisi Jyul Janen kitob do'koniga kelib, kichkina Tiboning kelishini kutib turar, yangi romanlar va dramatik asarlar xususida uzoq vaqt munozaraga kirishar, so'ngra o'z savollariga javob olib ko'ngli taskin topar, yangi chiqqan tanqidiy asarlarni Tiboga o'qitib, uning fikrlarini tinglardi.

Anatol Tibo yoshligidan zehni o'tkir, fikri tiniq, sermulohaza, mustaqil mushohada yuritadigan bo'lib ulg'ayadi. Falsafa, tarix, san'at, adabiyotshunoslikka oid shunchalik ko'p manbalarni o'qigan ediki, istagan savolga javob bera olar, istagan sana atrofidagi voqealarni batafsil tahlil qila olardi.

Anatol Fransning birinchi yirik asari «Oltin dostonlar» deb nomlanib, unga bir she'riy dramasi «Korinf to'yi» ham kirgan edi. Bu drama qadimgi Ellada haqida eshitgan hikoyalari asosida yozilgandir. Asarda Gippiy bilan Dafna o'rtasidagi ishq-muhabbat hikoya qilinadi. Biroq bu ikki yosh sevgisiga diniy qabohat xalaqit beradi va ikki yosh murod-maqsadiga yeta olmaydi.

Anatol Fransning qator falsafiy asarlari mavjud. Bular orasida «Muhtaram Jeroma Kuanyarning mulohazalari» (1893), «Jak Turneb-rosh hikoyalari» (1908) XVIII asr ijtimoiy-siyosiy voqeligi bilan bog'lanib ketadi. Yozuvchi voqelikni talqin qilar ekan, dunyoga Jerom Kuaner, Nikiy («Tais»dagi), Jan Jak Russo, Robespyer, Marat kabi faylasuflar nigohi bilan qaraydi.

Adibning barcha asarlarida inson qismati va insoniyatning taraqqiyot bosqichlari o'ziga xos mushohadalar va muammolar tugunida beriladi. Bu tugunni echishga yozuvchi kabi o'quvchi ham qiynaladi.

Adib hayot haqida shu qadar boy fikrlarni o'rtaga tashlaydiki, o'quvchi o'ylanib qoladi.

Anatol Fransning asarlari qadimgi zamonning parodiyalarini esga soladi. Uning asarlari kinoya, istiora, qochirim, ishora, obrazli iboralar bilan boydir.

Adib «Pingvinlar oroli» (1908) asarini hajviy va satirik tasvirlar bilan bezatgan. Muallif bu roman-pamfletida Pingvin obrazi orqali inson-

larning turmush tarzi, tengsizlik, zo'rovonlik kabi illatlarni ochib beradi.

Pingvinlarning o'zaro munosabatida sivilizatsiya, qonun, jamiyat, hukumat haqida so'z boradi. Anatol Fransning xayoliy mushohadalari o'quvchini o'zga bir dunyoga yetaklab boradi. Uning asarlari bundan qariyb yuz yil ilgari yaratilgan bo'lsa-da, uning g'oyalari hamon dolzarb.

«Sivilizatsiya insonni qirg'in urushlarga, tubanlik botqog'iga emas, ma'naviy boylikka, yuksak g'oyalar kurashiga chorlaydi», degan edi Anatol Frans.

Anatol Frans jahon adabiyotida o'zining ulug'vor g'oyalari bilan mashhur bo'lgan adibdir. Shuning uchun ham u «Buyuk g'oyalar ixtirochisi» degan yuksak nomga muvassar bo'lgan.

GI DE MOPASSAN

(1850–1893)



Normandiyada, unchalik badavlat bo'lmagan oilada tug'iladi. Onasining yaqin do'sti, ulug' yozuvchi Flober ularnikiga tez-tez kelib turishi yosh Mopassanning tarbiyasiga katta ta'sir ko'rsatadi. 1869- yilda Ruandagi litseyni tugatib, Kann universitetiga o'qishga kiradi. Fransiya-Prussiya urushida ishtirok etadi.

Fransuz adabiyotida Mopassanning alohida o'rni bor. O'z ijodini she'r, novellalar yozishdan boshlaydi. 1880- yilda adabiyotga kirib kelgan yozuvchi ijod bilan tinimsiz shug'ullanadi. Qisqa fursat ichida mashhur bo'lib ketadi. «Medan oqshomi» (1887) novellalar to'plami ilk mashqlar

hosilasi bo'lishiga qaramasdan kitobxonlar e'tiborini o'ziga jalb etdi. Adib roman yaratish yo'lida ham samarali mehnat qildi va katta muvaffaqiyatga erishdi. «Hayot» (1883), «Azizim» romanlari jahondagi ko'pgina tillarga tarjima qilingan.

«Oydin kecha», «Opa-singil Gondomelilar» novellalari o'quvchi qalbida chuqur iz qoldiradi. Uning novellalari goh kuldirsa, goh yig'latadi. Mopassan novella janrini yuqori pog'onaga ko'tardi. «Urush» (1881) nomli ocherki o'quvchini o'ylashga, fikrlashga majbur etadi.

Gi de Mopassan o'z davrining ulkan badiiy tasvir ustasi bo'lishi bilan birga, chuqur bilim egasi, nazariyachi olim ham edi. U tinimsiz o'qir va ijod qilardi.

1875-yil 12-mayda o'z davrining ulug' adibi Floberga yo'llagan maktubida G'arbiy Yevropada, ayniqsa, fransuz adabiyotida keng yoyilgan dekadantlik oqimini qattiq tanqid ostiga oladi. Dekadant tarafdorlari badiiy ijodda o'n xil rangni qo'llashni ko'tarib chiqqan edilar. Biroq ular o'zlari joriy etgan xilma-xil badiiy vosita omillariga rioya qilmaydilar.

Mopassan o'z xatida Dekadant harakatining faol ishtirokchilaridan biri Gustav Floberni qattiq tanqid ostiga olib, dekadantlar o'zlarining dasturlariga rioya qilmayotganini, naturalizm bilan simvolizmni aynan bir narsa deb talqin etayotganini, bu jarayon alohida adiblar ijodigagina emas, butun bir adabiy jarayonga salbiy ta'sir etayotganini tanqid etib, o'zining bu boradagi nazariy qarashlarini bayon etadi.

Mopassanning shu ruhdagi maktubi 1886- yil 14- oktabrda o'z davrining ma'rifatparvarlaridan biri Moris Vikerga yo'llangan edi. Bu xatda aytilishicha, fransuz adabiy jarayonida g'oyaviy-badiiy tasvirdan ko'ra hayot muhokamasiga keng e'tibor berilayotganligi ta'kidlanib, izohlab beriladi.

Bunday nazariyachi olimlarga va ularning ketidan ergashgan badiiy tasvirchilarga namuna tarzida adibning 1883-yil 27-aprelda «Jil Blaz» gazetasida chop etilgan «Hayot» romani yuzaga keladi. Roman shoshilinch ravishda «Ovar» nashriyotida to'la ravishda kitob holida chiqadi. Ko'pdan buyon bunday g'oyaviy va badiiy jihatdan yuksak romanga tashna bo'lib yurgan fransuzlar romanni so'z san'atidagi go'zal durdona sifatida qabul qiladi.

Adib bu romani orqali o'sha davr fransuz adabiy hayotida avj olib ketgan turli oqimlar va bunday oqimlar ta'sirida ijod qilgan adiblarga ham qaqshatqich zarba beradi.

«Hayot» romani orqali Mopassan zamondoshlari, usta so'z san'atkorlari Onore de Balzak va Gustav Floberlardan ham bir qadar yuqori e'tiborga erishadi.

Gi de Mopassan «Azizim» (1885) romanida fransuz hayotidagi bo'ronli va bezovta to'liqinni qalamga oladi. Bu to'liqin asar qahramonlari Jorj Dyurua va Janna qismati bilan bog'liq voqealarga borib ulanadi. Bu voqealar Jorj Dyurua bilan qo'l ushlagan Foreste xonim, De Marel xonim, Valter xonim, Syuzanna bilan bog'liq. Asardagi tasvir Jorj va Syuzanna taqdiri bilan nihoyalanaadi.


Mopassan «Pyer va Jan», «O'lim kabi kuchli». «Bizning yurak» kabi romanlarida fransuz jamiyatiga xos bo'lgan muhim voqealarni qalamga oladi. Adibning hech bir romani jamiyat hayotidan uzilib qolmagan. Shuning uchun ham uning tasviri kitobxon qalbiga yo'l topa oldi.

Adib faqat fransuzlarga xos hayotni emas, umuman, inson zotiga tegishli turmush va yashash tashvishlarni, kurash va intilishlarni, ezgu o'ylarni go'zal qilib tasvirlaydi. Shuning uchun ham uning ijodi faqat fransuz kitobxonlarining emas, jahon kitobxonlarining muhabbatiga sazovor bo'ldi.

Gi de Mopassan katta janr bilan cheklanib qolmadi. Uning kichik janrdagi novellalari ham cheksiz va chegarasiz hayotning qaysidir bir qorong'u nuqtalarini yoritib beradi. «Do'ndiq» (1880), «Go'zal Fifi», «Opa-singil Ronaldlar», «Garriyent xonim», «Janob Paran» va boshqa novellalarida kichik bir voqea tasvirlangan bo'lsa-da, uning zamirida ko'pchilikni o'ylantirib yurgan muammolar yashirinib yotganining guvohi bo'lamiz. Bir necha sahifadagina iborat «Portda» deb nomlanuvchi novellasi orqali ham adib katta hayot haqiqatini tasvirlagan.

JOZEF KIPLING

(1856–1936)



Bombayda tug'iladi. 16 yoshida uni Angliyaga olib kelishgan. 1882-yilda yana Hindistonning Lohur shahriga qaytib borib, «Fuqaro va harbiy gazeta»da muxbir bo'lib ishlaydi. Uning ilk ijodi «Qo'shiqlar ro'yxati» (1887) she'rlari, «Oddiy hikoyalar» (1887) majmualarining chiqishi bilan boshlanadi. Hindistonlik bu adib ijodiga ingliz adabiyotining ta'siri katta bo'ldi. U 1907-yilda xalqaro Nobel mukofoti sohibiga aylandi.

«Uch soldat» (1888), «Qora va oq» (1890), «Gloster sherlari» (1896), «Tomlinson» (1891), «To'qayzor kitobi» (1894–1895), «Bolalar haqida hikoyalar» (1902), «Kim» (1901), «Kirim va chiqim» (1926) kabi juda ko'plab asarlari xilma-xil mavzularga bag'ishlangandir. «Uch soldat» romanida uch millatga mansub bo'lgan yigitlarning taqdiri haqida hikoya qilinadi. Ularning dunyoqarashi turlicha bo'lsa ham maqsadi yagona. Tinchlik istaydi. Qashshoqlik ularni yagona bir ko'chaga olib kirgan.

Tomirida ingliz qoni jo'sh ursa-da, Jozef Angliyaning Hindistondagi bosqinchilik siyosatini qoralaydi. Shu nuqtai nazardan adib Angliyaning ko'pgina davlatlar bilan qilgan bosqinchilik urushlari tarixini «Do'st» harbiy gazetasida batafsil yoritib boradi. Adib Angliyaning bosqinchilik

urushlaridan maqsad – o‘z davlatini mustahkamlab, behisob boylik orttirishdir, degan fikrni katta matonat bilan ayta olgandir.

Jozef Kipling o‘z asarlarida Hindiston xalqining nihoyatda og‘ir va qashshoq hayotini tasvirlaydi. Hindlarning qullardek ezilib, mashaqqatli mehnat qilishlari yozuvchi qalbini larzaga keltiradi.

Yozuvchi Hindistonda og‘ir zulm va zo‘ravonlik tartibini o‘rnatgan ingliz mansabdorlarini qattiq tanqid ostiga olsa-da, faqat xizmat burchini o‘tayotgan askarlarning harbiy faoliyatiga biroz muloyimlik bilan munosabatda bo‘ladi. Askarlar ham aslida oddiy xalq farzandlari, ular turli sabablar bilan Hindistonga kelib qolgan. «Harbiy qarorgoh balladasi» asari ingliz soldatlarining vatanga sog‘inch, o‘z yurtini qo‘msash ruhi bilan sug‘orilgan. To‘plamda ingliz zolimlariga nafrat kuchli ifoda etilgan, soldatlar qalbidagi nozik tuyg‘ularga kengroq urg‘u beriladi.

Kipling harbiy gazetalarda faoliyat ko‘rsatar ekan, ko‘proq askarlar orasida bo‘ladi, mansabdor harbiylar bilan yaqin aloqa qiladi. Ingliz harbiylarining buzg‘unchilik, qo‘poruvchilik, ayg‘oqchilik, qotillik kabi razil ishlaridan yaqindan xabardor bo‘ladi. Ingliz amalparastlarining bu o‘lkada amalga oshirayotgan yovuzliklaridan, qabihliklaridan nafratlanadi.

Jozef Kipling yaratgan Maugli obrazi – «Changalzor», «Hayvonlar qarorgohi» (1894–1895) asarlari – yozuvchi nomini mashhur qildi. Asar Sharq mumtoz adabiyoti va xalq og‘zaki ijodi namunalari bilan bog‘lanib ketgan. Hindiston xalqi orasida keng tarqalgan hikoya va afsonalarda aytilishicha, bo‘ri o‘rmondan bir bolakayni topib olib, emizib, parvarishlaydi.

«Changalzor» asarida tasvirlanishicha, Maugli o‘rmonda o‘sib, ulg‘ayib, barcha hayvonlarni o‘ziga itoat ettirgan hayvonlar qiroliga aylanadi. Yozuvchi o‘z asarida tabiat, hayvonlar va inson o‘rtasidagi o‘zaro aloqadorlikni, bog‘liqlikni mahorat bilan yoritib beradi. Inson qayerda yashamasin o‘sha yerning tabiatiga o‘rganadi, moslashadi. Hayvonlar orasida yashagan Maugli insonlar hayotiga osonlikcha ko‘nika olmaydi.

Kipling yaratgan Kim obrazi ham o‘quvchi qalbidan chuqur o‘rin egallab, xotirasida uzoq saqlanib qoladigan qiyofadir. Irlandiyalik soldat bilan hind ayolidan tug‘ilgan bu bola ulg‘ayib inglizlar qo‘lidagi ayg‘oqchiga aylanadi. U barcha insoniy tuyg‘ulardan mahrum. Uning ongi shu darajada zaharlanib, yemirilib ketganki, u ayg‘oqchilikdan ulug‘roq burch va vazifa yo‘q deb biladi.

Kipling ijodi juda boy. Asarlarining mavzulari xilma-xil.

BERNARD SHOU

(1856–1950)



Oilani musiqa o'qituvchisi bo'lgan onasi boshqaradi. Shuning uchun ham Jorjda musiqaqa, qo'shiqqa, adabiyotga qiziqish erta uyg'onadi. 15 yoshga to'lganda onasi oilani tark etib, Londonga ketib qoladi. Shundan so'ng qashshoqlik girdobi o'ziga tortib, bilim olishi, o'qishi uchun imkoniyati cheklanadi.

1876-yilda 20 yoshli Jorj Irlandiyadan Londonga keladi. Dastlab bu irland yigitining ingliz hayotiga ko'nikishi qiyin bo'ladi. O'n yil ichida yosh adibning birin-ketin beshta romani nashr qilinib, tez orada uning nomi Londondan uzoqlarga

ham yoyildi.

«Baxtsiz nikoh», «San'atkor sevgisi», «Yolg'iz sotsialist» romanlari uning ilk ijod namunalari. Shou jahon adabiyotiga «Uorren xonimning kasbi» asari bilan kirib keldi va bu asar dramaturg shon-shuhratini orttirib yubordi.

«Qabul qilinmagan pyesalar», «Puriton uchun», «Sezar va Kleopatra» (1898), «Jon Bullning o'zga oroli», «Mayor Barbara» asarlari dramaturgning sermahsul ijodidan darak beradi.

70–80-yillarda adib beshta roman yozadi. Biroq bu romanlari ilk ijod namunasi bo'lishiga qaramasdan, mavzu jihatidan ham, hayotga yaqinligi bilan ham o'z davrining yetuk romanlari qatorida turadi.

Adib ma'lum muddat badiiy ijoddan chekinib, publitsistikaga o'zini uradi. Dastlab muzika va qo'shiq san'ati haqidagi qator maqolalari Korno di Basseto taxallusi ostida «Star» gazetasida bosila boshlaydi. So'ngra «G. V. S» taxallusi bilan teatrshunoslikka oid maqolalari chiqadi.

Shou o'zining iqtidorini ilmiy-tanqidiy maqolalar, turli jamiyatlar ochishga bag'ishlaydi. U xotini bilan «Fabian jamiyati»ni ochadi. «Fabian jamiyati», garchi o'z davri uchun unchalik katta foyda bermasada, Shou o'zining mohir notiq ekanligini namoyish etadi, Londondagi ko'pgina joylarda mohirona ma'ruza o'qiydi.

Nasrda mashhur bo'la olmagan Shou o'zini dramaturgiyaga uradi. Dramaturg ilk to'plamini «Qabul qilinmagan pyesalar» deb ataydi. Bu atamada ma'lum darajada ramziy ma'no mavjud. Chunki adibning romanlarini nashriyotlar qabul qilmagan edi. Ehtimol, dramalarimni ham teatrlar qabul qilmas degan, xavotirda shunday ataydi. Ayrim tadqiqotchilar bu atamani boshqacha talqin qiladilar. «Qabul qilinmagan pyesalar» turkumi uchta dramadan iborat. «Boshqaruv uyi» (1885)

«Uorren xonimning kasbi» (1894), «Tashlandiq» (1893) asarlarida jamiyatda hukm surayotgan qashshoqlik va boylikni bir-biriga qarama-qarshi qo'yadi.

Bernard Shou dramaturgiyada o'zining munosib o'rnini topadi. «Uorren xonimning kasbi» tragediyasi yozilishi bilanoq sahna yuzini ko'radi va matbuotda munozaralar boshlanadi. Bu munozaralar dramaturg mahoratini kamsitmagan holda, obrazlarning o'zaro munosabati, dunyoqarashi atrofida qizg'in davom etardi.

Pyesada tasvirlanishicha, Uorren xonim ochiqchasiga boy-badavlat kishilar bilan yura boshlaydi, bir joyda maishat, buzuqlik bilan shug'ullanuvchi uy ochadi. Kollejni bitirgan qizi Vivi onasining bunday ishlaridan xabar topib qoladi. Onasining bunday ishlar bilan mashg'ul bo'lishi va shuning orqasidan pul to'plashi Vivi dunyoqarashiga qattiq ta'sir etadi. Buning ustiga onasining boy-badavlat jazmanlaridan bo'lmish Kroft Viviga uylanish niyati borligini aytadi. Vivi boshqa bir yigitni sevib, ular o'rtasida sof muhabbat uchqunlari tobora alangalanib bormoqda edi.

Asar qahramoni onasi Uorren xonimdan nafratlanadi. Asarda aqlli va pokiza qalb egasi Vivi bilan fohishalikni o'zlariga kasb qilib olgan xonimlar o'rtasida to'qnashuv, kurash jarayoni o'zining haqqoniy ifodasini topgan.

Dramaturg «Qabul qilinmagan pyesalar» turkumiga kirgan uch asarini ham sahnaga qo'yish taqiqlangandan keyin, «Qabul qilingan pyesalar» turkumini e'lon qiladi. Bu turkumga «Qurol va inson» (1894), «Kandid» (1895), «Tanlangan qismat» (1895) pyesalari kiradi. U pyesalar siyosatdan biroz uzoqroq, ularda urushdan keyingi ijtimoiy hayot muammolari qalamga olinadi.

Bernard Shou ijtimoiy hayotidagi yaramas illatlarni, qabihliklarni, boylik orttirish yo'lida har qanday jinoyatlarni qilishdan toymaydigan kimsalarni tanqid etadi. Bernard Shou yashagan zamonda yangi bir oqim – puritanlar yuzaga kelgan bo'lib, bu oqim tarafdorlari illatlarni, eski an'analarni tanqid qilishga kirishgan edi.

Shuning uchun ham Shou keyingi yozilgan turkum asarlarini «Puritan uchun pyesalar» deb ataydi. Bu turkumdan «Afsungar olim» (1897), «Sezar va Kleopatra» (1898), «Kapitan Brasebaun murojaati» (1899) pyesalari o'rin egallagan edi.

Bu asarlar Bernard Shou nomini uzoq-uzoqlarga tanitdi. Uning keyingi yozilgan dramalari ilgarilariga nisbatan ustun turadi. «Jon Bullning o'zga oroli» (1904), «Mayor Barbara» (1905), «Pigmalion» (1912) va boshqa asarlari Bernard Shouning eng go'zal asarlaridir.

OSKAR UAYLD

(1854–1900)



Dublin shahrida vrach-tabib oilasida tavallud topadi. Oksford universitetida o'qib yurgan kezlari-da Raskin ma'ruzalarini tinglash sharafiga muyassar bo'ladi. 1881- yilda birinchi she'rlar to'plami nashr qilinadi. Tez orada uning nomi Angliyaga tarqaladi. U Amerikaga estetizm mavzuida ma'ruza o'qishga taklif etiladi. Shundan so'ng uning asarlari birin-ketin chiqa boshlaydi.

Adib o'z ustozlari sifatida Emil Zolyani tilga oladi va uning an'analarini izchillik bilan davom ettiradi.

Ayniqsa, «Hamal» romani adibda katta taassurot qoldiradi. Emil Zolya o'z ijodida naturalizm yo'lini tanlagan edi, O. Uayld esa realizm yo'lidan boradi. Uning asarlari hayotiy haqiqatga juda yaqindir.

«Dorian Grey portreti» (1891), «Artur Sevil jinoyatlari», «Baxtli shahzoda», «Yosh qirol», «Ahamiyatsiz ayol», «Qanday jiddiy bo'lish mumkin», «Xayoliy yer» kabi asarlari Angliya adabiyoti sahifalarini bezab turibdi. Adibning asarlari mavzu jihatidan bir-biridan keskin ajralib turadi. Hech kim qo'l urmagan yangi mavzularga qo'l urishga harakat qiladi. Ehtimol mana shu yangiligi bilan, yangi fikri bilan Oskar Uayld jahonga mashhurdir.

ARTUR KONAN DOYL

(1859–1930)



XIX asrning oxiri – XX asrning boshlarida G'arb adabiyotida ajoyib bir an'ana boshlanadi. Bundan ilgari adabiyotda ijodkorlarning turli oqimlar (syurrealizm, neoromantizm, naturalizm, simvolizm, estetizm, dekadantlik kabi) ta'sirida ijod qilishi odatiy tusga aylangan edi. Endilikda har bir ijodkor o'zi uchun ma'lum bir muhim mavzuni, ya'ni bosh mavzuni tanlash va shu mavzuda ijod qilishi an'anaga aylandi. Bir yozuvchi ishchilar hayotini, boshqa biri esa qishloq manzarasini tas-

virlaydi. Bir ijodkor tabiat go'zalliklariga e'tiborni qaratsa, boshqasi hayvonlar haqida yozadi.

Artur Konan Doyl esa izquvarlar hayotini tasvirlashni o'z oldiga maqsad qildi. Yozuvchi boshqa mavzularda ham o'nlab asarlar yozishi mumkin edi, biroq jahon adabiyotiga shu mavzu bilan kirib boradi.

Yozuvchining «Yo'qolgan dunyo» (1887), «Oq ortidan qizib» (1927), «Beskervillar iti» (1902) asarlari detektiv Sherlok Xolms va uning do'sti Jon Vatson hayotiga bag'ishlanadi. Adib 1887- yildayoq ilk ijodini Sherlok Xolms haqida hikoyalar, qissalar, etyudlar yozishdan boshlab, keyinchalik bu izquvar haqida roman yozish xayoli bilan yashaydi.

XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlab G'arb adabiyotida psixologizm ruhi bilan sug'orilgan asarlar paydo bo'la boshladi. Shu bilan birga detektiv-izquvarlik muvzusiga oid asarlar yaratishga ham e'tibor ortadi. Bu mavzuni birinchilardan bo'lib Artur Konan Doyl boshladi. Davr bilan bunday hamnafaslik yozuvchi nomini tezda mashhur qilib yuboradi.

Shotlandiyaning markaziy shahri Edinburgda tavallud topgan adibni taqdir Irlandiyaga va keyinchalik Londonga olib keladi. Edinburgdagi maktabni, so'ngra universitetni bitirgan bu quvnoq shotland yigiti London ma'rifatparvarlari orasida katta hurmat-e'tiboriga ega bo'ladi.

Artur Konan Doyl kema vrachi bo'lib faoliyat ko'rsatgan kezlarda turli toifadagi odamlar bilan uchrashadi, talay mamlakatlarda bo'ladi. Ayniqsa, Afrika manzaralari katta taassurot qoldiradi.

Artur Konan Doylning ilmiy dunyoqarashi keng. U har bir narsani sirtidan kuzatib qolmasdan, manbalarni butun mohiyati bilan ko'rib, so'ngra o'rganib chiqadi, o'ziga xos ilmiy xulosalar chiqaradi. Shuning uchun ham fantastik asarlari ishonarli va hayotiy chiqadi. Bu jihatdan uning «Yo'qolgan dunyo» romani xarakterlidir. Romanning birinchi bobiy o'quvchining e'tiborini o'ziga tortadi. «Inson o'z shuhratining ijodkori» deb nomlangan ilk sahifalardayoq irodali kishi har qanday jasoratga tayyordir, oddiy turmush ikir-chikirlari bilan aloqasini batamom uzib, sirli voqealar o'lkasiga, g'aroyib sarguzashtlar va buyuk mukofotlar kutayotgan mamlakatga bosh olib ketishga qodirdir, deyiladi.

Artur Konan Doyl Angliya bilan Fransiya o'rtasidagi to'xtab-to'xtab davom etgan yuz yillik urush voqealarini qalamga oladi. «Oqlar otryadi», «Ser Nigelya» «Mixey Klarik» kabi romanlarida tarixiy voqelikni, urush dahshatlarini, xalq mehr-muhabbatiga sazovor bo'lgan jasur qahramonlarning qiyofasini hayotiy tarzda, o'quvchi qalbida uzoq vaqt saqlanib qoladigan tarzda ifodalab beradi.

Artur Konan Doyl o'zi o'qigan Edinburg universitetining professori Jozef Bell bilan yaqin munosabatda bo'ladi va nihoyatda hurmat qiladi. Yozuvchi Sherlok Xolms qiyofasini tasvirlashda ustoz doktor Jozef

Bellning xatti-harakatlaridan, ruhiy dunyosining boyligidan ustalik bilan foydalanadi.

Sherlok Xolms haqidagi tarixiy va yarim afsonaviy manbalarni to'p-lab, uning shaxsiyatini obdan o'rganadi. Sherlok Xolms nomi butun Angliyaga ma'lum va mashhur edi. Shundan so'ng detektiv asar yozish an'anasi butun G'arb mamlakatlariga tarqaladi.

Sherlok Xolms obrazini yaratish yozuvchi uchun oson kechmaydi. 1881–1903-yillarda Sherlok Xolms Londondagi Beyker-Strit ko'chasidagi 109-uyda istiqomat qilgan. Bu uy hozirgi kunda ham har bir londonlikka yaxshi tanish.

Artur Konan Doyl «Zaharlangan kamar», «Raflz Xouning kashfiyoti», «Yo'qolgan dunyo» romanlarida yaxshilik, ezgulikning yovuzlik va jaholat ustidan g'alabasini real ko'rsatib beradi.

ERNEST SETON-TOMPSON

(1860–1946)



Hamma adiblar ham tabiat shaydosi bo'ladi, tabiatni sevadi, ardoqlaydi va asarlarida mehr bilan tasvirlaydi. Ona tabiat barchamizniki. Aslida inson ham tabiatning bir bo'lagi. Ernest Seton-Tompsonning barcha asarlari tabiat va inson haqida. Psixolog- olimlarning ta'kidlashicha, tabiatga mehr-muhabbat qo'ygan kishida mehr-shafqat, saxovat va muruvvat kuchli bo'lar ekan. Ernestning deyarli barcha asarlari tabiatga bag'ishlangan. Uning «Men bilgan jonivorlar», «Quvg'indilar taqdiri», «Hayvonlar-qahramonlar», «Mitti yovvoyilar», «Rolber o'rmonida», «Jonivorlar haqida hikoyalar», «Shimoliy hayvonlar hayoti», «Yovvoyi hayvonlar hayoti» kabi asarlari faqat bolalar-ninggina emas, kattalarning ham sevimli asarlaridir. Adibning ko'pgina tillarga tarjima qilinib, chop etilgan «Yovvoyi yo'rg'a» asarida tabiat va inson bilan bog'liq qonuniyatlar o'z ifodasini topgan.

Ernest 1860-yil 14-avgustda Angliyada tavallud topgan bo'lsa-da, Kanada maktablarida o'qib, ta'lim oladi. Ularning oilasi bo'lg'usi yozuvchi olti yoshga to'lganda Kanadaga ko'chib kelgan edi. Maktabda o'qib yurgan kezlari dayoq bola adabiyotga ixlos qo'yadi, bekor vaqtlarida turli hayvonlarning rasmini chizish bilan mashg'ul bo'ladi. Qadimiy Shotland hikoyalarini berilib o'qiydi.

Bobosi asli shotlandiyalik bo'lib, oiladagilar bu go'zal o'lkaning tarixi va tabiatiga juda qiziqish bilan qarab, bobokalonlari yurtini qo'm-sardi. Ernest shotlandlarning ovchilik sirlari, yovvoyi hayvonlarni qo'lga o'rgatish mahorati haqida qiziq-qiziq voqealarni eshitar, xayoli-da jonlangan tasvirlarga rang berardi.

«Eshitish boshqa, ko'rish esa yanada yaxshiroqdir», – degan Ernest vaqt topdi deguncha uzoq qishloqlarga yo'l olar, qalin o'rmonlar qo'ynida hayot kechiruvchilar bilan tezgina do'stlashib olar, ulardan olov atrofida yarim tungacha so'ngsiz hikoyalarni tinglardi.

Ernest yovvoyi hayvonlar tabiatini, fe'l-atvorini o'rganishdan erinmasdi. Yovvoyi hayvonlarni tiriklayin qo'lga tushirish usullarini tog'liklardan o'rganib, bu borada ustasi farang bo'lib ketadi. «Bizdan ham o'tib tushding», – deb hazillashib qo'yardi sheriklari.

Ernest tabiatning chinakam shaydosi. U o'z o'quvchisini tabiatning ajoyib manzaralariga, xilma-xil jonzotlar orasiga yetaklab boradi va unda tabiatga muhabbat uyg'otadi.

RABINDRANAT TAGOR

(1861–1941)



Hind adabiyotini o'zining romanlari, she'rlari bilan bezab turgan adibning asarlari jahonning ko'plab xalqlari tillariga tarjima qilingan. Maxatma Gandi, Javoharlar'l Neru, Romen Rol-lanning Tagor ijodi haqidagi fikrlari ko'pchilikka ma'lum.

Yoshligidan adabiyot va san'atga qiziqadi. Tagor sayohat qilishni yaxshi ko'radi. 1877-yildan boshlab «Genankur» jurnali bilan aloqa bog'laydi. Bu jurnalda uning ilk nutq va maqolalari e'lon qilinadi. 1890-yilda u Yevropa bo'ylab sayohatga chiqib, Italiya, Fransiya, Angliyada bo'ladi. 1901-yildan boshlab ko'pgina mamlakatlar – Amerika, Yaponiya, Xitoy, Indoneziya, Tayland, Seylon, Kanada, Hindi-Xitoy bo'ylab safarga chiqadi. 1913-yilda jahon adabiyotiga qo'shgan ulkan hissasi uchun xalqaro Nobel mukofoti laureati bo'ladi.

Tagor Yevropa adabiyoti durdonalarini sevib o'qiydi. Shelli, Braun, Kitsa, Hyote, Dante, Petrarka asarlarini o'qib, so'z boyligi yuksalib boradi. Ijodini hikoya yozishdan boshlagan Tagor, keyinchalik romanlar nam ijod qiladi.

Tagor maktabda o'qib yurgan kezlaridayoq hind va jahon adabiyoti na'munalarini sevib o'qirdi. Ayniqsa, xalq og'zaki namunalarini o'rganishga katta ixlos qo'ygan edi. Otasi sayohatda bo'lib, xonadoniga kamdan-kam kelar, ko'pincha Angliyada istiqomat qilardi. Tagor maktabni bitirib, 17 yoshga to'lganda, otasi o'g'lining huquqshunos bo'lishini orzu qilib Londonga chaqirib oladi. Tagor yoshligidan badiiy adabiyotni sevar, huquqshunoslik sohasi unga begonadek tuyulaverardi. Shuning uchun ham olti oy zo'r-bazo'r o'qib, Hindistonga qaytib kelib badiiy ijodga sho'ng'ib ketadi. Tagor tabiat shaydosi edi. U Hindistonning go'zal o'rmonlarini, zilol suvlarini, jazirama issig'u yomg'irlarini sevadi. Unga, ayniqsa, so'lim qishloq juda-juda yoqardi. Ota-bobosidan meros bo'lib qolgan yerni ko'rib kelish uchun ahyon-ahyonda qishloqqa borib, akalarining qistovi bilan zo'rg'a shaharga qaytib kelardi. Tagor Kalkuttada ko'p turmay, o'zi sevgan go'zal qishloqqa qaytadi. Bobosidan meros yerga egalik qilib, oddiy qishloq odamlari bilan yonma-yon dehqonchilik qiladi. G'am-tashvishdan yiroq hayot, mehnat gashti unga adoqsiz zavq-shavq bag'ishlar edi. Ijodini she'r yozishdan boshlagan Tagorning «Oqshom qo'shiqlari» (1881) to'plamiga kirgan asarlarini ta'riflab adog'iga yetib bo'lmasdi. Tagor juda saxiy inson edi. Qo'l ostidagi dehqonlar yosh adibni juda hurmat qilar edilar. Tagor o'nlab romanlar, yuzlab hikoyalar yozdi, ularda oddiy mehnat ahlini ulug'ladi.

ROMEN ROLLAN

(1866–1944)



Burgundiyaning Klamsi shahrida notarius oilasida tavallud topadi. 1881-yilda ularning oilasi Parijga ko'chib keladi. Shundan so'ng Romenning o'qishi uchun imkoniyat tug'iladi. U pedagog bo'lishni orzu qiladi. Yoshligidan adabiyot va san'atga katta ixlos qo'yadi. Talabalik yillaridayoq rus adiblari asarlarini, xususan L. N. Tolstoy ijodini qunt bilan o'qib boradi. 1887-yilda L. N. Tolstoyga xat yozadi. Ulug' rus yozuvchisi ham yosh iste'dodning mahoratiga alohida e'tibor bilan qarab, 38 varaqdan iborat javob yo'llaydi. Romen L. Tolstoyga atab bir qancha maqolalar va «Tolstoy hayoti» nomli kitobini yozadi.

Yozuvchi qadimgi Rim san'ati yodgorliklariga katta qiziqish bilan qaraydi va Rimga sayohat qiladi. 1895-yilda Parijda Yevropa operasi tarixi-

ga oid dissertatsiya himoya qiladi. Shundan so'ng drama yozishga bel bog'laydi. «E'tiqod tragediyasi» nomi bilan turkum tragediyalarini e'lon qiladi. «Muqaddas Lyudovik» (1897), «Aert» (1898), «Vaqt keladi» (1903) pyesalari shu turkumdan o'rin olgan edi.

Romen Rollan dunyoqarashi boy, fikrlash ko'lamini keng bo'lgan olim edi. U qator dramalar ijodkori bo'lish bilan birga dramaturgiya va teatr san'atining nazariy asoslari haqida qator ilmiy-tanqidiy asarlar yozadi. Ijodkorning ilmiy asarlari «Dramatik san'at talqini» jurnalida bosilib turadi. Bunday ilmiy maqolalarni qayta ishlab «Xalq teatri» nomi bilan (1903) alohida kitob holida nashr etadi.

Romen Rollan falsafiy mavzuda ham qalam tebratib, o'z davrining muhim muammolarini ko'tarib chiqadi. «Idealizm zahri» (1900) maqolasi ko'plab munozaralarga sabab bo'lgan edi.

Dramalari bilan mashhur bo'lgan Romen Rollan o'z asarlarida me'yoriy va mazmun mohiyatiga alohida e'tibor beradi.

«Bo'rilar» (1898), «Danton» (1899), «Aql tantanasi» (1899), «O'n to'rtinchi iyul», «O'lim va muhabbat o'yini» (1924), «Leonid» (1927), «Robespyer» (1939) kabi dramalarida asosan 1789–1794 yillarda Fransuz jamiyatida bo'lib o'tgan muhim ijtimoiy-siyosiy voqealarni ko'rsatib beradi.

Adib buyuk insonlarning tarjimai holini o'z ichiga olgan epik asarlar ustasidir. Hayoti, ijodi jasorat timsoliga aylanib ketgan mashhur fidoyi ijodkorlar Betxoven («Betxoven hayoti» 1903), Mikelanjelo («Mikelanjelo hayoti» 1906), L. N. Tolstoy («Tolstoy hayoti» 1901) haqidagi asarlari xayrli va yuksak ijodiy hosilalardan hisoblanadi. O'z asarida bu uch buyuk ijodkorning hayoti va asarlarini tadqiq qilish bilan birga, ularning jahon adabiyoti va san'ati tarixidagi o'rnini ham belgilab beradi. Muallif bu uch asarni alohida va bir butunlikda turkum holiga keltirib nashr qiladi. Shu bilan bu uchta ulug' ustozga nisbatan beqadrlar hurmat va ehtiromini namoyish etadi.

Romen Rollan o'n jildlik roman muallifidir. «Jan Kristof» (1904–1912) romani birinchi bor «Ikki haftalik daftar» jurnalida berib boriladi. Keyinchalik alohida kitob holida nashr qilinadi. Romanda o'z davrining mashhur ijodkorlari Jan Kristof va Betxoven hayoti tasvirlanadi. Yozuvchi ijtimoiy-siyosiy voqelik keskin tus olgan bir davrda adabiyot va san'at fidoyilarining nihoyatda qadrsiz hayot kechirishlarini ifodalashni o'z oldiga maqsad qilib qo'yadi.

«Jan Kristof» turkum romanlari «Tong», «Ertalab», «Yoshlik», «Isyon», «Maydondagi ko'rgazma», «Antuatta», «Xonadonda», «Neapol savdosi», «Fransiya va miniatyura», «Garmsel kun» asarlarini o'z ichiga olib, voqealar mantiqiy ulanib ketgan.

Birinchi Jahon urushi davrida adib asosan publitsistik maqolalar yozish bilan mashg'ul bo'ladi. «Iskanja» (1916), «Urush yillari kundaligi», «Xalq talofati» (1916), «Yorug'lik to'liqlari» kabi ilmiy-falsafiy asarlari bilan urush olovini yoquvchilarga qarshi o'zining keskin nafratini izhor etadi.

Birinchi Jahon urushiga fransuz ziyolilarining munosabati mavzusiga bag'ishlangan «Klerambo» (1916–1920) romani g'oyaviy yuksaklik timsolidir.

Romen Rollan umrining so'ngi davrlaridagi ijodini urush mavzusiga bag'ishlaydi. Mash'um urush tufayli adib eng yaqin kishilaridan ajraladi. Millionlab fransuz farzandlari urush tufayli nobud bo'ladi. Xalq kabi yozuvchining qalbida urush dahshati bitmas yara bo'lib qoladi. «Pyer va Lyuis» (1918) qissasida tasvirlanishicha, Sen-Jerve ibodatxonasi o'qqa tutilib, Pyer va Lyuis ham snaryad zarbidan halok bo'ladi. Yozuvchi asarlarida hayotni poymol etgan urushni qoralaydi. Millionlab odamlarning hayoti evaziga boylik, yer, mol-dunyo orttirishni orzu qilgan manfur siyosatdonlarga qarata nafratini izhor etadi.

Romen Rollanning adabiy merosi qit'alararo chegara bilmay insoniyat kelajagi uchun xizmat qilib kelmoqda.

OVANES TUMANYAN

(1869–1923)



Ovanes Tumanyan 1869-yilda Lore tumaniga qarashli Dsex qishlog'ida tavallud topadi. Qishloq maktabida o'qigach, ruhoniy otasi durustroq bilim olishi uchun Tibilisi shahridagi arman dindorlari ochgan seminariyaga yuboradi. Bu seminariyada, asosan, diniy kitoblar mutolaa qilinsa-da, o'quvchilar dunyoviy bilimlaridan ham xabar topadi. Ovanes rus adabiyoti namunalari bilan tanisha boshlaydi. Tibilisidagi adabiy muhit bilan seminariya talabalari yaqindan aloqa bog'lagan edi.

Ovanes Tumanyan o'zining «Anush», «Eski kurash» dostonlarida arman xalqining milliy qadriyatlarini, o'ziga xos xarakterini, urf-odatlarini kuylaydi.

Ovanes otasi yo'lidan, ruhoniy bo'lish orzusidan voz kechib, o'zi tanlagan yo'ldan boradi. Diniy ilmdan dunyoviy ilmni afzal biladi. Dast

labki faoliyatini turli xabarlar, she'rlar yozishdan boshlaydi. «Bolg'a», «Buloq» jurnallarida tez-tez maqolalari, she'rlari, to'rtliklari bosilib, ko'zga tashlanadi. Arman mumtoz adabiyoti an'analari asosida yozilgan masal va ertaklari shoir nomini tanitadi. «Mushuk va it» (1886), «Maro» (1887), «Quyosh va Oy» (1890) kabi masal va ertaklari arman maktablari darsliklaridan o'rin olgan.

«Lorilik Sako» (1889) dostoni tarixiy jarayonlariga bag'ishlangan bo'lib, shoir xalq og'zaki ijodi an'alaridan mahorat bilan foydalandi.

Ovanes Tumanyan rus va jahon adabiyoti namunalarini berilib o'qir, A. S. Pushkin, D. Bayron, V. Shekspir asarlarining tarjimai ustida ishlar, tezroq arman o'quvchisini rus va jahon adabiyotidan xabardor qilishga shoshilardi.

Adibning ko'pgina asarlarida rus va jahon adabiyoti ta'siri sezilib turibdi. Xususan «Artabazd», «Shoh Avanes» tarixiy dramalari o'zining yangicha talqini, yangicha ruhi bilan arman adabiyotida alohida o'rin tutadi. Asarning ifoda jarayoni, voqealar bayoni ham yangicha. «Timkoberd qal'asining zabt etilishi», «Parvona», «Anush» dostonlari shoir ijodining yuksak cho'qqisidir.

Shoir «Ona yurt g'ami» (1915) she'rida chorizm zulmi ostida o'z diyorining xarob bo'lganini, shahar va qishloqlarning vayronaga aylanganini nadomat va anduh bilan aytadi.

*Ko'rib turibman: dushman seni poymol etmoqda,
Gullar so'lib, ko'rkingga bir-bir putur yetmoqda.
Qishlog'u shaharlarda yig'i-sig'i va nola,
Qo'shig'u kuylaring ham ma'yus, hasratga to'la.
Zolimlarning do'qidan kar ham bo'lgudek quloq,
Zulm zanjiri tufayli yosh to'la ko'zlar buloq.*

*Bag'ri qon o'lkam,
Jonajon o'lkam!*

Shoir boshqa bir «Arman qayg'usi» (1903) she'rida, o'z dardini xalqning g'am-qayg'usi bilan bog'laydi, o'zini xalq bilan bir jon, bir tan his qiladi. Shoir arman qayg'usini, mustaqillik orzusini kuylaydi. U voqelikni to'fonli, tubsiz va qirg'oqsiz bir dengizga qiyos qiladi.

*Armaning qayg'usi tubsiz va cheksiz,
Xuddi dengiz kabi bepoyon.
Loyqa to'lqinlanib turgan shu dengiz,
Qa'rida men hasratda hamon.*

Ovanes Tumanyan orzu qilgan yorug' kunlar keldi. Arman xalqi o'z erki va ozodligiga erishdi. Shoirning she'rlari ko'pgina tillarga tarjima qilgan.

TEODOR DRAYZER

(1871–1945)



Indiana shtatining Terre xot qishlog'ida serfarsand qashshoq oilada dunyoga keladi. Drayzer o'qish u yoqda tursin, kun ko'rishga ham qiynalib, pul topish uchun ertadan-kechgacha tinimsiz mehnat qilar edi. Dastavval restoranda idish-tovoq yuvuvchi, yer o'lchovchi, bo'lib ishlaydi, ish qidirib kirmagan ko'chasi qolmaydi. Shunday bo'lsa-da, hamma vaqt o'qishini davom ettirishi lozimligini qalban his etib yuradi. Maktabni bitirib Indiana universitetiga kirib, uni tashlab ketishga majbur bo'ladi. Bunday moddiy qiyinchiliklar uning dunyoqarashiga katta ta'sir ko'rsatadi. Turli-tuman odamlar bilan uchrashadi. Yaxshi va yomonni ko'radi. Hayot murakkabliklariga duch keladi. Ular haqida yozishni orzu qiladi. Bu orzu uni Chikago, Sent-Lyuis, Nyu-York gazetalari bilan aloqa bog'lashga yetaklaydi. Oliy ma'lumotli bo'lmasa ham gazetada durustgina maqola va xabarlar chiqadi. L. N. Tolstoy asarlarini muttasil o'qiydi. 1900-yilga kelib, katta ijod ko'chasiga qadam qo'yadi. Ilk ijod namunasi «Baxti qaro Kerri» (1900) romani mahorat bilan yozilib, yozuvchi nomini Amerikaga mashhur qilib yuboradi. Garchi roman 13 yil bosishga ruxsat berilmasa ham, uning qo'lyozmasini ko'pchilik o'qib chiqadi. Bu davr ichida roman Angliyada bosmadan chiqadi. Yozuvchining birinchi romanini bosishga ruxsat etilmasligi, uning ruhiyatiga qattiq ta'sir etsa ham, ikkinchi romani «Jenni Gerxard» (1911) ustida ishlaydi. Teodor Drayzerning dushmanlari bu qashshoq, o'qimagan yigitning mashhur bo'lib ketishidan xavotirga tushadi. Minglab kitobxonlar uning yangi asarlarini zoriqib kutadi, bu Drayzerni yangi ijod sari da'vat etadi. «Moliyachi», «Daho», «Titan», «Uchlik xohishi» hikoyalar to'plami Amerika kitobxonlarining zoriqib kutgan asarlari bo'ldi. Shunday bo'lsa-da, muxoliflar Drayzerga shubha bilan qarardi. Kutilmaganda uning mashhur bo'lib ketishidan cho'chirdi. 1925-yilda «Amerika fojiasi» romani yozilgandan so'ng Drayzerning ijod darvozasi keng ochiladi. Uni butun Amerika kitobxonalari olqishlaydi. Teodor Drayzerning uchtagina romanining o'zi jahon adabiyotini bezab turibdi.



Aner shahrida jurnalist oilasida dunyoga keldi. Universitetni tugatgandan so'ng ijod bilan mashg'ul bo'ladi. Dastlabki ijodini she'r yozishdan boshlaydi. 1895-yilda birinchi she'rlar to'plami chop etiladi.

«Go'zallik haqiqatning shaklidir», deydi «Yolvoruvchilar» (1903) romanining bosh qahramoni Majilima. «O'lim va ochlik hukmrondir», deb nola qiladi ikkinchi bir «Zahar» (1908) romanining qahramoni.

Anri Barbyus hayotining ko'p yillari urushda o'tadi. «Men urushning boshidan to oxirigacha qatnashdim», deb eslaydi atqli fransuz adibi.

«Olov» (1917) romani mana shunday qirg'inbarot urushlarning aksi – in'ikosidir. Bu asarda urushdagi shafqatsizlik va adolatsizliklar haqida hikoya qilinadi. «Fransiyadan xat» asarida urushga bo'lgan nafrati izhor etiladi. Yozuvchi ijodini urush dahshatlarining timsoli deb bejjiz aytishmagan.

Anri Barbyus qator hikoyalar va romanlar ustasi. «Biz» hikoyasida yozuvchi bosqinchilik urushlarini qoralaydi. «Orden» hikoyasida tasvirlanishicha, Afrika negrlarini behisob o'ldirgan soldat nishondor bo'ladi. Bunday yuksak yorliqqa ega bo'lgan soldat ordenini mudom yashirib yuradi. Chunki qotillik orqasidan orttirgan bunday nishonga u o'zini munosib emas deb biladi.

Barbyus 1914-yilda ko'ngillilardan bo'lib Birinchi jahon urushiga jo'nab ketadi. Yozuvchining oldiga qo'ygan maqsadi – jurnalist sifatida urush dahshatlarini o'z ko'zi bilan ko'rish va urush olovini yoquvchilarni fosh qilishdan iborat edi.

Jurnalist o'z kundaligiga ko'rgan-bilgan voqealarni yoritib boradi va bu kundaligini «Urushdan xat» deb ataydi.

Barbyus «Urushdan xat» asarini qayta ishlab, «Olov» deya ataydi. «Olov» romanida berilgan ayrim voqealar «Evr» gazetasida yoritib boriladi. Gazetada bosilgan roman voqealarini soldatlar qo'ldan-qo'lga o'tkazib, berilib o'qirdi. Urush dahshatini o'z ko'zi bilan ko'rgan adib, keyinchalik urush olovini yoquvchilarga qarshi isyon ko'taradi, ulardan nafratlanadi. Yozuvchi «Urush olovini kim yoqdi?» degan savolga javob qidiradi.

«Olov» (1916) romani nashr qilingandan so'ng, minglab o'quvchilar uni qo'ldan tushirmay o'qib, o'zlarini qiziqtirgan savollarga javob

topadi, urushning mohiyati haqidagi fikrlari o'zgarib, bosh aybdorlar kim ekanligini tushinib olishadi.

«Olov» romani qator ocherklar zanjiridan iborat. Bu ocherklar bir-birini mantiqan to'ldirib, mazmunan boyitib, voqealar tafsiloti o'zaro ulanib ketgan. Romanda yagona bosh qahramon berilmagan. Unda yuzlab soldatlarning jangda ko'rsatgan jasorati, matonati va mardlarcha o'limi, behuda qon to'kish va fojealar tafsiloti qiziqarli badiiy tasvirlangan.

Romanda Poterlo, Bekyuv, Tirliuar, Bertran, Fuyyad, Andre, Mekil, Lamiz taqdiri bilan bog'liq tasvirlar nihoyatda ta'sirli chiqqan. Bu harbiylar oddiy, qabohat va riyo nima ekanligini bilmaydigan yigitdir. Bunday oddiy soldatlar urush haqida emas, ezgulik va yorug' kunlar haqida xayol suradilar.

«Olov» romani yozuvchining o'ziga xos falsafasidir. Urush haqida yozar ekan, yozuvchi «kimdir vatan uchun jonini fido qilayapti, kimdir urush orqasida turib, tinchgina va osuda hayot kechirib, katta boylik ortirmoqda», degan fikrlarni o'rta tashlaydi.

Bunday fikrlari uchun o'z davrining tanqidchilari, urush olovini yoquvchilarning xushomadgo'y adabiyotshunoslari «Olov» romanini qattiq qoralaydilar, uni o'ta zararli roman deb keskin tanqid qiladilar. Romanni o'qigan o'quvchi esa muallifni sharaflar, uning nomini ulug'lar edi.

Barbyus urushdan qaytib kelgach, katta hayot tajribasini to'plab, mahorati o'sib-ulg'ayib, «Yorqinlik» (1919) romani ustida ishlaydi. Adib butun umri davomida ham ijodi, ham nutqi bilan urushni qoralab kelgan.

«Yorqinlik» romanining bosh qahramoni Simen Polendir. Zavodning oddiy ishchisi dastlab hayotni tushunmaydi. Kuni o'tsa bas. O'zining qashshoq hayoti ham uni zarracha qiziqtirmaydi. Haququqini talab qilgan namoyishchilarni ham tinchlantirishga harakat qiladi.

Biroq keyinchalik urush uning ko'zini ochadi. Ayniqsa, yaralangan-dan so'ng, asirlarga munosabatni o'z ko'zi bilan ko'rgandan so'ng, mudhish voqealarga guvoh bo'lgandan keyingina hayot haqida, kelajak haqida o'ylay boshlaydi. Urushga qarshi, urush olovini yoquvchilarga nisbatan qattiq g'azab-nafrat tuyg'usi paydo bo'ladi. O'zining o'tmishini o'ylab, ezilib ishlab, qashshoq hayot kechirgan kunlarini eslab o'ziga va zolimlarga nisbatan qahr-g'azabi qaynab ketadi.

Yozuvchi o'z qahramonining dunyoqarashini tobora o'stirib, mustaqil o'y va fikrlash hissini uyg'otib boradi. Roman qahramoni Simen Polen asar nihoyasiga borib, ilgarigidek xo'jayinining xushomadgo'yi emas, o'z qadrini anglab yetgan, yetuk kishiga aylanadi.

«Haqiqat qissalari» (1928) deb nomlanuvchi asarlar to'plami yozuvchi ijodining yuksak namunasidir.

Anri Barbyus umrining oxirgi yillarida jahonning ko'pgina mam-lakatlarida bo'lib o'tgan tinchlik kongreslarida nutq so'zlab, o'zining sermazmun ma'ruzalari bilan urushni qoraladi, tinchlikni yoqladi.

HAYNRIX MANN

(1871–1950)



Nemis adibi Lyubek degan shaharchada tug'i-ladi. Maktabni tugatgandan so'ng Drezdenda, so'ngra Berlin universitetida ta'lim oladi. 1892-yilda otasi vafotidan so'ng ularning oilasi Myun-xenga ko'chib keladi. Manning 1900-yilda yozilgan ilk romani Berlin ko'chalaridagi hayot, bosh qahramon Andreas Sumz taqdiriga bag'ishlanadi. Oradan 29 yil o'tgandan so'ng bu obraz yana yangi romanning bosh qahramoni sifa-tida beriladi. 1902–1903-yillarda «Diana», «Mi-nerva», «Venera» deb nomlanuvchi uch kitobdan iborat trilogiya yozadi. U «Muhabbat chopqiri» (1904), «O'qituvchi Uprat» (1905), «Kichik shahar» (1909), «Muhtaram Legro» (1917) ro-manlarining muallifidir.

Mann ijodi juda serjilo va sermazmundir. 1918- yilda «Imperiya» nomli uch romandan iborat – «Qashshoqlik», «Boshliq», «Jiddiy hayot» trilogiyasini yozishga kirishadi. 1935–1939-yillarda Genrix IV hayotiga bag'ishlangan ikki tarixiy romandan iborat «Genrix IV ning bolaligi», «Genrix IV ning yigitligi» epopeyasini yaratadi.

1940-yilda Fransiya nemislar bosib olgach, Amerikaning Los-Anjelos shahriga keladi. Adib Amerikada ham ijod bilan mashg'ul bo'ladi. O'nga yaqin kino romanlar yaratadi. 1945-yil 2-mayda Vataniga qaytish istagida «Berlinga so'z» maktubini yo'llaydi. U Germaniya san'at akademiyasining Prezidenti bo'lishi kerak edi. 1950-yilda «Stefan Batariy» paroxodiga bilek olib safarga otlanish uchun Ka-liforniyaning Santa-Monika shahrida vataniga qaytishdek quvonchini yuragi ko'tarolmay olamdan o'tadi.

Haynrix Mann trilogiya yaratish ustasidir. Shu bilan birga ilmiy-publitsistik asarlari bilan ham mashhurdir. «Bir do'stlik haqida»gi ma-qolasida Gyustav Flober va Jorj Sand haqida fikr yuritadi. Keyingi il-miy maqolasi «Hyote va Volter» deb nomlanib, bu ikki adib ijodining umumiy jihatlari va o'ziga xos qirralarini yoritadi.

Adib «Reyxstag» (1911) nomli publitsistik asari nemis parlamenti va uning insoniyat taraqqiyoti uchun zararli va nemis millati uchun xavfli faoliyati haqida ochiqdan-ochiq tanqidiy fikrlarini bildiradi.

Haynrix Mann «Imperiya» trilogiyasi bilan nemis adabiyoti choʻqqisiga koʻtarildi. Bu trilogiya butun bir jamiyatning epopeyasini koʻrsatib beradi. Ayniqsa, trilogiyaning ikkinchi – «Qashshoqlar» (1981) asarida Gesleng hayoti, uning qanday qilib, boy-badavlatlik pogʻonasiga koʻtarilishi koʻrsatib beriladi. Gesleng obrazi trilogiyaning birinchi romanida ham tasvirlanib olingan.

Haynrix Mann Ikkinchi Jahon urushi davrida urushni qoralab, fashizmning yovuz niyatlariga qarshi bir talay publitsistik asarlar yozadi. Fransiyada yashar ekan, fashistlarga qarshi kurash jamiyatining raisi sifatida oʻzining otashin nutqi bilan mitinglarda soʻzga chiqib, fashistlar boshlagan urushning eng mudhish va tahdid-tahlikali tomonlari haqida toʻlib-toshib soʻz yuritadi. 1933-yildayoq Amsterdamda «Natsistlar hayotidan koʻrinish» nomli publitsistik asari chop etilgan edi. Bu asarida muallif dahshatli urush olovini yoquvchi Hitler, Hering, Hebbelsning yovuz niyatlarini ochib tashlagan edi.


Haynrix Mann «Jasorat» asarida fashistlarga qarshi kurashib, qamoqxonada mardlarcha jon bergan Edgar Andre jasorati haqida hayajon bilan yozadi.

Muallif «Lidis» (1943) kinoromanida Chexoslovakiyadagi Lidis hamda Lisan qishloqlarining fashistlar tomonidan yoqib yuborilgani, erkaklarning otib oʻldirilib, xotinlarning konslagerga tashlangani haqida soʻz yuritadi.

Keyingi «Asr tafsiloti» (1944) asari ham «Lidis» kinoromanining davomi boʻlib, unda Ikkinchi Jahon urushining boshlanish sabablari va urush olovini yoquvchilar haqidagi hayotiy epizodlar berilgan.

TOMAS MANN

(1875–1955)



Lyubek shahrida tugʻilgan. Yozuvchi Haynrix Manning ukasi. Ularning oilasi Myunxenga koʻchib borgandan soʻng, badiiy asarlarni tinimsiz oʻqib, adabiyot va sanʼatga muhabbati orta boradi. Myunxenda u «Simplisissimus» hajviy jurnali bilan aloqa bogʻlaydi. Bu jurnal sahifalarida ilk novellalari bosiladi. Dastlabki novellalar toʻplami «Kichik oʻrtoq Fridaman» (1897) deb nomlanadi. Tomasning akasi bilan Italiyada ikki yil yashashi, aka-uka dunyoqarashiga katta taʼsir koʻrsatadi. Bu yerda ular Rimning qadimiy yodnomalari, antik dunyo adiblari

asarlari o'qishga muvaffaq bo'ladilar. «Buddenbrokklar» (1901) romanida logan Buddenbrokklar oilasining tarixiy solnomasi epopeya tarzida berilgan. Bu davrda Yevropa adabiyotida roman-xronika yozish odat tusiga kirgan edi. «Venetsiyadagi fojia» romani Tomas ijodining gullab-yashnaganidan guvohlik beradi.

Tomas ijodida falsafiy ruhdagi romanlar ham keng o'rin egallagan. Bu jihatdan «G'aroyib tog'» (1924) romani e'tiborga loyiqdir. Yozuvchi 16 yil davomida «Iosif va uning ukalari» tetralogiyasi ustida ishlaydi. Tetralogiya «Iokova tarixi» (1933), «Yosh Iosif» (1934), «Iosif Misrda» (1936), «Iosif» (1943) romanlaridan iborat. 30- yillarda fashistlar harakati kuchaygan chog'da Tomas Amsterdamba keladi. So'ngra Bryussel, Parij (1933), Shvetsariya, Chexoslovakiyaga boradi. Nihoyat u akasining oldiga Amerikaga ketadi. Keksayib qolgan vaqtida o'z yurtiga qaytib kelib vafot etadi.

Tomas yozgan romanlar akasinikidan kam emas. «Lotta Vaymerda» (1939), «Doktor Faustus» (1947), «Doktor Faustus tarixi», «Bir roman haqida roman» asarlari Tomas Mann iste'dodini, mahoratini namoyish etib turibdi.

Tomas Mann, eng avvalo, mahorat bilan yaratilgan novellalari bilan mashhur bo'ldi. Yozuvchining ayrim novellalari keyinchalik roman syujetiga ulanib ketdi. Uning «Tonno Kreger», «Venetsiyadagi o'lim» novellalari shaklan kichik bo'lsa-da, mazmunan boyligi bilan ajralib turadi.

Tomas Mann «Doktor Faustus» romanini yozishni rejalashtirib qo'ygan edi. Bu romanning yuzaga kelishiga Ikkinchi Jahon urushi va quvg'inda yurgan og'ir hayot sinovlari xalaqit beradi. 1947- yilda «Doktor Faustus» romanini yozib yakunlar ekan, yozuvchiga o'quvchilaridan yuzlab maktublar keladi.

Shundan so'ng Tomas Mann 1949-yilda «Doktor Faustus tarixi. Roman haqida roman» deb nomlanuvchi katta maqolasini e'lon qiladi. Bu maqolada yillar solnomasiga alohida e'tibor qaratilgan bo'lsa-da, Faustus hayoti haqida ham ma'lumotlar beriladi.

Romanda Germaniyaning o'tmishi va kelajagi haqida falsafiy fikrlar aytilgan. Roman qahramoni atoqli musiqachi va buyuk kompozitor Adrian Leverkyn. Romanda Adrian Leverkyn ijodi boshqa bir buyuk musiqachi Betxoven yaratgan san'atga qarama-qarshi qo'yiladi.

Falsafiy-psixologik romanda ko'plab afsona va rivoyatlarni uchratamiz. G'arbiy Yevropa adabiyotida Faust haqida ko'plab asarlar yuzaga kelgan. Bularning ichida eng yirigi Hyotening «Faust» tragediyasidir. Tomas Mann asarining voqeasi Hyote yaratgan «Faust» tragediyasiga sira

o'xshamaydi. Hyote yaratgan Faust yuksak falsafiy g'oyalar bilan mashg'ul bo'lgan, insoniyat kelajagi haqida muhim fikrlarni ayta olgan, ulug' qalb egasidir.

Leverkyun yaratgan musiqalar esa jamiyatga xizmat qilmaydi. Tinglovchiga ko'tarinki kayfiyat o'rniga tushkunlik «hadya» etadi. Nihoyat mana shu tushkun kayfiyat orqasidan o'zi ham halok bo'ladi.

Tomas Mann dastlab esdalik yozish niyatida qo'liga qalam olgan edi. Adrian Leverkyun va uning zamondoshlari obrazi esdaliklardan roman darajasiga ko'tarilib, «Doktor Faustus» romanini mashhur bo'lib ketishini u xayoliga ham keltirmagan edi.

Tarixan ma'lumki, Adrian betob bo'lganida dushmanlari unga zahar berib o'ldiradilar. So'ngra hech bir iz qolmasligi uchun tanasini benzen bilan yoqib yuboradilar. Bu mashhur voqeani Tomas Mann Amerikadagida eslatib, qadrdon do'stining taqdiriga juda achingan edi. O'n bir yil ilgari gimnaziyada o'qituvchi bo'lib faoliyat ko'rsatgan kezlari bu buyuk kompozitor bilan uchrashgan, yaqin munosabat o'rnatgan edi.

Ulug' kompozitor hayotining so'ngi yillari juda achinarli holda kechadi. O'n ikki soatlab musiqa bilan mashg'ul bo'lib, asablari charchab qolgan edi. Shuning uchun ham u shol bo'lib, ko'p vaqt kasalxonada davolanadi.

Tomas Mann o'z vatani Germaniyaga qaytgandan so'ng, yoshi ancha ulg'ayib qolgan bo'lsa-da, qaynoq ijod qo'ynida bo'ladi. Yozuvchining «Doktor Faustus» romani ko'pgina tillarga tarjima qilingan.

JEK LONDON

(1876–1916)



San-Fransiskoda dunyoga keladi. U tug'ilgan oila qashshoq edi. Boshlang'ich maktabni qiynala-qiynala bitirib olgandan so'ng, fabrikada ishlashga majbur bo'ladi. Shundan so'ng u Amerika va Kanadaning ko'p shaharlarida ish qidirib sarson bo'ladi. U qayerda bo'lmasin o'z ustida tinmay ishlar, universitetda o'qishni orzu qilardi. 1895-yilda bu orzusi ushaladiyu, ammo uzoqqa cho'zilmaydi. Bir yil o'qigach, otasi vafotidan so'ng universitetni tashlashga majbur bo'ladi.

U ish qidirib Alyaskaning oltin konlariga boradi. Biroq u yerda ham uning orzulari sarob bo'lib chiqadi. Oltin konidan battar qashshoqla-

shib, bor-yo'g'idan ajralib qaytadi. Bunday muhtojliklar Jek dunyo-qarashining o'sishiga katta ta'sir ko'rsatadi. U pul topish uchun kechayu kunduz tinimsiz mehnat qiladi. Ammo kosasi hech oqarmaydi. O'z ko'zi bilan ko'rgan voqealarni yozishga kirishadi. Bu jihatdan uning «Marten Iden» «Shimol hikoyalari» romanidagi voqealar haqiqatga juda yaqindir.

Jek London ijodiy faoliyati davomida bir yuz ellikdan ortiq hikoya yozib, hayotning turli-tuman ko'rinishlarini qalamga oladi.

Hayot xilma-xil so'qmoqlardan iborat. Adib bu so'qmoqlarning barchasidan yurib, hayot mashaqqatlarini obdan tortib ko'radi. Jek London yaratgan 150 hikoya, hayotning yuz ellikta so'qmog'idir. Bu asarlarning mavzusi turlicha. «Oq sukunat», «Qirq mil narida», «Otalar xudosi», hikoyalarida turfa qiyofalar yaratilgan.

Adib qaysi mavzuda qalam tebratmasin, insoniylik, yaxshilik, ezgulikni ulug'laydi. Ko'pgina qahramonlari muhtojlikda yashasalar ham hayotdan qandaydir go'zallik, zim-ziyo tun qo'ynidan yorug'lik qidiradi. Muallifning hayoti ham qahramonlariga o'xshab ketadi.

Angliyaga qilgan sayohatlari davomida London ishchilarning og'ir hayotini ko'rib, «Bu yerdagi hayot men o'ylagan hayotdan ham battar ekan», degan xulosaga keladi. «Tubanlik kishilari» (1903) ocherklar to'plami mana shu sayohat taassurotlari ta'sirida bitilgan.

Adibning «Temir tovon» (1907), «Marten Iden» romanlari ham san'atkorona yaratilgan.

Jek London hikoya ustasi sifatida jahon adabiyotida munosib o'rin egallagan.

Inson qudratini namoyish etadigan – bu uning irodasidir. Iroda insonni hayotning mashaqqatli so'qmoqlaridan olib o'tadi. Iroda insonni tushkunlikka tushishdan saqlaydi. Iroda har qanday mudhish, qayg'uli voqealar oldida ham insonni bardoshli bo'lishiga undaydi. Jek London hikoyalarida mana shunday iroda egalari qalamga olinadi.

Adibning «Hayotga muhabbat» asari g'oyat qiziqarli sarguzashtlarga boy. Asar qahramoni Bill Kanada vodiylarida adashib qolib, yolg'izlikda hayot kechiradi. Baliq ovlab kun ko'radi. Suyanchig'i bo'lgan miltig'i va pichog'ini ham yo'qotib qo'yadi. Bo'rilar galasiga duch keladi. Yuraverib oyog'i qavarib ketadi. Shunda u titilib ketgan adyolini oyog'iga bog'lab, oldinga qarab yuraveradi. Nihoyat Bill barcha qiyinchiliklarni yengadi. Eng og'ir damlarda ham hayotdan umidini uzmaydi.

Uni kit ovlovchi «Bedford» kemasi matroslari qutqaradi.

Jek Londonning qahramoni Bill irodaga qo'yilgan haykaldir.

EPTON SINKLER

(1878–1969)



Amerika adabiyotining yirik soʻz sanʼatkori. Roman ustasi, mohir dramaturg, qissa va hikoyalari bilan mashhurdir. Yozuvchining koʻplab asarlari jahon tillariga tarjima qilingan. Ilk ijodini roman yozishdan boshlaydi. 1901-yilda uning birinchi romani «Indes shoh» nashrdan chiqadi. Soʻngra «Shahzoda Gagen» (1903) pyesasi, «Artur Stirling kundaligi» (1903) qissasi chiqadi. «Toʻqayzor» (1906) asari Sinkler ijodining gullab-yashnaganidan dalolat beradi. Oʻz davrida bu asarga mashhur Amerika adibi Jek London yuksak baho beradi. Shundan soʻng «Qi-

rol Ugol» (1917), «Poytaxt» (1907), «Silviya» (1913) kabi romanlarini yozadi. «Neft» (1947), «Boston» (1928) romanlari yozuvchining yuksak mahorat egasi ekanligini namoyish etdi.

Sinkler ijodiga Teodor Drayzer, Jek London kabi Amerikaning taniqli adiblari ijodi katta taʼsir koʻrsatadi. Buni Sinklarning oʻzi ham tan olib, ayniqsa, bu ikki buyuk Amerika adibining deyarli barcha asarlarini oʻqib chiqqanligini, ular dunyoqarashiga katta taʼsir oʻtkazganligini, badiiy ijod boʻlagʻasiga yetaklab borganini taʼkidlaydi. Sinkler qoʻliga ilk bora qalam olar ekan, kelajakda Amerika tarixi va xalqi hayotidagi eng muhim voqealarga qoʻl urishni oʻz oldiga maqsad qilib qoʻyadi.

Sinkler bolaligidanoq moddiy qiyinchiliklarga duch keladi. Kambagʻallik uni hayotning turli koʻchalariga olib kiradi. Shuning uchun ham yozuvchi oʻzining asarlarida qashshoqlar hayotini, ogʻir sinov soʻqmoqlarini koʻproq qalamga oladi.

1904-yilda Sinkler ikki oy Chikagoda boʻladi. Shu qisqa vaqt ichida chikagolik harbiy zobitlar davrasiga tushib qolib, ulardan qiziqarli hikoyalar eshitadi. Mana shu hikoyalarni jamlab, yagona syujet asosida asar yoza boshlaydi. 1905-yildan tugallanmagan asarini «Haqiqat va ong» nomli haftalik gazetada eʼlon qilib boradi. Haftalik gazetaning yangi sonini minglab amerikaliklar sabrsizlik bilan kutardi. Baʼzan ixlosmand oʻquvchilari yozuvchiga kelib uchrashar, haftalik gazetaga asar davomi berilishini eshitib, koʻngillari taskin topardi. 1906-yilda «Changalzor» alohida kitob holida chiqib, yozuvchi uni roman deya eʼlon qiladi.

Romanda goʻsht zavodidagi ishchilar hayoti qalamga olinadi. Shu orqali jamiyatdagi avjiga chiqqan sinfiy kurash, zulm va zoʻravonliklar

haqida hikoya qilinadi. Oddiy ishchining arz-dodini, o'hu zorini hech kim tinglamaydi va tinglashni ham xohlamaydi.

«Echkiga jon qayg'usi, qassobga moy qayg'usi» deganlaridek, zavod rahbarlari nima bo'lsa ham o'z mahsulotlarini pullash va boylik o'ttirishni o'ylaydilar. Pul, boylik to'plash uchun o'pka kasali bilan kasallangan mol va vabo kasalligiga yo'liqqan cho'chqa go'shtlarini ham pullash payiga tushadilar. Mamlakatda chorva mollari va insonlar o'rtasida yuqumli kasalliklar keng tarqalib ketadi.

Enton Sinkler romanida qabihlik va yovuzlik illatlarini mahorat bilan fosh etadi.

SERGEY YESENIN

(1883–1929)



Shoir juda qisqa umr ko'rdi. Mana shu qisqa umri davomida jahon xalqlarining qalbini zabt etdi. Xalq qalbini zabt etish oson emas. S. Yesenin Ryazan shahri yaqinidagi Konstantinovo qishlog'ida tug'ilgan.

1924–25-yillarda Yesenin Toshkentda yashaydi. S. Yeseninning butun hayoti sayohatda o'tadi. Umrini tabiatga, she'rga bag'ishlaydi. «Fors taronalari» asari ham mana shunday sayohatlar natijasidir.

Yesenin she'riyatida, eng avvalo, inson taqdiri masalasi yetakchi o'rin egallaydi. Har bir millat o'quvchisi taqdir yo'llarini teranroq anglab olib, har bir misrani o'z hayotiga hamohang tarzda his etadi. Nihoyatda ehtirosli, drammatizmga boy misralar kishi qalbini larzaga keltiradi.

Shoir she'rlarini o'qib beixtiyor yoshligingizni eslaysiz. Buning ikki qutbi mavjud. Shoir she'rlari yoshlar uchun ushalmagan orzularning so'ngsiz sukunati, tuganmas xayollar og'ushi, muhabbatning ta'riflab bo'lmas nashidasi. Kattalar uchun esa adog'i yo'q armon, xotiro.

Bundan ko'rinadiki, S. Yesenin poeziyasi yosh tanlamaydi. Uning ijodi yoshu qariga, shohu gadoga birdek yorug'lik beradi.

Sergey Yesenin sovetlar platformasiga ham kirmaydi, to'g'rirog'i, yangicha hayotga ko'nikolmaydi. Bu yo'ldan yurishni xohlamaydi ham. Shoirning o'z yo'li bor. Yeseninning ulug' yo'li.

Shoir eski jamiyatning ham, oktabr tantanalarining ham, fuqarolar urushining ham, yangicha iqtisodiy siyosatning ham guvohi bo'ldi. Biroq uning she'rlarida eski tuzimga ham, yangi jamiyatga ham xayri-xohlik yoki xushomadgo'ylik sezilmaydi.

1912-yil bahorida Sergey Moskvaga keladi. Qishloqda qolgan otasi shapka bozoridagi savdogar Krilov qo'lida chiptachi bo'lib ishlaydi. Bu davrda Sergey shoir sifatida og'izga tushib qolgan edi. U otasining ahvolini ko'rib achinadi va bu mashaqqatli hayot tarzini she'r daftari-ning sahifalariga bitib qo'yadi.

Qisqa muddat otasining yonida ko'makchi bo'lib, yana Moskvaga qaytib ketadi. Moskva adabiy muhiti shoir ijodiga katta ta'sir o'tkazadi. Bu qaynoq shaharda Surikovning adabiy-musiqali to'garagida faol ishtirok etadi. Shundan so'ng bir qancha muddat to'garak raisi S. Kashkorevo-Zarevo uyida istiqomat qilib, bu oiladagi adabiy muhitda poeziya sirlaridan ogoh bo'ladi. Kun ko'rish uchun Sitina bosmaxonasi-da musahhih bo'lib ishlay boshlaydi.

1913–1914-yillar shoir hayotida alohida zarvara ochadi. Bu davrda u Shanyavskiy xalq universitetida ma'ruzalar tinglay boshlaydi. Bu ma'ruzalar orqali V. G. Belinskiy, Nekrasov, Gogol, Kolsovgaga xos bo'lgan ijod sirlari, adabiyot va she'riyat qonuniyatlari haqida bilim oladi.

1913–1914-yillar shoir hayoti yanada og'ir va tahlakali kechadi. Bu vaqtda «Xalq do'sti» gazetasida ishlayotgan shoirni ta'qib etish avjiga chiqadi. Osuda ijod qilishga, erkin hayot kechirishga mutlaqo yo'l bermaydilar. Hayotning bunday achchiq zarbalari shoirni bezdirib qo'yadi. O'z hayotidan va mavjud jamiyatdan, tuzumdan zorlanish, norozilik kayfiyati tug'iladi. Qalbida nish urgan tug'yon she'riga ko'chadi. U endi kishanlangan inson taqdiri haqida she'rlar bita boshlaydi.

Isyonkorlik ruhi, mavjud tuzimga nisbatan nafrat kayfiyati shoir qalbini qamrab oladi. Shoir hayotida suronli yillar, qayg'uli qora kunlar boshlanadi. U Mayakovskiy kabi «sovet pasporti»ni madh etmadi. Gorkiy kabi Dankolar qo'lga mash'ala ham tutmadi. Insonning mashaqqatli va og'ir qismatini kuyladi.

Shoir 1913-yilda «Oq qayin» she'ridan bo'lak tayinli asar yaratmadi.

Xuddi shunday ijodiy tushkunlik 1920-yillar sahifalarida ham uchraydi. Bu yilda ham shoir juda kam she'r yozgan. Yolg'izgina «Kengliklarda ketayapman» she'ridan bo'lak asari ko'zga tashlanmaydi. Bunday tushkun ijodiy kayfiyat vaqt, zamon bilan bog'liqligini sezamiz.

Shoir she'rlari orasida «Mening tashlandiq yurtim» (1914), «Men yana shu yerda, o'z uyimdaman» (1915) «It haqida qo'shiq» (1915), «Yo'qolgan oylar» (1915), «Daryoda olov yonmoqda» (1916), «Kuz» (1916), «Baxt borligiga ishonaman, ishonaman!» (1917), «Kuzdagi yoqimli poklik» (1918), «Men qishloqning oxirgi shoiri» (1919), «Koyimangiz, ishlar shunday» (1921), «Men o'zimni aldayolmayman»

(1923), «Onamga xat» (1924), «Tushimda qora yo'llar» (1925) «Gullar men bilan xayrlashmoqda» (1925) kabi she'rlari, shoir ijodiy ufqining nihoyatda kengligini, beqiyos talant egasi ekanligini namoyon etadi. Bu bilan shoirning qolgan asarlari sayoz ekan-da, degan fikr tug'ilmasligi lozim. S. Yesenin she'rlari bir-biridan go'zal, serma'no va serviqordir.

Albatta, har bir shoir ijodida saralangan she'rlar bo'ladi.

Shoirning 1924-yilda yozgan «Javob» she'rini olib qaraylik. Bu she'rni yod olish uchun ko'p vaqt sarf qilish shart emas. She'rni yod olish juda oson. O'zining mayin, ifodaviyligi bilan o'quvchi xotirasida tezda saqlanib qoladi. She'rni qayta-qayta o'qiganingiz sayin bitmas-tuganmas zavq olasiz, olam-olam xotirotlar bilan boyib borasiz.

Shoirning 1924–1925-yillarda yaratgan «Fors taronalari» to'plamiga kirgan asarlari nihoyatda yuksak talant namunasidir. «Sen aytgan, Sa'diy», «Firdavsiyning moviy vatani» «Xurosonda shunday darvoza bor», «Moviy va quvnoq o'lka», «Bosfor qirg'oqlarida hech qachon bo'lmanman» va hokazo asarlari Sharq go'zalliklariga bag'ishlangandir.

S. Yesenin ijodida «Pugachyov» nomli dramatik dostoni ham alohida o'rin tutadi. Bu poemada shoir tarixiy o'tmishni qalamga oladi.

Tarixiy manbalarning guvohlik berishicha, S. Yesenin Eronga bormagan, Sheroz va boshqa shaharlarini ko'rmagan. Shoir Firdavsiy, Sa'diy Sheroziy, Umar Xayyom haqidagi she'rlarini xuddi Fors o'lkasiga borgandek, u yerdagi muhtasham binolarni ko'rgandek yaratadi.

Shoir «Fors taronalari» to'plamiga kirgan she'rilarning aksariyatini Bokudaligida yaratadi. Go'zalligi jihatidan Sharqning ko'rkam shaharlaridan qolishmaydigan Boku hayoti ham shoirda katta taassurot qoldiradi. Shoir Boku yaqinidagi Mardakiyaning hovlisida ijod qiladi. Mana shu dam oladigan dala hovlida turib, Fors mumtoz adabiyoti namunalarini o'qiydi. Shoirning «Boku ishchisi» gazetasi bilan yaqin aloqa o'rnatganligi ham muhim ahamiyatga egadir. Gazetada shoirning she'rlari muttasil bosilib turardi. Bu jihatdan gazeta muharriri bilan yozishmalari ham katta tarixiy ahamiyatga egadir. Shoirning «Fors taronalari»ga kirgan deyarli barcha asarlari «Boku ishchisi» gazetasi sahifalarini bezaydi.

Sergey Yeseninining «Balkim kechdir, balki juda yaqindir» she'ri «Moskva oqshomi» gazetasining 1926-yil 6-fevral, 30-sonida bosilib chiqadi. Bundan keyin bitilgan she'rini esa gazeta sahifasida o'qish shoirga nasib etganmi yoki yo'qmi bu qorong'u. Uning eng so'ngi she'ri «Xayr, do'stim, xayr» deb nomlanib, 1925-yil 29-dekabr kuni «Qizil gazeta» sahifasidan joy olgan edi.

ABDULLA TO'QAY

(1886-1913)



Abdulla To'qay Tataristonning Qushlaug qishlog'ida tug'ilgan. Ilk ijod namunalari bo'lgan «Ozodlik haqida» (1905), «Tekinxo'rlarga» (1906), «Davlat dumasi» (1906) «Ona yurtga», «Qo'sh otlar» (1907) kabi ketma-ket chiqa boshlagan asarlari bilan tatar xalqining istiqloli va istiqbolini orzu qildi. Qisqa umri davomida samarali va sarmazmun ijod qilib, adabiyot tarixida chuqur iz qoldirdi.

«Tatar qizlariga» (1906), «Tahqirlangan tatar qiziga» (1909), «Xalq orzusi» (1913) kabi boqiy ohang ufurib turuvchi she'rlari bilan o'ziga o'lmas haykal yaratdi. Shoir she'rlari ko'pgina tillarga tarjima qilingan. Uning ijodida xalq orzu-umidlari ifodasini ko'ramiz.

Abdulla To'qay tatar xalqining ardoqli adibi, g'ururi va iftixoridir. Shoir sevgan xalqining istiqbolini, baxti va saodatini kuylab o'tdi. Butun borlig'ini, ijodini millat taqdiri bilan bog'ladi. Qalbining eng nozik torlarini chertib, yuragidagi armonlarini qo'shiq qilib, o'z xalqiga bag'ishladi.

*Rang-barang ko'rinadi maqtalgan narsa,
Nordon meva bo'ladi ko'pincha sara.
Men hozir achchiq-chuchuk yozsam ham, ammo,
Yaxshi niyat bor unda, sinchiklab qara.*

Shoir yoshligida Pushkin, Lermontov kabi so'z san'atkorlari asarlarini sevib o'qiydi. Bu ulkan ijodkorlarning asarlari shoir qalbiga cho'g' bo'lib, olov bo'lib ta'sir ko'rsatdi. Shoir o'z vatanini jon-dilidan sevadi. Ona makondan ajralish o'lim, ehtimol undan ham og'irroq jazodir.

*Biz tug'ildik, shunda o'sdik, shundadir bizning ajal,
Bog'lamish bu yerga bizni tangrining ilki azal.*

ABDULLA QODIRIY

(1894-1938)

1894-yil 10-aprelda Toshkentda tug'iladi. 9-10 yoshida maktabga boradi. 2-3 yil eski usuldagi maktabda o'qiydi. So'ngra bir boyga xizmatga boradi. Boy Abdullaning zehni o'tkir bo'lganligi uchun uni rus-tuzem



maktabiga o'qishga beradi. Ham ishlab, ham o'qiydi. So'ngra uyidan maktabga qatnab akasi yonida taqachilik hunarini o'rganadi. 1914-yilda Toshkentdagi Abulqosim madrasasiga o'qishga kiradi.

1913-yildan boshlab «Sadoi Turkiston», «Samarqand», «Oina» gazetalarida shingil hikoya va maqolalari bosila boshlaydi. 1914-yil 1-aprelda «Sadoi Tur-kiston» gazetasida «Yangi masjid va maktab» asari chiqadi.

«Baxtsiz kuyov» asarida hashamatli to'y, ortiqcha sarf-xarajatlar qoralanadi. Asarda Solih ismli yetim yigit katta qarz olib, boy qiziga uylanadi.

1917-yili adib xalq militsiyasiga ko'ngilli bo'lib yoziladi. 1919- yili «Oziq ishlari» gazetasiga muharrirlik qiladi.

«Rosta», «Ishtirokiyun», «Qizil bayroq», «Inqilob», «Mushtum» jurnali va gazetalarida ishlaydi. Muxbir sifatida yozganlarida Qodiriy, Julqinboy, Kalvak Maxsum, Toshpo'lat, Ovsar, Dumbul degan imzotaxallus chekadi.

A. Qodiriy «Kalvak Maxsumning xotira daftaridan» (1923–1927), «Toshpo'lat tajang nima deydi» asarlarida yozuvchilik san'atini namoyish etadi.

«O'tkan kunlar»ni yozuvchi 1919-yilda yoza boshlagan, parchalar 1922-yilda «Inqilob» jurnalida bosiladi. 1926-yilda alohida kitob holida chiqadi.

Xarakter yaratishda «O'tkan kunlar» Abdulla Qodiriy talantining yorqin timsolidir. Yusufbek hoji, O'zbek oyim, Kumush, Otabek, Mirzakarim qutidor, Oftob oyim, Zaynab, Xushro'y, Usta Olim, Azizbek, Musulmonqul, Xudoyor, Hamid, Jannat, Sodiq – bularning har biri esda qoladigan obrazlardir.

«O'tkan kunlar»ni jahon adabiyoti xazinasini bezab turgan ko'plab shoh asarlar bilan tenglashtirish mumkin.

Yozuvchi asar qahramonlarining ichki olamini, rango-rang ruhiy tuyg'ularini katta mahorat bilan ochib bergan.

Muallifning tasvir vositalari nihoyatda go'zal. Romanda har bir obraz, har bir voqea nihoyatda go'zal, o'quvchining e'tiborini o'ziga tortadigan, qalbini sehlrab oladigan tarzda ifodalangan.

Abdulla Qodiriy 1924-yilda V. Bryusov nomidagi oliy adabiyot kursida o'qib keladi. Mana shu o'qish davomida rus va jahon romanlarini o'qib katta taassurot oladi.

Abdulla Qodiriy nafaqat o'zbek adabiyotida, balki Markaziy Osiyo adabiyotida to'laqonli, mukammal roman yozish san'atini boshlab

berdi. To'g'ri, ilgari ham roman yozishga urinishlar bo'lgan. Biroq ular Abdulla Qodiriy yaratgan romanchilik maktabi darajasiga ko'tarila olmagan.

Abdulla Qodiriy ikkinchi bir yirik romani «Mehrobdan chayon»ni ham katta mahorat bilan yozadi. Yozuvchi o'z asarida xon zamonlaridagi manfur illatlarni, razolat va hasadgo'yliklarni qattiq tanqid ostiga oladi. Romanning «Mehrobdan chayon» deb nomlanishida ham ramziy ma'no bor. Adib zamonaning zahar bog'lagan chayonlari bo'lmish Xudoyorxon, Abdurahmon domla, Shahodat mufti, Kalonshoh kabi kishilarni ayovsiz fosh etadi.

Abdulla Qodiriy Gogolning «Uylanish» komediyasini, Chexovning «Xamelyon» hikoyasini, D. Didro, Emil Zolya, Mark Tven va boshqa jahon adabiyoti namunalari o'zbek tiliga ag'dargan tarjimondir.

ERNEST XEMINGUEY

(1899–1961)



Chikago yaqinida, vrach oilasida tug'iladi. 1917- yildan «Kanzas Reyli Star» gazetasida ishlaydi. U yerda 7 oy ishlab, keyin Yevropaga, urushga jo'nab ketadi. Frontda sanitar bo'lib ishlaydi. 1918-yil 8- iyunda qattiq yaralanadi. 12 marotaba operatsiya qilinadi. Yaxshi davolangan Xeminguey askarlikdan chiqadi. 1919-yili Amerikaga qaytib kelgach, yana jurnalistika bilan shug'ullana boshlaydi. 1921-yilda muxbir sifatida Parijga jo'nab ketadi. Jurnalistik faoliyati juda o'tkir edi. U amerikaliklar hayoti haqida tinmay yozardi.

Urush olovini yoquvchilarga qarshi nafrat Xemingueyda o'sha urush paytlarida yanada zo'raydi. Ko'pgina amerikaliklar o'z ijodini jurnalistikadan boshlagan. Xeminguey uchun ham jurnalistika adabiyot maktabi bo'ldi. U birinchi «Uch hikoya va o'nta she'r» (1922) kitobini 300 nusxada avval Dijenada, keyin (1924) Parijda nashr qiladi. Birinchi ijodiy faoliyatida jamiyatga ishonmay qo'ygan odamlar haqida hikoya qiladi.

Uning ilk asarlarida jamiyatdan ajralib qolgan inson obrazi oldinga surilgan. «Alvido, qurol» asarida Xeminguey yana yo'qolgan avlod haqida qalam suradi. Urush odamlarni bir-biridan sovutib yuborganligi aytiladi. 30-yillar oxirida Xeminguey dramaturgiya bilan shug'ullana boshlaydi.

«Beshinchi kolonna» pyesasi dramaturgning ulkan ijodiy muvaffaqiyati namunasidir.

Adibning «Chol va dengiz» romani yuksak badiiy mahoratdan darak beradi. Bu asar yuzlab badiiy obrazlarni tasvirlagan romanlardan farq qiladi. Barmoq bilan sanarli obrazlar orqali ham falsafiy ma'no va mazmunni berish mumkinligi isbot etildi. Bu romani uchun muallif 1952-yilda xalqaro Nobel mukofotiga sazovor bo'ldi.

Xeminguey Parijga muxbir sifatida borib kelgandan so'ng, jurnalistika bilan shug'ullanishdan ko'ra yozuvchilikni afzal bilib, roman va hikoyalar yozishga ko'p vaqtini sarflaydi.

O'z davrining atoqli nazariyachisi Gerturud Steyn atrofidagi ma'rifatparvar o'z bag'riga Ernest Xeminguey kabi iste'dodlarni ham olib, ularni yangicha adabiyot yaratishga ilhomlantirib turardi. Steyn ham nazariya ilmi, ham badiiy ijod bilan mashg'ul bo'lgani holda Xeminguey kabi iste'dodlarga yaqindan yordam berar, har bir asarini erinmasdan o'qib, qimmatli maslahatlarini berar edi.

Ernest Xemingueyni uzoq-uzoqlarga tanitgan «Alvido, qurol» (1929) asari bo'ldi.

Bu davrda faqat Amerika adabiyotidagina emas, jahon adabiyotida roman janrida ijod qilish biroz susaygan edi. Tadqiqotchilar buning sababini Birinchi Jahon urushi bilan bog'laydilar. Hattoki, hazillashib, «xayolparast yozuvchilar jang sirlarini o'rganaman deb urushga ketib qolgan edi», deyishadi.

«Alvido, qurol» romani bilan bir davrda yaratilgan romanlarda ko'plab Amerika yoshlarining urushda ko'rsatgan qahramonligi, tirik qolganlarning o'z yurtiga shon-sharaf bilan qaytib kelish voqeasi tasvirlangan edi.

Ernest Xeminguey romanida esa, urushning mohiyati nimada, kimga kerak bu mudhish urush, degan muammo ko'tariladi. Millionlab o'g'lonlarning behuda o'lib ketishiga kim aybdor? Nima uchun urushayapmiz, degan fikr ilgari suriladi. Shuning uchun ham bu roman Amerika jamoatchiligida katta shov-shuvga ega bo'ldi. Bir guruh tanqidchilar adibga tosh otishdan ham qaytmaydi. Ammo o'quvchi shunday ruhdagi romanni kutib turgandek, adibni gullarga o'raydi.

Ernest Xeminguey jahongashta adib. Yevropaning bir necha mamlakatlarida, Italiya va Afrikada bo'lib, xor-zor bo'lgan, sarson-sargardon kezzanlarni o'z ko'zi bilan ko'radi.

Adib «Afrikaning ko'm-ko'k to'qayzorlari» (1935), «Yarim tundagi o'lim» (1932), «Kilimanjaro» (1936), «G'olib hech narsaga erishmaydi»

(1933), «Amal qilish yoki qilmaslik» (1937), «Beshinchi kolonna» (1938) asarlarida faqat Amerika xalqini emas, yer kurrasidagi o'zga xalqlarni o'ylantirib yurgan muammolarni qalamga oladi, hayotdagi ilatlarni dadillik bilan ochib tashlaydi.


Adib ikkita dahshatli urushning guvohi bo'ladi. Birinchi va Ikkinchi jahon urushi. «Odamlar va urush» (1942), «Daryo orqali o'shal qishloqqa» (1950), «Xavfli yoz» (1960) va boshqa asarlarida turli toifadagi insonlar obrazini yaratadi.

«Frensiska Kalomberaning qisqa baxti» (1936), «Amerikalik jangchi» (1937), «Urushdagi odamlar» (1942) va boshqa asarlari Xeminguey ijodi diapazoni nihoyatda kengligidan dalolat beradi.

Ernest Xeminguey kabi buyuk adib asarlari millat, irq tanlamaydi, chegara bilmaydi. Adib asalarini faqat amerikaliklar emas, jahon xalqlari sevib o'qiydi. Ernest Xeminguey kabi mashhur yozuvchilar sanoqli, ularning asarlari hamma uchun tushunarli, barchaga birdek zavq-shavq bag'ishlaydi.

JON STEYNBEEK

(1902–1968)



O'zining qator romanlari, novellalari, publististik asarlari bilan mashhur bo'lgan Jon Ernest Steynbek Nobel mukofotiga sazovor bo'lgan.

Adib o'z asarlarida inson bilan tabiatning uzviyligi, bog'liqligi muammosini ko'tarib chiqadi. Uning ta'kidlashicha, aslida inson ham tabiatning bir bo'lagi. Steynbek insonning ichki olamini ochib berishning ustasidir.

U o'zining ko'plab otashnafas nutqi, publitsistik maqolalari, hikoya va ocherklari bilan Vyetnamdagi bemaqsad urushni qoralaydi.

Bunday bemaqsad urushlar jahonning turli burchaklarida bo'layotgani adibni tashvishga soladi. Bu haqda turkum ocherklar yozadi. «Vyetnamdagi jirkanch urush» ocherklar to'plamini amerikaliklar bilan kutib oladi.

Adibning «Javohirlar» (1947), «Qish tashvishlarimiz» (1961) asarlarida oddiy insonlarning turmush tashvishlari, ezgulik yo'lidagi intilishlari qalamga olingan.

Adibning «G'aroyib ko'rinish» qissasida negrlar hayoti va ularning taqdiri haqida so'z yuritiladi. Bir vaqtlar Amerikada qora tanlilar va qizil

tanlilar kamsitilar, qizil va qora tanli bolalarning maktabda o'qishiga ruxsat berilmasdi.

Bunday irqiy kamsitishga qarshi Amerika adiblari keskin kurash olib bordilar. O'zlarining yuksak g'oyaviy ruh bilan sug'orilgan ko'plab asarlari bilan irqiy kamsitishlarga barham berishni talab qildilar.

Steynbek bu an'anani ijodiy davom ettirib, qora tanlilar taqdiri bilan yaqindan tanishadi.

1960-yilda adib Texas shtatiga borganida Amerika matbuoti qiziq bir voqeani bosib chiqarganini, radioda tinimsiz eshittirishlar berilayotganining guvohi bo'ladi. Luizana shtatiga qarashli Nyu-Orlean maktabiga bir nechta negr bolalarining qabul qilingani haqida xabarlar beriladi. Matbuotda va televideniyeda maktabga qabul qilingan negr bolalarining rasmlari tinimsiz ko'rsatib borilardi. Bu Amerika ijtimoiy va siyosiy hayoti uchun katta voqea edi.

Negrlarning oq tanli bolalar bilan birga o'qishi o'sha davr Amerika hayoti uchun kutilmagan yangilik edi. Shuning uchun ham Nyu-Orlean maktabiga o'qishga qabul qilingan qora tanli bolalarni ko'rish uchun har kuni ko'plab odamlar kelardi. Bu voqeani ayrim amerikaliklar o'zicha yaxshi qabul qilishsa, boshqalarning esa nafrati qo'zg'alib, negrlarga bunday imtiyoz berilgani uchun fig'oni oshib, g'azabi qaynab ketardi.

Amerika senatorlari va matbuoti bu voqeani himoya qilish mas'uliyatini o'z zimmlariga oladilar. Natijada negr bolalarni bir necha politsiyachi ertalab maktabga olib kelar, o'qishdan so'ng uylarigacha kuzatib qo'yardi. Chunki voqea shu darajada taranglashadiki, maktabga yig'ilgan odamlar orasida negr bolalariga tashlanuvchilar, ularni urib, do'pposlaydiganlar ham paydo bo'ladi.

Mana endi vaqt o'tdi, zamonlar o'tdi, qora, qizil va oq tanli bolalar maktab, universitet va boshqa o'quv dargohlarida yonma-yon o'qishadi. Bu narsa hozirgi amerikaliklar uchun oddiy voqeaga aylanib qolgan.

Jon Steynbek yashagan va o'z asarlarida tasvirlagan zamonlar, qora tanlilarga past nazar bilan qarash voqeasi tarixga aylanib, afsonadek bo'lib qolgan. Irqiy tenglik, qora tanlilarning haq-huquqi muammosi o'z-o'zidan hal bo'lib qolmaydi. Steynbek kabi ilg'or fikrli ijodkorlarning kurash va intilishlari, asriy zulm zanjirini parchalab tashlash g'oyasi tufayli ijtimoiy hayotda o'zgarish davri boshlanadi.

SOHIB JAMOL

(1904–1983)



Sohib Jamolning asl ismi Rahim ibn Husayn Navbari edi. 1905-yilda Bag'dodda tavallud topgan. Otasidan erta ajragan Rahim nihoyatda og'ir hayot kechirib, bir burda non topish uchun ertadan-kechgacha yelib-yugurardi. Topgan noni na o'ziga va na onasiga yetardi.

Rahim otasidan ajralganda uch yashar edi. Turklardan bo'lgan onasi esa kasalmand bo'lib, og'ir yumushlarga yaramasdi. Shunday bo'lsa-da, yetim o'sgan bolasiga butun mehrini berib, ko'ngli o'ksimasligi uchun qo'lidan kelguncha uni

tarbiyalab, ulg'aytiradi.

Yosh bo'lishiga qaramasdan ziyrak Rahim kishilar eshigida yurib non topar, topgan nonlarini o'zi yemay, kasalmand onasiga olib kelib berardi. O'n ikki yoshida eshikma-eshik yurib ishlash joniga tekkan Rahim to'qimachilik korxonasiga ishga kiradi. Og'ir mehnat qilaverib erta suyagi qotgan Rahim ishlab yurgan kezlarida onasidan ham ajralib qoladi.

Ota-onasidan ajralib yolg'iz qolgan bolakay ochdan o'lib qolmaslik, bir amallab qornini to'ydirish ilinjida Makkaga ketayotgan dindorlarga xizmatkorlik qilib, karvon bilan yo'lga tushadi.

Rahimni karvonboshi yo'lda ingliz ayoliga qul kabi sotib yuboradi.

Rahim ingliz sohibasi Sharlotta bilan birga Hindistonga boradi. Uzoq yo'l azoblari, yo'lda o'zi guvoh bo'lgan mudhish voqealar Rahimning ruhiyatiga qattiq ta'sir etadi. Hindistondagi hayot Bag'doddan ham besh battar og'ir ekanligini ko'rib, bu olis o'lkadan tezroq ketish payiga tushadi. Qulay payt poylab, qarorgohdan qochib ketadi. Bekina-bekina, Lohurga yetib keladi. O'ziga boshpana qidirib yetimlar uyida qo'nim topadi. Yetimxonada u bir yilcha bo'lib, xat-savodini chiqaradi, turli kitoblar, gazeta va jurnallarni o'qishga berilib ketadi.

Oradan bir yilcha vaqt o'tgach yetimxonadan qochib, Pokistonga yetib keladi. So'ngra Afg'oniston orqali sarson-sargardon kezib Bakuga keladi.

Onasidan turk tilini o'rgangan Rahim ozarboyjon qardoshlari orasida o'z uyida yashagandek kun ko'radi. O'shanda ilk bor qorni non-ga to'yib, osoyishta hayot kechirayotganini his qiladi.

Rahim arab, fors, turk tillarini mukammal bilib, bemalol so'zlasha olardi. Bokuda ham tinch o'tirmay, yashash uchun kurashish lozimligini anglagan Rahim gazeta va jurnallar tarqatish bilan mashg'ul bo'lib, hayot kechirish uchun imkon topadi.

Yangi chiqqan gazeta va jurnallardagi xabarlarini muttasil o'qib borar, savodi oshib, dunyoqarashi yuksaladi.

Boku adabiy jamoatchiligining ayrim namoyandalari bilan bog'lanib, Sharq klassiklari, xususan, Nizomiy, Fuzuliy she'rlarini yod ola boshlaydi. Boku maktablariga qatnab, bilim olishga intiladi.

Keyinchalik Rahim bir qator ozar o'g'lonlari bilan birga Moskvadagi Sharq xalqlari universitetiga kirishga muvaffaq bo'ladi. Bu davrda u rus tilini o'rganib, adabiyotga bo'lgan ixlosi kundan-kunga orta boradi. Universitet jurnalida uning ozodlikni tarannum etuvchi «Men ozodlik farzandiman» (1923) va chet el bosqinchilariga qarshi kurash ruhidagi «Fashizmga o'lim» (1923) she'rlari bosilib chiqadi. Ilk ijod namunalarning matbuot yuzini ko'rishi Rahim ruhiyatini ko'tarib, she'rlar va badiiy asarlar o'qish bilan ko'proq mashg'ul bo'ladi. Ayniqsa, rus mumtoz adabiyotining ulug' adiblari L. N. Tolstoy va I. Turgenev asarlari Rahim uchun katta maktab bo'lib qoladi.

Moskva hayoti talabani jahon adabiyotining nodir namunalarini o'qishga da'vat etadi. Flober, Emil Zolya, Romen Rollan asarlarini o'qilib o'qiydi.

Bunday o'qish va izlanishlar uni badiiy ijod ostonasiga yetaklab boradi. O'ziga «Sohib Jamol» degan taxallus olib, «Gulruh», «Ikki uchrashuv» hikoyalarini yozadi.

Sohib Jamol Sharq xalqlari hayoti, ayniqsa, yaqin Sharq xotinqizlari va bolalari qismati haqida ilmiy-publitsistik maqolalar yozib, gazeta va jurnallarda chop etadi. Dastlabki ijodini jurnalistika bilan bog'lab, matbuot bilan aloqasini mustahkamlaydi.

Sohib Jamol 1925-yilda O'zbekiston va Tojikiston bo'ylab safar qiladi. O'zbek do'stlari bilan turkcha, tojik birodarlari bilan tojikcha muloqot qilib, yaqin aloqada bo'ladi.

Keyinchalik u «Du didor» (1933) hikoyalar to'plamini tojik tilida nashr qiladi. «Qora choyshab», «Ona qalbi» nomli ilk pyesalarini tojik teatrlariga taqdim etadi. Hali dramatik asarlarga muhtoj bo'lgan yosh tojik teatrlari bu asarlarni ko'p yillar o'z sahnasidan tushurmay namoyish etgan.

Sohib Jamol urush davrida fashist bosqinchilariga nafrat ruhi bilan sug'orilgan maqolalari, sermazmun nutqlari bilan ko'p martalab chiqishlar qiladi. Fashistlarning yovuz kuch ekanligini, razilligi va johilligini ko'rsatib beruvchi ko'plab asarlar yozadi.

Urushdan keyingi yillarda Sohib Jamol ijodida yuksalishlar davri boshlanadi. Ko'p yillik mashaqqatli hayot tajribalari, tinimsiz izlanishlar Sohib Jamol ijodining o'ziga xos o'zagini belgilab berdi. «Baxt axtargan qora tanli bola», «Aldangan umidlar» kabi asarlari chop etiladi.

Endilikda Sohib Jamol nomi Rossiya, Kavkaz, Markaziy Osiyo mamlakatlariga yaqindan tanish bo'lib qolgan edi.

Adibning «Parishon lolalar», «Chinnigul», «Prezident», «Guli siyoh» romanlari ko'pgina tillarga tarjima qilinib, kitobxonlarning sevimli asariga aylangan.

Adib qayerda bo'lmasin, qaysi mavzuda ijod qilmasin onasining mehr to'la nigohini, mayus va horg'in ko'zlarini eslaydi. Ko'pgina asarlaridagi ijobiy ayol obrazlari uning onasini eslatadi. Fotima Sabriy («Muhabbat kamalagi»), Bibi («Guli siyoh»), Xadicha («Sindirilgan ko'za») obrazlari buning dalilidir.

ALBER KAMYU

(1913–1960)



Alber Kamyu o'zi tug'ilib o'sgan Jazoirning jazirama tabiatini sevadi. Uning qora tanli jazoirlik bolalardan do'stlari ko'p edi. O'sha davrda Jazoir fransuzlar qo'l ostida bo'lib, ular mahalliy xalqni nihoyatda ezib, og'ir azoblarga solib ishlatardi. Jazoirliklar bu og'ir qiyinchiliklarni peshanaga yozilgan taqdir taqozosi deb tushunardi.

Alber boy-badavlat fransuzlardan ko'ra, jazoirlik mehnatkash va qashshoq xalqqa ko'proq xayrixoh edi. U Jazoiridagi fransuz bosqinchilariga nafrat ko'zi bilan qaraydi. Bosqinchilikka qarshi g'azab tuyg'usi bir umr yuragida tosh bo'lib qotadi. «Baxtli olam» romanida, «Inqiroz» qissasida, «Qamal holati» pyesasida, «Nigoh», «Quvg'inlik va saltanat», «Ijod va erkinlik» kabi hikoyalarida adibning atrof-muhitga nisbatan teran nigohini ko'ramiz. Olamni ziyrak anglash, chuqur idrok etish hissi yozuvchi ijodiga singib ketgan.

XX asr jahon adabiyotining nodir namunalaridan deb tan olingan «Begona» qissasining qahramoni o'z dunyoqarashiga va o'z fikriga ega bo'lgan Mersodir. U bukulib, xushomad qilib yashashni inson uchun pastkashlik alomati deb biladi.

Mersoning advokat bilan, prokuror bilan suhbatlari ham o'quvchini o'ylantirib qo'yadi. Dialoglar va voqealar bayonida o'ziga xos falsafa yashirilib yotibdi. Voqea qamoqqa tushgan Merso tilidan bayon qilinsada, uning ichki hissiyotlari ko'rsatib berilgan. Merso kamgap, o'limdan qo'rqmaydi. O'lim hukmini eshitganda ham o'zini yo'qotib qo'ymaydi.

Alber Kamyuning «Kaligula» (1944) tragediyasi tarixiy voqelikka bag'ishlangan bo'lib, 1945-yilda sahnaga chiqadi. Yozuvchining «Tashqi olam» (1940) asari urush davri adabiyotining yorqin namunalaridan biri bo'ldi.

«Vabo» romani ustida yozuvchi qariyb besh yilga yaqin mehnat qiladi va nihoyat 1947-yilda asar yorug' olam yuzini ko'radi. Yozuvchi o'z romani haqida to'xtalib, «Vabo» Yevropada avj olib ketgan millatchilik, irqchilik balosiga qarshi kurash nuqtai nazaridan dunyoga keldi», deb ta'kidlaydi.

Romanda Jazoirning Oran shahrida bo'lib o'tgan voqea qalamga olinadi. Yoppasiga qirg'in balosini keltirgan kasallik ofatlari haqida hikoya qilinadi. Roman qahramoni Riye tabib (vrach) kasallikning kelib chiqish sabablarini o'rganib, xastalik kalamushdan tarqalgan degan xulosaga keladi.

Romanda faqat Oranda tarqalgan kasallik voqeasi berilibgina qolmasdan, boshqa qirg'inlar, jumladan, Afinada qadimda bo'lib o'tgan urush dahshatlariga ham to'xtab o'tilgan.

Har bir adibning o'z tasvir uslubi mavjud. Alber Kamyuning ham o'ziga xos ovozi, tasvir uslubu hech kimnikiga o'xshamaydi.

Alber Kamyu boru yo'g'i 47 yil umr ko'rdi. Umrining oxirigacha Parijda yashadi. Shu qisqa umri davomida ulkan ishlar qilishga, ko'plab asarlar yozishga ulgurdi. Uning asarlari ko'pgina tillarga tarjima qilingan.

AZIZ NESIN

(1915–1995)



Asli ismi Mahmud Nusrat – 1915- yil 15-dekabrda Istanbul yaqinidagi qishloqlardan birida, dehqon oilasida tug'iladi. Yoshligidan yozuvchi bo'lishni niyat qilgan edi. Dastlab u harbiy bilim yurtida o'qiydi. Nafis san'at akademiyasida ijod sirlarini o'rganadi. Armiyadan qaytgach (1944), jurnalist sifatida faoliyat ko'rsatadi. Dastlabki ijodini she'r yozishdan boshlaydi. Ilk ijod namunalari Vedia Nesin taxallusi bilan yozgan.

Jahon adabiyotida hajviy asarlari bilan mashhurdir. «Tong», «Vatan», «Tanin», «Oqshom» gazetalarida faoliyat ko'rsatadi, ko'plab hajviyalari chiqadi. Turk adibi Sabohiddin Ali bilan hamkorlikda haftalik «Marko posho»ni chiqaradi. Ta'qib qilingach, «Noma»-

lum posho», so'ngra «Ma'lum posho»ni nashr qilishadi. Bu ham tazyiq ostiga olinadi. Aziz Nesin maqola, novella, hikoya, roman ustasi sifatida ham mashhurdir. Xalq o'rtasida hajviyalari bilan katta hurmatga ega bo'ladi. «Demokratiya shunqori», «Eshak qo'zi tug'di», «Xotin kishi bo'lganimda-yu», «Orkestr odam», «Dahshatli tush», «Ming marta shukur», «Biz u yerga bormaymiz» hajviyalari katta shuhrat qozongan. U 1965-yilda O'zbekistonda bo'ladi. Doim Toshkent, Samarqand kabi Sharqning ko'rki bo'lgan shaharlarni ko'rganini faxr va g'urur bilan eslaydi. Hajvchining «Hushtak Afandi» va qator hikoyalari o'zbek tiliga tarjima qilingan.

Aziz Nesin asarlarini o'qisangiz ham o'ylanib qolasiz, ham kulasiz. Yozuvchi «Biz u yerga bormaymiz» hikoyasida «Hali demokratiya, partiya» degan tushunchalarni yaxshi anglab yetmagan omi odamlar obrazini yaratadi.

Yozuvchi «Demokratiya shunqori» hajviyasida matbuot ustidan kuladi. Qahramon she'rlarini, yigirma ikki varaqdan iborat «El-yurt taraqqiyoti uchun nimalar qilmoq kerak?» degan maqolasini gazetaga yuborganda ularni bosib chiqarishmaydi. Yigirma ikki sahifani qisqartirib, besh satrgina gazetaning bir chetiga beriladi. Muallif gazeta va jurnallar haqiqatni yoritmay, yolg'on-yashiq gaplar bilan to'lib ketganini iztehzoz bilan ta'kidlaydi.

Endi qahramon haqiqatni emas, yolg'on gaplarni yozishga qaror qiladi. «Eshak qo'zi tug'di» sarlavhali maqolam shunday boshlanardi», – deb eslaydi adib: «Muxbirimiz xabar qiladi: kecha bizning shaharda qirq besh yashar bir hangı eshak ikkita qo'zi tug'di. Qo'zilardan biri bulbulga o'xshab xonish qilsa, ikkinchisi kar va soqov bo'lib tug'ilgan. Hangı eshak ikkala qo'ziga dumidan sut bermoqda. Shu yerlik qariyalarning aytishiga qaraganda, yurtimizda demokratiya quyoshi balqib chiqqandan buyon bunday hodisa yuz bermagan. Demak, hangı eshakdan ikki qo'zichoq tug'ilishi yaxshilik alomatidir». Bunday yolg'on xabarlar gazetaga tezda bosilib chiqadi, muxbirning nomini tanitadi.

«Shukur qilsang arziydi» hikoyasi ham mahorat bilan yozilgan. Asarda Shukurbey ijaraga uy qidiraverib sarson-sargardon bo'ladi. Uy egasi uni sudga berib, tez kunlarda bu dargohdan chiqib ketishni talab qiladi. Shunda Zakoiy degan eski tanishini uchratib qolib, ijaraga uy qidirib sarson bo'lganini aytadi. Zakoiy esa besh qavatli imorat qurib, rosa qiynalganini aytadi va «Shunga ham shukur qil» deb har gapida takrorlaydi.

«Pulimga yarasha yer bering» hikoyasi qahramoni gazetalardan birida «Imoratsiz quruq 1624 kvadrat metrlik yer to'rt million liraga sotiladi»

degan xabarni o'qib qoladi. Shundan so'ng u oladigan oylik ish haqiga yer sotib olishi mumkinligini hisoblab chiqsa, roppa-rosa 666 yil ishlashi kerak ekan. Hisoblayverib, uyqusi qochadi. Kechayu kunduz shu yerni olishni o'ylaydi. Nihoyat, oxiri o'ylayverib jinnixonaga tushadi.

Yozuvchining «Musht ketdi», «Bezovta bo'lmang», «Sigaret qutusi-dagi arz-dodlar», «Nazokatu nafasot» kabi hikoyalarda muhim muammolarni ko'tarib chiqadi. Bu hikoyalarning mavzusi xilma-xildir. «Nazokatu nafasot» hikoyasi qahramoni Xolid shaharning kazo-kazo martabali kishilari manzilini yon daftarchasiga yozib yuradi. Bir marta u begonalar qo'liga tushib qolganda, yon daftarchasidagi «nazokatu nafasot» degan yozuvni o'qib qolishadi. Yana daftarchada sinfdoshi Rizo tirtiqning adresi ham bo'ladi. Rizo esa bosh direktor, begonalar esa Rizoning qo'lidagi xizmatkorlar bo'ladi. Xolidni haqorat qilib, kaltaklab, so'roqqa tutayotgan begonalar darrov o'zgarib, «Beyafandim» deb unga yumshoq muomala qila boshlaydilar. Shundan buyon u daftarchasiga martabali kishilarning manzilini yozib yuradi.

Yozuvchining «G'aroyib bolalar» romani ham o'quvchi e'tiborini tezda o'ziga tortadi. Romanda maktab o'quvchilari Ahmad Tarbiy bilan Zaynab Yolqir o'rtasidagi yozishmalar berilgan. Bu maktublar ijtimoiy hayotdagi ayrim muammolarga barchani o'ylantirib yurgan masalalarga qaratilganligi bilan e'tiborlidir.

Shunday hajviy asarlar bo'ladiki, garchi hajm jihatidan kichik bo'lsa-da, undan katta bir romandan olgan taassurotni olasiz, qahramonlarni uzoq vaqt eslab yurasiz. Aziz Nesin tasviridagi qahramon ham hech qachon esdan chiqmaydi.

QAYSIN QULIYEV

(1917–1982)



Qaysin Quliyev Kabardin-Bolqar degan viqorli tog'lar o'lkasida tug'ilgan. Chegem qishlog'i shoirning kindik qoni to'kilgan joy bo'lib, hamqishloqlari qo'shiqning avvalini Qaysin Quliyev she'ridan boshlar ekanlar. «Salom tong!», «Tog'jilg'asi qo'shig'i», «Bahor kuni to'qilgan qo'shiq» she'rlari kitobxonlarga yod bo'lib ketgan. «Mening qo'shiqlarim», «Falokat yuz bergan damda», «Jangdan qaytganlar haqida» kabi to'plamlari shoir nomini dunyoga olib chiqdi. «Yaralangan tosh», «Ona yer bilan suhbat»,

«Shodlik -- oitjn qush», «O'roq» she'riy

kitoblari jahon adabiyotidagi shoh asarlar qatorida turadi. Shoir o'z nomi bilan birga millatini ham jahonga tanitdi.

Qaysin Quliyev yoshligidan she'r yoza boshlaydi. Biroq u she'r-larini nashr qilishga yoki matbuotga berishga shoshilmasdi, to'g'rirog'i botina olmasdi. Shoirning nazarida har bir she'r xalqning imtihonidan o'tadi. Yosh shoir mana shu murakkab sinovdan qo'rqadi. Ikkinchi tarafdin, shoirning fikricha, mukammal she'r yozish murakkab ish. Bu faoliyat har kimning ham qo'lidin kelavermaydi.

Shu tufayli shoir qo'lyozmalarining ko'pini yo'qotib qo'yadi. Yo'qolgan she'rni qayta tiklash esa amri mahol.

Shoir Ikkinchi jahon urushiga birinchilardan bo'lib o'tlanadi. U Rossiya, Ukraina, Latviya yerlarida mardonavor jang qiladi.

Bir jangdagi g'alabadan ruhlangan shoir «Rus o'rmoni ko'tarildi» nomli she'rini bitadi. Bu she'rni soldatlar qo'ldin-qo'lga olib o'qiydilar. Shoirning mardlik va jasoratga undovchi ilk ijod guldastasi asosan urush yillarida yaratiladi.

Qaysin Quliyev qishlog'i viqorli Kavkaz tog'lari etagida joylashgan. Bu qishloqning nomi Chegem. Kavkazdagi eng baland cho'qqilardan biri Chegem shoirni bolaligidayoq o'ziga maftun etgan.

Chegem qishlog'i ahli asosan dehqonchilik, chorvachilik va ovchilik bilan shug'ullanadi. Shoirning ta'kidlashicha, umrida she'r yozmagan kishi ham Chegem qishlog'ining manzarasini ko'rib shoir bo'lib qolishi tabiiy. Shoir qishloq ahlining tabiat go'zalliklariga monand soddadil, dilkash ekanliklarini ta'kidlaydi:

*Tog'liklar nutqi jarangdor va suronli emas,
Ularning dili sodda, ayyorlikdan yiroq.*

Shoirning hamqishloqlari otga astoydil mehr qo'ygan edilar. Ot ular uchun har qanday boylikdan ustun, shuning uchun ham shoir ot ta'rifiga bag'ishlab talaygina she'rlar bitgan. Mehribon, sodiq do'st, insonning og'irini yengil qiladigan ot obrazi shoir ijodida keng o'rin egallaydi.

Shoirning «Tosh yo'nuvchi Janxatu va uning oltmish yilligi» asarida qishloq ahlining mardligi va jasurligi, mehnatsevarligi va insoniyligi haqida so'z boradi.

«Hayot urush kabi og'ir» asarida falsafiy fikrlarga duch kelamiz. Shoir nazdida hayot oddiy narsa emas. Yashash uchun kurashish, mehnat qilish kerak. Hayotda nima uchundir kurashasan, o'z maqsading sari olg'a intilasan. Sal loqayd bo'lsang urush singari hayotda ham yiqilib qolishing yoki yengilishing turgan gap.

Qaysin Quliyev ijodida qarama-qarshi obrazlar ko'proq uchraydi. U birini ikkinchisiga qiyoslash orqali hayotiy voqealarni bo'rttirib, yaqqolroq, yanada aniqroq berish usulidan foydalanadi. «Non va gul», «Non va kitob» va boshqa asarlarida qiyosiy poetik tahlildan shoir ustalik bilan foydalangan.

JEYMS OLDRIJ

(1918–1976)



Angliyaning atoqli adiblaridan biri. U o'z faoliyatini jurnalist sifatida boshlaydi. Skandinaviya, Gretsiya, Misr, Eronda jurnalist sifatida ijod qiladi.

«Ish bo'limi» (1942), «Dengiz burguti» (1944) romanlari. «Ko'p odamlar haqida» (1946) qissalari ilk ijod namunasi bo'lsa-da, kitobxonlarning sevimli asarlariga aylandi.

«Ovchi» (1950), «Sahro qahramonlari» (1954), «Uning o'lishini xohlamayman» (1957) romanlari Jeyms Oldrij ijodining yuksak cho'qqisi sanaladi.

Bu romanlarning qahramonlari turli soha egalari-

dir. Ularning fe'l-atvori ham turli-tumandir. Jeyms Oldrij ingliz adabiyotida serqirra va serjilo ijodkor sifatida mashhurdir.

Jeyms Oldrijning «Vijdon amri» romanida urush voqealari tasvirlanadi. Italiya harbiylari nemis-fashistlari bilan birgalikda Gretsiya tuprog'iga bostirib kiradi. Gretsiya vatanparvarlari o'z ona-Vatanini fashistlardan mardonavor himoya qiladilar. Vatanparvarlar uchun onayurt har narsadan ulug' va muqaddasdir. Shuning uchun ham ular o'z taqdirларini vatan ozodligi bilan bog'laydilar.

Roman bosh qahramoni Kveyl grek vatanparvarining jasoratiga va qahramonliklariga qoyil qoladi. Ingliz harbiy uchuvchisi Kveyl urush dahshatlarini o'z ko'zi bilan ko'radi, jangda halok bo'lgan grek yigitlarining jasoratiga guvoh bo'ladi. Kveyl ko'pgina uchuvchi safdoshlari kabi jangda halok bo'ladi. U o'z vataniga qaytolmaydi, yorug' kunlarni, tug'ilajak o'g'lini ham ko'rolmaydi, uzoq Gretsiya tuprog'ida qolib ketadi. Adib urushning naqadar mudhish voqealar sababchisi ekanligini g'oyat ishonarli va hayotiy lavhalarda tasvirlab bergan.

Oldrij urush mavzusini mahorat bilan yoritib beradi. Bu haqda ko'plab romanlar ijod qilgan. Yozuvchining «Dengiz burguti» romanida Krit orolidagi voqea tasvirlanadi. Nemis-fashistlari Gretsiyani bosib olgandan so'ng, vatanparvarlar tog'larga, o'rmonlarga yashirilib ola-

dilar. Greklar bilan birgalikda jang qilgan ingliz qo'shinlari ham tor-mor qilinadi.

Fashistlar Krit orolida qattiq nazorat o'rnatib, dahshatli qotilliklar qiladi. Baliqchilarning qayig'ini tortib olib, otib tashlashadi. Oroldagilarni ochlikdan qiynab o'ldirishadi. Biroq xalq o'z ona tuprog'ini himoya qilishda davom etadi. Tog'lardagi partizan bo'linmasi fashistlarga qo'qqisdan hujum qilar, oroldagi yoru birodarlarga yordam qo'lini cho'zar edi.

Partizan bo'linmasida turli millat vakillarini uchratish mumkin edi. Romanda «Dengiz burguti» laqabli Hoji Mixal jasorat va dovyurak grek farzandi timsolidir.

Oldrijning «49-shtat» pyesa-pamfleti jahon siyosiy sahnasida yirik voqea bo'ldi. Bu asarda Angliyaning ilgarigi gegomonlik, hukmronlik mavqei yo'qolib, ancha zaiflashib qolganligi qalamga olinadi. Angliyaday buyuk davlat boshqa rivojlangan mamlakatlar, ayniqsa, Amerika Qo'shma Shtatlari oldida qo'g'irchoqqa aylanib qoladi. Yozuvchi obrazli ibora bilan Angliyani Amerika Qo'shma Shtatlarining «49-shtati» deb ataydi.

Oldrijning «Elchi» (1949) romani yana bir ulkan yutuq bo'ldi. Roman asosida Angliya elchisi Essens va uning yordamchisi Mak Gregor obrazi turadi. Elchilar faoliyati haqidagi bu roman millatlar, dinlar, mamlakatlar, irqalar taqdiri bilan bog'liq masalalarni yoritib beradi. Romanda tasvirlangan davlatlar o'rtasidagi siyosiy o'yinlar, birbirini chalg'itishlar, chap berishlar, manfaatlar to'qnashuvi o'quvchi dunyoqarashiga qattiq ta'sir etadi.

Oldrij siyosiy yozuvchi. Siyosatchi o'zining ilmiy-nazariy qarashlari, falsafiy-publitsistik asarlari bilan siyosiy maydonda namoyon bo'ladi. Oldrij esa o'z siyosiy qarashlarini badiiy bayon etadi, obrazlar dunyosi orqali mushohada qiladi. Bir so'z bilan aytganda, siyosiy mavzuda qalam tebratuvchi yozuvchidir.

Yozuvchining «Ovchi» (1950) romani inson va tabiat mavzusida.

Roman voqeasi Kanada o'rmonlarida bo'lib o'tadi. Asar qahramoni Roy Mak-Neyr o'zi yashagan o'rmonni sevadi. O'z taqdirini o'zi bilgan o'rmon bilan bog'laydi. Asarda inson tabiatning bir bo'lagi, ayni chog'da uning xo'jayini sifatida berilgan. Xo'jayin ochko'z bo'lsa, boylik orttirish payiga tushsa, o'rmonni va undagi jonivorlarni quritadi. Tabiatning bu mo'jizasini sotib, yeb tugatadi. Yozuvchining nazarida o'rmon bebaho boylik, Roy kabi sofdil va haqiqatgo'y insonlar qo'lida, tabiat yanada yashnab ketadi, o'rmonlar go'zallashib boraveradi.

Oldrij ijodining ufqi keng, romanlarining mavzusi xilma-xildir. Yozuvchining keyingi asari «Qumliklar ufqidagi qahramonlar» (1954)

deb nomlanib, unda ko'chmanchi, qashshoq qabilalar, neft qazib chiqaruvchi arab ishchilari, dehqonlari, sahro odamlari hayoti hikoya qilinadi. Baxraz ahli ertadan-kechgacha qumliklar quchog'ida qora terga botib mehnat qiladi, shu mehnati orqasidan zo'rg'a kun kechiradi. «Qora oltin»ning huzurini esa ingliz ishbilarmonlari, millionerlari ko'rishadi.

Romanning bosh qahramoni Gordon urush tufayli arab yerlariga kelib qolgan, arablar bilan do'stlashib, o'z qismatini ular bilan bog'lagan. Gordonning dunyoqarashi keng, fikri tiniq. Ayni chog'da u haqiqat tarafdori. Baxrazliklarning o'z boyligi va mulkidan birovlar manfaat ko'rayotganidan g'azabi keladi. Bu nohaqlikka chidab turolmaydi.

Yevropada Jeyms Oldrijga «o'zga yurtlarning o'g'li» deyishadi. Chunki adib o'zga xalqlar hayoti, taqdiri, yashash va kurash tarzi haqida yozadi.

MUSTAY KARIM

(1919)



1919-yil 20-oktabrda Boshqirdistonning Chishma tumanida dunyoga kelgan Mustay Karim butun umrini xalq baxti, saodati, kelajagini kuylashga bag'ishladi. «Otryad qo'zg'aldi» (1938) nomli ilk she'riyoq xalq diliga iliqlik bag'ishladi. «Jonajon xalqimga» (1953) she'rida o'z xalqiga sadoqati, muhabbati va cheksiz hurmatini izhor etdi.

«To'y davom etadi» (1947), «Yolg'iz qayiq» (1951), «Aytilmagan qo'shiq» (1961) kabi she'rlar to'plamlari shoirning iste'dodi yuksakligidan dalolat beradi. «Yillar izidan» (1971) asari turkum she'rlarni o'z ichiga olgan bo'lib, shoir nomini jahonga mashhur qildi. Shoir ijodi ko'p qirrali. «Oy

tutilgan kun» (1964) pyesasi juda ko'plab xalq teatrlarida namoyish etilgan. Shoirning ko'plab asarlari o'zga xalqlar tillariga tarjima qilingan.

Shoirning «Qiz qo'shig'in eshitib qoldim», «Do'stlar so'rog'iga javobim», «Bu qo'shiqni kuylagan onam» kabi asarlari ham o'quvchi qalbini sehrlaydi.

Boshqird xalqining asl farzandi o'z vatanini behad sevadi, har bir farzandning o'z yurtini jon-dilidan, bor vujudi bilan yaxshi ko'rishini xohlaydi. Vatan tuyg'usini dilining to'rida ardoqlaydi. «Vatan» so'zini eshitganda jim turib, quloq tutadi, uni berilib tinglaydi:

*Atrof sokin, havo beg'ubor, sevinchim cheksiz,
Ona yurtim haqida kuylar yiroqdan bir qiz.*

Shoir urush azoblarini obdan tortgan. Shuning uchun ham jangchilarning zafar quchib yorug' yuz bilan o'z yurtiga qaytishini eng baxtli on deb biladi. Shoirning kuylashiga, aslida insonning yorug' dunyoga kelishi, ilk bor quyosh nurini ko'rishi, qiz labidan ilk bor bo'sa olishi ham baxt ramzidir. Ammo «Jangdan zafar olib qaytgan kez» eng baxtli ondir.

Shoir poeziyasida qiyosiy tahlil ham, o'xshatish ham keng o'rin egallaydi.

*Odamlar jam bo'lib qadam tashlasa ko'cha to'ladi,
Bir gul gar yagona bo'lib yashasa erta so'ladi.*

M. Karim ijodida ishq-muhabbat mavzusi yorqin yoritilgan. Urush tufayli ayriliqda, hijronda yashagan shoir yoniq dard bilan kuylaydi. O'z yorini intizorlik bilan kutgan go'zalga tasanno aytadi.

Keyingi davr ko'plab boshqird shoirlari Mustay Karim poeziyasining nuridan bahra olib, sermahsul ijod qilishmoqda.

JANNI RODARI

(1920–1980)



Italiyaning shimolida joylashgan Omenua shahrida dunyoga kelgan Janni Rodarining bolalik yillari qiyin kechadi. Otasi vafotidan so'ng oilani tebratish uchun turli ko'chalarga, kirib chiqadi, hayotning achchiq-chuchugini erta totib ko'radi. Ehtimol hayotning mana shu og'ir sinovlari adibning qalamini charxlab, haqiqatni yozishga undagandir, mashhur adib bo'lib yetishishga sabab bo'lgandir. «Chippolinoning sarguzashtlari» (1960), «Umumjahon xorovodi» (1962), «Quvnoq she'rlar poyezdi» (1963), «Kasblarning rangi va hidi haqida she'r» (1967), «Xayolot qoidolari» (1978) kabi asarlari jahon bolalar adabiyoti sahifasidan munosib o'rin egallagan. Bolalarning sevimli adibi asarlari jahondagi ko'pgina tillarga tarjima qilingan.

Janni Rodari «Rim ertaklari» turkum asarlar to'plami bilan mashhurdir. Bu turkum asarlarda yozuvchi ertak bahonasida goh davrning

ijtimoiy-siyosiy voqeligiga faol aralashadi, goh tuban va ravil illatlarni keskin tanqid ostiga oladi, mansab-martaba uchun o'zligidan kechganlarni qoralaydi.

Yozuvchining ertaklar olami juda boy, mavzu jihatdan xilma-xildir. Bu ertaklarni o'qigan sayin o'qiging, eshitgan sayin eshitging keladi.

«Hurushni eplolmagan kuchukcha» asari mazmun-mohiyati bilan kinoya, kesatiq va istiora orqali insonlar hayotiga iborat. Qo'lidan bir ish kelmaydigan hali «hurushni» ham bilmaydigan kuchukcha sirkda mashhur bo'lishi va hattoki shoh qiziga uylanishni orzu qilib qoladi.

Kuchukcha obrazi orqali yozuvchi yuksaklikka ko'tarilish, shon-shuhratga erishish uchun yelib-yugurish, o'z xatolarini tuzatish, ezgu maqsadlar yo'lida kurashish lozim degan fikrni ilgari suradi..

Janni Rodari insonlarga ezgulik hadya etdi, ularni yaxshilik tomon yetaklaydi, do'stlikka, inoqlikka, hamjihatlikka chaqirdi.

RASUL HAMZATOV

(1923–2003)



Rasul Hamzatov tufayli Dog'istonni butun jahon tanidi. 1923-yilda tug'ilgan shoir sho'ro hukumatining ta'qiblaridan qo'rqmasdan o'z millatini ulug'ladi. Otasi shoir Hamzat Sadasa xonadoniga ko'pgina mashhur shoirlar tashrif buyurib turishardi. Bu yosh Rasulda adabiyotga muhabbat uyg'otdi.

«Tong qo'shig'i», «Mening qalbm tog'larda», «Tog' qizi», «Dog'istonim», «Yuksak yulduzlar», «Tug'ilgan kunim», «Tog'likning vatani», «Ovuldan xat» asarlari she'riyat

shaydolarining yuragidan joy oldi.

Rasul maktabni bitirgandan so'ng, pedagogika texnikumida o'qiydi. Shundan so'ng maktabda o'qituvchi bo'lib faoliyat ko'rsata boshlaydi. Keyinchalik teatrda rejissyor bo'lib ishlaydi. Gazeta va radioda muxbir bo'lib yurgan kezlari she'rlari matbuotda ko'rina boshlaydi.

Hayotga muhabbat va urushga nafrat ruhida yozilgan birinchi she'rlar to'plami 1943-yilda nashr etilgan bo'lib, undagi she'rlarda shoir Ikkinchi jahon urushi keltirgan mudhish fojearlar haqida so'zlagan.

Shoirning ikkita akasi urushda qahramonlarcha halok bo'ladi. Bu mash'um voqea faqat Hazmat Sadasa oilasini emas, ayni chog'da butun

qishloq ahlini chuqur qayg'uga soladi. Bu mash'um voqeadan qattiq ta'sirlangan Rasul Hamzatov o'zining qator she'rlarini yaratadi.

Rasul Hamzatov asarlariga rus she'riyatining ta'siri kattadir. Pushkin, Yesenin ijodining qaynoq chashmasidan bahra olgan shoir o'zining yangi ijodiy yo'lini, yangicha ifoda uslubini tanlaydi. O'zi ta'kidlaganidek, Blok ijodidan bahra olib, yangicha poetik yo'lga kirib boradi.

Shoir Moskvadagi Adabiyot institutida o'qib yurgan kezlarida rus va jahon adabiyoti namunalarini berilib o'qiydi. Ayniqsa, Pushkin va Yesenin she'rlarini, Krilov ertaklarini, Chexov komediyalarini, Tolstoy prozasini sevib o'qiganligini eslaydi.

Rasul Hamzatov «Mening tug'ilgan yilim», «Tog'lik» asarlari orqali poema yaratish san'atini ham namoyish etadi. Bu poemalarda Dog'iston tog'larida, yashovchi odamlarni, ularning jasurligi va mehnatsevarligini kuylaydi. Qishloq odamlarining soddaligini, mehribonligini tilga oladi.

Shoir «Otam bilan suhbat» poemasida Hamzat Sadasa bilan suhbat quradi. Otaning o'z farzandiga o'giti ruhidagi bu asarida ko'pni ko'rgan dono, o'z falsafasiga ega bo'lgan ota obrazi yaqqol namoyon bo'ladi.

Ota «Sening borliging ham, boyliging ham xalq, xalqdan ajralma», kabi donishmandona gaplarni aytib, o'g'lini yashash va ijod qilishga chorlaydi. Bu poema insonni hayotni sevishta, odamlarni bir-biriga nisbatan mehr-oqibatli bo'lishga chaqiradi.

Ehtimol shuning uchun Rasul Hamzatov ko'p vaqtini odamlar orasida o'tkazadi. She'rlari ham xalq diliga juda yaqin.

Xalqning orasida bo'lgan, xalqning dilidagini topib kuylagan shoir o'lmasdir. Rasul Hamzatov xalq ijodiga yaqin tilda yozadi. She'rlari ham xalq qo'shiqlariga, ertaklariga, maqol va matallariga o'xshab ketadi.

Shoir «Dog'istonim» she'rida o'z millatini osmon qadar ulug'laydi. Shoir o'z elini kichkina, ozgina deb hisoblamaydi. Shu xalqning ham azaliy tarixi borligidan g'urur va iftixorga to'ladi.

*Mening yurtim tik qoya, ulkan tog'lar aro jo,
Dovrug'i ancha katta, yeri kichikdir ammo.*

Shoirning «Do'stlik haqida qissa» she'rida bitilgan ushbu misralar «Dog'iston» asarining mantiqiy davomidek tuyuladi.

Shoir «Mening vatanim» (1950), «Bizning tog'lar» (1947), «Akam qissasi» (1952), «Dog'iston bahori» (1955), «Qalbim tog'larda» (1959), «Tog' qizi» (1958) kabi she'riy to'plamlari, dostonlari bilan Dog'iston adabiyotini yuksak cho'qqiga ko'tardi.

CHINGIZ AYTMATOV

(1928)



Qirg'izistonning Talas vodiysidagi Shakar qishlog'ida tavallud topgan. Otasi To'raqul Aytmatov Avliyootadagi rus-tuzem maktabini bitirgan ziyoli edi. U keyinchalik shaxsga sig'inish qurboni bo'ladi. Onasi Naima Aytmatova o'qimishli ayol bo'lgan. Chingiz dastlab rus, so'ngra qirg'iz maktabida o'qiydi. Avliyootadagi zooveterinariya texnikumini, Qirg'iziston qishloq xo'jalik institutini tugatadi. 3 yil zootexnik bo'lib ishlaydi. Moskvada yozuvchilar uyushmasi qoshidagi oliy adabiyot

kursini (1956–1958) bitiradi.

«Literaturniy Kirgizistan» jurnali bosh muharriri, «Pravda» gazetasining muxbiri, Kinematografchilar uyushmasi raisi, Qirg'iziston Yozuvchilar uyushmasi rahbari bo'lib ishlagan.

Ilk badiiy ijod namunasi «Jamila» (1959) qissasi juda ko'p tillarga tarjima qilingan. Bu qissa «Muhabbat haqida yozilgan jahondagi eng ajoyib qissa», deb yuksak baho bergan edi Lui Aragon. Qirg'iz va rus tillarida ijod qiladi. «Birinchi muallim» (1962), «Somon yo'li», «Ona yer» (1963), «Alvido, Gulsari» (1966), «Yuzma-yuz», «Qizil durrali sarvqomatim», «Bo'tako'z», «Oq kema», «Erta qaytgan turnalar», «Sohil bo'ylab chopayotgan olapar» kabi qissalarining, «Asrga tatigulik kun» (1980), «Qiyomat» romanlarining muallifidir. Bu asarlarining deyarli barchasi o'zbek tiliga tarjima qilingan. O'zbek kitobxonlari ularni sevib o'qiydi.

Yozuvchi har bir asarining voqeasini hayotdan oladi. Voqealarga sayqal berib, go'zallashtirib yana hayotga qaytaradi.

«Ashim» hikoyasining qahramonini olib qaraylik. Ikki farzandidan ajralgan chol munkayib, ruhan tushkunlikka tushib, hayotdan bezib qolmaydi. Ashim kuchli iroda egasi. U har qanday ayriliqqa, har qanday qayg'uga bardosh beradi. O'g'li urushdan qaytib kelmaydi, betob qizini har qancha davolashga urinmasin, malham topolmaydi. Bu og'ir judoliklarga qaramasdan u hayotdan, yashashdan umidini uzmaydi, o'zini mehnat bilan ovutadi. U odamlardan ham ajrab qolmaydi. Hamma vaqt odamlar orasida bo'ladi. Odam taftini odam oladi, degan naql asar asosida yotadi.

Chingiz Aytmatov o'z asarlarida mehnatni ulug'laydi. Ayni chog'da mehnatkash inson obrazini juda go'zal tarzda yaratadi.

«Oq yomg'ir» hikoyasining bosh qahramonlari Saodat va Qosimjon o'z mehnati tufayli baxtiga, iqboliga erishadi. Yaxshi niyat bilan bo'z yerlarni o'zlashtirib, xalqqa ozgina bo'lsa-da foydasi tegar degan niyatda tinimsiz mehnat qiladilar, fidoyilik ko'rsatadilar.

Muallifning «Oq kema» qissasida Mo'min buva va yetim qolgan nabira, O'rozqul obrazlari nihoyatda hayotiy tasvirlangan. Mo'min buva nevarasini parvarishlab, ulg'aytirishdek ezgu niyat bilan yuradi. Buvaning qalbi nihoyatda toza. Shunday bo'lsa-da, O'rozqul qaynatasi Mo'min buvaga azob beradi, uni ruhan qiynaydi. Insoniylik, odamgarchilik O'rozqulga yot.

«Oq kema» qissasida shoxdor ona Bug'u hikoyasi nihoyatda go'zal tasvirlangan. Shoxdor ona Bug'u voqealar silsilasidan ajralib qolmagan. Aksincha, bu afsonaviy hikoyatlar, rivoyatlar hayot haqiqatini yoritishga qaratilgan.

Asarda bola obrazi ham nihoyatda katta mahorat bilan yaratilgan. U shirin orzular dunyosida yashaydi. Issiqko'lga matros bo'lish uchun ketgan otasini, allaqayoqlargadir g'oyib bo'lgan onasini sog'inib yashaydi. Kunlar o'tib ular bolani qidirib kelishiga ishonadi.

Avlodning davomchisi bo'lgan bola yorug'likka intiladi, o'qish niyatida Mo'min bobo yordami bilan maktab quchog'iga otlanadi. Chunki, bugungi kun millat davomchilari o'qishi, endilikda dunyoni bilishi, O'rozqul kabi tuban, pastkash, jaholatparastlardan ustun bo'lishi kerak.

Chingiz Aytmatov xarakter yaratish ustasi. U inson qalbining nozikligi, mehr-muhabbatga tashnaligi yu va go'zalliklarini chuqur his eta oladi va uni mahorat bilan tasvirlaydi.

Yozuvchi yaratgan Jamila, Said, Oltin, Asal kabi xotin-qizlar, Doniyor, Duyshen, Ilyos, Abubakr kabi qirg'iz xalqining o'g'lonlari obrazlari tinimsiz ijodiy izlanishlar samarasidir. Yozuvchi hayotning ichiga chururroq kirib borsagina, hayotdagi voqealarni teran idrok etsagina, voqelikning mazmun va mohiyatini keng mushohada qilsagina, uning yaratgan obrazlari hayot kabi yorqin, go'zal va beg'ubor chiqadi.

Chingiz Aytmatovning keyingi ijod namunalaridan biri «Asrga tatigulik kun» asarini olib qaraylik. Bu asarda manqurt obrazi g'oyat pishiq va puxta yaratilgan. Manqurt fahmlamaydi, befarosat bo'ladi, o'zini o'zi anglab yetmaydi, atrofda bo'layotgan voqealarni mushohada qilmaydi. Kelajak haqida uning tasavvuri bo'lmaydi. Shunday manqurtlarning tiniq vakili Jo'lomon obrazidir. U tuyani va xo'jayinini biladi.

Xo'jayini aytgan gapdan, chizgan chizig'idan chiqmaydi. Irodasiz bu manqurtning o'z onasini otib o'ldirishi kitobxonni larzaga soladi.

Hayotda bunday manqurtlar kimlar uchundir ish beradi. Bunday manqurtlardan kimlardir o'z manfaati va maqsadi yo'lida ustamonlik bilan foydalanadi. Bunday ustamonlar uchun aqlli, fahm-farosatli kishilardan ko'ra, manqurtlar ko'proq manfaat, foyda keltiradi.

Chingiz Aytmatovning «Asrga tatigulik kun» romani so'ngi yillar jahon romanchiligida eng yaxshi asarlardan biri sifatida yuksak baholandi.

GABRIEL GARSIA MARKES

(1928-2005).



Kolumbiyaning Arakatuka shaharchasida tug'ilgan Gabo (Gabriel)ning bobosi Nikolos harbiy bo'lib, unvoni polkovnik edi. Gabo tarbiyasida bobosining va buvisining ta'siri katta bo'ladi. Advokat bo'lishni orzu qilib, universitetga o'qishga kiradi. Biroq u jurnalistikaga qiziqib qolib, gazetaga xabarlar yoza boshlaydi. «El Espectador» «Sharhchi» gazetasida faoliyat ko'rsatadi. Shu davrdan boshlab badiiy ijod bilan ham shug'ullanadi. «El Espectador» gazetasining Yevropa muxbiri bo'ladi. Gazeta yopilgach, Parijga kelib faqat ijod bilan mashg'ul bo'ladi.

«Xosiyatsiz soat» romanini tugatmasdanoq, bobosi haqida «Polkovnikka hech kim yozmaydi» asari ustida ishlay boshlaydi. 40. yoshida «Yolg'izlikning yuz yili» (1968) romanini nashr qilib, mashhur bo'lib ketadi. «Oshkora qotillik qissasi» (1981) g'oyat qiziqarli bo'lib, Pedro va Pablo degan qotillarning Nasarni so'yib ketishi voqeasi tasvirlangan.

Gabriel Markes 1982-yilda xalqaro Nobel mukofoti laureati bo'ladi. Lotin Amerikasi adabiyotining atoqli adibining asarlari o'zbek tiliga tarjima qilingan.

«Yolg'izlikning yuz yili» romanida tasvirlanishicha, lo'lilar qishloqqa, yangiliklarni, xavf-xatarni, sehr-joduni, afsona va rivoyatlarni olib kiradi. Qishloqning Makondo deb atalishi ham lo'lilar tilidan kelib chiqqan bo'lsa kerak. Romanda yana bir narsa e'tiborni o'ziga tortadiki, lo'lilar Sharq bilan G'arbni bog'lovchi bir vosita sifatida tanlangan.

Xose Arkadio Buendia qishloqning eng bilimli, yangilikka intiluvchan, dono odamlaridan biri. U oqsoqol olib kelgan yangilikni o'zicha

ixtiro qilishga harakat qiladi. Shu yo'sinda, ko'pchilik unga hayrat bilan qaraydi, ixtirolari esa qishloqning o'ziga xos eng muhim yangiliklaridandir. Shuning uchun ham u har yili lo'lilarning kelishini intizorlik bilan kutadi.

Ko'proq hissiyotga beriluvchan xayolparast Xose Arkadio Buendia lo'lilar bashoratiga va, ayniqsa, Melkiades mo'jizalariga ishonadi. Bu mo'jizalarni yer qa'ridan oltin qazib olish ishiga tadbiq qilish haqida o'ylaydi.

To'g'ri so'z Melkiades Xosega bu mo'jiza-ohanraboning hech narsaga yaroqsizligini tushintirsa ham ishonmaydi.

Melkiadesning ogohlantirishiga qaramasdan Xose bu soxta mo'jizaga ishonib, uni bor-budiga – «bir xachiri va bir qancha uloqchalariga» almashtirib oladi.

Roman mana shunday qiziqarli voqealar asosiga qurilgan. Asarda tasvirlanishicha, lo'lilar yanada hayratlanarli mo'jizalarni namoyish eta boshlaydilar. Bir kuni jazirama issiqda ko'cha o'rtasiga xascho'plarni to'plab, zarrabinni quyosh nuriga to'g'rilab, xascho'plarni yoqib yuboradilar. Bu sirli voqeadan qishloq ahli hayajonlanib ketadi. Ayniqsa, hissiyotga beriluvchan Xose Arkadio Buendia qattiq hayratlanib, bu zarrabinni harbiy maqsadda ishlatga bo'ladiku, degan fikr miyasiga urilib, zarrabinni qo'shib uch oltin yombiga almashtirib oladi. Melkiades ishonuvchan Xoseni o'z niyatidan qaytarib, uning sehrlili kuchi yo'qligini aytsa ham oyoq tirab turib oladi.

Melkiades lo'li bo'lsa ham juda mard edi. U lo'lilarning g'irt yolg'ondan iborat afsungarliklariga qattiq ishongan Xose Arkadio Buendiaga rahmi kelib, oltinlarini qaytarib beradi. Yana bir qancha mo'jizaviy asboblari, ilmiy kitoblari ham olib kelib beradi.

Ishonuvchan Xose bo'lsa davlat idoralari mo'jizaviy zarrabindan harbiy qurol sifatida foydalanish mumkinligi va, hattoki, bu mo'jizaning sirlari haqida saboq berishi haqida maktub yo'llab, yillar davomida maktubiga javob ololmaydi.

Shunday bo'lsa-da, Xoseda ilmga bo'lgan ishtiyoq so'nmaydi. U lo'li sovg'a qilgan mo'jizaviy asboblari yordamida xonasidan chiqmay tadqiqot ishlari olib boradi. U bir necha kun uxlamasdan tinimsiz ishlab, o'z-o'zi bilan gaplashadigan bir holga tushib qoladi.

Romanda qishloq odamlariga xos soddalik, ishonuvchanlik, ularning hayot tashvishlari, kurash va yashash tarzi g'oyat mahorat bilan tasvirlab berilgan. Yolg'izlik insonning taqdir taqozosi bilan yolg'iz

qolishi emas, insonni dunyo yangiliklaridan, taraqqiyotdan, jamiyatdan uzulib qolishidir, degan fikr o'rtaga tashlangan.

Taraqqiy etgan mamlakatlarda allaqachonq oddiy bir narsaga aylanib qolgan durbin va zarrabin oddiy qishloq ahli, xususan, Xose uchun buyuk bir kashfiyot – mo'jiza bo'lib tuyuladi. Chunki Xose dunyo yangiliklaridan orqada qolgan, ilmiy kashfiyotlardan bexabar.

Gabriel Garsia Marquesning romani qanday tugashini oldindan bilolmaysiz. Asarning nihoyasini o'qishga qiziqasiz. Nihoyasini bilganda esa o'ylanib qolasiz. Nega yozuvchi bunday xulosaga keldi? «Yolg'izlikning yuz yili»ga mahkum etilgan odamlar avlodi endi nega qayta paydo bo'lmaydi? Ancha vaqt shu savollarning javobini topolmay, yana romanni qaytadan qo'lga olasiz.

«Yolg'izlikning yuz yili» asarida insonning yolg'izligi, jamiyatning yolg'izligi, qishloq ahlining yolg'izligi haqida gap ketadi. «Oshkora qotillik qissasi» asarida esa har bir insonning taqdiri uchun mas'ullik haqida mulohaza yuritiladi, loqaydlik qoralanadi.

Bir odam huda-behuda o'lib ketayapti. Uning qotilini ko'rganlar hech narsani ko'rmagandek beparvo yuribdi. Ko'rsa ham ko'rmaslikka oladi. Bilsa ham bilmaslikka oladi. Insonning fojiaiy o'limiga beparvo qarashadi. Qo'shnim bilan nima ishim bor, menga desa o'lib ketmaydimi qabilida ish tutadi. Axir, bunday beparvolikka qachongacha chidash mumkin?

Gabriel Garsia Marques qotillikni ko'rganlar, unga guvoh bo'lganlar ham aslida qotil kabi jinoyat ishtirokchilaridir, degan fikrni ilgari suradi. Jinoyatni ko'rib, ko'rmaslikka olish bu eng yomon jinoyat.

O'LJAS SULAYMON

(1936)



Qozoq xalqining donishmand shoiri deb shuhrat qozongan. Sobiq sho'ro hukumatining istilochilik siyosatini qattiq tanqid qiladi. Xalq diliga yaqin she'rilar yozib, ta'qib va tazyiqqa olinadi.

Shunda ham shoir hech qachon ortga chekinmaydi. «Az i Ya» deb nomlanuvchi shoh asari 1976-yilda chop etilgandan so'ng, dunyo matbuoti tinimsiz O'ljas Sulaymon nomini tilga olgan edi. Bu kitob shoir nomini jahonga tanitdi. Shoir haqiqatning yuziga oyoq bosmadi. Haq so'z uchun tinimsiz ku-

rashdi. O'z xalqining cheksiz hurmat-e'tiborini qozondi. Kitobda berilgan falsafiy mushohadalarning, qochiriq, kinoya so'zlarning mag'zini chaqolmay, noto'g'ri tahlil qiluvchilar topildi. «Az i Ya»ni shoir 1989- yilda qayta ishladi va qaytadan nashr etdi.

O'ljas Sulaymon ikki tilda – rus va qozoq tilida birdek ijod qiladi. Shoirga Yevropa bilan Osiyoni bog'lovchi ko'priklar deb ta'rif berishadi. Aynan «Az i Ya» asarida G'arb bilan Sharq, slavyanlar bilan turklar bir-biriga muqoyasa qilinadi. «Non oqshomi» (1954), «Cho'l farzandi» (1961), «Mehmonxona derazasidan» (1962), «Cho'l oqshomi» (1963), «Qaytish» (1963), «Ko'priklar» (1963), «Pushkin maydonida» (1964), «Kutmagil» (1967), «Har kun ertalab» (1972), «Shimol» (1976), «Kashmir qishlog'idagi shoir» (1980), «Uyg'onish» (1979), «To'qqiz hukm» asarlari tanlangan asarlaridandir.

Shoirning yigirmadan ortiq kitobi nashr qilingan. Ularning aksariyati boshqa tillarga tarjima qilingan.

1936-yil 18-mayda Olmaota shahrida tavallud topgan shoir rus maktabida o'qiydi. Bu unga rus tilini o'rganish va rus adabiyotini bilish imkoniyatini tug'diradi. Qozog'iston Davlat universitetida geologiya fakultetida o'qishiga qaramasdan she'rlar ijod qila boshlaydi.

O'ljas Sulaymon Moskvada Jahon adabiyoti institutida o'qiydi. Bu davrda rus va jahon adabiyoti namunalari bilan yaqindan tanishgan shoirning mahorati oshib boradi.

Shoirning «Arg'umoqlar» (1962) she'rlar to'plami ilk ijod namunasini bo'lib, millionlab o'quvchilar qalbiga yetib boradi va tezda taniladi. Shundan so'ng «Qozog'iston» studiyasida o'n yildan ziyodroq faoliyat ko'rsatadi. Bu yillar shoir uchun haqiqiy ijod davri bo'ladi. «Quyoshli tun», «Maymun yili», «Loy kitob», «Olovning ko'chishi» kabi she'rlar majmuasi birin-ketin nashr qilinadi. Bu ijod durdonalari shoir nomini tezda tanitadi.

Qozog'iston Yozuvchilar uyushmasi kotibi bo'lib ishlab yurgan (1972) kezlari shoir uchun qaynoq ijod pallasi sanaladi. «Yumaloq yulduz», «Ajoyib tun», «Sharofatli vaqtlar» kitoblari nashr qilinadi. Bu davrda shoir o'zining otashin nutqi, ilmiy-falsafiy ruhdagi ma'ruzalari bilan uchrashuvlarda, konfrensiyalarda, anjumanlarda tez-tez chiqishlar qilib turar, tinglovchilarning e'tiborini o'ziga jalb etardi. Ulkan iste'dod va katta talant egasi bo'lgan shoir soatlab yoddan she'r aytib berish iqtidoriga ega. Unda she'rni ham ruscha, ham qozoqcha ifodali o'qish mahorati mavjud.

Shoirning «Qoyilmisan insonga, zamon» asari «Az i Ya» asarining mantiqiy davomidek tuyuladi.

O'ljās Sulaymon rus chorizmining Markaziy Osiyoga qilgan bosqinchilik urushini ochiqdan-ochiq qoralab chiqdi. Markaziy Osiyodagi davlatlarning Rossiyaga «ixtiyoriy qo'shilishi» degan soxta da'voni qattiq tanqid ostiga oldi. Bunday urushlar tufayli minglab begunoh kishilarning behuda o'lib ketganligini jasurlik bilan ayta oldi.

O'ljās Sulaymon tilshunos olim sifatida ham o'zini namoyon etdi. U «Igor jangnomasi» dostonida berilgan ko'plab turkiy so'zlarni sharhlab beradi.

O'ljās Sulaymon adabiyotshunos olimdir. U qadimiy adabiy, badiiy, poetik asarlarni tahlil qildi. Mahmud Koshg'ariy (XI asr)dan tortib Isxoq al-O'troriy, Ismoil al-Jahariy, Jamol Turkistoniy, Al-Qipchoqiy kabi o'nlab shoirlar ijodini o'rganib chiqqan.

Tarixchi olim sifatida turkiy xalqlar tarixi, qipchoqlarning kelib chiqish tarixi haqida ilmiy xulosalar chiqardi.

O'lmas Forobiy yashab o'tgan X asrda Yevropada bironta ham ijodkor bo'lmaganligini, faqat xalq ijodiga asoslangan asarlar mavjud bo'lganligini qayd qilib o'tadi. Juda ko'plab atoqli adabiyotshunoslar, tilshunoslar va tarixchi olimlarning asarlaridan manbalar olib o'z fikrini isbotlaydi.

Dashti Qipchoqda Dnepr, Ob-Irtish, Enasoy daryolari bo'ylaridan topilgan arxeologik yodgorliklar misolida turkiy qabilalarning qadimiyligini isbotlab berdi. Turkiylarning qadimgi yozuvlari haqida ham qiziqarli manbalarni keltirib o'tadi. Uning asosli dalillari va xulosalari turkiy xalqlar ilm-fani taraqqiyotida muhim ahamiyatga egadir. Shoirning Sharq va G'arb adabiyotining umumiy jihatlari, o'ziga xosligi haqida bildirgan fikrlari ham e'tiborga loyiqdir.

ERKIN VOHIDOV

(1936)



Toshkent Davlat universiteti filologiya fakultetida (1955–1960) o'qib yurgan kezlari shoir sifatida tanila boshlaydi. G'ayratiy, Mirtemir bosh bo'lgan she'riyat muhiti qalamining charxlanib borishida muhim ahamiyat kasb etadi. «Yoshlik devoni» she'riyat muxlislarining sevimli asariga aylangan. «Tirik sayyoralar», «Sharqiy qirg'oq», «Yaxshidir achchiq haqiqat» to'plamlari nashr

qilingan. «Nido», «Ruhlar isyoni», «Donishqishloq latifalari» gʻoyaviy-falsafiy jihatdan yuksak asarlardir. «Oltin devor» komediyasi sahnadan tushmasdan kelmoqda. Hyote, S. Yesenin, A. Blok, M. Svetlov, A. Tvardovskiy, R. Hamzatov asarlari uning tarjimasida oʻzbek kitobxonlarining sevimli asarlariga aylandi. Ayniqsa, «Faust» (Hyote) asari salmoqli oʻrin tutadi. E. Vohidovning «Iltirob» asarida boy adabiy va hayotiy tajribalarning yorqin aksini koʻramiz. Asarlari koʻpgina tillarga tarjima qilingan.

Shoir xizmatlari munosib taqdirlanib, «Oʻzbekiston Qahramoni» degan yuksak unvonga sazovor boʻldi.

Sheʼrlari ifodali, mayin. Shuning uchun ham ularni yod olish oson. «Tong nafasi» (1961), «Yurak va aql» (1963), «Mening yulduzim» (1964), «Yoshlik devoni» (1969), «Hozirgi yillar» (1975), «Muhabbat» (1976), «Tirik sayyoralar» (1980), «Bedorlik» (1985) kabi toʻplamlaridan yoniq dard bilan sugʻorilgan yetuk sherlar oʻrin olgan.

«Nido», «Palatkada yozilgan doston», «Quyosh maskani», «Buyuk hayot tongi» dostonlari, «Sharqiy qirgʻoq» asari shoirning koʻp yillik samarali ijod mahsulidir.

Shoirning keyingi yillarda yorugʻ olam yuzini koʻrgan toʻrtta majmuasi: «Ishq savdosi» (oʻsmirlik va yoshlik asarlari) «Sheʼr dunyosi» (oʻrta yoshda bitilgan asarlar), «Umr daryosi» (ellik yoshdan keyingi bitiklar), «Koʻngil nidosi» (turli yillarda yozilgan risola, badiiy lavha va bitiklar) xalqimizga qilingan eng noyob tufha boʻldi.

Shoirning «Tirik sayyoralar», «Sharqiy qirgʻoq», «Ruhlar isyoni» asarlari oʻzbek adabiyotining shoh asarlaridandir.

Erkin Vohidov nomi Oʻzbekistonga, Markaziy Osiyoga emas, yer kurrasining uzoq oʻlkalariga ham mashhur.

ABDULLA ORIPOV

(1941)

1941-yil 21-martda Qashqadaryo viloyati Koson tumanining Ne-koʻz qishlogʻida dunyoga keladi. Otasi serfarzand oilani – toʻrt qiz, toʻrt oʻgʻilni tarbiyalab voyaga yetkazdi. Onasi Turdi Karvon qizi mehribon, mehnatdan qoʻli boʻshamaydigan jafokash ayol edi.

Abdulla Oripov oʻrta maktabni tugatib, Toshkent Davlat universitetiga (1958) oʻqishga kiradi. Ilk ijod durdonalari boʻlmish «Umr duch qilarkan», «Hali oldindadir goʻzal kunlarim», «Sendan yiroqda»,



«Shovulladi tun bo'yi shamol» she'rlari tezda yoshlar tiliga tushdi. Dastlabki she'rlar to'plami «Mitti yulduz» nashr qilingandan so'ng shoir nomi ko'pchilikka tanish bo'lib qoldi. Shundan so'ng «Onajon», «Ruhim», «O'zbekiston», «Hayrat», «Yuzma-yuz» she'rlar to'plamlari birin-ketin chiqdi.

«Jannatga yo'l» (1978), «Hakim va ajal» (1980), «Yillar armoni» (1984), «Ranjkom» (1988) kabi asarlarida Abdulla Oripov talanti yorqin namoyon bo'lgan. Shoirning to'rt jildlik she'rlar to'plami nashr qilindi. Ko'plab she'rlari boshqa tillarga tarjima qilingan. Dantening «Ilohiy komediya»sini o'zbek tiliga tarjima qildi. Shu asardan ilhomlanib, «Jannatga yo'l» dramatik dostonini yaratdi.

Jahon adabiyotida Abdulla Oripov kabi iste'dod egalari sanoqli ekanligiga guvoh bo'lamiz. Har bir millat adabiyotida bunday iste'dodli shoirlar barmoq bilan sanarli.

Dunyoda shoirlar ko'p. Shoirlar qancha ko'p bo'lsa, adabiyot gulshani turfa gullar bilan shunchalik go'zal bo'ladi. Biroq bu gullar ichida ko'zga yarq etib tashlanadigan, hammasidan go'zali va tarovati bilan o'ziga maftun etuvchi, sehraib oluvchi gullar bo'ladi. Abdulla Oripov ijodini eng sara, eng go'zal gulga qiyos qilish mumkin.

Alisher Navoiydan so'ng necha asrlar o'tdi. Bu asrlar silsilasida minglab shoirlar ijod qildi. Lekin ularning hech biri she'riyat maydonida Alisher Navoiydek yuksak cho'qqisiga ko'tarila olmadi. Abdulla Oripov, Erkin Vohidov kabi yangi talantlarning yuzaga kelishi uchun yana yuz yil kerak bo'ladi.

Dunyodagi ayrim shoirlarning yuzlab she'rlari ichidan bitta-ikkitasini saralab olish mumkin. Abdulla Oripovning deyarli barcha she'rlari sara asarlar qatoriga kiradi.

*Yurtim, senga she'r bitdim bu kun,
Qiyosingni topmadim aslo
Shoirlar bor, o'z yurtim butun –
Olam aro atagan tanho.
Ular she'ri uchdi ko'p yiroq,
Qanotida kumush diyori.
Bir o'lka bor dunyoda biroq,
Bitilmagan dostondir bori:
Faqat ojiz qalamim manim
O'zbekiston Vatanim manim.*

Ushbu she'r yangicha bir ohang, yangicha bir yorug' nur taratib turibdi. Go'yo shoir shu bugunoq subhidamda turib, Vatanni yoniq dard bilan madh etgandek tuyuladi.

Shoir o'zi tug'ilib-o'sgan, ulg'aygan ona yurtidan go'zallik va yaxshilik qidiradi. So'zining qudratini, obrazli tafakkurini ona yurtiga bag'ishlaydi. O'zbekiston-vatan shoir uchun boqiy hayotning eng nurli makoni, ranggo-rang gullarga boy o'lka.

Vatanni ta'riflash uchun eng go'zal tashbehlar ham kamlik qiladi.

Shoirning «Onajon» she'rida ham shunday muqaddas tuyg'u yuksak ohanglar bilan, turfa ranglar bilan ifodalangan. Shoir uchun eng ulug' narsa Vatan va Ona. Hamma shoirlar uchun ham vatan buyuk, ona mo'tabar. Biroq vatanni, onani hech kim Abdulla Oripovchalik qiyomiga yetkazib ta'riflab bera olmagan.

*Balki sarson-arosatda
Qolib ketmas bu tanim.
Kamolimni ko'rar bir kun
Yurtim, ona-Vatanim.*

Abdulla Oripovning xizmatlari e'tiborga olinib, unga O'zbekiston Qahramoni unvoni berildi. U bir necha yillardan beri ijodiy ishini davlat ishlari bilan qo'shib olib bormoqda. A. Oripov O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi raisi, senator.

O'ROZBOY ABDURAHMONOV

(1949)



O'rozboy Abdurahmonov 1949-yil 27-avgustda Qoraqalpog'istonning Kegeyli tumanida xizmatchi oilasida dunyoga keladi. Xo'jayli shahridagi maktabda ta'lim olib, Toshkent Davlat universitetining jurnalistika fakultetini (1973) bitiradi.

Maktabda o'qib yurgan kezlari dayoq shingil hikoyalar yozib yurgan O'rozboy uchun Universitet chinakam ijod maydoniga aylandi.

«Jetkinshek» gazetasi, «Amudaryo» jurnalida adabiy xodim, bo'lim mudiri, mas'ul kotib bo'lib ishlab yurgan kezlari adib qalami yanada charxlanadi.

U Qoraqalpog'iston Yozuvchilar uyushmasida adabiy maslahatchi, «Qoraqalpog'film» kinostudiyasida direktor, Qoraqalpog'iston Ma'na-

viyat va ma'rifat markazi rahbari muovini kabi mas'ul vazifalarda ishlagan. Hozirgi kunda «Amudaryo» jurnali bosh muharriri.

1977-yili «Bir muhabbat tarixi» hikoyalar to'plami chop etiladi. Bu to'plam ko'pchilikka manzur bo'ldi. Bundan ruhlangan ijodkor qator hikoyalar yozadi va ularni matbuotda e'lon qiladi.

«Qo'ni-qo'shnilar» (1981) nomli hajviy hikoyalar to'plami uning ijodida navbatdagi bosqich bo'ldi. Adib ijodi satira va yumorga boy. Bu xususiyat uning dramatik asarlariga ham xosdir. Qoraqalpoq Davlat teatrida ko'p marta namoyish etilgan «O'jar» (1981) komediyasi tomoshabinlarga manzur bo'ldi. Adibning asarlari o'zbek tilida ham chop etildi. Rus tilida «Ne podpisivay bratok» (1984) hikoyalar to'plami yozuvchi nomini respublikadan tashqariga ham tanitdi.

O'rozboy Abdurahmonov qoraqalpoq adabiyotiga hajviya rivojiga katta hissa qo'shdi. Shuningdek, u qoraqalpoq adabiyotiga esse janrini olib kirdi. «Orolim – dardim mening» (1985) essesi YUNESKO medali sovriniga sazovor bo'ldi. 1988-yili chop etilgan «Changalzor payg'ambari halokati» essesi esa qator chet tillarida chop etildi.

O'rozboy Abdurahmonov ilk qoraqalpoq badiiy «Gum-gum» (1989), «Tiqlin» (1991) filmlari va har xil Xalqaro kinofestivallar sovrindori bo'lgan hujjatli filmlar muallifidir.

Orol fojiasiga bag'ishlangan hujjatli filmlari va esselari O'rozboy Abdurahmonov nomini jahonga mashhur qildi.

Yozuvchi ijodida «Bo'sag'a» (1985) romani muhim o'rin tutadi.

O'rozboy Abdurahmonov ko'p yillar davomida «Qur'on»ni qoraqalpoq tiliga tarjima qilish ustida ishladi. Uning mehnati besamar ketmadi. Qoraqalpoq xalqi bu muqaddas kitobni o'z ona tilida o'qish baxtiga musharraf bo'ldi.

O'. Abdurahmonovga Qoraqalpog'iston xalq yozuvchisi unvoni berilgan.

ADABIYOT

Адмони В. Г., Сильман Г. И. Томас Манн. Очерк творчества. Л., 1960.

Александр Македонский – знаменитый завоеватель. О великом из древней истории \ сост. По Квинту Курцию и др. М., Тип. И. Д. Сытина, 1880.

Александрия. Роман об Александре. М.- Л., Изд-во АН., 1965.

Александрия. Роман об Александре Македонском по русской рукописи XV в. \ Пер. и подгот. Текст М. Г. Ботвинник, Я. С. Лукириев и О. В. Творогов М.- Л., Наука, 1965.

Александрийская поэзия \ Пер. с древнегреч. М., Худож. Лит., 1972.

Алиев Г. Ю. Темы и сюжеты Низами в литературах народов Востока. М., Наука, 1985.

Амир Хисрав Дехлави. Избр. Соч. – Под рек. И. Муминова и др. Ташкент, 1985.

Аристотель об искусстве поэзии. М., Гослитиздат, 1957.

Арагон Л. Актуальность Эмиля Золя. – В кн: Л. Арагон. Литература и искусство. М., 1957.

Арагон Л. Ромен Роллан и современность. – Собр. Соч. в 11-ти т, т. 10. М., 1961.

Арриан Флавий. Поход Александра \ Пер. с древнегреч. М. Е. Сергеевко. Вступ. Ст. О. О. Крюгера. М.- Л., Изд-во АН., 1962.

Арсений Ф. Н. Страбон. М., Мысль, 1978.

Бабур. Бабур-нама. Ташкент, 1960.

Барская Т. Дени Дидро. М., – Л., 1962.

Баштина А. А. Отражение в «Катадгу-билиг» легенды об Александре Македонском и нищем Шахзаде \ Кратк. Сообщ. Ин-та народов Азии. 1964. Вып. 5.

Беркова Е. А. Стрельникова И. П. Введение. Краткий очерк изуче

ния античного романа в зарубежном, русском и советском литературоведении \ Античный роман. М., Наука, 1969.

Бертельс Е. Э. Абул-Касым Фирдоуси и его творчество. М. - Л., Изд-во АН., 1935.

Бертельс Е. Э. Алишер Навои и его «Пятирица» \ Навои Алишер. Пять поэм. М., 1948.

Бертельс Е. Э. Великий азербайджанский поэт Низами. Эпоха, жизнь и творчество. Баку, 1940.

Бертельс Е. С. История персидско-таджикской литературы \ Избр. труды. М., 1960.

Бертельс Е. С. Навои и Джами \ Избр. труды. М., Наука, 1965.

Бертельс Е. С. Низами и Фузули \ Избр. труды. М., 1962.

Бойназаров Ф. Античный мир. Ташкент, «Меънат», 1989.

Бойназаров Ф. Искандар Зуліарнай. Ташкент, Изд-во им. Г. Гуляма, 1989.

Бойназаров Ф. Литература – символ красоты. Ташкент: «Знание», 1989.

Бойназаров Ф. Художественная концепция и историческая личность. Ташкент, «Фан», 1989.

Брагинский И. С. Из истории персидской и таджикской литературы \ Избр. работы. М., Наука, 1972.

Брагинский И. С. Иранское литературное наследие. М., Наука, 1984.

Брагинский И. С. Проблемы востоковедения \ Актуальные вопросы восточного литературоведения. М., Наука, 1974.

Бредсдорер Э. Л. Литература и искусство Скандинавии. М., 1971.

Верцман И. Жан Жак Руссо. М., 1958.

Веселовский А.Н. Греческий роман \ Избр. статьи. Л., 1936. Ташкент, «Ёш гвардия», 1976.

Волков И. Ф. Творческие методы и художественные системы. М., Искусство, 1978.

Вопросы восточного литературоведения. Традиция и современность, М., Наука, 1982.

Вопросы истории литератур Востока. (Фольклор, классика, современность), М., Наука, 1979.

Габбасов Э. Г. Художественная концепция личности в современном историко-революционном романе. (На материале литературных периодов Средней Азии и Казахстана). М., 1976.

Ганович А. Б. Александр Македонский и греческие города Малой Азии // ВДИ. 1947, № 4.

Гаркави А. Я. Неизданная версия романа об Александре. СПб.; Тип. Имп. Акад. наук, 1892.

Глушкина Л. М. Исследования по социально-экономическим отношениям в аттике IV в. до. э Автореф. Л., 1968.

Гозгасов Д. Александр Великий, царь Македонский (336-323). Краткий обзор его военных действий. СПб.: коммерч. Скоро-печат. Изд-во Я. Пинье, 1891.

Гордлевский В. А. Османские сказания и легенды // Этнографич. Образов. 1916. № 3-4.

Горн В. Ф. Концепция личности в прозе В. М. Шукшина. М., 1977.

Горский И. К. Польский исторический роман и проблема историзма. М., 1963.

Гоштейн Ф. А. Александр Македонский и Юлий Цезарь, их жизнь и военная деятельность. СПб., 1898.

Григорьев В. В. О древних походах на Восток // ЖМНП. СПб., 1835. февр.

Григорьев В. В. Поход Александра Великого в Западный Туркестан // ЖМНП. СПб., 1881. сент. -окт. Ч. 217.

Гуральник У. Историзм как критерий художественности // Вопр. Лит. 1979. № 5.

Гусева М. И. Борьба фракийских племен против македонского владычества в конце IV – начале III в. до. н. э // Учен. Зап. Иванов. Гос. Пед. Ин. та. Кафедра всеобщей истории. 1957.

Данилин Ю. Жизнь и творчество Мопассана. М., 1968.

Джами А. Избранное. Мудрости Искандара. Мудрости Аристотеля. Ташкент: Изд-во им. Г. Гуляма, 1971.

Дитмар Л. От Скифии до Элефантины М., 1961.

Дройзен И. Г. История эллинизма. М., Типолитография В. Ф. Рихтера, 1890. Т. 1. История Александра Великого.

- Дюжнев Ю. И. Новизна традиции. М., Современник. 1985.
- Жирмунский В. М. Алишер Навои и проблема Ренессанса в литературах Востока \ Литература эпохи Возрождения и проблемы всемирной литературы. М., 1967.
- Жирмунский В. М. Сравнительное литературоведение. Восток и Запад \ Изб. Труды. Л., Наука, 1979.
- Зельин. К. К. Помпей Трог и его произведение \ ВДИ. 1954. №2.
- Ильясов Я. СуҶидиёна. Ташкентб «Меҳнат», 1985.
- Истрин В. М. Александрия русских хронологов \ Исслед и текст. М., 1893.
- Кариев М. Спитамен. Ташкент, 1985.
- Кессель Л. М. Гете и «Западно-восточный диван». М., 1974.
- Ковалева И. С. Творчество Анатоля Франса в годы перелома (1889-1895). Л., 1957.
- Ковалев С. И. Александр Македонский. Л., ОГИЗ, 1937.
- Ковалев С. И. Александр, Филота и Парменнон. (Из истории македонской оппозиции в Азии Александру) \ Учен. Зап. ЛГУ. Сер. ист. наук. 1949. Вып. 14.
- Косько Ф. Я. Племена Северной Парфии в борьбе с македонским завоеванием \ ВДИ. 1962. №1.
- Костюхин Е. А. Александр Македонский в литературной и фольклорной традиции. М. : Наука. 1972.
- Кошеленко Г. А. Восстание греков в Бактрии и Согдиане в 323г. до. н. э. и некоторые аспекты греческой политической мысли IV в. до. н. э. \ ВДИ. 1972 №1.
- Крюгер О. О. Арриан и его труд «Поход Александра» . М., Л., Изд-во АН., 1962.
- Ксенофонт. Киропедия. М., Наука. 1976.
- Кузнецова Г. И. Историческая тема в греческом «Романе об Александре» \ Античный роман. М., Наука, 1969.
- Кун Н. А. Легенды и мифы Древней Греции, 5-е изд. М., Просвещение, 1975.
- Курций Руф. История Александра Македонского \ Под ред. Соколова. М., Изд-во МГУ. 1963.

- Кучборская Е. П.* Реализм Эмиля Золя. М., 1973.
- Левидова И. М.* Твен. Биобиблиографический указатель. М., 1974.
- Лещинская Г. И.* Эмиль Золя. Библиографический указатель. М., 1975.
- Лиходзиевский С. И.* Анатолий Франс. Очерк творчества. Ташкент, 1962.
- Лосев А. Ф.* Античная мифология в ее историческом развитии. М., 1957.
- Люттов М. М.* Александр Великий в Туркестане. Речь, читанная на годовичном акте ташкентской мужской гимназии 3 июля 1890 г. Ташкент: Типо-литография С. И. Лахтина, 1890.
- Мандель Е. М.* Гауптман (Драматургическое творчество конца XIX – начала XX в.) Саратов, 1972.
- Мандес М.* Опыт историко-критического комментария греческой истории Диодора. №43. Одесса: Экон. Тип. Почтовая, 1901.
- Матинский Е. М.* Герой волшебной сказки. Происхождение образа. М., 1958.
- Мелик-Саркисова Н.* Концепция человека и творческий метод Э. Золя. Махачкала, 1975.
- Мирицкий И.* Генрих Манн. – В кн: Очерки о классиках. М., 1966.
- Мичунов А. А.* Традиции и новаторство в русской советской литературе. М., Просвещение, 1982.
- Мокульский С. С.* Итальянская литература. М., 1966.
- Муравьев В.* Джонатан Свифт. М., 1968.
- Мусненко К. С.* Оппозиции в армии Александра Македонского. Л., 1966.
- Образцова А. Г.* Бернард Шоу и европейская театральная культура на рубеже XIX–XX веков М., 1974.
- Остроумов Н. П.* Искандар Зулкарнайн (Александр Македонский) Ташкент: Типолитография торг. Дома «Братья Каменские», 1896.
- Патанин Г. Н.* Очерки северо-западной Монголии. Вып. 4. СПб.: Тип. Киришбойма, 1883.
- Пигулевская Н. В.* Сирийская легенда об Александре Македонском // Палест, сб. М., Л., 1958. Вып. 3 (66).
- Плавский З.* Лопе де Вега. М. – Л., 1960.
- Плутарх.* Александр Великий. М. , Народная библиотека В. Н. Макуе-

ва, 1893.

Плутарх. Сравнительные жизнеописание: В 3 т. Т. 2. М., Изд-во АН., 1963.

Положий В. И. Концепция героической личности в творчестве Юрия Бондарева. Автореф. кан. дис. Киев, 1980.

Раджабов М. Р. Фирдоуси и современность. Мировоззрение. Фирдоуси. Душанбе, «Ирфан». 1976.

Реизов Б. Г. Французский роман XIX века. М., 1977.

Романова Р. М. Средняя Азия в IV в до. н. э. и поход Александра Македонского. Л., 1964.

Сепсякова И. П. Проблема историзма в современном поэтическом эпосе (Б. Ручьев, В. Федоров). Л., 1977.

Сильченко М. С. Творческая биография Абая. Алма-Ата, 1956.

Соболевский С. И. Арриан – историк греческой литературы \ Избр. труды. Т. 3. М., 1960.

Соркин Н. Примечание к некоторым местам \ Изв. Общ-ва археол., ист и этнограф. При Казан. Ун-те. 1905. Т. 21, вып. 4. С. 378-379.

Соркин Н. Я. Киргизские стихотворение об Александре Македонском \ Изв. Общ-ва археол., ист. И этнограф. При Казан. Ун-те. 1905. Т. 21. Вып. 4.

Тагор Рабиндранат. К столетию со дня рождения. М., 1961.

Толмачев Б. Я. Человек и история в киргизской историко-художественной прозе. Автореф. Канд. Дис. Фрунзе, 1980.

Толстой Л. Н. Предисловие к сочинениям Ги де Мопассана. – В сб: Русские писатели о литературном труде, т. 3. Л. 1955.

Тревер К. В. Александр Македонский в Согде \ Вопр. Ист. 1917. №5.

Тураев Б. А. История Древнего Востока. Т. 2. Л., 1935.

Ушлер Б. А. Александр Великий. СПб. : ред. Нового журнала иностр. Лит., 1899.

Урнов М. Томас Гарди. Очерк творчества. М., 1969.

Урнов М. В. На рубеже веков (очерка английской литературы. Конец XIX – начало XX в.) М., 1970.

Фольклор и историческая этнография. М., Наука, 1983.

Фольклор и литература. Проблема их творческого взаимоотношения. М., 1982.

Фонер Ф. Джек Лондон – американский бунтарь. М., 1966.

Фрид Я. Анатолий Франс и его время. М., 1975.

Художественные традиции литератур Востока и современность. Ранние формы традиционализма. М., Наука, 1985.

Чаухан Ш. Очерк истории литературы хинди. М., 1960.

Шахермайр Ф. Александр Македонский. 2-е изд. М., 1986.

Шкунаева И. Бельгийская драма от Метерлинка до наших дней. М., 1973.

Шофман А. С. Антимакедонское движение 333-330 гг. до н. э. // Учен. Зап. Казан. Ун-та. 1957. Т. 117. Кн. 2.

Шофман А. С. Восстание Спитамена // Учен. Зап. Казан. Ун-та. 1956. Т., 115. Кн. 10.

Шофман А. С. Восточная политика Александра Македонского: КазГУ, 1976.

Ян В. Огни на курганах. Историческая повесть об Александре Македонском // Послест. М. Н. Бороздина. М., Детгиз, 1959.

MUNDARIJA

Muqaddima.....	3
Homer (mill. avv. IX asr).....	5
Hesiod (mill. avv. VIII asr).....	7
Esxil (mill. avv. 524–456).....	9
Sofokl (mill. avv. 546–406).....	12
Evripid (mill. avv. 480–406).....	14
Aristofan (mill. avv. 445–385).....	16
Vergiliy (mill. avv. 70–20).....	18
Ovidiy (mill. avv. 43–18).....	20
Herodot (mill. avv. 484–430).....	21
Plutarx (46–127).....	23
Rudakiy (860–941).....	24
Abu Ali ibn Sino (980–1037).....	25
Abulqosim Firdavsiy (941–1025).....	26
Umar Xayyom (1040–1123).....	26
Nizomiy Ganjaviy (1141–1209).....	28
Shota Rustaveli (1146–1196).....	29
Sa'diy Sheroziy (1204–1294).....	30
Xusrav Dehlaviy (1253–1325).....	31
Dante Aligeri (1265–1321).....	32
Jovanni Bokkachcho (1313–1375).....	35
Hofiz Sheroziy (1320–1389).....	36
Jomiy (1414–1492).....	37
Alisher Navoiy (1441–1501).....	38
Zahiriddin Muhammad Bobur (1483–1530).....	40
Fuzuliy (1498–1556).....	41
Fransua Rable (1494–1553).....	42
Servantes (1547–1616).....	43

Lope de Vega (1562–1635)	44
Vilyam Shekspir (1564–1616)	45
Jon Milton (1608–1674)	47
Pyer Kornel (1606–1684)	48
Jan Batist Molyer (1622–1673)	49
Daniel Defo (1660–1731)	50
Jonatan Svift (1667–1745)	51
Rasin (1639–1699)	52
Fransua Mari Volter (1694–1778)	53
Jan Jak Russo (1712–1778)	54
Deni Didro (1713–1784)	56
Gotxold Efraim Lessing (1729–1781)	57
Maxtumquli (1733–1791)	59
Hyote (1749–1832)	60
Fridrix Shiller (1759–1805)	61
Valter Skott (1771–1832)	62
Vashington Irving (1782–1859)	63
Frederik Stendal (1783–1842)	65
Jorj Gordon Bayron (1788–1824)	66
Aleksandr Sergeyevich Pushkin (1799–1837)	68
Haynrix Heyne (1797–1856)	69
Onore de Balzak (1799–1850)	70
Viktor Hyugo (1802–1885)	71
Aleksandr Dyuma (1802–1870)	73
Prosper Merime (1803–1870)	74
Charlz Dikkens (1812–1870)	75
Taras Shevchenko (1814–1861)	77
Gyustav Flober (1821–1880)	78
Berdaq (1827–1900)	79
Lev Tolstoy (1828–1910)	80
Jyul Vern (1828–1905)	81
Henrix Ibsen (1828–1906)	82
Mark Tven (1835–1910)	83

Emil Zolya (1840–1902)	85
Tomas Gardi (1840–1928)	86
Abay (1841–1904)	88
Eliza Ojeshko (1842–1910)	89
Anatol Frans (1844–1924)	90
Gi de Mopassan (1850–1893)	92
Jozef Kipling (1856–1936)	94
Bernard Shou (1856–1950)	96
Oskar Uayld (1854–1900)	98
Artur Konan Doyl (1859–1930)	98
Ernest Seton-Tompson (1860–1946)	100
Rabindranat Tagor (1861–1941)	101
Romen Rollan (1866–1944)	102
Ovanes Tumanyan (1869–1923)	104
Teodor Drayzer (1871–1945)	106
Anri Barbyus (1873–1936)	107
Haynrix Mann (1871–1950)	109
Tomas Mann (1875–1955)	110
Jek London (1876–1916)	112
Epton Sinkler (1878–1969)	114
Sergey Yesenin (1883–1929)	115
Abdulla To'qay (1886–1913)	118
Abdulla Qodiriy (1894–1938)	118
Ernest Xeminguey (1899–1951)	120
Jon Steynbek (1902–1968)	122
Sohib Jamol (1904–1983)	124
Alber Kamyu (1913–1960)	126
Aziz Nesin (1915–1995)	127
Qaysin Quliyev (1917–1982)	129
Jeyms Oldrij (1918–1976)	131
Mustay Karim (1919)	133
Janni Rodari (1920–1980)	134
Rasul Hamzatov (1923–2003)	135
Chingiz Aytnmatov (1928)	137

Gabriel Garsia Markes (1928–2005)	139
O'ljās Sulaymon (1936)	141
Erkin Vohidov (1936)	143
Abdulla Oripov (1941)	144
O'rozboy Abdurahmonov (1949).....	146
Adabiyot	148

Fayzulla Boynazarov

JAHON ADABIYOTI

O'quv qo'llanma

Oliy o'quv yurtlari uchun o'quv qo'llanma

Иккинчи нaшp

Nashr uchun mas'ul *Z. Jo'rayev*

Muharrir *Sh. Mansurov*

Dizayner *H. Safaraliyev*

Texnik muharrir *V. Barsukova*

Badiiy muharrir *B. Ashurov*

Musahhih *M. Zakirova*

AB № 45

Bosishga ruxsat etildi 23.11.2006-y. Bichimi 60x90 $\frac{1}{16}$.
Shartli bosma tobog'i 10,0. Nashr tobog'i 10,0. Tayms garnitura.
Ofset bosma. Ofset qog'ozi.
Adadi 1300 nusxa. Bahosi shartnoma asosida.

«Musiq» nashriyoti, Toshkent, B.Zokirov, 1.

«REN POLIGRAF» bosmaxonasida bosildi. Buyurtma №1625.
Toshkent, Muqimiy, 178.



Fayzulla Boynazarov 1952-yilda G'allaorol tumanida, ziyoli oilasida tug'ilgan. Samarqandda oliy ta'lim olgandan so'ng O'zbekiston Fanlar akademiyasi Til va adabiyot institutida nomzodlik (1979), M.V.Lomonosov nomidagi Moskva Davlat universiteti doktoranturasini o'tab, 1991-yilda doktorlik dissertatsiyasini himoya qildi. Filologiya fanlari doktori. 1992-yildan Jizzax Davlat pedagogika instituti professori, kafedra mudiri. Xalqaro Antique world ilmiy akademiya-sining akademigi, vitse-prezidenti. «Antik Dunyo», «O'rta Osiyoning antik davri», «Qadimgi dunyo tarixi», «Qadimgi davr tarixi» darsliklari, ko'pgina ilmiy maqolalar muallifi. Xorijda uchta monografiyasi chop qilingan.